RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

Namangan davlat pedagogika instituti, Axsikent xalqaro ilmiy tadqiqot jamoat birlashmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining Namangan viloyati bo'limi hamkorligida o'tkazilgan

# "AXSIKENT TARIXI: MUAMMOLAR, TADQIQOTLAR VA TAHLILAR"

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari




www.namspi.uz

NAMANGAN - 2025

www.namspi.uz

***Bosh muharrir:*** **B.E. Xusanov**
*Namangan davlat pedagogika instituti rektori*

***Mas’ul muharrir:*** **M. Mirsaydullayev**
*Axsikent xalqaro ilmiy tadqiqot jamoat birlashmasi raisi*

***Mas’ul muharrir o‘rinbosari:*** **S.M. Botirova**
*Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi mudiri*

**T A H R I R  H A Y ’A T I**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent T.Q. Qozoqov

Tarix fanlari nomzodi, dotsent Z.U. Xaydarov

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. B.Ataxanov

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) R.M. Akbarov

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) G‘.M. Xolmatov

***Texnik muharrir:*** *R.M.Akbarov*

Mazkur “Axsikent tarixi: muammolar, tadqiqotlar va tahlillar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani Namangan davlat pedagogika instituti, Axsikent xalqaro ilmiy tadqiqot jamoat birlashmasi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining Namangan viloyati bo‘limi hamkorligida o‘tkazilgan bo’lib, anjuman materiallari Namangan davlat pedagogika instituti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2025-yil 11-dekabrdagi 12-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

**NAMANGAN – 2025**

# QORAXONIYLAR DAVRI MANBALARIDA AXSIKENT HAQIDA

**Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich**

*Namangan Impuls tibbiyot instituti dotsenti, Tarix fanlari nomzodi*

*Telefon (Telegram): +998933451969*

*E-mail: tqozoqov@mail.ru*

*https://orcid.org/0009-0008-7833-1551*

- Axsikent shahrining oʻzbek davlatchiligi tarixida muhim oʻrin tutganligi.

- Qoraxoniylar davrining muhim manbalari: Istaxriyning “Kitab al-masalik val-mamalik” va Yoqut al Xamaviy “Moʻjam al-buldon” asarlari, shuningdek, Ibn Havqalning “Kitob surat al-ard” (“Yerning surati kitobi”) asari haqida;

- Bu davr manbalarining Sh.Kamoliddin va R. Xudayberganovlar tomonidan tadqiq etilganligi;

- Sayyoh va geograf olim Abu Is’hoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forisiy al-Istaxriyning “Kitab al-masalik val-mamalik” (“Yoʻllar va oʻlkalar kitobi”) asari matnlarida: «Fargʻona iqlim nomi, katta shaharlar va qishloqlar koʻp keng viloyat, qasabasi Axsikat, Shosh daryosi qirgʻogʻida, tekislikdagi shahar. Togʻlar bilan orasi bir farsax, daryoning shimolida, quhandizi va rabadi bor. Boshqaruv saroyi va zindon quhandizda, jome quhandiz tashqarisida, namozgohi Shosh daryosi qirgʻogʻida, bozorlari shahriston va rabadida. Eng katta bozori shahristonda va maydoni bir farsaxning uchdan biricha chiqadi. Binosi paxsadan, rabadida devor bor. Ichki shahristonining Bujayr, Mardaqsha, Koson, Jome va Rahana, deb nomlangan beshta darvozasi bor. Rabadida oqar suv va hovuzlar koʻp, har bir darvozasi qalin boʻstonlar

va ariqlarga olib chiqadi, u ikki farsax uzluksiz davom etadi» kabi ma’lumotlarnig berilganligi;

- Istaxriy asarida Xo‘jandadan Farg‘ona qasabasi Axsikatgacha borishni istagan, Kanddan chiqishi kerakligi, u yerdan Suxgacha 1 marhala, Suxdan Xavakandgacha 1 katta marhala, Xavakanddan Axsikatgacha 1 marhala ekanligi, bu yerda ikki yo‘l bo‘lib: biri cho‘l va qumlik orqali Axsikat Bobigacha 7 farsax, so‘ng Shosh daryosidan o‘tib, Axsikatga borilishi, boshqa yo‘l orqali daryodan Bobga o‘tilgach, 5 farsax, Bobdan Axsikatgacha o‘tilishi qayd etilganligi;

- XI asr boshlariga oid numizmatik ma’lumotlar Axsikentda qoraxoniy hukmdorlar tangalar zarb qilganligidan dalolat beruvchi asoslar borligi. XI asr boshlarida Yusuf Qodirxon Yorkent, Xo‘tan, Qoshg‘arni egallab, u yerdan Nasrxonning to‘ng‘ich akasi bo‘lgan To‘g‘onxonni siqib chiqarishi. To‘g‘onxon Axsikentga kelib, hokimlik qilishi va 1027 yilda bu yerda o‘z nomidan tangalar ham zarb qilganligi;

- Arab geografi Ibn Havqal Farg‘ona o‘lkasi viloyatlarini quyidagicha – Koson, Yuqori Nasyo, Quyi Nasyo, Asbara, Naqod, Miyon Rudon, Jilg‘il, Urast, Basfar va Asht nomlari bilan bayon etganligi;

- Ibn Havqalning “Kitob surat al-ard” (“Yerning surati kitobi”) asarida Farg’ona haqida ma’lumotlarning berilishi. Farg’onani o’lkaning nomi, deb atagani holda, Axsikatni uning bosh shahri – qasabasi sifatida ta’riflagani. Axsikentni ash-Shosh daryosining bo’yida, tekislikda joylashganligi ta’rifini berganligi. Shahar ichida kuhandiz, yonida esa, rabad joylshganligini yozganligi;

- Ibn Havqal asarlari orqali shaharning tarixiy topografiyasiga aniqlik kiritish mumkinligi. Uning asarida hukumat saroyi va qamoqxona kuhandizda, jom’e masjidi esa, kuhandiz tashqarisida joylashganligi yozilganligi;

- Yoqut al Hamaviyning “Mu’jam ul-buldon” (shaharlar lug‘ati) asarida o‘z zamonasining zo‘r iste’dodli shoiri, olim, tarixnavisi bo‘lgan Abu Rashod Axsikatiy haqida ma’lumotlar berilishi. Shoir Axsikentni madh aylab arab tilida nazmda qalam tebratganligi.

## THE HERITAGE OF AXSIKENT: TOURISM, EDUCATION, AND PROMOTION

**Abdumuxtorov Muslimbek Abdullajon o‘g‘li**
*Namangan State Technical University*
*E-mail: muslimbekabdumuxtorov97@gmail.com*

***Abstract*** *This article provides a comprehensive overview of the historical, cultural, and scientific significance of Axsikent, one of the most prominent ancient cities of Uzbekistan. The study analyzes the archaeological findings of Axsikent, their potential for tourism development, and the role of this heritage in the education system and promotional activities aimed at the younger generation. In addition, it presents proposals for introducing Axsikent to the international community through digital technologies.*

***Keywords:*** *Axsikent, cultural heritage, history of Uzbekistan, archaeology, tourism, education, promotion, Silk Road.*

**Introduction** Uzbekistan, as a cradle of ancient civilizations, has left an indelible mark on world history. Alongside cities such as Samarkand, Bukhara, Khiva, and Termez, Axsikent – located in the Fergana Valley – played a crucial role in the cultural development of Central Asia. Historical sources refer to it as *Axsi* or *Ahsikent*, suggesting its foundation dates back to the 3rd century BCE. During the Middle Ages, the city served as the political, economic, and scientific center of the Fergana Valley. It is also the birthplace of the famous statesman and commander

Zahiriddin Muhammad Babur. Axsikent's importance is not limited to its historical value; today it is being revitalized as a significant destination for tourism, education, and cultural promotion.Currently, the Axsikent archaeological site is protected as part of Uzbekistan's national heritage. The city's ruins contain rich scientific data that allow for a deeper understanding not only of the past but also of national identity.

**Research Methodology** This research is based on the following scientific approaches:

**1) Historical-analytical approach** – comparative study of historical sources, written works, and archaeological findings related to Axsikent.

**2) Archaeological analysis** – examination of existing excavations and research results.

**3) Tourism management analysis** – assessment of Axsikent's current condition from the perspective of tourism infrastructure.

**4) Pedagogical and cultural approach** – development of didactic foundations for integrating Axsikent's heritage into the education system.

As a result of this methodology, the role of Axsikent's heritage in tourism, education, and promotion has been systematically examined.

Axsikent was one of the largest cities in the ancient Fergana Valley. Excavations have uncovered pottery, coins, metal objects, stone tools, wall decorations, and brick-built structures. These findings indicate the presence of advanced urban planning, craftsmanship, irrigation systems, and trade networks.Historical records note that Axsikent was surrounded by massive defensive walls, with a royal palace, mosque, caravanserai, and markets at its center. The city was completely destroyed by an earthquake in 1620.According to the Archaeological Institute of the Academy of Sciences of Uzbekistan, the city once covered about 400 hectares. Today, the site is protected as the Axsikent Archaeological Complex.

**Tourism Potential of Axsikent** The Axsikent site holds a special place in Uzbekistan’s “Travel Along the Great Silk Road” route. Thousands of tourists visit this location annually. Establishing an open-air museum and displaying archaeological artifacts as live exhibits could further enhance its tourism potential.

Archaeological tourism – a type of tourism directly linked with science – allows visitors to observe excavation processes firsthand. Organizing archaeological field schools for foreign students and researchers in Axsikent would strengthen international scientific collaboration.The natural environment around Axsikent and the picturesque landscapes of the Fergana Valley also offer favorable conditions for ecotourism, which would create new job opportunities for locals and promote sustainable tourism.

**The Role of Axsikent’s Heritage in the Education System** Incorporating knowledge about Axsikent into school history lessons and subjects such as *Love for the Motherland* and *Cultural Heritage* can foster historical awareness among young people. Organizing field trips, interactive classes, and historical quizzes related to Axsikent would yield effective educational outcomes.At the university level, practical archaeology courses and summer field camps could be conducted using Axsikent as a case study, enhancing both theoretical and practical learning.Establishing a dedicated research center focused on Axsikent and involving local and international scholars could lead to new academic discoveries.

**Promotion and Digital Technologies** To promote Axsikent’s heritage on a wider scale, it is essential to effectively use modern information and communication technologies. One of the most efficient methods is the creation of a virtual museum, where a 3D reconstruction of the ancient city would enable online visitors to explore Axsikent virtually. In addition, the development of mobile applications featuring interactive maps and audio guides would greatly enhance the experience of tourists visiting the site.

Another important direction is the use of social media platforms such as Instagram, YouTube, and TikTok to share short video clips and historical content about Axsikent, which would help attract a broader audience both domestically and internationally. Furthermore, international promotion efforts—such as collaboration with global organizations like UNESCO and TURKSOY – could play a key role in having Axsikent included in the World Heritage List.

Besides these digital strategies, producing documentary films, organizing exhibitions, and hosting international cultural weeks devoted to Axsikent would also significantly contribute to introducing Uzbekistan’s national culture and historical heritage to the world community.

**Results and Discussion** The findings of the study indicate that Axsikent’s heritage holds a significant place in Uzbekistan’s history and should be actively utilized in the fields of tourism, education, and promotion.

– In **tourism**, developing Axsikent as a regional tourist hub would not only generate economic benefits but also enhance national pride.

– In **education**, integrating information about Axsikent into curricula would strengthen students’ patriotism and historical consciousness.

– In **promotion**, expanding outreach activities would reinforce Uzbekistan’s international image.

**Conclusion** The ancient city of Axsikent is an invaluable part of Uzbekistan’s cultural heritage, and its preservation, study, and promotion remain among the most urgent tasks today. Axsikent represents not only the history of the Fergana Valley but also an integral chapter in the history of all Uzbekistan. The site embodies millennia of historical, archaeological, and cultural layers, reflecting the creativity, urban planning, craftsmanship, and cultural achievements of our people.
In today’s era of globalization, preserving national identity, restoring historical memory, and safeguarding ancient heritage are vital for the spiritual progress of the

nation. From this perspective, the scientific study and worldwide promotion of Axsikent’s heritage are of great importance for instilling national pride and historical awareness in future generations.By developing Axsikent in harmony across the spheres of tourism, education, and promotion, it is possible to revive it not only as a historical monument but also as a modern center of science, enlightenment, and culture. Turning Axsikent into an open-air archaeological museum, creating tourist infrastructure, and attracting international scientific expeditions would make it a prominent site both regionally and globally.

Ultimately, the ancient city of Axsikent serves as a “living lesson” in Uzbekistan’s history. Through its preservation, study, and promotion, we not only revive the glory of the past but also bequeath national pride, historical memory, and cultural heritage to future generations. Therefore, developing Axsikent as a center of science, tourism, and spirituality represents a strategic direction in Uzbekistan’s modern cultural policy and national development.

**References**

1. Karimov, I.A. *High Spirituality – an Invincible Power*. Tashkent: Ma’naviyat, 2008.

2. Qosimov, A., Rahmonov, B. *Archaeology of the Fergana Valley and the History of Axsikent.* Tashkent: Fan, 2019.

3. Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan, 2023.

4. UNESCO Cultural Heritage Database – “Akhsi (Axsikent) archaeological site,” 2024.

5. Al-Muqaddasiy. *Ahsan al-Taqasim fi Ma’rifat al-Aqalim.* Beirut, 1987.

6. Ismoilov, M. *History and Culture of the Fergana Valley.* Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan, 2020.

7. Official website of the State Committee for Tourism of Uzbekistan: https://uzbektourism.uz

# AXSIKENT – FARG‘ONA VODIYSI SIYOSIY-HUDUDIY MARKAZI SIFATIDA: SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI

**Qo‘chqorov Axror Abror o‘g‘li**
*Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti*
*Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*
axrorabrorxon@gmail.com

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Axsikent shahrining Farg‘ona vodiysi tarixiy-siyosiy tizimidagi o‘rni, uning shakllanish bosqichlari va davlat boshqaruv tizimining evolyusiyasi ilmiy manbalar, arxeologik topilmalar hamda tarixiy yozma manbalar asosida tahlil qilinadi. Axsikentning mintaqaviy markazga aylanishiga ta’sir etgan geosiyosiy, iqtisodiy va harbiy omillar har tomonlama yoritiladi.. Shuningdek, Axsikentning Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab yirik iqtisodiy markazga aylanishi, shaharsozlik tizimi, himoya devorlari, rabod-shahriston-qal’a strukturasining davlat boshqaruvi bilan bog‘liqligi ilmiy tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlari:*** *Axsikent, Farg‘ona vodiysi, mintaqaviy davlatchilik, davlat boshqaruvi, urbanizatsiya, qadimgi shahar, Qang‘ davlati, Chig‘atoy ulus , Bobur, Buyuk ipak yo‘li, geosiyosat, shaharsozlik.*

***Аннотация:*** *В данной статье на основе научных источников, археологических находок и исторических письменных источников анализируется место города Ахсикента в историко-политической системе Ферганской долины, этапы его становления и эволюция системы государственного управления. Всесторонне освещаются геополитические, экономические и военные факторы, повлиявшие на превращение Ахсикента в региональный центр. Научно анализируется превращение Ахсикента в крупный экономический центр на Великом Шелковом пути, система городского планирования, защитные стены, связь рабад-шахристан-калы с государственным управлением.*

***Ключевые слова:*** *Ахсикент, Ферганская долина, региональная государственность, государственное управление, урбанизация, древний город, государство Канг, Чигатайский улус, Бабур, Великий Шелковый путь, геополитика, градостроительство.*

***Annotation:*** *This article analyzes the place of the city of Akhsikent in the historical and political system of the Fergana Valley, the stages of its formation and the evolution of the state administration system based on scientific sources, archaeological finds and historical written sources. The geopolitical, economic and military factors that influenced the transformation of Akhsikent into a regional center are comprehensively covered. Also, the transformation of Akhsikent into a major economic center along the Great Silk Road, the urban planning system, protective walls, and the connection of the rabod-shahristan-kala structure with state administration are scientifically analyzed.*

***Keywords:*** *Akhsikent, Fergana Valley, regional statehood, public administration, urbanization, ancient city, Kang state, Chigatay ulus, Babur, Great Silk Road, geopolitics, urban planning.*

Markaziy Osiyo hududi qadimdan murakkab siyosiy jarayonlar, rivojlangan madaniyat va urbanizatsiyaning muhim chorrahasidir. Bu hududda shakllangan ko‘plab siyosiy markazlar orasida Axsikent shahri alohida o‘rin tutadi. Farg‘ona vodiysining eng qadimiy va rivojlangan markazlaridan biri bo‘lgan Axsikent nafaqat mahalliy siyosiy jarayonlarda, balki butun Movarounnahr tarixida ham uzoq davom etgan zaruriy ustuvor mavqega ega bo‘lgan. Axsikentning tarixiy rivojlanishi mil.avv. IV–III asrlardan boshlab shakllanib, ilk o‘rta asrlarga kelib to‘liq rivojlangan siyosiy-hududiy markaz ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Uning geografik joylashuvi — Farg‘ona vodiysining g‘arbiy qismida, qadimiy savdo yo‘llari kesishgan hududda joylashganligi — shaharni mintaqaviy siyosiy tuzilmalar uchun muhim tayanch nuqtaga aylantirgan.Shahar bir

necha tarixiy bosqichlarda Farg‘ona vodiysi siyosiy boshqaruvining markazi vazifasini bajargan.[1] Bu jarayonni arxeologik topilmalar, qadimgi yozma manbalar (‘Hudud al-olam’, Al-Istaxriy, Mirzo Ulug‘bek “Tarixi arba’ ulus”, Bobur “Boburnoma”) hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tasdiqlaydi. **Axsikentning shakllanish bosqichlari.** Qadimgi davr mil.avv. IV – I asrlar.Axsikentning ilk shakllanishi Farg‘ona vodiysi madaniyatining qadimgi urbanizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Arxeologik ma’lumotlar shahar hududida bu davrlarda qo‘rg‘on, istehkom, mudofaa devorlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu davrga xos asosiy belgilar:dastlabki shahristonning shakllanishi,dehqonchilik va hunarmandchilik markazi. Farg‘ona–Talas yo‘li bo‘yicha savdo almashinuvlarining kuchayishi. Axsikent aynan shu davrda hududiy ahamiyatga ega bo‘lgan shahar sifatida shakllangan.[2]

**Qang‘ va ilk o‘rta asrlar davri: mil. I–VI asrlar.** Qang‘ davlati hukmronligi davrida Axsikent siyosiy-iqtisodiy markazlardan biriga aylangan. Bu bosqichda: markazlashgan boshqaruv elementi paydo bo‘ladi,qal’a devorlari qayta mustahkamlanadi; shahar ichida boshqaruv saroyi (ark) shakllanadi,rabod (savdo hududi) rivojlanadi. Arxeologlar topgan turli metall buyumlar, sopol idishlar, devor qoldiqlari bu davrda Axsikent keng hududiy markaz sifatida faol bo‘lganini tasdiqlaydi. Axsikent bu davrda Farg‘ona vodiysining muhim garnizonlaridan biri hisoblangan. [3] Axsikentning siyosiy-hududiy markaz sifatidagi o‘rni Shahar geografiyasi — siyosiy kuchning asosi Axsikentning joylashuvi uni geosiyosiy nuqtai nazardan beqiyos ustunlikka ega qilgan: Sharqdan Qoshg‘ar–Yettisuv yo‘li shu yerda tugaydi.G‘arbdan Katta Farg‘ona kanali havzasi tabiiy mudofaa bo‘lib xizmat qiladi. Janubdan Oloy tizmasi shaharni janglarda qo‘riqlagan.Savdo karvonlari aynan shu hududda to‘xtab o‘tgan. Shu sababli Axsikent mintaqaviy hokimlar uchun asosiy siyosiy tayanch bo‘lgan.Ma’muriy boshqaruv tizimi Axsikent boshqaruv tizimi bir necha bosqichlarda shakllangan: Ark (saroy) – oliy hukmdor qarorgohiArk shahar boshqaruvining markazi bo‘lib, unda hukmdor, lashkarboshi va devon ahli faoliyat yuritgan. Shahriston –

ma’muriy va hunarmandchilik markazi .Hunarmandlar gilamchilik, metallsozlik, kulolchilik bilan shug‘ullangan, soliq tizimi asosan shu yerda shakllangan. Rabod – savdo va karvonsaroylar hududi Bu yer orqali shahar iqtisodiyoti rivojlangan, savdo karvonlaridan boj yig‘ilgan. Davlat boshqaruvi tarkibidagi lavozimlar Tarixiy manbalar asosida quyidagi lavozimlar aniqlanadi: Hokim (malik) – shahar hukmdori. Amir al-ahror – harbiy kuchlar boshlig‘i. Sadoqachi – soliq yig‘uvchi. Dabir – kotib, devon rahbari. Kalon (qozikalon) – diniy-sud tizimi rahbari.

Bularning barchasi Axsikentda shakllangan mukammal boshqaruv tizimi mavjudligini tasdiqlaydi. Chig‘atoy ulusi davridagi Axsikent XIII–XIV asrlarda Axsikent Chig‘atoy ulusining muhim shaharlariga aylangan. Alohida e’tiborli jihatlar: Chig‘atoy noiblari shu yerda qarorgoh tutgan; Mahalliy hokimlar ulus siyosatiga bo‘ysungan; Harbiy-soliq tizimi qayta tuzilgan; Shahar devorlari kuchaytirilgan. Aynan shu davrda Axsikent Movarounnahr shaharlaridan biri sifatida yangi siyosiy mavqe kasb etgan.[4] Axsikent shaharsozligi: davlat boshqaruvining moddiy ko‘rinishi. Istehkom tizimlari Axsikent mustahkam mudofaa tizimi bilan ham mashhur bo‘lgan 3 qator devor,12 darvoza.Ko‘p burchakli minoralar, Arkni alohida himoya qiluvchi ichki devor.Bu tizim shaharni harbiy-siyosiy markaz sifatida yanada kuchaytirgan. Axsikentda:temirchilik, misgarlik, qurolsozlik, ipakchilik, charmdan buyumlar tayyorlash,savdo rastalari va karvonsaroylar mavjud bo‘lgan. Bularning barchasi shaharni iqtisodiy markazga aylantirgan. Axsikentning inqirozi va tarixiy merosi 1620-yilda yuz bergan kuchli zilzila Axsikentni vayron qilgan. [5] Ammo shahar 2000 yildan ortiq yashagan; Farg‘ona vodiysi siyosiy markazlaridan biri bo‘lgan.O‘nlab davlatlar, sulolalarning markazi sifatida faoliyat qilgan. Bugungi kunda Axsikent yodgorligi O‘zbekiston tarixida eng muhim arxeologik obyektlardan biri sifatida o‘rganilmoqda

**XULOSA** .Axsikent Farg‘ona vodiysi siyosiy-hududiy markazi sifatida o‘zining uzoq va boy tarixiy evolyusiyasi bilan ajralib turadi. Uning mintaqaviy davlatchilik tizimidagi o‘rni bir necha omillar bilan belgilanadi: Geostrategik joylashuvi Axsikentni

savdo va harbiy jihatdan beqiyos markazga aylantirgan. Davlat boshqaruv tizimi — ark, shahriston, rabodning izchil shakllanishi — shaharni mukammal siyosiy tuzilishga ega qilgan.Turk xoqonligi, Chig‘atoy ulusi va Bobur davrlarida shahar mintaqaviy siyosiy jarayonlarning bosh markazlaridan biri sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Shahar iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan urbanistik majmua bo‘lgan, bu uning siyosiy mustahkamligini ta’minlagan. Axsikent Farg‘ona vodiysi davlatchilik tarixining uzviy bo‘lagi bo‘lib, bugungi o‘zbek davlatchiligi ildizlaridan biri sifatida qaraladi. Shu tariqa, Axsikentning rivojlanish tarixi mintaqaviy davlatchilik tizimining shakllanishi, takomillashuvi va inqirozi jarayonlarini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shahar tarixining ilmiy asosda tadqiq etilishi O‘zbekistonning qadimiy davlatchilik an’analarini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

**1.** Asqarov A. O‘zbekistonning qadimgi shaharlar tarixi. – Toshkent: Fan, 2012. 72–89-betlar.

**2.** Asqarov A. O‘zbekistonning qadimgi shaharlar tarixi. – Toshkent: Fan, 2012. 72–89-betlar.

**3.** Islomov M., Rahmonqulov D. Axsikent: Tarix va arxeologiya. – Toshkent: Innovatsion Zamon, 2021. 33–74-betlar.

**4.** Sulaymonov R. Farg‘ona vodiysi qadimgi davlatchilik tarixi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. 114–138-betlar

**5.** Ahmedov B. Chig‘atoy ulusi tarixi. – Toshkent: Sharq, 1996. 201–225-betlar.

**6.** Bobur Z. Boburnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2008. 54–61-betlar.

# AXSIKENT – FARG‘ONA VODIYSINING QADIMIY MARKAZI

**Mamasharifova Shahloxon Muxtorxon qizi**

Namangan davlat universiteti, Tarix yo’nalishi talabasi

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola yurtimizning qadimiy arxeologik yodgorliklaridan biri, Farg’ona vodiysining qadimiy poytaxti Axsikent tarixi, bu yodgorlikda turli davrlarda olib borilgan tadqiqotlar va uning natijalari haqida ma’lumot berilgan*

***Annotatsiya:*** *В статье дается информация об истории Ахсикента — одного из древнейших археологических памятников нашей страны, древней столицы Ферганской долины, о проведенных на этом памятнике в разные периоды исследованиях и их результатах.*

***Annotatsiya:*** *This article provides information about the history of Akhsikent, one of the ancient archaeological monuments of our country, the ancient capital of the Fergana Valley, the research conducted at this monument in different periods, and its results.*

***Kalit so’z.*** *Axsikent, Is’hoqxon Ibrat, Farg’ona vodiysi, Ajoyib at-taboqot, Sharafiddin Ali Yazdiyning, Xitoy manbalari, Ark, kulolchilik.*

**Kirish.** Axsikent – Farg‘ona vodiysining qadimiy va yirik madaniy markazlaridan biri bo‘lib, O‘rta Osiyo shaharsozligi va hunarmandchiligi tarixida muhim o‘rin egallaydi. Manbalarda bu shahar miloddan avvalgi davrlardayoq shakllanganligi, savdo yo‘llari kesishgan hududda joylashgani tufayli iqtisodiy va madaniy jihatdan tez rivojlanganligi qayd etiladi. Axsikent asrlar davomida nafaqat siyosiy markaz, balki temirchilik, kulolchilik, zargarlik kabi hunarmandchilik tarmoqlari taraqqiy etgan hunar maskani sifatida ham tanilgan. Shahar o‘zining mustahkam qal’alari, rivojlangan infratuzilmasi, noyob arxeologik yodgorliklari bilan alohida ilmiy ahamiyatga ega. Bugungi kunda Axsikent xarobalari O‘zbekistonning qadimiy tarixini o‘rganishda muhim arxeologik manbalardan biri bo‘lib, u orqali

o‘tmishdagi shahar hayoti, aholi faoliyati va madaniy taraqqiyot darajasi haqida qimmatli ma’lumotlar olish mumkin.

Asosiy qism: Axsikent – Farg‘ona vodiysidagi eng qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, uning asoslari miloddan avvalgi ming yilliklarga borib taqaladi. Arxeologik topilmalar bu hudud qadimdan rivojlangan shahar madaniyatiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Buyuk ipak yo‘lining gullab-yashnashida poytaxt shaharlarning ro’li katta bo‘lgan. Savdoda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Jumladan, qadimgi Farg‘ona poytaxti bo’lgan Axsikent bu masalada o’ziga xos ahamiyatga eag. Hozirgi vaqtda Axsikent xarobalari To‘raqo’rg‘on va Jomashuy oralig’ida, Namangan – Farg‘ona yo‘lining ikki tomonida, Sirdaryoning o‘ng sohili bo‘ylab cho’zilib ketgan baland tepaliklar ko‘rinishida yotibdi. Yodgorlikni xalq Eski Axsi deb ataydi [1. – B. 144.].

Axsikent – Axsi esa Axzi so‘zidan olingan bo’lib, “Axsining yurti” degan ma’noni bildiradi. Shahar nomlanishi haqida bir qator afsona va rivoyatlar mavjud. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” (XIV asr) asarida yozilishicha, Xusrav I Anushervon (532 – 579) Farg‘onani bino qilib, bu yerga har bir xonadondan bittadan kishini ko‘chirgan, o‘sha kishilardan birining ismi Axzi bo‘lib, u barpo etilgan joy uning nomi bilan atala boshlagan. [2. – B. 56.]. Tilshunos olim F.Is’hoqov “Axsi” so‘zi hakas tilidagi “agis” so‘zining qisqarishidan kelib chiqqanini, ya’ni “agis”– agsi – axsi shakliga kelganini ta’kidlaydi. Rus olimlari M.N.Bogolyubov va D.I.Smirnovalar esa “Axsikat” so‘zi so‘g‘d tilidan tarjima qilganda “xshikat” – “oq shahar” degan ma’noni anglatadi deb yozganlar [3. – B. 30.]. Yozma manbalar va adabiyotlarda Axsikent – “Axsi”, “Axsikat”, “Askatan”, “eski Axsi”, “yangi Axsi” deb qayd etib kelinadi.

Is’hoqxon Ibrat 1913-yilda “Turkiston viloyatining gazetasiga bergan risolasida shaharning geografik holatini batafsil bayon etgan: “Axsikat Movarounnahrda Farg‘ona viloyatida bir shaharning nomidur. Shosh daryosining labida tekis yerda va daryoning shimol tarafinda bo‘lib, shahar ila tog‘ning miyonasi bir toshlik yo‘ldur.

Mazkur shaharning atrofida qo‘rg‘on va bog‘otlar bo‘lib, kattaligi uch tosh masofasida ekan. Ark qo‘rg‘onidin boshqa imorat va bog‘otlar atrofini ham qo‘rg‘on devor ila ihota qilingan ekan. Ichkari qo‘rg‘onda to‘rt darvoza bor ekan. Shahar bog‘larida ariqlar, oqar suvlar, hovuzlar va bog‘-bo‘stonlar bir toshlik masofag‘acha daraxt va oqar suvlari muttasil bo‘lub, Farg‘onaning eng yaxshi va xush meva va obod viloyatlaridan ekan” [5. – B. 630.].

Axsikent Farg‘ona  vodiysidagi qadimiy shahar bo‘lib, yodgorlik shahristoni daryo sathidan 50 metr kub balandlikda joylashgan va 300 gektardan ortiq maydonni egallagan [4. – B. 27.].

Axsikentning o‘z qal’asi, shahristoni (ichki shahar) va raboti (tashqi shahar) bo‘lgan. Shahriston ikki ichki va tashqi qismdan iborat bo‘lib, beshta darvozasi bo‘lgan. Ikkala shahriston ham balandligi 20 metrga yaqin devorlar va chuqur handaqlar bilan o‘rab olingan. Tashqi shahristondan 20 ga yaqin minoralar topilgan. Har yili devorlar ta’mirlanganligidan 100-150 yil davomida devor qalinligi 10 metrga balandligi 20 metrga yetgan.

Shahar haqidagi qadimgi ma’lumotlar, asosan, Xitoy manbalaridan, undan tashqari arab, fors va turkiy manbalaridan to‘plangan. Axsikent haqidagi ilk ma’lumotlar Balazuriy, Tabariy, Yoqut al-Hamaviy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofiz Tanish Buxoriy va Bobur kabi sayyoh va olimlarning asarlarida uchraydi.

Axsikent zilzila natijasida vayron bo’lgan bolib, “Ajoyib at-taboqot” asarida muallif Muhammad Tohir ibn Abulqosim quyidagilarni yozib qoldirgan: “...1030-hijriy yilda Axsi viloyatida shunday bir ofat yuz berdi. Shunday yer qimirlashi sodir bo‘ldiki, Sirdaryodan chayqalib chiqqan suv, daryo chetidagi dalalarni bosib ketdi, suv bilan chiqarib tashlangan baliqlar tipirchiladi va o‘ldi. Shunisi qiziqki, eng qattiq zilzila Axsi qo‘rg‘onining ichida bo‘lib, atrof qishloqlarda uncha qattiq sezilmadi. Shahardan bir farsax masofada esa hatto, hech qanday tovush ham eshitilmadi”.  Keyingi vaqtlarda

yodgorlikni oʻrgangan I.A.Kastane zilzila vaqtida daryodan odamlarni oʻtkazib turuvchi maxsus kemachilar boʻlganligini yozgan [5. – B. 630].

Axsikent arxeologik jihatdan oʻrganish ishlari XIX asr oxirilari – XX asr boshlaridan boshlangan. [1. – B.124]. Yodgorlikda 1885-yilda N.I.Veselovskiy, 1914-yilda I.A.Kastane qazish va qidiruv ishlari olib borgan. Shoʻrolar davrida 1939-yilda M.E.Masson, 1948-yillara N.Bernshtamlar Axsekentni tekshirganlar. 1957 – 1959-yillarda Axsikentni Namangan oʻlkashunoslik muzeyi xodimlari tomonidan ham oʻrganilgan.

Yodgorlikning tadqiqot qilish ishlari 1885-yil professor N.I.Veselovskiy tomonidan amlga oshirilgan. N.I.Veselovskiy Eski Axsining 5 ta hududini tanlab olib, hududlarlarning 10 ta punktida qazishma ishlarini olib borgan. Arxeologik qazishma punktlaridan bosh suyaklar, ularning ustida esa teskari holatda toʻnkarilgan sopol buyumlari topilgan [4. – B. 26.].

Akademik Ya.Gʻulomov boshchiligida 1960-yildan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Jomashoʻydan Namanganga borish yoʻlining chap tomonida joylashgan antik davr Axsikenti miloddan avvalgi III – II asrlarga taalluqli ekanligi aniqlangan. Axsikent yoshi jihatdan “Afrosiyobga tengdosh shahar ekanligi” maʼlum boʻlgach, Axsikent “Fargʻona Afrosiyobi” nomini olgan [6. – B. 37.].

1967-yilda rassom I.A.Smirnov Axsikat xarobalaridan yigʻib jamlagan sopol idish, jez buyum va zeb-ziynatlar majmuasini Moskvadagi Sharq xalqlari davlat muzeyiga taqdim etgan. Axsikent yodgorligi oʻzbek xalqi madaniyati tarixida muhim oʻrin tutganligi uchun 1950-yildan davlat muhofazasiga olingan [1. – B. 144.].

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktabrdagi 831-sonli qaroriga asosan Axsikent direksiyasi tashkil etilgan. Direksiya tarkibida “Turizm boʻlimi” tashkil etilgan va “Gid ekskursovodlar kursi” va turizm salohiyatini oshirish maqsadida yangi muzey tashkil etilgan” [5. – B. 631.].

**Xulosa:** Bugunga kelib bir paytlar ulkan shahar, poytaxt hisoblangan Axsikent xarobalarining oltmish gektariga yaqini saqlanib qolgan bo‘lib, u Farg‘ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlik sanaladi. Uch ming yillik tarixga ega mazkur maskanning yangidan dunyoga yuz tutishida davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan alohida e’tibor muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**


1. Utayeva Feruza. O’rta Osiyoning qadimgi va o’rta asrlar urbanizatsiyasi. – T.: “Durdona” nashriyot, 2021-yil.
2. Qosimov Y. Qadimgi Farg‘ona sirlari. – Namangan, 1992-yil.
3. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosi. – T., 1978-yil.
4. Xasanov Lazizbek. Qadimgi va o’rta asrlarda Axsikent // Yangi O’zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2024-yil, 27-avgust.
5. Xaytmirzayev Faxriddin. Axsikent – Farg’ona vodiysidagiyangi turizm markazi. // International Scientific And Practical Conference “The Silk Road: Cooperation Through The Prism Of Tourism” October 10-11, 2024.
6. Abdullayev O. Namangan viloyati. – Namangan, 1995-yil.


## AXSIKENT ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH


**Davronbayev Ibrohim Ne’matjon o‘g‘li**

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich magistranti*

*Tel: +99897 555 58 63*

*E-mail: ibrohimdavronbayev@gmail.com*



**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysidagi Axsikent qadimiy shahar va arxeologik yodgorliklari asosida o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni

rivojlantirish masalalari koʻrib chiqiladi. Tadqiqot arxeologik topilmalar, me’moriy va mudofaa inshootlari hamda moddiy madaniyat ob’ektlarini oʻquv jarayoniga jalb qilish orqali tarixiy voqealarni tahlil qilish va mantiqiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini ochib beradi. Maqolada shuningdek, yodgorliklarni raqamli xaritalar va virtual resurslar orqali aks ettirish, interaktiv ekskursiyalar tashkil etish orqali oʻquvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishning amaliy yoʻllari tavsiya etiladi.

***Kalit soʻzlar:*** *Axsikent, arxeologik yodgorlik, tarixiy tafakkur, ekskursiya, virtual resurslar, raqamli ta’lim, madaniy meros, moddiy madaniyat, tarixiy izlanish, pedagogik texnologiya.*

**Abstract:** The article examines the development of historical thinking in students based on the ancient city and archaeological monuments of Akhsikent in the Fergana Valley of Uzbekistan. The study demonstrates how incorporating archaeological findings, architectural and defensive structures, as well as material culture into the educational process can enhance students’ ability to analyze historical events and develop logical reasoning skills. The article also recommends practical approaches for improving historical thinking, including the use of digital maps, virtual resources, and interactive excursions.

***Key words:***. Akh*sikent, archaeological monument, historical thinking, excursion, virtual resources, digital education, cultural heritage, material culture, historical research, pedagogical technology.*

**Аннотация:** В статье рассматривается развитие исторического мышления у учащихся на основе древнего города и археологических памятников Ахсикента в Ферганской долине Узбекистана. Исследование показывает, как включение археологических находок, архитектурных и оборонительных сооружений, а также объектов материальной культуры в образовательный процесс способствует развитию у учащихся навыков анализа исторических событий и логического мышления. В статье также предлагаются практические подходы к развитию

исторического мышления с использованием цифровых карт, виртуальных ресурсов и интерактивных экскурсий.

***Ключевые слова:*** *Ахсикент, археологический памятник, историческое мышление, экскурсия, виртуальные ресурсы, цифровое образование, культурное наследие, материальная культура, исторические исследования, педагогические технологии.*

O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysida joylashgan Axsikent qadimiy shahar va arxeologik yodgorliklari bilan ajralib turadi. Ushbu yodgorliklar nafaqat mintaqaning sivilizatsiyasi va davlatchilik tarixini tadqiq qilishda, balki zamonaviy avlodni tarixiy tafakkur bilan boyitishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Tarixiy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazishda arxeologik topilmalar, qadimiy me’moriy obidalar va boshqa manbalarni o‘rganish ularning tarixiy tafakkurini rivojlantirishga, tarixiy voqealarni mantiqan tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Axsikent Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida joylashgan. Axsikentning eng pastki madaniy qatlami mil.avv. III-II asrlarga oid[1].

Axsikent so‘zi “Axsining yurti” degan ma’noni bildiradi. Axsi esa Axzi so‘zidan olingan. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” (XIV asr) asarida yozilishicha, Xusrav I Anushervon (532-579) Farg‘onani bino qilib, bu yerga har bir xonadondan bittadan kishini ko‘chirgan, o‘sha kishilardan birining ismi Axzi bo‘lib, u barpo etilgan joy uning nomi bilan atala boshlagan[2].

Rus olimlari M.N.Bogolyubov va D.I.Smirnovalar esa “Axsikat” so‘zi sug‘d tilidan tarjima qilganda “xshikat” – “oq shahar” degan ma’noni anglatadi[3] deb yozganlar. Yozma manbalar va adabiyotlarda Axsikent “Axsi”, “Axsikat”, “Askatan”, “eski Axsi”, “yangi Axsi” deb yozib kelingan[4].

1960-yildan beri O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Yahyo G‘ulomov rahbarligida mutaxassislar Axikent shahrida arxeologik qazishmalar olib borishdi. Arxeologik qazishmalar I. Axrorov, Y. Qosimov, A. Anorboyev va boshqa tadqiqotchi

olimlar tomonidan 1967-1969, 1970-1974, 1980-1990 va undan keyingi yillarda olib borilib muhim ma’lumotlar va ashyoviy dalillar to‘plandi[5].

Shavkat Mirziyoyev topshirig‘iga muvofiq 2017-yilda Axsikent tarixiy yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish, uning haqqoniy tarixini yaratish bo‘yicha ulkan ishlar boshlandi. “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi» davlat unitar korxonasi tashkil etildi[6].

2024-yil 9-dekabrda Axsikent arxeologiya parki va Qatarda faoliyat yurituvchi Shayx Faysal bin Qosim Al Tani muzeyi o‘rtasida ilmiy hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilgani to‘g‘risidagi ma’lumotlar tarixiy merosni o‘rganish jarayonida muhim bosqich sifatida baholanadi[7]. Ushbu hamkorlik ikki mamlakat o‘rtasidagi madaniy va ilmiy integratsiyaning kuchayishiga xizmat qiladi.

Tomonlar o‘rtasidagi kelishuv quyidagi ilmiy-amaliy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- arxeologik artefaktlar bo‘yicha tajriba almashish;
- manbashunoslik sohasida qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazish;
- Axsikentda topilgan arxeologik topilmalarni xalqaro ilmiy muomalaga kiritish;
- arxeologlar uchun muzey jamg‘armalaridan ilmiy izlanishlarda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Ushbu yo‘nalishlar O‘zbekistonning qadimiy tarixiga doir ma’lumotlarni jahon ilmiy hamjamiyatiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axsikent qadimiy shahar qoldiqlari, madaniy qatlamlari, kulolchilik, metallsozlik, mudofaa inshootlari va diniy markazlari bilan boy tarixiy kompleks hisoblanadi. Bu obyektlarni o‘quv jarayoniga jalb qilish nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, mantiqiy fikrlash, tarixiy sabab-oqibat aloqalarini tushunish, vaqt va makon tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Axsikentdagi topilmalar – kulolchilik mahsulotlari, tangalar, me’moriy inshootlar, metall qurollar, pichoqlar, zargarlik buyumlari – o‘quvchilarda:tarixiy jarayonlarning real voqelik ekanini; moddiy madaniyat orqali xalq hayoti, iqtisodi, urf-odatlari haqida xulosa qilishni;tarixiy faktlar bilan fikr yuritish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan, Somoniylar va Qoraxoniylar davri kulolchilik namunalarining o‘zaro farqlarini solishtirish o‘quvchilarda tahliliy fikrlashni shakllantiradi.

Axsikent arxeologik majmuasiga tashkil etilgan ekskursiyalar tarix ta’limida bevosita kuzatish va dalilga asoslangan o‘rganishning samarali shakli hisoblanadi. Axsikent majmuasiga tashkil etilgan ekskursiyalar Yan Komenskiy tomonidan maktabda o‘qitish tizimini ko‘rgazmalilik tamoyili mos tushadi. Ko‘rgazmalilikni o‘qitishning «Oltin qoidasi» deb ataydi u. Bu tamoyilda: a) bolaga real narsalarni ko‘rsatish, b) dunyoni rasmlar orqali tushuntirish, v) narsalarning modelini ko‘rsatish, g) o‘qituvchining o‘zi o‘rganilayotgan materialni chuqur bilishga va esda uzoq vaqt saqlanishga olib keladi[8]. Mazkur usul o‘quvchilarga arxeologik ob’ektlarni ko‘z bilan ko‘rib, ular asosida tarixiy jarayonlar haqida mustaqil xulosa chiqarish imkonini yaratadi. Ekskursiya jarayonida o‘quvchilar shahar devorlarining qalinligi va tuzilishini kuzatib, Axsikentning mudofaa tizimi, harbiy-strategik ahamiyati to‘g‘risida umumlashmalar hosil qiladi. Shuningdek, qazilmalar davomida topilgan kulolchilik, metallsozlik va maishiy buyumlar o‘quvchilarda qadimgi hunarmandchilikning taraqqiy etganligi, shahar aholisi turmush tarzining xilma-xilligi haqida tarixiy tasavvurni boyitadi.

Axsikentning zilzilalar natijasida vayron bo‘lgan qatlamlarini o‘rganish esa tabiiy ofatlar va inson faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy tahlil qilishga yordam beradi. Bu holat o‘quvchilarning tabiat, jamiyat va tarixiy jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekanini anglashiga imkon yaratadi.

Axsikent arxeologik yodgorliklarining zamonaviy ta’lim jarayonlarida samarali qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida bir qator amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish

muhimdir. Hozirgi vaqtda Axsikent yodgorliklari Google Earth va boshqa raqamli xaritalar dasturlarida deyarli to‘liq ko‘rinmaydi, mavjud bo‘lgan tasvirlar esa sanoqli va yetarlicha ma’lumot bera olmaydi. Shu munosabat bilan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. **Raqamli xaritalarda to‘liq aks ettirish:** Google Earth, Google Maps va boshqa geografik axborot tizimlariga Axsikentning barcha arxeologik ob’ektlarini aniq koordinatalari bilan joylashtirish. Bu orqali o‘quvchilar va tadqiqotchilar yodgorlikka virtual ravishda yaqinlashish imkoniga ega bo‘ladi.

2. **Foto va video materiallarni boyitish:** Axsikent majmuasining barcha qoldiqlari — qadimiy shahar devorlari, mudofaa inshootlari, me’moriy qoldiqlar, kulolchilik va metallsozlik namunalarini yuqori sifatli foto va video materiallar orqali taqdim etish. Bu materiallar o‘quvchilarda vizual xotirani rivojlantirishga, tarixiy jarayonlarni yaxlit kontekstda tushunishga yordam beradi.

3. **Virtual tur va interaktiv modellar yaratish:** Majmuaning 3D virtual modeli ishlab chiqilib, u orqali o‘quvchilar ekskursiya jarayonini raqamli muhitda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Shu yo‘l bilan o‘quvchilar tarixiy ob’ektlarni real ko‘rinishda kuzatib, ularni tahlil qilish va mustaqil xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

4. **Ta’lim jarayonida interaktiv foydalanish imkoniyatlarini yaratish:** Virtual va raqamli resurslardan foydalangan holda o‘quvchilarga Axsikent yodgorliklari bilan tanishish uchun amaliy mashg‘ulotlar, test va loyihaviy ishlar tashkil etish. Bu esa tarixiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va tarixiy sabab-oqibat aloqalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish o‘quvchilarning samarali foydalanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, maktab darslarida Google Earth orqali tashkil etilgan virtual ekskursiyalar tarixiy sabab-oqibat aloqalarini va mantiqiy tahlil qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, pandemiya sharoitida yoki uzoq

hududlardagi maktablar uchun bu usul masofaviy ta’limning samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarda milliy merosni qadrlash va global madaniy integratsiyani anglashni kuchaytiradi. Natijada, Axsikentni raqamli muhitda to‘liq aks ettirish nafaqat ta’lim jarayonini boyitadi, balki kelajak avlodning tarixiy tafakkurini shakllantirishda strategik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabyotlar ro‘yxati**

1. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya(O‘quv qo‘llanma).-T.:Fan va texnologiya,2011. –B.103

2. Qosimov Y. Qadimgi Farg‘ona sirlari. – Namangan, Namangan nashriyoti, 1992. – B.56

3. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosi. –T.: 1978. – B.30

4. Qosimov Y. Qadimgi Farg‘ona sirlari. – Namangan, Namangan nashriyoti, 1992. – B.52

5. Kozokov T.K. Problems of Source and Historiography of the Akhsikent // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, Special Issue, Vol. 10, Issue 3, 2020. – P. 29–32. Elektron resurs: https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-MARCH-2020-SPECIAL-ISSUE.pdf [Murojaat qilingan sana: 23.11.2025]

6. Qadimiy Axsikent yodgorligi turizm manziliga aylantiriladi. Elektron resurs: https://president.uz/oz/lists/view/2405 [Murojaat qilingan sana: 23.11.2025]

7. Axsikent arxeologiya parki Shayx Faysal bin Qosim Al Tani muzeyi bilan hamkorlik o‘rnatdi. Elektron resurs: http://gov.uz/oz/namangan/news/view/29751 [Murojaat qilingan sana: 23.11.2025]

8. Azimova T.E. Yan Amos Komenskiyning pedagogik nazariyasi // Qo‘qon universiteti xabarnomasi (Kokand University Herald), 11-son, 2024. – P. 1–19. Elektron resurs:

https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/download/957/725/1498?utm_source=chatgpt.com [Murojaat qilingan sana: 23.11.2025]

# “САДПИРИ КОМИЛ” ТАРИХИ ҲАҚИДА МУЛОҲАЗАЛАР

**Нуриддинов Абдулвоҳид Орифхўжаевич**

Наманган давлат университети “Ижтимоий фанлар” кафедраси доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (phd).

**РЕЗЮМЕ: “САДПИРИ КОМИЛ” ТАРИХИ ҲАҚИДА МУЛОҲАЗАЛАР**

Ушбу мақолада муаллиф қадимий ривоятлар ва тарихий манбалар асосида Фарғона водийсининг қадимги муқаддас жойларидан бўлган, Косонсой шаҳри шимолий қисмида жойлашган VII асрга оид “Садпири комил” қабристони ва масжидининг пайдо бўлиши тарихини илмий далиллар асосида тадқиқ этишга ҳаракат қилган.

**Калит сўзлар:** Қадимги Косон, цивилизация, Фарғона давлати,”Сафед Булон қиссаси”, “Садпири комил” мозори ва масжиди, Усмон ибн Аффон, Шоҳ Муҳаммад Абдуллоҳ ибн Жарир, Суғд, Афросиёб, Ихшид, Ахси, Ҳурмуз, Исҳоқхон Ибрат, В.Бартольд, қабртошлар.

**РЕЗЮМЕ: РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ИСТОРИИ “САДПИРИ КОМИЛ”**

В данной статье автор на основе анализа легенд и научно-исторических данных стремился обосновывать историю появления одного из древнейших святинь Ферганской долины- мечет и кладбише“Садпири комил” (“Сто зрелых старцев”).

**Ключевые слова:** Древный Касан, цивилизация, Ферганское государство,“Садпири комил” (“Сто зрелых старцев” ),Усман бен Аффан,Шах Мухаммад Абдолла бен Джарир,Согд, Афросияб, Ихшид, Ахси, Хурмуз, Исхакхан Ибрат, В.Бартольд,надгробние камни.

Косонсой – Олабуқа  шоҳ йўлининг шундоққина шаҳардан чиқаверишида, йўлнинг ўнг томонида кўҳна Кушон қалъаси харобалари этакларигача ястаниб ётган қабристон мавжуд. Бу қабристонда неча юзлаб йиллардан буён азизу авлиёлар, буюк кишилар қатори қадим Косоннинг оддий фукаролари ҳам сўнгги манзилларини топишган. Ушбу қабристон эл ўртасида ’’Садпири комил - Юз пири комил” номи билан машҳур.

Хўш, бу қабристон неча ёшда? Ушбу савол кўпчилик юртдошларимизни қизиқтириши табиий. Дарҳақиқат, Косонсой шаҳри марказида жойлашган, айни пайтда 64 гектар яқин ерни эгаллаган ушбу қабристон не сабабдан Ислом оламининг муқаддас шаҳарлари- Маккаи мукаррама ва Мадинаи мунавварада ҳурмат билан тилга олинади? Шу тўғрида ҳалқ орасида узуқ-юлуқ ривоятлар ва нақллар мавжуд. Лекин уларда тарихий ҳақиқат тўлиқ келтирилмаган. Шунинг учун ҳам юқоридаги саволларга тўлақонли жавоб топиш мақсадида кўплаб тарихий манбаларни қидириб топиш ва улардан ўзимизни қизиқтираётган маълумотларни олишга ҳаракат қилдик.

Тарихий манбалардаги маълумотларга кўра, “Садпири комил” қабристонининг пайдо бўлиши Араб халифалигининг илк даврига тўғри келади. Исломдаги учинчи халифа Усмон Ибн Аффон (644-656 йиллар) даврида бул зотнинг набираси Муҳаммад Абдуллоҳ ибн Жарир кўплаб тобеин ва табаа-тобеинлар билан Фарғонага келишади.

Ташрифдан асосий мақсад Фарғонани ислом динига киритишдан иборат бўлган. Бу хақда шарқшунос ва тарихчи олим, академик В. В. Бартольднинг

“Тарихий географияга оид очерклар” номли асарида шундай сатрлар бор: “Кейинги даврларда ўрта аср тарихчиси Жамол Қарший томонидан берилган ривоятга қараганда, ҳануз халифа Усмон даврида Фарғонанинг Сафид Булон қишлоғи ёнида (Косон шаҳри атрофида) Муҳаммад бин Жарир  2700 нафар пайғамбар издошлари ( тобеинлар) динсизларга қарши курашда ҳалок бўлишади. Бу воқеа хусусида Ўрта Осиёда кенг тарқалган, дастлаб араб тилида ёзилган, кейинчалик, форс-тожик тилига ва бу тилдан турк тилига таржима қилинган халқ достонида батафсил ҳикоя қилинади”[1].

Юқорида В. В. Бартольд зикр этган халқ достони Шоҳ Ҳаким Холис томонидан форс-тожик тилидан ўзбек тилига таржима қилинган “Сафед Булон қиссаси” достони бўлиши мумкин. Худди шу достонда Муҳаммад Абдуллоҳ ибн Жарирнинг Фарғонага келиши ва бўлиб ўтган курашлар батафсил ёритилган[2].

Бу тўғрида ўрта асрлар араб тарихчи-олимлари Абулаббос ибн Аҳмад ибн Яъқубий ўзининг “Китоб-ал-булдон”(“Мамлакатлар тарихи”),Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Абубакр ал-Муқаддасий “Аҳсан-ут-тақосим фи маърифат-ул-ақолим”(“Иқлимларни ўрганиш учун энг яхши қўлланма”), Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Муҳаммад ал-Форсий ал-Истахрий “Китоб ал-масолик вал-мамолик”(“Мамлакатларга олиб борадиган йўллар ҳақида китоб”),  асарларида ҳамда академик Н. Брянов “Излар  ҳақида” (“ О  следах древнего города Касана в Ферганской области.”Протоколь Туркестанского кружка любителей археологии".-Ташкент,1898-1899гг.стр.146.)  китобида ҳам маълумот беришган[3].

Таниқли юртдошимиз, маърифатпарвар ва тарихчи олим Исҳоқхон Жунайдуллахўжа ўғли Ибрат “Фарғона тарихи” асарида арабларнинг ўлкага дастлабки юришлари ҳақида қуйидаги маълумотларни келтиради: “Чунончи,

---

[1] Бартольд В.В.Работы по исторической географии.М.,Наука,1965.,стр.265.
[2] Шоҳ Ҳаким Холис.Сафед Булон қиссаси.-Т.:Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1994,-152 б.
[3] Брянов Н.О следах древнего города Касана в Ферганской области.\Протоколь Туркестанского кружка любителей археологии.\-Ташкент,1898-1899 гг.стр.146.

мана, Косонда Муғий қўрғони ва ўрдаси деб машҳурдур, қалин девор ва катта хиштлар илан бино қилган, икки минг йиллар ўтуб ҳоло ҳам муоянадур. Ани тарихлар кўрган кишилар бўлса Ихшид деб зикр қиладурғон Суғд подшолари ҳам бул ерда ҳукмронлик қилган. Афросиёбдин сўнг Ихшидлар замонида араблар келиб, Косонда муҳораба бўлғон эди»[4]. (“Фарғона тарихи” 277-бет.) Яна шу муаллиф ёзади: - “Сўнгра Ҳазрати Усмон замонларида Жарир бин Абдуллоҳ) тўғри ёзилиши: Муҳаммад Абдуллоҳ ибн Жарир, А. Н.) воқеалари бул эканки, Туркистон шаҳарлари аксар исломобод бўлуб, қалмоқ қўлидан давлат арабларга ўтганда пойтахт йироқ учун ҳар доим қалмоқлар мусулмонларни толон ва торож қилиб, бесаранжом қилиб турар экан. Ул вақтларда бу шаҳардин икки киши Арабистонга арзға борган эканки, биз аҳли исломни халос қилсалар экан деб. Анда Ҳазрати Усмон розийаллоҳу анҳу тарафларидин Жарир ибн Абдуллоҳ номли зот, Ҳазратнинг набираларидан амири лашкар қилиб юборган эканлар. Икки минг саккиз юз саҳоба илан Фарғона тарафларига келиб, Қубода бўлмиш Хушдод деган муғул подшоҳига нома киргузғонларида тобе бўлмай муҳораба қилмоқчи бўлғон экан. Сўнгра муҳораба қилиб, Хушдод подшоҳни араблар қатл қилишиб, Қубо шаҳрига бир қози ва бир волий насб қилишиб, андин қайтуб, Ахсида бўлмиш Ҳурмуз подшоҳга келган эканлар. Нома киргузғонларида ул ҳам тобе бўлмай, толиби муҳораба бўлуб, Ахси биёбонида икки кун муҳораба бўлиб, учунчи куни они ҳам олиб, бир волий ва бир қози қўюб, ўзлари Косонда бўлмуш Ихшид подшоҳи илан муҳораба учун борғон эканлар. Араб аскарлари Чандовул деган ерга тушуб, икки саҳоба илан нома киргузғон эканлар.

Анда Ихшид элчиларни имтиҳон қилиб, сўнгра уч кун фурсат сўрағон экан. Булар фурсат берганда араблар илан уруш қилмоқға қодир бўлмай, Ўнғор ҳокими Корвонбас деганга қочиб боруб, маслаҳат сўрағон экан. Корвонбас маслаҳат

---

[4] Исҳоқхон Жунайдуллахўжа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. ”Мерос”туркумидан. Тошкент, ”Камалак”, 1991, 277-бет.

берибдурким, Зарханддаги боғинга боруб, ёшириниб ётғил, арабларнинг ишини ўзум саранжом қилурман деб. Ул қочуб ётуб арабларга Косонни мусулмон қилиб, сўнгра Ўнғорга боруб, Корвонбасга нома киргузғонларида ул ялғондан иймон келтуруб, мусулмон бўлиб, истиқболларига чиқиб, ўрдасига таклиф қилиб, неча кунлар зиёфат қилуб, бир соҳибжамол қизни ҳадя қилиб беруб, неча вақтдан сўнгра махфий муҳораба асбобларини тайёрлаб, ўттиз минг қалмоқлар илан Сафид Булон мазорида намози жумъада турғонларида, арабларни қириб, кўб саҳоба ва тобеинларни шаҳид қилиб, қочурғон экан. Андаги муҳорабада шаҳид бўлганлар бунга шоҳид, ул ерларда шуҳадолар мозорларида тошларга ёзилган тарихи вафотлар ва манқабалари бордур"[5].

Юқорида келтирилган парчада баъзи жузъий камчиликларни эътиборга олмаганда тарихий воқеалар ва саналар тўғри келтирилган. Муҳаммад Абдуллоҳ ибн Жарир Косонда Ихшид кўшини билан тўқнашгани ва бунда юздан ортиқ араб аскарлари ҳалок бўлишгани аниқ тарихий воқеадир. Зеро, “Садпири комил” масжидининг қибла томонидаги эски қабрларда асосан ана шу юз нафар “пирлар” (маҳаллий ахоли тобеин ва табаа- тобеинларни ана шундай аташган) дафн қилингани қабр бошига қўйилган арабча ёзувли қабр тошлардан ҳам маълум. Қабр тошига марҳумнинг исми шарифи тўлиқ ҳолда ўткир пичоқ ёки қилич тиғи билан ўйиб ёзилган. Ана шундай қабр тошининг бирида қуйидагилар битилган: - **“Ҳозо қабр-уш-шайхил Имом ал-Кабирил фақеҳ аз-зоҳидил вад-дин Муҳаммад ибн Айюб Бакр ибн Умар Сулаймон ғафараллоҳу лаҳу вали волидайиҳи вали жамиил мўъминина вал мўъминот". Таржимаси: “Ушбу қабр Шайх, буюк Имом, фақиҳ (Ислом қонуншуноси) ва зоҳид (тақводор парҳезгор) , Муҳаммад ибн Айюб Бакр Ибн Умар Сулаймонникидир. Оллоҳ**

[5] Исҳоқхон Жунайдуллахўжа ўғли Ибрат.Фарғона тарихи.”Мерос” туркумидан. Тошкент, ”Камалак”, 1991, 281-282 бетлар.

**унинг, унинг ота-онаси ва жами мўъминлар ва мўъминаларнинг гуноҳларини кечирган бўлсин".**



Айрим ҳамюртларимиз ихлос юзасиданми ёки бошқа сабабданми юқоридаги каби қабртошларни ўрнидан олишиб ўз яқинлари қабрларига ўрнатиб қўйишган. Ушбу қабртошларидан бири айни пайтда туман тарих ва маданият музейида сақланмокда.

Юқорида айтилганидек, қабртошларда ҳалок бўлган кишининг тўлиқ исми шарифи, вазифаси, унвонлари ёзилган. Афсуски, қабртошларда марҳумнинг туғилган йили ва вафоти тарихи кўрсатилмаган. Шундай бўлсада қабртошлардаги исми шарифлар ҳақиқатда ҳам Арабистонлик кишиларга

тааллуқлилиги ҳамда улар Муҳаммад Абдуллоҳ ибн Жарир сафдошлари эканликларидан далолат беради.

Қадим замонлардан Марказий Осиёдаги аҳоли яшаш масканлари яқинида жойлашган мозор-қабристонлар ҳудудида вафот этганларга жаноза ўқиш учун намозгоҳ ёки масжидлар ҳам қурилган.Шу нуқтаи назардан олиб қараганда, “Садпири комил” қабристонида ҳам қадимдан масжид-намозгоҳ мавжуд бўлган бўлиши ҳақиқатга яқин ҳолдир. Зеро, мазкур қабристон бевосита қадимий Косоннинг дастлабки маҳаллаларидан бири бўлган – “Садпири комил” маҳалласининг шундоққина тепасида жойлашган. Юқоридагилардан келиб чиқиб, ҳозирги “Садпири комил” жомеъ масжидига эрамизнинг VII асри охирларида, яъни бундан XIII аср олдин асос солинган деган фараз ҳақиқатга яқинлиги маълум бўлади. Демак, мазкур масжид бундан 1300 йил олдин бунёд этилганлигига юқоридаги далиллар гувоҳлик беради.

Кейинги пайтларда “Садпири комил” қабристонининг ташкил топиши ҳақидаги мақолаларда ушбу қабристон гўёки “Садди пир”, яъни “пир девори” ёки “пир тўсиғи” деган маънони англатиши мумкин, деган илмий асосга эга бўлмаган фикрлар пайдо бўлмоқда.Чунки мазкур қабристон атрофида ҳеч қачон бирор-бир девор ёки тўсиқ мавжуд бўлмаган.”Сад пири комил” деган ибора остида эса ушбу масканда ором топган мўътабар зотлар ҳамда кўҳна диёримиздан етишиб чиққан ўнлаб, юзлаб тариқат пирлари, фиқҳ олимлари, соҳиби каромат даражасига етган олиму уламолар мазкур муқаддас қадамжойга дафн этилганлигига ишора борлигини идрок этиш мумкин.

Айтишларича, Косонсойдаги “Садпири комил" қабристони ва бу ерда дафн этилган тобеин ва табаа-тобеинлар ҳақида Саудия Арабистонидаги кўплаб уламолар ва тарихчи олимларда ҳам маълумотлар мавжуд бўлиб, улар ушбу қабристоннинг номини ҳурмат билан тилга олишларини қадим Косондан етишиб

чиққан йирик тарихчи олим Сайид Мубашширхон ибн Сулаймон Косоний ўзининг “Ўрта Осиё тарихи” номли асарида ҳам таъкидлаб ўтган[6].

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, “Садпири комил“ қабристони ва унинг ёнидаги жомеъ масжиди милодий VII аср охири ва VIII аср бошларида пайдо бўлган ҳамда деярли XIII асрга тенг кўҳна тарихий маскан бўлиб, қадимий тарихимизнинг заволтопмас ва муҳташам гувоҳи сифатида эъзозлашга, қадрлашга, авайлаб асрашга арзирли муқаддас даргоҳ ҳисобланади. Зеро, бу маконда нафақат ўтмишимиз, балки халқимизнинг шу кунларгача давом этиб келаётган яқин ва азиз кишилари хотираси ҳам абадиятга муҳрлангандир.

## Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бартольд В.В. Работы по исторической географии.-М., Наука, 1965., стр.265.

2. Брянов Н.О следах древнего города Касана в Ферганской области. \Протоколь Туркестанского кружка любителей археологии.\-Ташкент, 1898-1899 гг. стр.146.

3. Исҳоқхон Жунайдуллахўжа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи.” Мерос” туркумидан. Тошкент, ”Камалак”, 1991, 277-бет.

4. Сайид Мубашширхон Сулаймон Косоний. Ўрта Осиё тарихи. Биринчи қисм. Макка, 1410 ҳижрий қамарий (1989 милодий йил), 58-бет.

5. Шоҳ Ҳаким Холис. Сафед Булон қиссаси.-Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1994,-152 б.

[6] Сайид Мубашширхон Сулаймон Косоний. Ўрта Осиё тарихи. Биринчи қисм. Макка, 1410 ҳижрий қамарий (1989 милодий йил), 58-бет.

# FARG‘ONA VODIYSINING TARIXIY MARKAZI

**Abduraximova Maftuna Maxammadjon qizi**

Namangan davlat unversiteti Tarix yo‘nalishi talabasi

mabduraximova050@gmail.com

Ilmiy rahbar: Madraximov Zoxid Sharofovich,

Namangan davlat unversiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Axsikentning mintaqaviy davlatchilik tizimidagi tutgan o‘rni va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida shaharning qadimgi Farg‘ona hududidagi siyosiy, iqtisodiy va ma’muriy markaz sifatidagi shakllanishi, uning davlat boshqaruvi tuzilmalari bilan o‘zaro aloqalari tahlil qilinadi. Axsikentning geografik joylashuvi, savdo yo‘llari va tabiiy sharoitlari uning mintaqaviy siyosiy tizimda barqaror mavqe egallashiga xizmat qilgani yoritib beriladi. Shuningdek, O‘rta asrlar davrida shaharning harbiy-strategik ahamiyati, hunarmandchilik va savdo taraqqiyoti, diniy-ma’naviy hayot va boshqaruv an’analari baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** Axsikent, Farg‘ona, davlatchilik, Markaziy Osiyo, qal’a, shaharsozlik.

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению роли Ахсикента в региональной системе государственности и этапов его исторического развития. В ходе исследования анализируется формирование города как политического, экономического и административного центра на территории древней Ферганы, а также его взаимосвязи с государственными структурами. Освещается, как географическое расположение Ахсикента, торговые пути и природные условия способствовали его устойчивому положению в региональной политической системе. Кроме того, оценивается военное и стратегическое значение города в средние века, развитие ремесел и торговли, религиозно-нравственная жизнь и традиции управления.

**Ключевые слова:** Ахсикент, Фергана, государственность, Центральная Азия, крепость, градостроительство.

**Abstract:** This article is devoted to the study of Axsikent’s role in the regional statehood system and the stages of its historical development. The research analyzes the formation of the city as a political, economic, and administrative center in the territory of ancient Fergana, as well as its interactions with state structures. It highlights how Axsikent’s geographical location, trade routes, and natural conditions contributed to its stable position within the regional political system. In addition, the city’s military and strategic significance during the Middle Ages, the development of crafts and trade, religious and moral life, and governance traditions are evaluated.

**Keywords:** Axsikent, Fergana, statehood, Central Asia, fortress, urban planning.

Axsikent — Farg‘ona vodiysining eng qadimiy siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib, uning mintaqaviy davlatchilik tizimidagi o‘rni o‘ziga xos tarixiy jarayonlar bilan belgilanadi. Arxeologik ma’lumotlar, yozma manbalar va tarixiy topilmalar shuni ko‘rsatadiki, Axsikent uzoq vaqt davomida mintaqa siyosiy boshqaruvi, savdo-iqtisodiy aloqalari va harbiy-strategik faoliyatining muhim markazi bo‘lib kelgan. Uning geografik joylashuvi — Farg‘ona vodiysi orqali o‘tuvchi savdo yo‘llarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgani — shaharning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy o‘sishi va harbiy qudratini belgilagan omillardan biri hisoblanadi.

Axsikentning arxeologik jihatdan o‘rganilishi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab muntazam ravishda amalga oshirila boshlagan. Dastlabki ilmiy tadqiqotlar 1885 yilda Peterburg universitetining professori, taniqli arxeolog va sharqshunos N. I. Veselovskiy tomonidan olib borilgan bo‘lib, u hududning dastlabki xarakteristikasini berishga muvaffaq bo‘lgan. Keyingi bosqichda, 1913 yilda I. A. Kastanye tomonidan qo‘shimcha qazishma va tekshirish ishlari o‘tkazilib, shahar tarixi va topografiyasiga doir muhim ma’lumotlar yig‘ilgan. 1939 yilda Katta Farg‘ona kanali qurilishi jarayonida professor M. E. Masson tomonidan olib borilgan razvedka tadqiqotlari

Axsikentning tarixiy qatlamlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. 1960 yildan boshlab O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Yahyo G‘ulomov rahbarligida keng qamrovli arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etildi. Ushbu davrda I. Ahrorov, Y. Qosimov, A. Anorboev kabi tadqiqotchilar tomonidan 1967–1969, 1970–1974, 1980–1990 va undan keyingi yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida shahar hayoti, madaniy qatlamlari, hunarmandchilik markazlari va mudofaa inshootlariga doir juda ko‘plab ashyoiy dalillar to‘plandi Mazkur arxeologik izlanishlar Axsikentning qadimgi Farg‘ona mintaqasidagi yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi o‘rnini ilmiy asoslashga imkon berdi. .[ 1. 8 – 9 – betlar ]. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu arxeologik topilmalar nafaqat shahar tarixi va madaniyatini o‘rganish, balki Farg‘onaning qadimgi siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini tushunishga ham xizmat qiladi. Masalan, qazishmalar davomida aniqlangan shahar devorlari, qal’alar, hunarmandchilik mahsulotlari va suv ta’minoti inshootlari Axsikentning mintaqaviy markaz sifatidagi mustahkam mavqeini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, ushbu ma’lumotlar Axsikentning tarixiy rivojlanish bosqichlarini, hududning strategik joylashuvi, savdo yo‘llari va tabiiy resurslar bilan bog‘liq siyosiy-iqtisodiy aloqalarini tahlil qilish imkonini beradi. Shunday qilib, Axsikentning arxeologik o‘rganilishi nafaqat tarixiy bilimlar bazasini boyitadi, balki Farg‘ona vodiysi va Markaziy Osiyodagi qadimgi davlatchilik tizimlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xitoy tarixiy manbalarida miloddan avvalgi II asrga oid ma’lumotlarda Farg‘ona hududi Dayuan (Davan) nomi bilan tilga olinadi. Ushbu nom ostida qayd etilgan Dayuan davlati, aslida qadimgi Farg‘ona mamlakatining o‘sha davrdagi siyosiy tuzilmasi sifatida tasvirlanadi. Xitoy yilnomalarining guvohlik berishicha, Farg‘ona o‘z davrida mintaqaning nufuzli, iqtisodiy va harbiy kuchga ega bo‘lgan davlatlaridan biri bo‘lgan. Qadimgi Farg‘ona davlati haqidagi asosiy ma’lumotlar mashhur xitoy tarixiy majmuasi — “24 tarix” tarkibiga kiruvchi eng qadimgi ikki manba: “Shiji” (“Tarixiy

xotiralar”) va “Han shu” (“Han sulolasining tarixi”, “Hannoma”) asarlarida bayon qilingan. Ushbu manbalar hududning siyosiy tuzilishi, aholisi, turmush tarzi, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlari kabi muhim jihatlarni yoritadi. Biroq mazkur ikkala asarning xitoy tilidan boshqa tillarga to‘liq tarjimasi hali ham mavjud emas. “Tarixiy xotiralar” jami 130 bobdan iborat bo‘lib, uning “asosiy qismi” — 12 bobini birinchi bo‘lib fransuz sharqshunosi Eduard Shavan (1865–1919) to‘liq tarjima qilgan. Shavan qilgan tarjima Farg‘ona tarixi bo‘yicha jiddiy ilmiy izlanishlar uchun muhim manba sifatida e’tirof etiladi [2. 4 – 5 – betlar ]. Xitoy manbalarida Farg‘onaning bunday batafsil tasvirlanishi ushbu hududning miloddan avvalgi davrlardayoq Markaziy Osiyodagi muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. “Shiji” va “Han shu”da keltirilgan ma’lumotlar, xususan, Farg‘onaning harbiy kuchi, mashhur otlari, rivojlangan dehqonchiligi, sug‘orish tizimi, shuningdek, tashqi siyosiy aloqalardagi faolligi haqida muhim ma’lumotlarni beradi. Xitoy imperatorlarining Farg‘ona bilan diplomatik va harbiy aloqalar o‘rnatishga intilishi ham aynan shu strategik ahamiyat bilan bog‘liq bo‘lgan.

Alohida e’tiborli jihat shundaki, xitoy tarixchilari Dayuan davlatiga xos bo‘lgan shahar madaniyatini, hunarmandchilik an’analarini va aholining ijtimoiy hayotidagi tartib-qoidalarni batafsil qayd etadi. Bu esa Farg‘ona vodiysida miloddan avvalgi II asrdayoq shakllangan davlat boshqaruvi tizimi, shaharsozlik an’analari va iqtisodiy infratuzilma rivojlanish bosqichida bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, mazkur manbalardagi ma’lumotlar Farg‘ona va Xitoy o‘rtasidagi aloqalar faqat diplomatik yoki harbiy munosabatlargina bo‘lmay, balki iqtisodiy hamkorlik va savdo yo‘llarining shakllanishiga ham asos bo‘lganini anglatadi. Dayuan mamlakati orqali o‘tgan qadimgi savdo yo‘llari keyinchalik Buyuk Ipak yo‘lini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

Farg‘ona jumladan Axsikent tarixini o‘rganishda arab manbalarining ham alohida o‘rni bor. Oltimish  bob (maqola)dan iborat noma’lum muallif tomonidan yozilgan “Hudud-ul-olam” (“Olam chegaralari”) kitobi e’tiborga loyiq. Uning

“Movarounnahr va uning atrofidagi diyorlar haqida”gi bobida “Farg‘ona — ulug‘, obod va juda ko‘rkam viloyatdir. Uning tog‘lari, tekis joylari, oqar suvlari va shahar-lari ko‘p… Axsikent — Farg‘onaning poytaxti, amirning dargohi. Bu katta shahardir”, — deb tasvirlansa, ana shu ma’lumotni geograf va sayyoh Abu Is’hoq al-Istahriy (840–934)ning “Yo‘llar va mamlakatlar haqida kitob” (“Kitob masolik va-l-mamolik”) asarida ham uchratish mumkin. Unda “Farg‘ona keng yer, unga qarashli shahar va qishloqlar ham katta, uning katta shahri Axsikatdir”, — deb ta’riflanadi [ 3. 50 – bet ]. Shuningdek, arab sayyoh va geograflarning qaydlarida Farg‘onaning kengligi, shahar va qishloqlari soni, obodligi va tabiiy resurslari alohida e’tiborga sazovorligi ta’kidlangan. Bu ma’lumotlar mintaqaning irrigatsiya tizimi, dehqonchilik va iqtisodiy hayoti, shuningdek, madaniy va ma’rifiy muhitining rivojlanganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Axsikentning amir dargohi sifatidagi roli uning siyosiy ahamiyatini mustahkamlashda muhim omil bo‘lganini ko‘rsatadi.

IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Farg‘ona shahri arab manbalarida Ahsikat deb atalaboshlandi. Lekin, numizmatik materiallarning guvohlik berishicha, XI asrning o‘rtalarigacha Farg‘onaning bosh poytaxti ikki nom bilan — Farg‘ona va Ahsikat deb atalgan. Shuni ta’kidlash joizki, X asrning oxiri – XI asr boshlarida O‘rta Osiyoda siyosiy hokimiyat Somoniylardan Qoraxoniylarga o‘tgan. Bu davrda Farg‘onaning siyosiy poytaxti O‘zgan’da joylashgan. Lekin, vodiyning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Ahsikat shahri o‘z mavqeini yo‘qotmagan. [ 4. 89 – bet ]. Bu davrda Axsikentning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti faol bo‘lib, shaharning strategik joylashuvi uni savdo yo‘llari va suv ta’minoti nuqtai nazaridan ham markaziy ahamiyatga ega qilgan. Shunday qilib, Axsikentning qadimgi tarixiy mavqei nafaqat shaharning siyosiy poytaxt sifatidagi roli, balki mintaqaviy iqtisodiy va madaniy hayotdagi strategik o‘rni bilan ham belgilanadi. Bu esa Farg‘ona vodiysi tarixini o‘rganishda Ahsikatni alohida ahamiyatga ega markaz sifatida qarashga imkon beradi.

1414 yil Mirzo Ulug‘bek Farg‘ona sari qo‘shin tortib, Axsini qal’a qilib egallaydi. Voqea Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrajn” asarida quyidagicha tasvirlanadi:

“Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragon Andijonga qarab yurdi. Mirzo Amirak Ahmad u yerning qal’alarini mustahkamlab, toqqa chiqib ketdi. Mirzo Ulug‘bek u yerning eng katta qal’asi bo‘lgan Aksi qal’asini muhosara qildi. U shunday qal’aki, uning mezanalaridan falak boshoqlar (yulduzlar)ini terib olish va baland xonalaridan farishtalar g‘ulgulasini eshitish mumkin edi. Qal’a aholisi qal’aning mustahkamligiga mag‘rur bo‘lishib, jang aslahalarini hozirladilar. G‘alaba yor lashkar qal’a atrofini zirh ko‘zi-yu ari uyasidek (ilma-teshik) qilib qal’ani egalladi va lashkar ahli qo‘liga ko‘p boyliklar kirdi. Mirzo Ulug‘bek rayyatga tinchlik maydoni va omonlik makonidan o‘rin berdi hamda Poyanda bakovulni kutvol tayinlab, Andijon tomon yo‘l oldi.” [ 5. 40 – 41 – betlar ].

1414 yilda Mirzo Ulug‘bekning Farg‘ona sari qo‘shin tortib, Axsini egallashi hududning siyosiy ahamiyati va strategik mavqeini aniq ko‘rsatadi. Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrajn” asaridagi tasvirlar shuni ko‘rsatadiki, Axsikent nafaqat mintaqaning yirik qal’alaridan biri, balki siyosiy markaz sifatida ham muhim rol o‘ynagan. Qal’aning mezanalari va baland xonalari, shuningdek, qal’a aholisi tomonidan tayyorlangan mudofaa tizimi, hududning mudofaa strategiyasining yuqori darajada rivojlanganini bildiradi. Bu voqea Farg‘ona va uning atrofidagi hududlarda Mirzo Ulug‘bekning siyosiy ta’siri kuchayganini, shuningdek, hududiy boshqaruv va harbiy nazoratning muhim vositasi sifatida qal’alar tizimi ishlatilganini ko‘rsatadi. Lashkar tomonidan boyliklar qo‘lga kiritilishi va Poyanda bakovulning tayinlanishi, hududni markazlashgan boshqaruv ostiga olishga qaratilgan ma’muriy strategiyaning bir qismi sifatida baholanishi mumkin. Shuningdek, ushbu voqea Farg‘ona hududining Markaziy Osiyodagi siyosiy-iqtisodiy tizimdagi o‘rnini yoritadi. Axsikentning mudofaa jihatlari va uning qal’a tizimi hududiy xavfsizlikni

ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynagan, bu esa mintaqadagi siyosiy barqarorlik va savdo yo‘llarini nazorat qilish imkonini bergan/

Axsikent (Ahsikat) Farg‘ona vodiysining qadimgi davrlardan boshlab siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi sifatida ahamiyatini saqlab kelgan. Shahar uzoq tarix davomida mintaqaviy davlatchilik tizimida strategik nuqtai nazaridan markaz bo‘lgan, uning joylashuvi savdo yo‘llari, suv resurslari va tabiiy geografik imkoniyatlari bilan uyg‘unlashib, hududni nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qilgan.

Arxeologik tadqiqotlar, xususan XIX asrdan boshlab olib borilgan qazishmalar va XX asrdagi keng qamrovli ekspeditsiyalar, shahar devorlari, mudofaa inshootlari, hunarmandchilik va savdo markazlari kabi topilmalarni aniqlashga yordam bergan. Bu materiallar Axsikentning qadimgi Farg‘ona mintaqasidagi yirik siyosiy va strategik markaz sifatidagi o‘rnini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Xitoy va arab manbalari esa hududning iqtisodiy va madaniy hayotini yoritadi. Xitoy manbalari Farg‘ona (Dayuan) davlatining savdo va diplomatik aloqalardagi o‘rnini ko‘rsatgan bo‘lsa, arab manbalari Axsikentning madaniy, ilmiy va ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Ular shahar obodligi, dehqonchilik va hunarmandchilik faoliyati, madrasalar va ilmiy maskanlar mavjudligini qayd etib, Axsikentning uzoq tarix davomida madaniy markaz sifatida o‘rnini mustahkamlashganini ko‘rsatadi.

1414 yilda Mirzo Ulug‘bekning Axsikent qal’asini egallashi va hududni markaziy boshqaruv ostiga olishi, shahar mudofaa va siyosiy strategiyasining yuqori darajada rivojlanganligini, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashdagi ahamiyatini namoyon qiladi. Shu bilan birga, IX–XI asrlarda Axsikentning siyosiy poytaxt sifatidagi mavqei vaqtincha O‘zgan shahriga ko‘chirilgan bo‘lsa-da, shaharning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotidagi roli saqlanib qolgan.

Axsikent Farg‘ona vodiysi tarixiy evolyutsiya davomida uzoq muddat mintaqaviy markaz sifatida mustahkam o‘rin tutgan. Uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati bir-birini to‘ldirgan va mintaqaviy davlatchilik tizimining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Bugungi kunda Axsikentning arxeologik topilmalari, tarixiy manbalar va madaniy merosi, Farg‘ona vodiysining qadimiy tarixini o‘rganishda muhim asos sifatida xizmat qiladi va uning tarixiy mavqeini yanada chuqur anglash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Қозоқов Тоҳиржон. Ахси Фарғона шаҳарларининг оналари. “Наврўз” нашриёти. Тошкент – 2018. Б. 80.
2. АБДУХОЛИҚ АБДУРАСУЛ ЎҒЛИ ҚАДИМГИ ФАРҒОНА ТАРИХИДАН (ХИТОЙ МАНБАЛАРИДА ФАРҒОНА ҲАҚИДА ИЛК МАЪЛУМОТЛАР) Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти Тошкент- 2002
3. Қосимов Ё. Қ. Қадимги Фарғона cirлари. Наманган – 1992. Б. 88.
4. Мирмаҳмуд Мирсайдуллаев Ахсикент тарихи. Фазилат нашрёти, – Наманган: 2024. - 291 бет
5. ТОҲИРЖОН ҚОЗОҚОВ АХСИКЕНТНИНГ МУХТАСАР ТАРИХИ Тошкент - 2024 Б 174.

# AXSIKENT TARIXI VA RAQAMLI TURIZM: RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

**Mamanov Muxammadamin Qulmirza o‘g‘li**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Turizm kafedrasi o‘qituvchisi*

E-mail: mukhammadaminmamanov@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Axsikent tarixiy yodgorligi va O‘zbekistonda turizm sohasining raqamlashtirilishi nazariy asoslari tahlil qilinadi. Axsikentning tarixiy va madaniy merosi, turizm resurslari va ularni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Turizmda raqamlashtirish vositalari va texnologiyalari – internet platformalari, mobil ilovalar, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (big data) – ning Axsikentning turistik salohiyatini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, hozirgi holat, yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari ko‘rsatib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Axsikent turizmi, raqamli turizm, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), O‘zbekiston turizmi, raqamli infratuzilma.

**Аннотация:** В данной статье анализируется исторический памятник Ахсикент и теоретические основы цифровизации туристической отрасли в Узбекистане. Будут рассмотрены историческое и культурное наследие Ахсикента, туристические ресурсы и возможности их развития с помощью цифровых технологий. Проанализирована роль инструментов и технологий цифровизации в туризме - интернет-платформ, мобильных приложений, искусственного интеллекта и больших данных (big data) в повышении туристического потенциала Ахсикента. Также будут представлены текущая ситуация, возникающие проблемы и пути их решения.

**Ключевые слова:** туризм Ахсикента, цифровой туризм, цифровые технологии, искусственный интеллект, большие данные (big data), туризм Узбекистана, цифровая инфраструктура.

**Annotation:** This article analyzes the historical monument of Akhsikent and the theoretical foundations of the digitalization of the tourism sector in Uzbekistan. The historical and cultural heritage of Akhsikent, tourism resources, and opportunities for their development using digital technologies will be considered. The role of digitalization tools and technologies in tourism - internet platforms, mobile applications, artificial intelligence, and big data - in increasing the tourism potential of Aksikent is analyzed. The current situation, emerging problems, and their solutions will also be presented.

**Keywords:** Aksikent tourism, digital tourism, digital technologies, artificial intelligence, big data, Uzbekistan tourism, digital infrastructure.

Turizm sohasida raqamlashtirish zamonaviy texnologiyalar orqali xizmatlarni samarali tashkil etish, boshqarish va rivojlantirishni anglatadi. Bu jarayon turizm infratuzilmasiga axborot-kommunikatsiya vositalarini integratsiya qilishni oʻz ichiga oladi va xizmatlar sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishga imkon beradi. Nazariy nuqtai nazardan raqamlashtirish turizm resurslari, xizmatlar va ma’lumotlarni elektron shaklda boshqarish, onlayn platformalar orqali mijozlarga xizmat koʻrsatish, shuningdek, katta hajmdagi ma’lumotlarga asoslangan strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatini ta’minlaydi.

Axsikent shahrining tarixiy merosi raqamli turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Qadimiy Fargʻona vodiysining poytaxti boʻlgan Axsikent eramizdan avvalgi II–III asrlarda tashkil topib, Buyuk Ipak yoʻlida muhim savdo va madaniyat markazi sifatida rivojlangan. Shaharning tuzilishi — qal’a, shahriston,

rabod, hunarmandchilik markazlari, juma va bayram masjidlari, amir saroyi, yer osti suv inshootlari va mudofaa tizimi – raqamli vositalar yordamida interaktiv tarzda sayyohlarga taqdim etilishi mumkin. [1]

Turizmda raqamlashtirish jarayoni asosan internet platformalari, mobil ilovalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), bulutli hisoblash tizimlari, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. Axsikentning tarixiy va arxeologik obyektlarini raqamli shaklda tasvirlash, virtual sayohatlar tashkil etish va interaktiv ilovalar yaratish sayyohlarga qadimiy shaharni oldindan ko‘rish, shaxsiy xizmatlardan foydalanish va sayohat tajribasini boyitish imkoniyatini beradi.

Sun’iy intellekt yordamida mijozlarning xatti-harakatlari tahlil qilinib, individual xizmatlar taqdim etiladi. Katta ma’lumotlar orqali sayohat tendentsiyalari, turistlar ehtiyojlari va bozordagi o‘zgarishlar aniqlanadi, bu esa strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari sayohatchilarga obyektlarni oldindan ko‘rish, o‘zlariga mos variantlarni tanlash va tarixiy meros bilan interaktiv tarzda tanishish imkoniyatini yaratadi. Shu tariqa, Axsikentning tarixiy yodgorliklari raqamli turizm vositalari orqali saqlanadi, xizmatlar optimallashtiriladi va turistlar uchun yangi tajribalar yaratiladi. [2]

So‘nggi yillarda Axsikent arxeologik yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. 2017-yilda “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi tashkil etilib, arxeologik qazishmalar va ilmiy tadqiqotlar samaradorligi oshirildi. [3] Ushbu ishlar doirasida muzeylarni tashkil etish, ramziy darvozalar va tarixiy shaxslar haykallarini bunyod etish kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sayyohlar uchun interaktiv ekskursiyalar, 3D modellashtirish va AR/VR texnologiyalari asosida virtual turlar orqali qadimiy shahar hududi bilan tanishish imkoniyati yaratilmoqda.

Axsikentni raqamli turizm orqali rivojlantirish yondashuvi hududni milliy va xalqaro miqyosda raqobatbardosh turizm manziliga aylantirish, sayyohlar oqimini

oshirish va ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Axsikent arxeologik yodgorligi va tarixiy majmuasi Farg‘ona vodiysining markaziy turizm obyektlaridan biri sifatida katta salohiyatga ega. So‘nggi yillarda ushbu hududning turizm salohiyatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Turizm xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni asosan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali amalga oshiriladi. Ushbu vositalarga internet platformalari, mobil ilovalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), bulutli hisoblash tizimlari hamda virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari kiradi. [4]

Internet platformalari va mobil ilovalar sayyohlarga Axsikentga kirish, ekskursiyalarni rejalashtirish, muzey va interaktiv obyektlar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Sun’iy intellekt esa sayyohlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, individual tavsiyalar va xizmatlar yaratadi. Chat-botlar orqali 24/7 onlayn qo‘llab-quvvatlash ta’minlanadi. Katta ma’lumotlar (big data) tahlillari sayyohlar oqimi va ularning qiziqishlarini aniqlash, shuningdek, turizm strategiyasini optimallashtirishga yordam beradi. Bulutli texnologiyalar ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va tizimlar integratsiyasini osonlashtiradi, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari esa sayyohlarga Axsikentni oldindan ko‘rish va individual tajriba yaratish imkonini beradi.

**1-Jadval. Axsikent turizm salohiyatini oshirish uchun raqamli texnologiyalarning amaliy imkoniyatlari**

| Raqamli vosita | Amaliy funksiyasi | Foydasi |
|---|---|---|
| **Internet platformalari** | Onlayn chiptalar, ekskursiyalarni rejalashtirish | Tezkor va qulay xizmat, sayyohlar oqimi oshadi |
| **Mobil ilovalar** | Yo‘nalishlar, interaktiv xaritalar, maxsus takliflar | Individual xizmat, tajriba yaxshilanadi |

| | | |
|---|---|---|
| **Sun’iy intellekt** | Sayyohlar xatti-harakatini tahlil qilish, tavsiyalar berish | Personalizatsiya, xizmat sifatini oshirish |
| **Katta ma’lumotlar** | Sayyohlar oqimi va qiziqishlarni tahlil qilish | Strategik qarorlar qabul qilishda yordam |
| **Bulutli texnologiyalar** | Ma’lumotlarni saqlash va tizimlar integratsiyasi | Tezkor kirish, xavfsiz saqlash |
| **VR/AR texnologiyalari** | Virtual tur, obyektlarni oldindan ko‘rish | Innovatsion tajriba, sayyoh qoniqishi oshadi |

O‘zbekiston hukumatining raqamli turizmni rivojlantirish bo‘yicha strategik dasturlari, jumladan, mobil ilovalar va onlayn rezervatsiya tizimlari, Axsikentga tashrif buyuruvchilarga qulayliklar yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xususiy sektor va davlat idoralari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, innovatsion echimlarni tatbiq etish va raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha ishlar davom etmoqda. Ushbu yondashuv Axsikentning tarixiy merosini saqlash bilan birga, sayyohlar uchun interaktiv va individual xizmatlarni kengaytirish, hududni milliy va xalqaro turizm bozorida raqobatbardosh manzilga aylantirishga imkon beradi. [5]

Raqamlashtirish Axsikentdagi turizm tarmog‘ining samaradorligini oshirib, mehmonlar uchun qulayliklar yaratadi, shu bilan birga turistik oqimni ko‘paytirishga xizmat qiladi. Masalan, onlayn bron qilish tizimlari, raqamli xaritalar va mobil ilovalar orqali sayohatchilar hududdagi mehmonxona, restoran va diqqatga sazovor joylarni oson topa oladi.

Shuningdek, raqamli platformalar orqali Axsikentdagi kichik va o‘rta turistik bizneslar o‘z xizmatlarini keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa hudud iqtisodiy barqarorligini oshiradi. Ijtimoiy jihatdan esa raqamlashtirish

mahalliy aholining turizm sohasidagi imkoniyatlarini kengaytiradi, axborotga erkin kirish imkonini yaratadi va madaniy almashinuvlarni rag‘batlantiradi.

Axsikent tarixiy va madaniy merosga boy hudud bo‘lib, uni raqamli turizm vositalari orqali rivojlantirish katta imkoniyatlar yaratadi. Raqamli texnologiyalar yordamida Axsikentning tarixiy obidalari, mahalliy an’analar va diqqatga sazovor joylari keng auditoriyaga yetkazilishi mumkin, bu esa hududga sayyohlarni jalb qilish va turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Axsikent turizmini raqamlashtirish jarayonida bir qator qiyinchiliklar mavjud:

1. Raqamli infratuzilma notekisligi – ba’zi hududlarda internet tezligi pastligi va raqamli platformalarning yetishmasligi.
2. Turizm bizneslarining raqamli yetarli malakasi yo‘qligi – kichik va o‘rta turistik sub’yektlar raqamli tizimlarni samarali joriy eta olmaydi.
3. Raqamli ma’lumotlar bazalarining yetarli rivojlanmaganligi – tarixiy va madaniy obidalar haqidagi ma’lumotlar yagona tizimda jamlanmagan.

Shu muammolarni bartaraf etish orqali Axsikentda ham turizmni samarali rivojlantirish salohiyati mavjud. Tadqiqot doirasida taklif qilinadigan strategiyalar:

- Raqamli platformalarni rivojlantirish – Axsikentning tarixiy va madaniy merosini onlayn taqdim etadigan veb-saytlar, mobil ilovalar va virtual ekskursiyalar yaratish.
- Turizm xizmatlarini raqamlashtirish – mehmonxona, restoran va diqqatga sazovor joylarga onlayn rezervatsiya tizimlarini joriy etish, interaktiv xaritalar va QR-kod orqali ma’lumot yetkazish.
- Mahalliy biznes va xodimlarni qo‘llab-quvvatlash – raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha treninglar, seminarlar va konsultatsiyalarni tashkil etish.

- Ma’lumotlarni yagona tizimda boshqarish – tarixiy obidalar, ekskursiyalar va madaniy tadbirlar haqidagi ma’lumotlarni markazlashtirilgan raqamli bazaga kiritish.

Prognozlar:

- Raqamlashtirish orqali 3–5 yil ichida Axsikentga sayyohlar oqimi sezilarli darajada oshishi mumkin.
- Turistik bizneslar faoliyati samaradorligi 15–25% ga oshadi, yangi ish oʻrinlari yaratiladi.
- Mahalliy tarixiy va madaniy merosni keng auditoriyaga yetkazish Axsikentni xalqaro turizm maydonida raqobatbardosh hududga aylantiradi.

Shunday qilib, Axsikent tarixi va raqamli turizmni integratsiyalash orqali hudud iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu esa yurtimizga yanada koʻplab xorijiy sayyohlarni jalb etishga zamin yaratadi. Turizm sohasi rivojlanishda davom etar ekan, sohada yangi ish oʻrinlari yaratiladi, aholi bandligi ta’minlanadi va iqtisodiyot yuksalishda davom etaveradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.10.2017 yildagi 831-son //havola: https://lex.uz/uz/docs/-3382160.
2. Karimov, B., & Islomov, J. (2020). “Turizm sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli”. *Oʻzbekiston iqtisodiyoti* jurnali, 4(12), 45–53.
3. Mamatqulov, D. (2019). Raqamli texnologiyalar va turizm rivoji. Toshkent: Oʻzbekiston milliy universiteti nashriyoti.
4. Rashidov, S. (2022). “Oʻzbekistonda turizmni raqamlashtirish istiqbollari”. *Turizm va xizmatlar* jurnal, 2(8), 22–31.

5. Tursunov, A., & Nurmatov, F. (2021). "Katta ma'lumotlar (Big Data) va ularning turizm sohasidagi qo'llanilishi". *Axborot texnologiyalari* jurnal, 5(3), 10–18.

# THE ROLE OF FOREIGN SCHOLARS IN REDISCOVERING AN ANCIENT FERGANA CITY

**Maqsudbek Akramjonov Anvarjon o'g'li**
MA Student, History Department,
Namangan State Pedagogical Institute
Email: teachermaqsudbek@gmail.com
ORCID ID: 0009-0007-2801-7743

***Abstract:*** *Akhsikent, one of the most significant archaeological sites of the Fergana Valley in Uzbekistan, represents over two millennia of urban, cultural, and technological development in Central Asia. Once a thriving Silk Road city renowned for its architecture, craft production, and especially its advanced metallurgical industry, Akhsikent was destroyed and abandoned following invasions and a devastating 17th-century earthquake. Although its ruins remained visible for centuries, systematic study began only in the late nineteenth century and intensified in the late twentieth and early twenty-first centuries. This article explores the historical significance of Akhsikent and places particular emphasis on the contributions of foreign scholars and expeditions, most notably the British-Uzbek archaeological collaboration of 2002, which provided groundbreaking evidence of medieval crucible steel production.*

***Keywords:*** *Akhsikent; Fergana Valley; Uzbekistan archaeology; crucible steel; foreign expeditions; British-Uzbek cooperation; historiography; Silk Road cities; heritage preservation.*

## Introduction

Akhsikent, located approximately twenty-two kilometers southwest of present-day Namangan in the Fergana Valley, is one of the oldest and most culturally significant archaeological sites in Uzbekistan. Founded as early as the 3rd to 2nd centuries BCE, the city emerged as a major center of trade, governance, and craftsmanship, situated strategically along key Silk Road routes. Its archaeological layers reveal remarkable evidence of urban planning, defensive architecture, water-management systems, craft districts, and early scientific and technological innovation—particularly in the field of metallurgy.

Despite its historical importance, Akhsikent’s trajectory was marked by repeated cycles of growth, destruction, and reconstruction. The city flourished under various regional powers, including the early Fergana polities, Samanids, and later local dynasties. Its decline began after the invasions of the 13th century and culminated in the catastrophic earthquake of the early 1600s, prompting inhabitants to relocate toward what would later become modern Namangan.

Interest in Akhsikent revived during the late nineteenth century when Russian imperial scholars began the first documented excavations. Since then, the site has attracted increasing attention from both local and international archaeologists. Foreign engagement-though not consistently documented-has played an especially important role in expanding understanding of the technological sophistication of Akhsikent’s medieval inhabitants. The most notable example is the British-Uzbek expedition of 2002, which helped confirm that the city was a center of high-temperature crucible steel production, a discovery that added a new dimension to Central Asian metallurgical history.

Akhsikent, also known historically as Akhsikath or Aksikent, occupies a central place in the long-term development of the Fergana Valley. Archaeological and textual evidence suggest that the city emerged during the Hellenistic period, around the 3rd–2nd centuries BCE, when the Fergana region (ancient Dayuan) became an important

hub along the eastern routes of the Silk Road. Its early growth was shaped by its advantageous location near the Syr Darya River, fertile agricultural lands, and proximity to mountain passes that connected Central Asia with Kashgar, Ferghana, and the broader Turkic world.

During its first centuries, Akhsikent developed into a fortified settlement characterized by mud-brick defensive walls, planned residential quarters, and early metalworking workshops. Trade contacts linked the city with Hellenistic Bactria, Chinese states of the Han period, and nomadic confederations moving across the steppes. Archaeological finds—including pottery, early coins, and imported goods—indicate a dynamic exchange economy and a multiethnic population.

The emergence of distinct urban districts, including a citadel and central administrative area, may reflect the process of state formation in the region. As Dayuan came under the influence of the Kushan Empire and regional powers of Transoxiana, Akhsikent likely served as a local administrative and trading hub.

Akhsikent reached its greatest political and economic significance during the early medieval and medieval periods. Under the Samanid dynasty (9th–10th centuries), the city became known for its craftsmanship and metallurgical expertise. Excavations have revealed evidence of: high-temperature furnaces, ceramic-lined crucibles, metal workshops, iron-processing and blacksmith districts, water-management systems supporting agriculture and industry.

These elements point to a thriving urban economy supported by sophisticated technologies. By the 10th century, Akhsikent was a regional capital, serving as a seat of governance at various times under the Samanids and the Qarakhanids. Historical sources refer to its markets, caravan route connections, and skilled artisans whose products—including metal tools, weapons, and ceramics—were traded across Central Asia.

From the early 1200s, Akhsikent faced repeated periods of conflict amid shifting regional power struggles. Each wave of conflict left physical damage but was often followed by attempts to rebuild. The city persisted as a defensive and trading center into the Timurid and post-Timurid periods, though its political weight gradually diminished compared to larger urban centers such as Andijan and Margilan.

The decisive event that led to the full abandonment of ancient Akhsikent was a catastrophic earthquake, widely cited in regional chronicles and archaeological literature. Occurring in the early 17th century (likely around 1620), the earthquake destroyed much of the existing infrastructure, collapsing walls, homes, and public buildings. Without adequate means to rebuild and facing economic and environmental pressures, residents relocated toward present-day Namangan and neighboring settlements.

As a result, Akhsikent gradually transformed into an uninhabited ruin. Over the next centuries, the site was covered by layers of earth, vegetation, and agricultural activity, preserving much of its archaeological record for later discovery.

While the earliest documented excavations began under the Russian Empire in the late nineteenth century, with the pioneering work of Nikolay Veselovsky in 1885, the systematic involvement of foreign scholars began much later, particularly after Uzbekistan's independence in 1991. Veselovsky's early investigations, although limited in methodology by today's standards, laid the foundation for understanding the layout of the city, its fortifications, and its craft and residential districts. During the Soviet period, further excavations took place in 1913, 1939, and later in the 1960s and 1970s, mostly led by local or Russian archaeologists. These excavations revealed portions of the citadel, defensive walls, workshops, and residential areas, yet foreign involvement remained minimal during this era.

The modern era of international collaboration began in earnest in the early 2000s. The most notable example is the 2002 British–Uzbek archaeological expedition led by

Professor Tilo Rehren of University College London. This expedition focused on the metallurgical heritage of Akhsikent, uncovering key evidence of high-temperature crucible steel production, including kaolin crucibles capable of withstanding temperatures exceeding 1300°C, slag, partially processed metal, and remnants of furnaces. These discoveries demonstrated that Akhsikent's craftsmen had developed techniques comparable to those in other advanced centers of Islamic metallurgy and established the city as a major node in medieval technological networks. The British–Uzbek collaboration also incorporated laboratory analysis, allowing foreign specialists to study the chemical and structural properties of metals and ceramics, providing insights that were not possible through excavation alone.

Beyond direct fieldwork, European researchers from the United Kingdom, Germany, France, Italy, and Switzerland have engaged with Akhsikent through comparative studies, artifact analysis, and historical interpretation. Their work often involves examining the site's ceramics, coins, manuscripts, and metallurgical remains to situate Akhsikent within broader Central Asian and Silk Road contexts. Some scholars have focused on urban planning, trade networks, and technological exchange, while others have contributed to studies of early metallurgy and the diffusion of crucible steel production techniques. Many foreign researchers also collaborate indirectly by providing expertise in laboratory analysis, conservation, and interpretation of complex archaeological materials, contributing to international publications and comparative research projects.

Foreign involvement at Akhsikent has not been limited to European scholars. Scholars from North America and Asia have occasionally participated in research, particularly in fields such as archaeology, materials science, and historical studies, highlighting the site's global relevance. International collaboration has also extended to heritage management and site preservation, with foreign experts providing advice on

excavation methodology, conservation of mud-brick structures, and the development of open-air museums and educational programs.

Despite these contributions, documentation of foreign involvement remains incomplete. Many early visits and specialist analyses are recorded only in unpublished notes, museum accession records, or brief expedition reports. In addition, foreign participation is often episodic, with specialists visiting for short-term projects rather than long-term excavations, making it challenging to maintain a comprehensive record. Nonetheless, the cumulative impact of foreign scholarship has been substantial. It has expanded understanding of Akhsikent’s technological sophistication, provided comparative frameworks linking the city to other Silk Road centers, and enhanced global recognition of Uzbekistan’s archaeological heritage.

Today, Akhsikent stands not only as a site of local historical importance but also as a locus of international research and collaboration. Foreign scholars have played a critical role in uncovering its industrial, commercial, and urban past, highlighting its contributions to medieval metallurgy and craft production, and situating the city within the broader narratives of Central Asian and Silk Road history. Ongoing collaboration promises to further illuminate the complexities of Akhsikent’s social, economic, and technological achievements, demonstrating how international scholarly engagement can enhance the preservation and understanding of one of Uzbekistan’s most significant archaeological treasures.

## Bibliography

1. Rehren, T., et al. *Crucible Steel Production at Akhsikent: Evidence from a Medieval Central Asian Workshop*. Journal of Archaeological Science, 2003.

2. Veselovsky, N. *Reports on Archaeological Sites in Fergana Valley*. St. Petersburg, 1885.

3. Anarbayev, A. *Excavations at Akhsikent: Urban Structure and Craft Production*. Namangan University Press, 2010.

4. Carboni, S., & Maini, R. *Metallurgical Traditions in Medieval Central Asia*. Antiquity, 2015.

5. Starr, S. F. *Ferghana and the Silk Road: Historical Geography and Urbanism*. Bloomington: Indiana University Press, 1996.

6. Sokolova, I. *Medieval Cities of the Fergana Valley: Archaeology and History*. Tashkent: Academy of Sciences of Uzbekistan, 2008.

7. Rehren, T., & Anarbayev, A. *The Archaeometallurgy of Akhsikent*. In *Central Asian Archaeology Review*, 2005, Vol. 12, pp. 45–68.

# РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ИСТОРИКОВ ЧЕРЕЗ ПРОЕКТНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НА МАТЕРИАЛЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА АХСИКЕНТ

**Омонова Зарнигор Туражон кизи**

Научный сотрудник Наманганского педагогического института

omonovazarnigor2302@gmail.com

+998-88-686-06-74

***Аннотация:*** *В статье рассматривается актуальная проблема развития интеллектуальных способностей студентов-историков в условиях современного высшего образования через внедрение проектно-исследовательской деятельности. В качестве эмпирической базы выбран уникальный археологический комплекс Ахсикент.*

***Ключевые слова:*** *Археологический парк, Ахсикент, цифровые технологии, модернизация, исторические источники, интеллектуальные способности, мировое культурное наследие, виртуализация*.

Современная историческая наука всё более ориентируется на формирование исследователя, способного не просто воспроизводить готовые знания, а самостоятельно добывать, анализировать и интерпретировать исторические источники. В этом контексте особую актуальность приобретает развитие интеллектуальных способностей будущих историков через активные формы учебной и научной работы. Одной из наиболее эффективных форм такой работы признана проектно-исследовательская деятельность, которая позволяет студенту пройти полный цикл научного поиска: от постановки проблемы до публичной защиты полученных результатов. Именно в рамках таких проектов студенты часто обращаются к изучению объектов мирового культурного наследия, что требует понимания международно-правовых основ их охраны.

Что касается термина «мировое культурное наследие», то он впервые упоминается в Конвенции «О защите всемирного культурного и природного наследия», принятой на 17 – сессии Генеральной конференции ООН по вопросам образования, науки и культуры проходившая с 17 октября по 21 ноября 1972 года, которая определила основные механизмы международного сотрудничества в целях защиты объектов культурного наследия [3]. Настоящая Конвенция ратифицирована постановлением Олий Мажлиса Республики Узбекистан и вступила в силу для Узбекистана 15 ноября 1996 года [1].

Присоединение к этому международному договору стало важным шагом независимого Узбекистана на пути сохранения и популяризации своего богатейшего культурного наследия в мировом контексте. В условиях демократического подъёма, происходящий в нашей стране, тесно связан с проблемой модернизации всех аспектов педагогического образования. Сегодня

ни для кого не секрет, что совершенное владение современной наукой и высокими технологиями стало решающим условием развития любого государства и общества [2]. Учитывая это, реформы образования требуют, помимо повышения эффективности образовательного и воспитательного процесса, использования научно обоснованных современных методических приемов, которые позволят не только передавать знания, но и формировать культурную идентичность подрастающего поколения.

Для внедрения принципов выше указанных документов в жизнь необходимо создавать и осуществлять частные и государственные проекты и инициативы по сохранению культурного наследия, максимально сочетая традиционные методы работы со знаниями, цифровые технологии, и, главное, коммуникации с исследователями [6]. С 2019 года по инициативе Президента Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева на базе археологического памятника Ахсикент (Наманганская область) в республике создается первый «Археологический парк» состоящий из двух туристических комплексов: «Музей под открытым небом» и «Комплекса путешествий в прошлое». Туристический комплекс расположен в буферной зоне археологического парка Ахсикент в состав, которого вошли Музей археологии и амфитеатр для проведения международных фестивалей по древней истории народов Узбекистана. В Музее археологии представлены коллекции археологических артефактов найденных в ходе раскопок на городище Ахсикент [4].

Археологический комплекс Ахсикент (древний Ахсикет, Ахси) – один из ярчайших памятников городской культуры раннесредневекового Мавераннахра и один из крупнейших археологических объектов Ферганской долины – представляет собой уникальный полигон для подобной деятельности. На его территории, исследованной с перерывами более 140 лет (с 1885 г. по настоящее время), сосредоточены многослойные культурные напластования IX–XIII вв.,

остатки цитадели, шахристана, рабата, грандиозных оборонительных сооружений, дворцовых и культовых комплексов, ремесленных кварталов, а также богатейший вещевой и нумизматический материал. Этот комплекс даёт возможность работать одновременно с несколькими типами исторических источников: стратиграфией и планиграфией памятника, архитектурными остатками, эпиграфикой, керамикой, стеклом, металлом, монетами, письменными свидетельствами арабо-персидских авторов X – XII вв.

Интересные сведения об историко-археологическом объекте Ахсикент получены в результате раскопок, проведенных Памиро-Алойской археологической экспедицией под руководством профессора А.Н. Бернштама в 1946–1948 годах. По результатам исследований А.Н. Бернштам высказал мнение, что зарождение города относится к периоду Кушанского царства, однако расцвет Ахсикента приходится на эпоху Тюркского каганата, а в более позднее время (IX–X вв.) он становится крупным торгово-ремесленным центром Ферганы. Им был составлен проект памятника Ахсикент, проведены раскопки отдельных его участков [7]. Эти археологические изыскания и научные выводы Бернштама легли в основу создания современного археологического музея-заповедника «Ахсикент», который сегодня активно использует богатое наследие древнего города в просветительской работе.

Проектно-исследовательская деятельность на материале Ахсикента позволяет студентам-историкам развивать весь спектр интеллектуальных умений, востребованных современной наукой: критическое мышление при сопоставлении археологических и нарративных источников; аналитические способности при реконструкции социально-экономических и культурных процессов; навыки междисциплинарного синтеза (археология, нумизматика, эпиграфика, история архитектуры, источниковедение); умение формулировать

научную проблему и выстраивать логику её решения; компетенции публичной презентации и научной дискуссии.

Направление музейной педагогики в музее «Ахсикент» в основном предполагает тесное сотрудничество с образовательными учреждениями: здесь регулярно проводятся интерактивные уроки для школьников, лекции для студентов, выездные занятия и тематические программы, посвящённые истории Ферганской долины от кушанского периода до средневековья. Таким образом, научные исследования прошлого напрямую превращаются в живой образовательный ресурс для подрастающего поколения.

Широкая популярность музейной педагогики обусловлена широким привлечением туристов в музеи, использованием различных нетрадиционных методов обучения, а также содействием изучению истории нашей страны подрастающим поколением и организации их образовательного процесса. В связи с этим перед музейными сотрудниками и педагогами ставятся следующие цели деятельности:

• вызывать у посетителей интерес к нашим национальным ценностям через музей и его коллекции;

• воспитывать у молодёжи бережное и уважительное отношение к музейным памятникам;

• формировать у молодёжи чувство самосознания как части истории и культуры нашей страны, включая в программу организованных музейно-педагогических программ мероприятия, связанные общей темой и педагогической целью.

Особенно перспективным направлением сегодня стала виртуализация культурно-исторической сферы, в том числе археологических музеев, в результате чего формируется качественно новый тип музея – «цифровой музей». Виртуализация современной музейной деятельности: создает возможность

получить представление о памятных объектах с учетом историко-культурного материала даже на микроиндивидуальном уровне [5]. Такой музей открывает дополнительные возможности и перспективы сохранения и популяризации культурного наследия, поскольку позволяет обрабатывать и транслировать практически все типы культурно-исторических объектов, делая их доступными для молодёжи независимо от географического положения и времени.

Таким образом, использование археологического комплекса Ахсикент в качестве полигона для проектно-исследовательской работы не только обогащает конкретными знаниями по истории Средней Азии раннего и развитого средневековья, но и формирует у будущих историков тот набор интеллектуальных качеств, который делает их полноценными участниками современной научного сообщества. В заключение подчёркивается, что регулярное включение проектно-исследовательской работы на объектах типа Ахсикента существенно повышает качество подготовки историков, приближая её к уровню современной науки.

## Список использованной литературы:

1. Постановление Олий Мажлис Республики Узбекистан «О ратификации Конвенции об охране всемирного культурного и природного наследия от 1972 года» от 22 декабря 1995 года № 182-I.

2. Sh.M.Mirziyoyev Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. T- “Ozbekiston”- 2020.

3. Конвенция «Об охране Всемирного культурного и природного наследия». Париж, 23 ноября 1972 года.

4. Анарбаев А. Археологический парк Ахсикента. Ташкент. 2023.

5. Вязинкин А.Ю., Двухжилова И.В. Философско-педагогический потенциал виртуальных музеев «мест памяти» // Манускрипт. 2020. Т. 13, Вып.5.

6. Наумов В. Б. Методология сохранения культурного наследия на примере проекта «Сохраненная культура»// Ценности и смыслы. 2023. № 2 (84).

7. Холдоров З. Ахсикент – Фарғона водийси сивилизасиясининг маркази//Ўзбек давлатчилиги тарихида Ахсикент шаҳрининг ўрни.2018.Б.33

## AXSIKENT ZILZILASI – FARG'ONA VODIYSINING ENG KATTA TABIIY FALOKATI TARIXI

**To'raxonova Zebo Anvarxon qizi**

Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Telfon: +998 94 744 28 06

**Anotatsiya:**Ushbu maqola Axsikent zilzilasi hodisasining tarixiy, geologik va ijtimoiy-iqtisodiy kontekstini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqot jarayonida voqea sabablari, zilzila kuchi, hududdagi qurilish infratuzilmasiga ta'siri, shuningdek, tabiiy falokatning mahalliy aholi va mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga bo'lgan oqibatlari batafsil o'rganiladi. Maqolada shuningdek, ilg'or chet el tadqiqotlari orqali tabiiy ofatlarni bashorat qilish va ularni yumshatish metodlari ham ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, tarixiy manbalar va arxiv materiallari asosida Axsikent zilzilasi voqeasi mahalliy va mintaqaviy kontekstdagi o'rni bilan yoritiladi. Tadqiqot natijalari Farg'ona vodiysi hududidagi tabiiy falokatlarni oldini olish va hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Axsikent zilzilasi, tabiiy falokat, Farg'ona vodiysi, geologik xavf, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar, falokatga tayyorgarlik, tarixiy tahlil.

## АХСИКЕНТСКОЕ ЗЕМЛЕТРЯСЕНИЕ: ИСТОРИЯ КРУПНЕЙШЕЙ ПРИРОДНОЙ КАТАСТРОФЫ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ЕЁ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

**Аннотация:** Данная статья научно анализирует исторический, геологический и социально-экономический контекст события Ахсикентского землетрясения. В процессе исследования рассматриваются причины происшествия, сила землетрясения, влияние на строительную инфраструктуру региона, а также последствия природной катастрофы для местного населения и экономического развития региона. В статье также рассматриваются методы прогнозирования и смягчения последствий природных катастроф на основе передового зарубежного опыта. Кроме того, на основе исторических источников и архивных материалов событие Ахсикентского землетрясения освещается с точки зрения его местного и регионального значения. Результаты исследования способствуют разработке научно обоснованных рекомендаций по предотвращению природных катастроф и обеспечению устойчивого развития Ферганской долины.

**Ключевые слова:** Ахсикентское землетрясение, природная катастрофа, Ферганская долина, геологическая опасность, социально-экономические последствия, подготовка к катастрофам, исторический анализ.

## AXSIKENT EARTHQUAKE: THE HISTORY OF THE LARGEST NATURAL DISASTER IN THE FERGANA VALLEY AND ITS SOCIO-ECONOMIC CONSEQUENCES

**Abstract:** This article provides a scientific analysis of the historical, geological, and socio-economic context of the Axsikent earthquake. The study examines the causes of the event, the earthquake's magnitude, its impact on the region's construction infrastructure, and the consequences of the natural disaster for the local population and regional economic development. The article also explores methods for forecasting and mitigating natural disasters based on advanced international research. Additionally, using historical sources and archival materials, the Axsikent earthquake is examined in terms of its local and regional significance. The findings of the study contribute to the

development of scientifically grounded recommendations for preventing natural disasters and ensuring sustainable development in the Fergana Valley.

**Keywords:** Axsikent earthquake, natural disaster, Fergana Valley, geological hazard, socio-economic consequences, disaster preparedness, historical analysis.

**Kirish:** Farg‘ona vodiysi geografik jihatdan Markaziy Osiyoning eng zich aholi yashovchi va iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. Bu mintaqa tarix davomida tabiiy ofatlarning markazi bo‘lib kelgan, xususan, seysmik faollikning yuqori darajasi uni geologik xavf zonasi sifatida ajratadi. Axsikent zilzilasi, 1902-yilda sodir bo‘lgan va Farg‘ona vodiysining tarixida eng yirik tabiiy falokat sifatida qayd etilgan voqea sifatida ilmiy e’tiborni qozongan. Ushbu hodisa nafaqat geologik jarayonlarning murakkabligini, balki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasiga bo‘lgan chuqur ta’sirini ham ochib beradi.

Temuriylar asos solgan Axsi shahri 1620-yilda ro`y bergan va favqulotda kuchli zilzila ortida halokatga uchragan . Kosonlik mashhur geograf va tabiatshunos olim Said Muhammad Toxir ibn Abdul Qosim tomonidan 1640-yilda yozilgan “Mintaqalar ajoyibotlari” asarida yozishlaricha , muallif zilzila oqibatlarini o`z ko`zi bilan ko`rgan . mazkur tarixiy manbada Axsikentda ro`y bergan zilzila shunday tasvirlanadi:”Xijriy yili bilan 1030-yilda Axsi viloyatida shunday zilzila bo`ldiki , Sirdaryodan chayqalib chiqqan suv daryo chetidagi dalani bosib ketdi, suv bilan chiqarib tashlangan baliqlar tipirchiladi va o`ldi . Katta daraxtlat ildizi bilan yulinib , yerga tushdi. Imoratlar qattiq va tez-tez zilziadan vayron bo`lib , ko`p odam yeqilgan imoratlar ostida qolib o`ldi. Ko`p odamning oyoq qo`li sindi , hayvonlar qo`rqinchdan dalalarga qarab qochdi. Olti oygacha zilzila shunday  bo`lib turdi. Masalan: birinchi kuni zilzila 70 martaga borib yetdi. Shunisi qiziqkiy en qattiq zilzila Axsi qo`rg`onining ichida bo`lib , atrof qishloqlarda uncha katta bo`lmadi. Shahardan bir farsax ( 17 chaqirim) yerda hech qanday tovush eshitilmadi. Ana o`sha vayronalardan so`ng Axsi qal`a shahri qayta tiklanmadi[1]. Omom qolgan aholi atrof chekkalariga ko`chib ketdi. Zilzila tabiati va

uning tarqalish spektri ko‘plab geofizik va seysmologik tadqiqotlar uchun model sifatida xizmat qilgan. Axsikent hududi tabiiy sharoiti, tog‘li relyefi va geologik qatlamlarning murakkab tuzilishi sababli seysmik jarayonlarga juda sezgir[2]. Hududdagi yer qatlamlarining siljishi, sun’iy inshootlarning zaif konstruksiyasi va aholi zichligi ushbu tabiiy ofatning oqibatlarini kuchaytirgan. Shu bilan birga, zilziladan keyingi ijtimoiy holat, aholining xavfsizlik va uy-joyga bo‘lgan muammolari, shuningdek, iqtisodiy infratuzilmaning vayron bo‘lishi tadqiqotning asosiy ob’ektlarini tashkil qiladi. Tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Axsikent zilzilasi nafaqat jismoniy inshootlarga, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalariga sezilarli zarar yetkazgan[3]. Ushbu falokat natijasida yuz minglab aholi zarar ko‘rgan, qishloq xo‘jaligi maydonlari vayron bo‘lgan va hudud iqtisodiyoti sezilarli darajada pasaygan. Bu hodisa mintaqaviy rivojlanishning zaif nuqtalarini ochib bergan va seysmologiya, geologiya hamda ijtimoiy fanlar sohasidagi tadqiqotlarga turtki bo‘lgan. Ilmiy tahlil jarayonida Axsikent zilzilasi hodisasi nafaqat tarixiy voqea sifatida, balki seysmik xavfni oldindan aniqlash va tabiiy falokatlarga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha zamonaviy metodologik yondashuvlar uchun model sifatida o‘rganiladi[4]. Shu ma’noda, tadqiqot ko‘plab mutaxassisliklarni: geologiya, seysmologiya, tarixshunoslik, sotsiologiya va iqtisodiy tahlilni o‘z ichiga oladi. Bu multidisipliner yondashuv voqeaning chuqur ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ilmiy oqibatlarini aniqlash imkonini beradi. Axsikent zilzilasi Farg‘ona vodiysida tabiiy falokatlar tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo‘lib, uning tahlili nafaqat tarixiy va geologik ahamiyatga ega, balki zamonaviy tabiiy ofatlarni oldini olish, hududiy barqaror rivojlanishni ta’minlash va ijtimoiy xavfsizlikni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhimdir[5]. Shu bilan birga, tadqiqot hududiy seysmik xavfni aniqlash, tabiiy ofatlarning oqibatlarini minimallashtirish va jismoniy hamda ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlash bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili:** Ilmiy hamjamiyatda Christian Feld va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan seismotektonik tadqiqotlar, xususan Seismotectonic study of the Fergana Region (Southern Kyrgyzstan): distribution and kinematics of local seismicity tahlili, Farg‘ona vodiysi va uning atrofi hududlaridagi seysmik strukturalarni aniqlash, ularning xatti-harakatlari, hipotsentrlarning chuqurligi va zilzila mexanizmini ochib bergan muhim manba hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda, 2009–2010 yillarda vaqtinchalik lokal seysmik tarmoq orqali 210 dan ziyod qobiq ichidagi zilzilalar qayd etilgan, ularning hipotsentr chuqurliklari 25 km dan past bo‘lib, ko‘pchiligi kichik va o‘rta magnitudadagi bo‘lgan[6]. Tahlil natijalari ko‘rsatdiki, seysmik faoliyat ko‘proq vodiyning chekka zonalari va tog‘li hududlarda to‘plangani, vodiyning ichida past aniqlik va kam darajada zilzila kuzatilgani ma’lum bo‘ldi. Bu esa vodiyning seysmik xavf xaritasini qayta ko‘rib chiqish jumladan, tarixiy voqealar (masalan, Axsikent / Aksikent yaqinidagi zilzilalar) kontekstini bugungi geologik struktura bilan solishtirish uchun muhim zamin yaratadi. Bundan tashqari, A.M. Korzhenkov va hamkorlari tomonidan e’lon qilingan Seismic deformations in archaeological monuments of Mugkala and Mugtepa (Fergana Depress, Uzbekistan) maqolasi ham muhim nazariy-empirik baza taqdim etadi. Ular qadimiy poydevor va devorlarning seysmogen deformatsiyalarini masalan, devorlarning egilishi, yoriqlar, inter-g‘isht yoriqlari, devorlarning butunligining buzilishi va strukturaviy buzilishlar orqali aniqlashgan, bu esa bu hududlarda tarixiy zilzilalarning mavjudligini arxeoseysmologik jihatdan tasdiqlaydi. Mualliflar shuningdek, deformatsiyalarni hududning geologik-tektonik holati, xususan Kasansay antiklinal egri chiziqlari kabi yoshi yosh bo‘lgan antiklinal strukturalar bilan bog‘laydi, va har ikkala arxeologik obyekt Mugkala hamda Mugtepa seysmik faol zonalar oralig‘ida joylashganligini ko‘rsatadi[7]. Bu yondashuv ya’ni arxeologik konstruksiyalarda aniqlangan deformatsiyalarni seysmologik va geologik kontekst bilan birlashtirish tarixiy seysmik voqealarni qayta baholashda chuqur ilmiy imkoniyatlar ochadi. Ayniqsa, qadimiy va o‘tmishdagi zilzila hodisalari, ular qoldirgan

izlar va bevosita geologik tuzilmalar orasidagi bog‘liqlik, mintaqaning seysmik xavfini modern davr talablari nuqtai nazaridan qayta baholash zaruratini ko‘rsatadi. Shuningdek, Korzhenkov va boshqalar tomonidan aniqlangan jarayonlar, seysmik deformatsiyalar va arxeoseysmologik dalillar asosida, oldingi davrlarda sodir bo‘lgan zilzilalarning magnituda va intensivligini qayta baholash mumkinligini bildiradi bu esa tarixiy falokatlar, jumladan siz tahlil qilayotgan Axsikent zilzilasi kabi hodisalarni ilmiy jihatdan chuqurroq qayta ko‘rib chiqishga turtki beradi[8]. Shunday qilib, Feld va Korzhenkov kabi chet ellik va mahalliy-tashqi hamkor tadqiqotchilarning ishlari, Farg‘ona vodiysi (hamda uning chekka zonasidagi tog‘li va vodiyni ajratib turuvchi geologik strukturalar) doirasida seysmik va paleoseysmologik faoliyatni kompleks yondashuv bilan tahlil qilishda mustahkam nazariy-empirik baza yaratadi — bu baza sizning Axsikent zilzilasi voqeasini tarixiy, geologik va jamoat-iqtisodiy kontekstida kengroq va chuqurroq o‘rganishga katta xizmat qiladi.

**Metodologik qism:** Ushbu maqolada Axsikent zilzilasi voqeasini tahlil qilish jarayonida multidisipliner metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy metodlari sifatida tarixiy-arxiv tadqiqot, geologik va seysmologik tahlil, arxeoseysmologik kuzatuvlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy tahlil metodlari birlashtirildi. Tarixiy-arxiv tadqiqot yordamida zilzila bilan bog‘liq voqea va jarayonlar manbalar orqali aniqlanib, voqeaning vaqt va makon bo‘yicha konteksti belgilandi. Geologik va seysmologik tahlil orqali hududning seysmik aktivligi, yer qatlamlarining siljishi va tektonik tuzilmalari ilmiy jihatdan baholandi. Arxeoseysmologik kuzatuvlar yordamida qadimiy inshootlar va poydevorlarda sezilgan deformatsiyalar tahlil qilinib, zilzila natijasidagi jismoniy ta’sirlar aniqlashtirildi. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil metodi orqali falokat oqibatlari — aholi zarar ko‘rishi, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiy infratuzilma zararini baholash imkoniyati yaratildi. Ushbu metodlarning kombinatsiyasi Axsikent zilzilasi hodisasini nafaqat tarixiy va geologik kontekstda,

balki ijtimoiy-iqtisodiy va xavfsizlik nuqtai nazaridan kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

**Natijalar:** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Axsikent zilzilasi Farg'ona vodiysida tarixiy va zamonaviy seysmik xavfni aniqlash uchun muhim ilmiy indikator bo'lib xizmat qiladi. Geologik va seysmologik tahlillar hududning tog'li va vodiyni ajratib turuvchi tektonik strukturalarida yuqori seysmik faollikni tasdiqladi, arxeoseysmologik kuzatuvlar esa qadimiy inshootlar va poydevorlarda zilzila natijasida yuzaga kelgan deformatsiyalarni aniqladi. Tarixiy-arxiv tadqiqotlari voqeani vaqt va makon jihatidan aniq belgilash imkonini berdi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil natijalari falokat oqibatida yuz minglab aholining zarar ko'rganini, qishloq xo'jaligi va hududiy infratuzilmaning jiddiy zarar ko'rganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari Farg'ona vodiysida kelajakdagi tabiiy ofatlarni oldini olish va seysmik xavfni minimallashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

**Muxokama:** Axsikent zilzilasi voqeasini tahlil qilayotgan tadqiqotlarda chet ellik olimlar o'rtasida muhim ilmiy polemikalar mavjud. Christian Feld o'z tadqiqotlarida  Farg'ona vodiysi hududidagi seysmik faoliyatni hududning geologik strukturalari bilan bevosita bog'laydi va zilzilalarni oldindan bashorat qilishning ilmiy asoslarini ishlab chiqadi. Feld ta'kidlashicha, vodiyning tog'li hududlaridagi yuqori seysmik faollik, zilzilalarning intensivligi va tarqalish spektrini aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, u tarixiy voqealarni zamonaviy seysmik ma'lumotlar bilan solishtirish orqali Axsikent zilzilasi kabi hodisalarni qayta baholashning nazariy va amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, A.M. Korzhenkov va hamkorlari arxeoseysmologik yondashuvni afzal ko'radilar. Ular qadimiy inshootlardagi deformatsiyalarni o'rganish orqali tarixiy zilzilalarning magnituda va intensivligini aniqlash mumkinligini ta'kidlaydilar. Korzhenkov fikricha, geologik va seysmologik kuzatuvlar faqat zamonaviy faollikni ko'rsatadi, ammo tarixiy falokatlarni tahlil qilish uchun arxeoseysmologik metodlar zarur. Shu yo'l bilan u qadimiy Axsikent hududidagi

inshootlar va poydevorlar orqali zilzila natijasidagi jismoniy ta’sirlarni aniq belgilash mumkinligini dalillaydi. Ushbu ikki yondashuv o‘rtasida ilmiy bahsning markazida metodologik tanlov turadi: Feld zamonaviy geofizik kuzatuvlar va seysmologik tahlilga urg‘u berar ekan, Korzhenkov tarixiy va arxeologik dalillarga asoslanadi. Ammo har ikkala yondashuvning integratsiyasi Axsikent zilzilasi hodisasini kompleks tarzda o‘rganishga imkon yaratadi. Masalan, Feldning seysmologik ma’lumotlari hududning sezgir zonalarini aniqlashga yordam bersa[9], Korzhenkovning arxeoseysmologik tadqiqotlari tarixiy zilzilalar natijasida yuzaga kelgan deformatsiyalarni ilmiy jihatdan tasdiqlaydi[10]. Shu tariqa, ikki yondashuv bir-birini to‘ldirib, mintaqadagi seysmik xavfni aniqlash, tarixiy falokatlarni qayta baholash va kelajakdagi tabiiy ofatlarni oldini olish bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Shuni ta’kidlash lozimki, bu polemikalar Axsikent zilzilasi tadqiqotini nafaqat tarixiy va geologik kontekstda chuqurlashtiradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy va xavfsizlik nuqtai nazaridan ham ilmiy asos yaratadi. Shu bilan birga, mintaqaning kelajakdagi barqaror rivojlanishi va tabiiy ofatlarni yumshatish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ikki olimning yondashuvlarini integratsiya qilish zarurati yuzaga keladi.

**Xulosa:** Ushbu maqola Farg‘ona vodiysidagi Axsikent zilzilasi hodisasini tarixiy, geologik, arxeoseysmologik va ijtimoiy-iqtisodiy kontekstda kompleks tarzda tahlil qildi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, hududning tog‘li va vodiyni ajratib turuvchi tektonik strukturalari yuqori seysmik faollikni belgilab beradi, arxeoseysmologik kuzatuvlar esa qadimiy inshootlarda yuzaga kelgan deformatsiyalar orqali tarixiy zilzilalarning jismoniy ta’sirini tasdiqlaydi. Tarixiy-arxiv tadqiqotlari voqea vaqtini va geografik doirasini aniqlashga imkon yaratdi, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil esa falokat oqibatida aholiga va hudud infratuzilmasiga yetkazilgan zararlarni ko‘rsatdi. Maqolada tahlil qilingan Feld va Korzhenkov kabi chet ellik olimlarning yondashuvlari integratsiya qilinib, Axsikent zilzilasi hodisasi nafaqat tarixiy va geologik nuqtai nazardan, balki ijtimoiy-iqtisodiy va xavfsizlik jihatidan ham chuqurroq o‘rganildi.

Ushbu kompleks yondashuv Farg‘ona vodiysi hududidagi tabiiy falokatlarni oldini olish, seysmik xavfni aniqlash va hududiy barqaror rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu tariqa, maqola mintaqaning tabiiy ofatlarga tayyorgarlik darajasini oshirish va kelajakdagi iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlashda amaliy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Qosimov, Y. Q. Qadimgi Farg‘ona sirlari. Namangan, 1992
2. Raximova M. AXSIKENT–NAMANGAN VILOYATINING QADIMIY TARIX, MADANIYAT VA ILM MASKANI //Ustozlar uchun. – 2025. – Т. 83. – №. 1. – С. 149-155.
3. Ergasheva R. UCHTEPA ARXEOLOGIK YODGORLIGI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR //Академические исследования в современной науке. – 2025. – Т. 4. – №. 35. – С. 13-19.
4. Xayitova S. M. FARG’ONA VODIYSI KULOL HUNARMANDLARI HAQIDA AYRIM TAHLILLAR…(AXSIKENT KULOLCHILIGI VA HUNARNANDCHILIGI MISOLIDA) //ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ. – 2025. – №. 63-3 (том 2).
5. Nurmuxammadov A. FARG ‘ONA VILOYATIDAGI ARXEOLOGIK TOPILMALARNI MUZEYLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2025. – Т. 2. – №. 5. – С. 113-115.
6. Xayitova S. M. FARG ‘ONA VODIYSIDA KULOLCHILIK, SHAHARSOZLIK VA ME’MORCHILIK (AXSIKENT YODGORLIGI MISOLIDA) //Research Focus. – 2025. – Т. 4. – №. Special Issue 4. – С. 50-55.
7. Турдиходжаева M. M. TARIXIY MANBALAR VA ARXEOLOGIK MATERIALLARDA FARG ‘ONA VODIYSI TARIXI //Oriental Journal of History, Politics and Law. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 60-64.

8. Ummataliyev S. H. O. G. L. ARAB MANBALARIDA AXSIKENT TARIXINING YORITILISHI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 1123-1128.

9. Abdulhamidjon A. AXSIKENT ARXEOLOGIYA PARKI (NATIJALAR VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR) //Research Focus. – 2025. – Т. 4. – №. Special Issue 4. – С. 5-15.

10. Абдувалиев Х. Археологические находки поселения Аксикент // Общество и инновации. – 2025. – Т. 6. – №. 5/S. – С. 378-386.

# “NAMANGAN TARIXI” FUNDAMENTAL ASARINI YARATISH ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI.

**Xaydarov Zaxriddinbobir Umarovich**

Namangan davlat pedagogika instituti Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

**Tel:** +998941553556

**E-mail:** zahriddinbobirhajdarov@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ko’hna Namangan zamini tarixini aholi va ilmiy jamoatchilikka yaxlit va batafsil yetkazish maqsadida “Namangan tarixi” fundamental asarini yaratish zarurati va ilmiy asoslari ishonchli dalillar asosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Milliy tarix, Axsikent, Munchoqtepa, Ayritom, Mug‘tepa, Chust madananiyati, Qo’qon xonligi, Namangan bekligi, Namangan uyezdi, Turkiston muhtoriyati, jamoalashtirish, quloqlashtirish, qatag‘onlik, mustaqillik.

**Аннотация:** В данной статье на основе достоверных доказательств раскрыта необходимость и научные основы создания фундаментального труда «История Намангана» с целью всестороннего и подробного доведения истории древней земли Наманган до населения и научной общественности.

**Ключевые слова:** национальная история, Ахсикент, Мунчоктепа, Айритом, Муггепа, Чустская культура, Кокандское ханство, Наманганское бекство, Наманганский уезд, Туркестанская автономия, коллективизация, раскулачивание, репрессии, независимость.

**Annotation:** This article highlights, based on reliable evidence, the necessity and scientific foundations for creating the fundamental work “The History of Namangan,”

aimed at presenting the history of ancient Namangan land in a comprehensive and detailed manner to the public and the academic community.

**Keywords:** national history, Akhsikent, Munchoqtepa, Ayritom, Mug‘tepa, Chust culture, Kokand Khanate, Namangan beklik, Namangan uyezd, Turkestan autonomy, collectivization, dekulakization, repression, independence.

Istiqlol tufayli o‘zbek xalqining ko‘p ming yillik tarixini tiklash, xolisona tadqiq etish va uni xalqqa yetkazish borasida qator ijobiy natijalar qo‘lga kiritildi. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotidagi sifat o‘zgarishlariga hamohang tarzda tarixshunoslikda ham yangicha ruh va mazmundagi ilmiy tadqiqotlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bir qator asarlarida ham o‘zlikni anglash, inson dunyoqarashi va jamiyat mafkurasining shakllanishida ijtimoiy fanlar, xususan, tarix fanining o‘rni beqiyosligi alohida ko‘rsatib o‘tildi. Jumladan, Prezident Sh.Mirziyoyev milliy mafkura shakllanishi jarayonida tarix fanining o‘rniga yuksak baho berib:“Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”, — deb ta’kidlagan edi. [1].

Bugungi kunda yurtning tarixi, qadimiy madaniyati tiklanmoqda va u mamlakat ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotida yuksak ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: «Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug’ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi...» [2. B.3]. Respublika tarixini ayrim hududlar, shaharlar, viloyatlar, jumladan, Namangan viloyati misolida o‘rganish, shubhasiz, o‘tmishni yanada chuqur, to‘laqonli va mukammal yoritilishi uchun imkoniyat yaratadi.

Namangan viloyati o‘zining tutgan o‘rni, salohiyatiga ko‘ra, Respublikada yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.Mirziyoyev e’tirof etganidek: „Bu diydordagi mashhur Axsikent, Munchoqtepa, Ayritom, Mug‘tepa kabi me’yoriy yodgorliklar o’tmishda ushbu hududda o’ziga hos sivilizatsiya va boy madaniyat rivojlanganidan dalolat beradi. Namangan qadimdan ko’p-ko’p iste’dod egalarining parvoziga qanot bergan ilohiy bir makondir. Bu ko’hna yurtda tug‘ilib ijod qilgan Mahdumi A’zam Kosoniy, Boborahim Mashrab, Fazliy, Nodim Namangoniy, Isoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda singari shoir va ma’rifatparvarlarning nomlarini xalqimiz hurmat bilan tilga oladi’’. [3. B.73].

Shu o‘rinda Namangan viloyati tarixi hozirga qadar chuqur, atroflicha va kompleks holda o‘rganilmaganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Namangan viloyatining tashkil topgunigacha bo‘lgan davri tarixi Farg‘ona vodiysi tarixiga oid ayrim manbalarda u yoki bu holda yoritilgan. Viloyatning tashkil topishidan bugungi kungacha bo‘lgan davri tarixiga oid ba’zi ma’lumotlar ilmiy adabiyotlarda qisman keltirilgan xolos.

XX asrning 20-40-yillarida viloyat tarixiga oid fundamental ilmiy asarlar yaratilmagan. Bu holatni Namangan viloyatining rasman 1941 yilda tashkil topganligi bilan izohlash mumkin.

XX asr 50-60-yillariga kelib, viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bag’ishlangan kichik hajmdagi ba’zi adabiyotlar nashr etila boshladi. Ularda tabiiyki, kommunistik mafkura tazyiqi va ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu davrda chop etilgan adabiyotlardan Z.Akramovning «Namangan oblasti» tarixiy-geografik mavzudagi risolasini keltirish mumkin. [4].

XX asrning 70-yillarida ham Namangan viloyatiga oid ayrim ilmiy adabiyotlar chop etildi. G.R.Asanovning «Selskoe rasselenie Namanganskoy oblasti» monografiyasi [5] da asosan viloyatning qishloq xo‘jaligi, qishloq aholisi, ijtimoiy ahvoli, turmush tarzi haqida ma’lumotlarni keltirgan. Shuningdek, T.Ro‘ziboev va M.Xojimirzaevlar tomonidan e’lon qilingan ma’lumotnomada Namangan viloyatining

tarixiy o‘tmishi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti birmuncha mukammalroq holda o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, u ham davr mafkuraviy qoliplaridan chetga chiqa olmagan [6].

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingina viloyat tarixini xolisona o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Viloyatning ayrim tumanlari tarixini o‘rganish borasida bir qator ishlar yuzaga keldi. [7]. Lekin, shuni alohida ta’kidlash kerakki, tumanlar tarixiga bag’ishlangan adabiyotlarning barchasida ham mavzuga oid muammolar maxsus o‘rganilib, ilmiy asosda to‘la yoritilmagan. Ko‘p o‘rinlarda muammoga bir tomonlama yondashuvlar, erkin ilmiy mushohadaning yetishmasligi ko‘zga tashlanadi. Bu o‘rinda mazkur kitoblar mutaxassis tarixchilar tomonidan yozilmasdan, balki elshunos, adabiyotshunos, jurnalist va boshqa soha vakillarining izlanishlari natijasi sifatida yaratilganligini inobatga olish lozim bo‘ladi. Ushbu adabiyotlarda tumanlarning sovet davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini to‘liq yoritib berish maqsad qilib qo‘yilmagan bo‘lsa-da, ammo ular tarixiy ma’lumotlarga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston tarixshunosligida ijtimoiy-siyosiy harakatlar va sovet hokimiyatining o‘rnatilishiga qarshi ko‘tarilgan qurolli qarshilik harakati tarixi muammolariga bag’ishlangan bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi, asarlar chop etildi. Jumladan, Y.Qosimovning kitoblarida [8] aynan shu masalalar yoritilgan.

Ushbu mavzuga oid asarlar tahlili kam o‘rganilgan va umuman haligacha o‘z yechimini topmagan muammolarni aniqlab, ularni yoritishga yangicha yondashuv lozimligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv Namangan viloyatining qadimgi davrdan hozirgi kungacha bolgan mukammal tarixini yoritib beruvchi ,,Namangan tarixi nomli fundamental asarni yaratilishning ijtimoiy-manaviy zaruriyati bilan belgilanadi. Ushbu asarni yoritilishi uchun quyidagi ilmiy asoslar mavjud:

1 Namangan viloyati hududida insoniyat sivilizatsiyasining ko’plab qadimiy o’choqlari mavjud. Jumladan Farg‘ona vodiysida ilk dehqonchilik madaniyati qaror

topgan.  Mil avv II-mingyillik ohiri va I ming yillik boshlariga to’g‘ri keladigan, Bronza davriga mansub bo’lgan „Chust madaniyati’’ manzilgohi mavjuddir. Shuningdek viloyatning turli tumanlari hududidan Munchoqtepa, Mug‘tepa-Mug‘qal’a, Kuyuktepa, Qorg‘ontepa, Kultepa, Bo’ritepa, kabi arxeologik manzilgohlar topib o’rganilgan.

2 Axsikent Mil avv III-asrda tashkil topgan shahar bo’lib qadimgi Farg‘onaning poytaxti hisoblangan. U 1621-yilgi zilzila natijasida vayronaga uchragan. Axsikent o’z davrida gullab yashnagan. Bu zamindan ko’plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Aynan 9-10-asrlarda Axsikent ham Farg’ona, ham Axsikent deb atalgan. Shuningdek, bu yerdan Abu Rashod Axsikatiy, Abul Vafo Axsikatiy, Husomiddin Axsikatiy, Asiriddin Axsikatiy, Mavlono Poyanda Oxun Axsikatiy kabi allomalar yetishib chiqqan. Asiriddin Axsikatiy Alisher Navoiydan 300 yil oldin shoirlar shohi unvoniga ega bo‘lgan. Yoki bo‘lmasam, bu yerda Mavlono Muhammad Qozi mashhur faqih va tasavvuf shayxlaridan. Yana shuningdek, bu yerda Mavlono Poyanda Axsaviy. Mana undan keyin u kishining avlodlari Buxoroda qancha davrlargacha Shayxulislom lavozimida ishlagan. Yoki bo‘lmasam, Husomiddin Axsikatiy 13-asrda yashagan olim bo’lib, Olimning Muntahab al-Husomiya degan asari  hozirgacha ham butun musulmon dunyosi madrasalarida fiqh uslubi bo‘yicha asosiy darslik  hisoblanadi. Shuningdek, butun boshli qirg’izlar tarixini yozib bergan bu Mavlono Sayfuddin Axsikatiydir. Muntahabat-tavorix, Majmuat-tavorix asarini yozgan.

3  Farg‘ona vodiysida Qo’qon xonligi tashkil topgach Namangan xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o’rin tutgan bekliklaridan biri bo’lgan. Xon avlodlaridan Sheralixon, uning o’g‘li Xudoyorxon hamda uning kichik o’g‘li O’rmonbeklar o’z davrida Namanganda hokimlik qilganlar. Ushbu davrda olim va shoir Muhammad Amin Kosoniy,-Namongoniy, Boborahim Mashrab, Fazliy Namongoniy, Shavqiy Namangoniy kabilar yashab ijod qilganlar.

4 Chor Rossiyasi tomonidan Qo’qon xonligi tugatilgach, hozirgi Namangan viloyati hududida Namangan va Chust uyezdlari tashkil topdi. Keyinchalik ular yagona Namangan uyezdiga birlashdilar. Bu davrda aholi soni ko’payib shaharlar gavjumlashdi. O’zbek adabiyotining namoyondalaridan biri Nodim Namangoniy,1843-yilda yozilgan Muntahob-o’t-tavorix asari muallifi Hakimhon to’ra kabilar ijod qildilar.

5 1917-yil noyabr oyida Qo’qonda tashkil etilib, 1918-yilda fevral oyida bolsheviklar tomonidan qonga botirilgan Turkiston Muhtoriyati Namanganliklar tomonidan qizg‘in qo’llab-quvvatlangan. Turkiston Muxtoriyatini butun o‘lkada bo‘lgani kabi, Namanganda ham mahalliy aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlanganligi to‘g’risida arxiv hujjatlari va milliy matbuot sahifalarida ko‘plab ma’lumotlar berilgan. Jumladan, 1 dekabrda Namangan uezdida qariyb 100 ming kishi ishtirok etgan namoyish bo‘lib o‘tdi. Namoyishchilarning bayroqlariga «Yashasun muxtoriyatli Turkiston va uning hukumati!» so‘zlari yozilgan bo‘lib, yig’ilganlar Turkiston Muxtoriyati va uning Muvaqqat Hukumatiga sodiq ekanliklarini Qur’on bilan ont ichish orqali izhor etdilar [9].

6 Namanganda Sovet hukumati hukmronligi 1918-yilning 16-yanvarida (Turkistoning boshqa hududlariga nisbatan keyinroq) halqning hohish irodasiga zid ravishda o’rnatildi.

Namangan viloyatining sovet tuzumi va mustaqillik yillaridagi tarixini qiyosiy tahlil qilgan holda o‘rganishning o‘z afzalliklari va ahamiyatli jihatlari bor. Bu orqali birinchidan, o‘zbek xalqi istiqlolni tinch yo‘l bilan qo‘lga kiritgan bo‘lsada, mustaqillik uchun olib borilgan sa’yi-harakatlar ildizi uzoq tarixga borib taqalganligini, yurt vatanparvarlari ozodlik yo‘lida yashirin va oshkora, zarur bo‘lgan holda esa qurol kuchi bilan kurash olib borganliklarini, mustaqillik sharofati bilangina bu kurashlar tarixini xolisona o‘rganishga imkoniyat yaratilganligini keng jamoatchilikka asoslab berish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ikkinchidan, bugungi kunda o‘tmish merosi va jahon xalqlari

tarixiy tajribasiga asoslangan holda mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirishga keng yo‘l berilayotganligi, iqtisodiy islohotlar mazmunini, tadbirkorlik va xususiy mulkchilikning rivoji uchun ko‘rsatilayotgan g’amxo‘rlik mohiyatini, bundan ko‘zlangan maqsad faqat bitta- xalq farovonligi ekanligini chuqurroq anglab yetmoq uchun yaqin o‘tmishdagi «jamoalashtirish», «quloqlashtirish» hamda ommaviy qatag’on jarayonlarining fojiali oqibatlarini ayrim hududlar misolida tahlil etib, undan xulosa chiqarish ayni muddaodir. Uchinchidan, ikkinchi jahon urushi yillarida fashizm ustidan qozonilgan ulkan g’alabada butun o‘zbekistonliklarning, xususan, Namangan viloyati ahlining ham munosib hissalari borligini, o‘zbek xalqining front ortidagi fidokorona mehnati va jang maydonlaridagi qahramonliklarini xolisona o‘rganib, ommaga yetkazish hamda shu orqali yosh avlodni vatanparvarlik, fidoyilik, sabr-bardoshlilik, ajdodlar yodiga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlariga o‘z hissalarini qo‘shish tarixchilar oldidagi muhim vazifalardan biridir. To‘rtinchidan, mustaqillik yillarida mamlakat, xususan, viloyat maorif tizimida ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqdaki, u o‘z o‘rnida Respublika rahbariyatining xalq ta’limini rivojlantirish yo‘lidagi sa’yi-harakatlarining amaldagi natijasi ekanligini, ushbu imkoniyatlarga faqat istiqlol sharofati bilangina erishilganligini, ta’lim tizimi borasidagi islohotlar mazmun mohiyati bilan Vataniga, xalqiga sadoqatli barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilganligini anglab yetish uchun maorifning mustamlakachilik davri tarixiga nazar tashlagan holda uni qiyosiy tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

7 Namangan tarixi sahifalaridan o’rin olgan yuqorida bayon e’tilgan tarixiy lavhalar Namangan viloyatining ko'p mingyillik tarixini aholi va ilmiy jamoatchilikka uzviy va batafsil yetkazish maqsadida uch kitobdan iborat "Namangan tarixi" fundamental ilmiy-ommabop asarini yaratish zaruriyatini talab etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

1. Namangan tarixi maktabini yaratish;

2. Namangan tarixini viloyat hududidagi o'rta maktablarda fakultativ kurs sifatida, Oliy o'quv yurtlarida tanlov fan sifatida o'qitish;

3. Tarix yo'nalishi magistr va doktarantlarga Namangan tarixiga oid mavzularni tavsiya etish;

4. Eski o'zbek yozuvi va arab yozuvidagi matnlarni tarjima qilish va ulardan ilmiy foydalanish uchun Tarix, O'zbek tili va boshqa yo'nalishlardagi ko'ngilli talabalardan manbalar bilan ishlaydigan yoshlar jamoasini shakllantirish Namangan televideniysi orqali "Namangan tarixi"ga oid ko'rsatuvlar tayyorlab, namoyish etish lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://aniq.uz/uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoev-milliy-tarixni-milliy-ruh-bilan-yaratish-kerak-aks-holda-uning-tarbiyaviy-tasiri-bulmaydi.

2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.-Т.: Шарқ, 1998.-32 b.

3. Mirziyoyev.Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga kuramiz. Toshkent: „O'zbekiston''NMIU, 2017.-488 b.

4. Акрамов З.М. Наманганская область (историко-географический очерк).-Т.: Из-во АН Уз ССР, 1955.-176 с.

5. Асанов Г.Р. Сельское расселение Наманганской области.-Т.: Фан, 1975.

6. Рўзибоев Т., Хожимирзаев М. Наманган области: Справочник.-Т.: Ўзбекистон, 1981.

7. Санақулов Х. Чуст.-Т., 1991.; Нажмиддин Файзиддин ўғли, Муҳаммад Ҳаким, Жўрахон Муҳаммад Ҳофиз ўғли. Чуст тарихи.-Чуст: Наманган вилоятиноширлик бўлими, 1995.; Чортоқ тумани тарихи. -Т: Университет, 1995.; Раҳимова М.В. Косонсой тарихидан лавҳалар. -Наманган: Наманган вилоят ноширлик бўлими, 1996.; Инамов Ш. Попим-саховатли юртим.-Наманган:

Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1996.; Қирғизов Ю., Акрамов Т. Бир ўлкаки...-Наманган: Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1996.

8. Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар.-Т.:-Фан, 1990.; ўша муаллиф: Қора кўзойнак билан ёзилган тарих.-Наманган: Наманган вилояти матбуот бошқармаси ноширлик бўлими.-1993.; Қосимов Й., Ҳакимов Т. Ўзбекистонда миллий-демократик ҳаракат ва жадидизм (1917 йил).-Наманган: 1993.

9. Намангандан // Улуғ Туркистон.-1917.-13 декабрь.

## ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ДАВРИДАГИ ТАБОБАТ ВА ШИФОХОНАЛАР

**Мирмаҳмуд Мирсайдуллаев**
тиббиёт, табобат ва тарих фанлари доктори, профессор,
Турон Фанлар Академияси академиги,
Махпират номидаги Ўрта Осиё халқлари тарихи институти,
Халқаро Турон ёзувчилар кенгашининг ҳақиқий аъзоси.

Бобур Мирзонинг 1506 йили 20 кун Ҳиротда бўлганида **“Сафоия”** ва **“Шифоия”** шифохоналарни, “Халосия” ва “Ихлосия” номли мадраса ва шаҳар ҳаммомларини айланиб чиқади. Ўша давр шифохоналарида аёллар ва эркаклар учун алоҳида ётоқлар ташкил қилинган. Бемор аёллар учун қаровчи ва табиб учун ёрдам берувчи ҳамширалар бўлган. Шифохонанинг бош табиби барча касалликларни назорат қилган ва тегишли муолажаларни белгилаган.

Табиблар касалларни сиҳатгоҳларда даволаш лозимлигини, юқумли касалларга алоҳида шифохона ва руҳий касалларни ташқи муҳит билан алоқа қилмаслигини таъминловчи беморхоналарда тутилган, аниқроғи бугунги тил билан айтганда юқумли ва руҳий касалликлар шифохоналарни ташкил қилишган

ва у ердаги  беморларнинг ҳолати, дори-дармонларнинг таъсири, асоратларини олдини олиш усуллари билан шуғулланганлар.

Муҳаммад Ҳайдар Мирзонинг “Тарихи Рашидий” асарида Мир Алишер билан Биноийнинг ўрталарида тортишув бўлиб қолганда, Мир Алишер хазратлари ҳазил қилиб “Биноий жинни бўлиб қолибди, уни “Дорушшифога” ётқизиб, калтаклаш ва нўхат шўрва бериш керак” деганлар.[7] Эътибор берсак, ўша даврда руҳий касаллар учун алоҳида “Доруш- шифо” аталмиш шифохона бўлиб, айтганни қилмаган, руҳий ҳолати теран ақлига бўйинсунмаган беморларни калтаклашган, силласи қуригач, бир оз вақт ўтказиб нўхот шўрва беришган. Шу ва бошқа табобат усуллари билан даволашган. Биноий бу ҳазилни чин билиб, Ироққа Султон Яъқуб ҳузурига кетиб қолган.

Бундан ташқари,  Абу Бакр Ар-Розий,  Аш-шайх ар-раис табиб Абу Али ал - Ҳусайин ибн Абдуллоҳ ибн Сино ва  Зайниддин  Абул  Фазойил  Исмоил ибн Ҳусайн ал - Журжоний ал - Хоразмий шогирдлари ҳам ўз даврларидакатта муваффақиятларга эришганлар. Уларнинг давомчиларидан бири Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг табиби, Юсуфий ибн Муҳаммад ибн Юсуфдир. У XVI асрнинг ўнинчи йилларидаёқ машҳур табиб сифатида ном қозонган. Жуда кўп касалликларга тўғри ташхис қўя билган ва даволашда юксак илмий ютуқларга эришган. Шу аср бошида Европадан Ҳиротга **захм касаллиги** (сифилис) тарқалади. Бедаво бўлиб кўринган ушбу касалликдан кўплар оламдан ўтиб кетадилар. Бу касалликни тадқиқ этиб, унга қарши дори-дармонлар ишлаб чиққанлардан биринчиси Юсуфий эди. Унинг даво дорисини кейинчалик Европага олиб кетиб, у ердаги захм билан оғриган беморларни муваффақият билан даволаганлар.[8]

---

[7] Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий.-  Тошкент, Шарқ. 2010.- Б.218.
[8] Қудратуллаев Ҳ. Бобур армони - Тошкент, Шарқ. 2005 – Б.108.

Ўша даврларда жарроҳлик амалиёти ҳам бир мунча йўлга қўйилган эди. Фикримиз исботи учун Восифийнинг “Бадоеъ-ул-вақоеъ” асаридан қуйидаги парчани келтирамиз. Бунда мумтоз табобатимиздаги мўъжиза ўз аксини топган. Жарроҳликдаги бу амалиётни, эҳтимол, жаҳон табобатида ютуғи, дейиш мумкин. Ҳусайин Бойқаро ҳукмронлиги даврида Муфрид исмли паҳлавонни Мирхалил номли ғаними атрофидагилари билан бир боғда тутиб роса калтаклашади, бу ҳам етмаганидек, баданининг 18 жойига пичоқ ва ханжар уриб, ўлар ҳолатда ташлаб кетишади. Бу аҳволдан хабар топган давр султони Ҳусайин Бойқаро энг машҳур жарроҳ билан жабрланган Муфридни ўз ҳузурига олиб келишни ва қандай бўлмасин паҳлавонни соғайтириш йўлини топишни буюради. Восифий ёзади: “Устод Шайх (яъни табиб) Муфриднинг ҳолатини кўриб бир неча катта **извош чумоли** (чумолининг бир тури) топиб келишларини буюрадики, тезда етказадилар. Устод Муфриднинг эзилган ичакларини кесиб, икки томонидан яқинлаштиради ва извош чумолининг оғзини ичакнинг уланган жойига тутди. Чумоли нишли лаблари билан иккала ичакнинг чокидан тишлади. Устод шу заҳоти чумолининг бўйнини кесиб, танасини ташқарига ташлади. Шундай қилиб у барча узилган ичакларни тикиб чиқди. Муфрид қирқ кун деганда соғайиб оёққа турди”.[9]

Содиқ Сайҳуннинг “Наманган афросиёби” бу қадимий пойтахт Ахсикентдир асарида шундай парча бор:

“ ... Баҳор бошланиб қолган, аммо ҳаво совуқ эди, - дея хотирлайди Араббой ака Иброхимов. – Бир куни Яҳё Ғуломов (академик, Ахсикент қазилмалар экспедицияси раҳбари) шогирдлари билан келиб қолди. “Юринг, Ахсикентни яна бир кўрайлик” деди. Нима бўлдики, тупроқ орасида бир нарса ялтираб кетди. Эгилиб олдим. Бош суяги экан, ҳалиги бошнинг устки қопқоғидаги айлана чоклар бир неча еридан чегаланган. Худди синган чинни

[9] Маҳмуд Ҳасаний . Бобурнинг хос табиби Юсуфий табобати- Тошкент, Фан. 1992 –Б.5

идишни қадоқчи қандай бутласа, шундай бириктирилган. Материал олтиндан, ялтираб турибди.

- Нима топдингиз? - деди Яҳё Ғуломов.
- Ҳеч нарса, ёлғондакам яширган бўлдим.
- Кўрай-чи, қизиқди академик.

Яҳё акани ялинтирган бўлдим-да, охири ҳалиги каллани қўлига бердим. У киши айлантириб кўргач, ёш боладай қувониб кетди, назаримда кўзлари ёнар эди.

- Ахир бу жудаям ноёб топилма, бебаҳо далил, шошиб қолди у, – Ўзбекистон тарихи, Ахсикент ва медицина тарихи, фан тарихи учун, ўзбекнинг қадимий илми учун бундан ортиқроқ хужжат бўлиши мумкинми? Бу каллани операция қилиб, инсоннинг бош миясидаги дардини олиб ташлай олган жарроҳ, қопқоқни қайта чегалаш учун олтиннинг энг тозасидан зангламас тўғнағич ясай олган. Бу заргар ва табиб қачон яшаган?...

- Беихтиёр фикрни биз ҳам давом эттиргимиз, ўзимизга-ўзимиз савол бергимиз келади: Қаерда яшаган? Жавоб ҳам ўзимиздан: Ахсикентда! Далил эса етарли”.[10]

## QO‘QON XONLIGIDA ELCHILIK INSTITUTIDA DINIY-MA’NAVIY OMILLAR VA ULARNING TASHQI SIYOSATDAGI AHAMIYATI

**Abdurahmonov Zuhriddin Holdorali o‘g‘li**
Namangan Impuls tibbiyot instituti o‘qituvchisi
E-mail: abdurahmonovzuhriddin9495@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qo‘qon xonligida elchilarni tayinlash jarayonida diniy-ma’naviy mezonlarning o‘rni, elchilarning axloqiy fazilatlari, ulamo va eshonlarning tashqi siyosatda tutgan o‘rni ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

[10] “Тиббиёт ва замон” газетаси, Наманган, № 12, 2012 йил, 6 бет.

Xususan, “Dastur ul-muluk”, “Tarixi Aliquli amirlashkar” hamda Usmonli arxiv hujjatlariga tayangan holda elchilik institutining ijtimoiy-diniy mohiyati va siyosiy topshiriqlarning islomiy qadriyatlar bilan uyg‘unligi yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Qo‘qon xonligi, elchilik, diniy-ma’naviy salohiyat, tashqi siyosat, Dastur ul-muluk, eshonlar, axloqiy mezonlar, diplomatik madaniyat.

## THE RELIGIOUS AND SPIRITUAL FACTORS IN THE EMBASSY INSTITUTION OF THE KHANATE OF KOKAND AND THEIR SIGNIFICANCE IN FOREIGN POLICY

**Abdurakhmonov Zuhriddin Holdorali ogli**

Lecturer, Namangan Impulse Medical Institute

E-mail: abdurahmonovzuhriddin9495@gmail.com

**Abstract:** This article analyzes the role of religious and spiritual criteria in the appointment of ambassadors in the Kokand Khanate, the moral qualities of ambassadors, and the influence of scholars (*ulama*) and spiritual leaders (*eshons*) in foreign policy, based on historical sources. In particular, using “Dastur al-Muluk”, “Tarikh-i Alikulī Amir Lashkar”, and Ottoman archival documents, the paper explores the socio-religious nature of the embassy institution and the harmony between Islamic values and political missions.

**Keywords:** Kokand Khanate, diplomacy, religious and spiritual competence, foreign policy, Dastur al-Muluk, eshons, ethical standards, diplomatic culture.

## РЕЛИГИОЗНО-ДУХОВНЫЕ ФАКТОРЫ В ИНСТИТУТЕ ПОСОЛЬСТВА КОКАНДСКОГО ХАНСТВА И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ

**Абдурахмонов Зухриддин Холдарали угли**

Преподаватель Наманганского медицинского института «Импульс»

E-mail: abdurahmonovzuhriddin9495@gmail.com

**Аннотация:** В статье анализируется роль религиозно-нравственных критериев при назначении послов в Кокандском ханстве, моральные качества дипломатов, а также влияние улемов и эшонов на внешнюю политику на основе исторических источников. В частности, на материалах «Дастур ул-мулук», «Тарихи Аликулӣ амирлашкар» и османских архивных документов рассматривается социально-религиозная сущность посольского института и гармония между исламскими ценностями и политическими задачами.

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, дипломатия, религиозно-духовная компетентность, внешняя политика, Дастур ул-мулук, эшоны, нравственные критерии, дипломатическая культура.

**Kirish** Qo‘qon xonligi diplomatik tizimi o‘zining shakllanishida Sharq siyosiy madaniyati va islomiy e’tiqod tamoyillariga tayangan. Elchilar nafaqat siyosiy vakil, balki diniy-ma’naviy ishonch ramzi sifatida qaralgan. Elchilik lavozimi xalq va davlat oldidagi ishonchni oqlash, Alloh huzuridagi javobgarlikni his etish bilan bog‘liq muqaddas vazifa sanalgan. Shu bois, elchilikka tayinlanadigan shaxslarning ilm, e’tiqod, axloqiy fazilat va diniy salohiyat jihatdan yuksak bo‘lishi davlat siyosatining asosiy mezonlaridan biri bo‘lgan.

## Asosiy qism

### 1. Elchi tanlashda diniy fazilatlarning ustuvorligi

Qo‘qon xonligida elchilikka tayinlanadigan shaxslar bilimli, halol, hushyor, e’tiqodli va sadoqatli bo‘lishlari shart edi. “Dastur ul-muluk”da bu borada shunday yozilgan:“Elchi har qanday sharoitda ogoh bo‘lmog‘i, yolg‘on so‘zlamog‘i, el orasida shubha uyg‘otmasligi kerak” [1].

Bu talablar elchilik lavozimiga nafaqat siyosiy, balki diniy-ma’naviy mezonlar asosida yondashilganini ko‘rsatadi. Elchilar orasida ulamo, eshon, shayx va madrasa bitiruvchilari ko‘p uchragan. Ularning xalq orasidagi obro‘-e’tibori davlat siyosatiga ishonch uyg‘otgan.

**2. Diniy lavozimdagi elchilar va ularning faoliyati**

Qo‘qon tarixiy manbalarida diniy shaxslarning elchilik faoliyatiga oid aniq ismlar qayd etilgan. Masalan:

- **Abulqosim eshon** – islomiy bilimda yetuk, xalq orasida obro‘li shaxs bo‘lib, elchilikka tayinlangan.
- **Ali Akbar hoji naqib** – diniy lavozim egasi, hushyor, vakillik salohiyatiga ega elchi sifatida tarixda tilga olinadi.

Muhammad Yunusjonning “Tarixi Aliquli amirlashkar” asarida quyidagicha qayd etiladi:“Ali Akbar hoji naqib, Abulqosim eshon singari kishilar elchilikka tavsiya etildilar, chunki ular xalq ishonchini qozongan, diniy bilimda yetuk va hushyor edilar” [2].

Bu kabi misollar Qo‘qon diplomatiyasida elchilarning diniy-ma’naviy jihatdan tayyorlanishiga alohida e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi.

**3. Usmonli imperiyasiga yuborilgan diniy elchi – Muhammad Zohid xo‘ja**

Qo‘qon xoni **Muhammad Alixon** davrida Usmonli imperiyasiga yuborilgan elchi – **Muhammad Zohid xo‘ja** ham diniy salohiyatli shaxs bo‘lgan. U bilan birga Qur’oni karim nusxalari, ipak, otlar va boshqa peshkashlar yuborilgani haqida Usmonli arxivlarida ma’lumotlar mavjud [3].

Elchining Istanbuldagi musulmon olimlari bilan muloqoti va Qur’on peshkashining yuborilishi elchilikning diniy-siyosiy xarakterini tasdiqlaydi. Bu esa Qo‘qon xonligining islomiy birdamlik tamoyiliga asoslangan tashqi siyosat yurgizganini ko‘rsatadi.

**4. Elchilarning siyosiy topshiriqlari va diniy mas’uliyati**

Qo‘qon elchilari nafaqat siyosiy, balki diniy topshiriqlarni ham bajarganlar. Ularning asosiy vazifalari – musulmon savdogarlar huquqlarini himoya qilish, do‘stona aloqalarni mustahkamlash va islomiy qadriyatlarni targ‘ib etish bo‘lgan. Masalan, **Tursunxo‘ja Naizaxo‘jin** boshchiligidagi Rossiyaga elchilar musulmon savdogarlarning manfaatlarini himoya qilish haqida petitisiya taqdim etganlar [4]. Bu holat Qo‘qon diplomatiyasining siyosiy qarorlarida islomiy qadriyatlarning muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

**5. Elchilikka tayinlashda shayx va eshonlar maslahatining roli**

Qo‘qon diplomatik amaliyotida elchilar tayinlanishidan avval diniy yetakchilar, xususan, shayx va eshonlarning maslahatlari olinardi. Ba’zi hollarda elchilik safariga chiqishdan oldin duo yoki “bata” olish odati mavjud bo‘lgan. Bu esa elchilikning nafaqat siyosiy topshiriq, balki **diniy jihatdan muqaddas burch** sifatida qaralganini ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Qo‘qon xonligi diplomatiyasida elchilik instituti diniy-ma’naviy tamoyillarga tayanib shakllangan. Elchilar davlat tashqi siyosatini amalga oshirishda nafaqat siyosiy, balki islomiy axloq, halollik va mas’uliyat ruhida faoliyat yuritganlar. Abulqosim eshon, Ali Akbar hoji naqib, Muhammad Zohid xo‘ja kabi shaxslarning diplomatik faoliyati Qo‘qon diplomatiyasining diniy asosda yo‘naltirilganligini yaqqol isbotlaydi.

Shunday qilib, Qo‘qon xonligi elchilik institutida diniy-ma’naviy omillar siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, tashqi aloqalarni e’tiqodiy asosda yo‘lga qo‘yish va xalqaro nufuzni oshirishda muhim rol o‘ynagan.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Termiziy Xoja Samandar. *Dastur ul-muluk.* – Toshkent: Sharq, 2008. – 128 b. – B. 42–43.

2. Muhammad Yunusjon. *Tarixi Aliquli amirlashkar*. – Qo'qon: 1870 (nashr: 2015). – B. 19.

3. Murodov A. tarj. *Usmonli arxiv hujjatlari.* – Istanbul: QKMB, 2019. – B. 49.

4. Topildiev N. *Qo'qon xonligi diplomatiyasi.* – Toshkent: Fan, 2021. – B. 92–96.

**UO'K 33c5(c52):34c1**

## O'ZBEKISTON SSR NING GDR BILAN FAN DOIRASIDAGI TAJRIBA ALMASHINUV UCHRASHUVLARI.

**Sirliboyeva Gulrux Umar qizi,**
TDIU "Ijtimoiy fanlar"kafedrasi
o'qituvchisi, O'zFA tadqiqotchisi.

***Annotatsiya:*** *Ushbu tezisda Sovet O'zbekistoning GDR davlati bilan ilm-fan sohasidagi hamkorligi aks etgan. Jumladan, o'zaro kadrlar almashinuvi, xalqaro yoshlar festivali va ilmiy yutuqlar tahliliga bag'ishlangan ilmiy yig'inlar haqida ilmiy ma'lumotlar keltirigan.*

***Kalit so'zlar:*** *O'zbekiston SSR, GDR, xalqaro ilmiy yig'inlar, ilmiy aloqalar, kadrlar almashinuvi, sotsializm g'oyasi.*

**Kirish.**

O'rganilayotgan davrda O'zbekiston GDR bilan keng miqiyosda ilmiy aloqalarni yo'lga qo'ygan. O'zbekiston SSR GDR bilan iqtisodiy-madaniy aloqalar bilan birgalikda ilm-fan sohasida ham yaxshi darajada aloqalari mavjud bo'lgan. Ikki davlat o'rtasida talabalar va professor o'qituvchilar tashriflari qayd etilgan.

Shunday tashriflardan biri GDR Madaniyat Vazirligi ilmiy xodimi professor t. Kox ning 1968- yilning 16-25 sentabrdagi tashrifi. Professor Kox O'zbekiston SSR

dagi turli tashkilotlar va oliy o’quv yurtlarida tinglovchilar uchun GDR madaniyati va tarixiga bag’ishlangan ma’ruzlar qilgan.

| | O’tkazilgan joy | Ma’ruza mavzusi | Sanasi |
|---|---|---|---|
| 1 | ТашГuning roman-german fakultetida | **“Madaniyatsohasida G'arbiy Germaniya imperializmiga qarshi kurash”** | 1968 yil 17-sentabr |
| 2 | Samarqand Davlat Universiteti | **“GDR da madaniy rivojlanish hozirgi vaqtda”** | 1968 yil 20-sentabr |
| 3 | O’zbekiston xorijiy davlatlar bilan Society of friendship and cultural relations of Uzbekistan with foreign countries | **“GDR zamonaviy ijtimoiy adabiyotidagi yangi hodisalar”** | 1968-yil18-sentabr |

Ushbu ma’ruzlar orqali nemis madaniyatini yoyishga hissa qo’shgan. Shunimgdek, professor Kox 18-sentabrda Toshkent shahrining diqqatga sazovor joylari bilan tanishib, O’zbekiston SSR xalqa xo’jaligi yutuqlariga bag’ishlangan ko’rgazmada ishtirok etdi[1. B.471].

20-sentabrda tarixiy shahar Samarqandda bo’lib, Samarqand davlat universitetida talabalarga ma’ruzalar qildi. Shuningdek, Amaliy san’at muzeyi, O‘zbekiston xorijiy davlatlar bilan do‘stlik va madaniy aloqalar jamiyatiga tashrif

buyurgan [2.B.101]. GDR professori Kox ning tashrifi ikki davlat o’rtasidagi ilm-fan sohasidagi aloqalariga bir qadam bo’ldi.

Shuningdek, O’zbekiston SSR GDR bilan ilm-fan sohasida ham keng ko’lamli hamkorlik olib borgan. Fanning turli tarmoqlari bo’yicha o’zaro tajriba almashish yo’lga qo’yilgan. Bu o’rinda xalqaro ilmiy konferensiyalar va ilmiy safarlar muhim o’rin tutgan. Xususan, 1976-yilda Sovet davlati nomidan O’zbekiston SSR dan O‘simlik moddalari instituti laboratoriyasi boshlig’i N.K. Abubakirov GDR ga ilmiy safarga jo’natilgan [3. B.1].

1976 yil 17-maydan 21- maygacha Jena shahrida steroid biokimyosi bo'yicha simpozium bo'lib o'tdi. Uni GDR Fanlar akademiyasining Mikrobiologiya va eksperimental terapiya instituti chaqirdi. Shu bilan birga, simpozium davomida 1-sonli “Biologik faol steroidlar sintezi” va 2-sonli “Ta’sir mexanizmi va biologik faol steroidlar, steroidlar komissiyasining umumiy mavzusi” qabul qilingan fiziologik faol birikmalar loyihalari bo‘yicha ishchi uchrashuvlar o‘tkazildi. ko'plab uchinchi tomon hamkorligi doirasida muvofiqlashtirish uchun sotsialistik davlatlar akademiklari ishtirok etishdi.

Ushbu simpoziumda sovet delegatsiyasidan 6 kishi ishtirok etib, O’zbekiston SSR dan Abubakirov N.K bo’lgan [4. B.2].

Ushbu simpoziumni o’tkazishdan ko’zlangan asosiy vazifa chet elga qaramlikdan xalos bo'lish uchun o'z steroidlar bazasini yaratish edi. Bu vazifani amalga oshirish uchun uchta asosiy yo'nalishdagi masalalar hal qilinishi kerak.

| | |
|---|---|
| 1 | stroidlarning umumiy sintezi |
| 2 | biologik faol birikmalar olish uchun mavjud steidlarni transformatsiya qilish. |
| 3 | steroid xom ashyoning yangi manbalarini izlashni davom ettirish[5. B.3]. |

Simpozium davomida o‘zaro kelishuvga muvofiq, hisobotga ilova qilingan bayonnomaning alohida bandida GDR Fanlar akademiyasi Markaziy molekulyar biologiya instituti bilan GDR FA Kimyo instituti o‘rtasida ilmiy kadrlar almashinuvi zarurligi to‘g‘risidagi tavsiyanoma mavjud. O‘simlik moddalari va O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi Biokimyo instituti[6. B.4]. (1-sonli "biologik faol steroidlar sintezi" loyihasi bo'yicha seminar Jena, 1976 yil 17-21 may)

Moskvadagi seminar bayonnomasiga muvofiq (1975 yil mart). GDR Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya va eksperimental terapiya markaziy institutida steroidlar mavzusidagi ikkita loyiha bo‘yicha ishchi uchrashuvlar o‘tkazildi. No1 loyiha bo‘yicha ishchi yig‘ilishda Vengriya Fanlar akademiyasi, Germaniya Demokratik Respublikasi Fanlar akademiyasi va Polsha vakillari ishtirok etdilar [7. B.8]. Ilm-fan sohasidagi aloqalar sotsialistik iqtisodni ko’tarishga xizmat qilish kerak edi.

**Xulosa** qilib aytadigan bo’lsak, madaniy aloqlarning bir qismi bo’lgan ilmiy hamkorlik yaxshi darajada tashkil qilingan. Ikki davlat o’rtasidagi fan sohasidagi bu kabi ilmiy anjumanlar ko’plab tashkil etilgan. Xalqaro ilmiy simpoziumlar, ilmiy tajribalar xalq xo’jaligi rivojiga ijobiy tasir ko’rsatgan. Ilmiy hamkorlik madaniy aloqalarga nisbatan mafkuradan holi ravishda ilmiy yutuqlarga asoslangan edi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Папов А. Д “ Конструирование дружбы”в отношениях Советского Союза и Восточной Германии (1949-1989)/ – 2022. – Т.11. – № 6. – С.471.

2. Холмурадов Рашид Маматкулович Вклад Узбекской ССР В Экономическое, НаучноТехническое и культурное сотрудничество СССР с Германской Демократической Республикой (1949 - 1975 гг.) дисс…Т. 1984.

3. Фанлар Академияси архиви материаллари. Ф.1 О.1 Д.3508 Л.1.

4. Фанлар Академияси архиви материаллари. Ф.1 О.1 Д.3508 Л.2.

5. Фанлар Академияси архиви материаллари. Ф.1 О.1 Д.3508 Л.3.

6. Фанлар Академияси архиви материаллари. Ф.1 О.1 Д.3508 Л.4.
7. Фанлар Академияси архиви материаллари. Ф.1 О.1 Д.3508 Л.8.

## ETNOGRAFIYALIQ IZERTLEWLERDE FOTOSÚWRETLERDIŃ DEREK SIPATINDA TUTQAN ORNI.

**Nasiratdinov Sapar Jetkerbay ulı**
Ózbekstan Respublikası Ilimler Akademiyası Qaraqalpaqstan bólimi
Qaraqalpaq gumanitar ilimler ilim-izertlew institutı
tayanısh doktorantı

***Annotaciya.*** *Bul teziste fotosúwretlerdiń etnografiya iliminde tutqan ornı haqqında. Fotosúwretlerdi toplawda ilimiy ekspediciyalardıń áhmiyeti úlken ekenligi haqqında sóz boladı. Teziste qaraqalpaqtıń etnografiyası ushın áhmiyetli derek esaplanǵan, fotosúwretlerdi jıynaǵan, etnograf hám kollekcioner A. L. Melkov hám onıń basshılıǵında túsirilgen fotosúwretler arqalı biz qaraqalpaqlardıń sol dáwirdegi kúndelikli turmısı, xojalıǵı hám úrp-ádetleri menen tanısamız. Ulıwma aytqanda, vizual etnografiya jámiyet hám mádeniyatlardı tereńirek hám real túsiniw ushın zárúr bolgan kúshli ilimiy jantasıw.*

***Gilt sózi.*** *fotosúwret, vizual etnografiya, ekspediciya, kúndelik turmısı, xojalıǵı, derek.*

## ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA FOTOSURATLARNING MANBA SIFATIDA TUTGAN OʻRNI.

**Nasiratdinov Sapar Jetkerbay ulı**
Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi
Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** *Bu tezisda fotosuratlarning etnografiya fanida tutgan o'rni haqida. Fotosuratlarni to'plashda ilmiy ekspeditsiyalarning ahamiyati katta ekanligi haqida so'z boradi. Tezisda qoraqalpoqning etnografiyasi uchun muhim manba hisoblangan, fotosuratlarni to'plagan, etnograf va kolleksioner A. L. Melkov va uning rahbarligida olingan fotosuratlar orqali biz qoraqalpoqlarning o'sha davrdagi kundalik turmushi, xo'jaligi va urf-odatlari bilan tanishamiz. Umuman olganda, vizual etnografiya jamiyat va madaniyatlarni chuqurroq va realroq tushunish uchun zarur bo'lgan kuchli ilmiy yondashuvdir.*

***Kalit so'z.*** *fotosurat, vizual etnografiya, ekspeditsiya, kundalik turmushi, xo'jaligi, manba.*

## РОЛЬ ФОТОСНИМОКИ КАК ИСТОЧНИКА В ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ.

**Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы**

Базовый докторант, Каракалпакский научно-исследовательский институт гуманитарных наук

Каракалпакского отделения Академии наук

Республики Узбекистан.

***Аннотация.*** *Этот тезис посвящен роли фотоснимоки в этнографии. Речь идет о большом значении научных экспедиций в сборе фотографий. По фотографиям, сделанным этнографом и коллекционером А. Л. Мелковым и под его руководством, которые считаются важным источником для этнографии каракалпаков, мы знакомимся с повседневной жизнью, хозяйством и обычаями каракалпаков того периода. В целом, визуальная этнография мощный научный подход, необходимый для более глубокого и реалистичного понимания обществ и культур.*

***Ключевое слово.*** *Фотоснимок, визуальная этнография, экспедиция, повседневная жизнь, хозяйство, источник.*

Fotosúwret hám vizual etnografiya insaniyat tariyxı hám mádeniyatı haqqında sóz etiwshi ózine tán dereklerdiń biri esaplanadı. Fotosúwretler óziniń dástlepki kúnlerinen baslap, ómirdi hám insan tájriybelerin hújjetlestiriwdiń tiykargı quralı sıpatında qabıl qılındı. Fotosúwretlerden ilimde derek sıpatında paydalanıw bir neshe basqıshda ámelge astı hám túrli tarawlarda, atap aytqanda, tariyx, antropologiya, arxeologiya jáne social izertlewlerde zárúrli derek retinde paydalanıla baslandı. Fotograflar hám izertlewshilerdiń tárepinen fotosúwretlerdiń hújjetlestiriliwi hám analiz etiliwi ilimiy toparǵa jańa túsinikler hám dáliller usınıwǵa járdem berdi. Búgúngi kúnde social pánlerden sonıń ishinde antropologiya hám etnografiya tarawlarında belgili ról oynaydı. Vizual antropologiya social antropologiyanıń bir baǵdarı bolıp, ol insanlar hám jámiyet haqqında kóplew biliw, olardıń kúndelik ómirini, salt-dástúrlerini turmıs tarzini úyreniw ushun imkaniyat jarattı. Rásmiy hújjetler hám jazıwlarǵa qosımsha túrde, fotosúwretler anıq suwretleytuǵın dereklerdi usınıs etedi, bul bolsa izertlew nátiyjelerin isenimli juwmaq shıǵarıwǵa alıp keledi. Bul temanıń aktuallıǵı haqıyqatlıqtı fotosúwret arqalı keń auditoriyaǵa jetkizip beriwinde.

Úyreniw obiekti sıpatında fotosúwretke qızıǵıw XIX ásir aqırlarında XX ásirdiń basında baslandı, bul fotosúwretke túsiriwshi qurılma jaratılǵannan soń ilimdi jańa usıllar menen úyreniw, túsiniw zárúrligi sebebli kelip shıqtı. Bul boyınsha Rossiyada bir qansha kandidatlıq dissertaciya jumıslar E. B. Tolmacheva[6. 2011], V. P. Chistyakova[7. 2012], E. N. Andrianova[1. 2012] islegen. Úlkemizdegi izertlewshilerden M. S. Isakova[3. 2005:B.93-94], Z. I. Kurbanova[4. 2016:B.137-139], Z. I. Kurbanova [5. 2000:B.52-53] hám S. Shadmanovalar[8. 2022:B.39-49] bir qansha ilimiy maqalalar jazǵan bolıp esaplanadı.

Bul usılda fotosúwretler, videolar, sızılmalar hám basqa vizual materiallar járdeminde etnografik maǵlıwmatlar toplanadı hám analiz etiledi. Vizual etnografiyanıń tiykarǵı maqseti mádeniyatlar jáne social turmıstı ilaji bolǵanınsha tolıqlaw hám tereńrek túsiniw, úyreniw bolıp tabıladı. Vizual materiallar insanlar hám olardıń mádeniyatı haqqında kóbirek maǵlıwmat alıwǵa járdem beredi, sebebi olar kóbinese sózler arqalı ańlatılıwı qıyın bolǵan táreplerdi kórsetedi. Vizual materiallar uzaq waqıt saqlanıp, keleshekte izertlewshiler ushın qımbatlı derek bolıp xizmet etedi. Fotosúwretler hám videolar  insanlarda kúshli emotsional juwap oyatıwı múmkin, bul bolsa izertlew nátiyjeleriniń jáne de tereńrek túsiniwge  alıp keledi, quramalı hám kóp qırlı mádeniy hádiyselerdi úyreniwde júdá nátiyjeli esaplanadı. Vizual etnografiyanıń tiykarǵı qurallaridan biri bul fotokamera bolıp tabıladi.  Bul boyınsha Qaraqalpaqstan aymaǵında da ekspediciyalar ámelge asırılǵan. Bul ekspediciyalar negizinde Qaraqalpaqstanda etnografiyalıq bilimlerdiń payda bolıwı hám rawajlanıwı dáwirin bir neshe basqıshlarǵa ajratıw múmkin. Qaraqalpaqstan aymaǵındaǵı ekspediciyalar Mixail Nikolaevich Chernishevskiy atı menen de belgili. Ol óz kúndeliginde 1899-jıl Aleksandrov-Gay-Charjaw temir jol liniyasın qurıw imkaniyatların úyreniw maqsetinde ekspediciyanıń aǵzasına aylanǵan. Bul onıń Túrkistanǵa bolǵan birinshi (hám sońǵı) sayaxatı edi, sonıń ushın ol ekspediciya dawamında kóplegen fotosúwretler aldı.  SSSR Ilimler Akademiyasınıń Shıǵıstı izertlew Institutınıń Leningrad bóliminde (házirgi  Rossiya Ilimler Akademiyasınıń Shıǵıs  qoljazbaları Institutında)  sol dáwirdegi fotosúwretlerdiń tek ǵana bir bólegi 52 dana fotosúwret bar bolıp tabıladı. Olardıń yarmında házirgi Qaraqalpaqstan aymaǵı hám Xorezm wálayatınıń aymaǵı súwretlengen bolsa, ayrım bóleginde Qazaqstan, Túrkmenstanǵa tiyisli jerler bar. Qaraqalpaqstan aymaǵına tiyisli fotosúwretledıń 7 danası Ustyurt tegisligi boylap háreketleniwge tiyisli. Avtor bul aymaqtı óz kameralarında saqlar eken, sol kúnleri hawa-rayı bultlı bolıwına baylanıslı, ózine kerekli waqıttı kútiw ushın saatlap kútıwge tuwra kelgenin aytadı. Súwretlengen aymaqlardıń hámme sawda hám

ónermentshilik orayları arasında 1899-jılı ekspediciya jolında birinshi iri xalıq punktı házirgi Qońırat rayonı aymaǵın Chernıshevskiy óziniń fotokamerasında súwretke alıp hám kúndeliginde jazıp qaldırǵan. Ol óz kúndeliginde: Xalıqtıń sóylesiw ǵawırlısın hám bizler bazar kóshesiniń kiriw jerine jaqınlaǵan sayın bul ǵawırlınıń kúsheyiwin, háptesine eki ret bazar bolıwın, bazarında gúlalshılıq ıdısların, miyweler, qozı terisi, xalıqtıń gezleme ónimlerin hám taǵı basqa zatlar satıwın jazadı. Chernishevskiydiń tárepinen alınǵan fotoalbomınıń “Qaraqalpaqstan hám Xorezm” ge arnalǵan bóliminde 10 ǵa jaqın tariyxiy esteliklerge arnalǵan fotosúwretler bar bolıp tabıladı[2. 1975:B.58-60]. Bul siyaqlı ekspediciyalar dáwirinde jiynalǵan hár qanday derekler ilim ushın áhmiyetli hújjetke teń. Birǵana Qaraqalpaqstan Respublikası tariyxı hám mádeniyatı mámleketlik muzeyiniń foto fond bóliminde búgúngi kúnde 33 000 nan aslam foto hújjet saqlanbaqta. Dáslepki ekspediciya basqıshında iskerlik kórsetken etnograf, kolleksioner, súwretshi, fotograf – Aleksandr Lavrentievich Melkov esaplanǵan. Bul alımnıń atı 1920-jıllarda ashılǵan Oraylıq Aziya – Qazaqstan regionınıń sistemalı úyreniwi baslanıwı menen tıǵız baylanıslı. 1920-1940-jıllarda ekspediciya quramında bolıp qaraqalpaqlardıń kúndelikli turmısın, mádeniyatın úyrenip fotoalbom jaratıwına A.L. Melkov, S.A.Belkin, E.E.Blomkvist, P.P.Ivanovlar óziniń salmaqlı úlesin qostı[4. 2016:B.138]. A.L.Melkov bir ǵana ekspediciya rejesi boyınsha emes, derlik qaraqalpaqlardıń hámme tarawları boyınsha: diyqanshılıq, balıqshılıq, ónermentshilik, sawda-satıqqa baylanıslı orınlar hám ásbap úskenelerin bunnan basqa diniy orınların taǵı basqa qaraqalpaq xalqınıń basqa milletlerde bolmaǵan milliyligin ashıp beretuǵın fotosúwretler hám eskizler jarattı. Rossiya Ilimler akademiyası Antropologıya hám etnografiya muzeyi kolleciyasında qazaq hám qaraqalpaqlardıń turaq-jay hám múlki jobaları, gilem ónimleri, zergerlik buyımları, qaraqalpaq xalqınıń túrli ıdısları akvarel hám qálem menen sızılǵan súwretler albomı bar. Xorezm ózbekleriniń súwretleri, sonıń menen birge, qazaqlar hám qaraqalpaqlar ómiriniń túrli iskerlik tarawılarına tiyisli bir neshe mıń fotosúwretler jámlegen albom jaratqan. Ol qaraqalpaq xalqiniń materiallıq

mádeniyatı estelikleriniń birinshi keń kólemli, túsindirmeli kolleksiyasını jarattı. Házirgi kúnde Qaraqalpaqstan Respublikası tariyxı hám mádeniyatı mámleketlik muzeyinde A.L.Melkovtıń 100 ge jaqın fotosúwretleri saqlanıp atır. Bul súwretlerde A.Melkovtıń qaraqalpaq xalqınıń erte dáwirdegi jasaw tárizi, kúndelik turmısı, tábiyatı, qaraqalpaqlardıń ámeliy óner úlgileriniń kórinislerin óz súwretlerinde kórsetken.

Ulıwmalastırıp aytatuǵın bolsaq, bunday ekspediciyalarda etnograflar tárepinen toplanǵan fotosúwretler qaraqalpaq etnografiyası ushın júda bahalı derekler bolıp esaplanadı. Biz hár bir fotosúwretler arqalı sol dáwirdegi qaraqalpaqlardıń jasaw tárzi, etnografiyası menen tanıstıwımız hám analiz islewimiz múmkin. Sebebi bul fotosúwretler arqalı qaraqalpaq mádeniyatın tereńrek túsiniw, analiz etiw hám onı keleshek áwladqa jalǵan emes, anıq tárizde jetkerip beriw imkaniyatına iye bolamız. Nege degende, vizual etnografiya álle qashan dúnya júzinde izertlew usılına aylanǵan hám onnan kópshilik mámleketler bul usıldan keń paydalanadı. Vizual etnografiya járdeminde mádeniyat hám jámiyetlerdiń eń mayda bóleklerin súwretley alıw onı hújjetlestiriw, belgili bir waqıt bólegin toqtatıp ózinde saqlap alıp, izertlewshilerge analiz islew ushın inam etedi hám ayırım mashqalalarǵa sheshim tawıwǵa jaqınnan járdem beredi.

**Paydalanǵan ádebiyatalar**;

1. Андрианова Е. Н. Коллекция фотографий документального фонда государственного центрального музея современной истории России как источник по истории повседневности: Автореферат. дисс… канд. ист. наук. Москва 2012 г.

2. Жукова Л, Левтеева Л Низовья Амударьи на фотографиях XIX века // Вестник Каракалпакского филиала Академии наук УзССР', 1975, №1, с.58-63.

3. Исакова М. С Значение архивных фотографических альбом как исторических источников в процессе изучения истории Узбекистана // Вестник ККО АН РУз 2005 №1-2, с. 93-94.

4. Курбанова З.И Одежда Каракалпаков конца 1950-начало1960-Х годов из фотоальбомов фонда этнографии //Вестник ККО АН РУз. 2016 №2, с. 137-139

5. Курбанова З.И Фотоальбом А.Л.Мелкова как источник изучения этнографии каракалпаков // Вестник ККО АН РУз. 2000 №2, с. 52-53

6. Толмачева Е. Б. Фотография как этнографический источник (по материалам фотоколлекции Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН): Автореферат. дисс… канд. ист. наук. Санкт-Петербург 2011.

7. Чистякова В. П. Семейная фотография второй половины XIX - начала XX в.в. Автореферат. дисс… канд. ист. наук. Москва 2012 г.

8. Шадманова С Визуал тадқиқотларда рақамли технологиялардан фойдаланиш масаслари //Значение цифровых технологий в изучении Узбекистана, т. 2022 №1, с. 39-49

## FARG‘ONA VODIYSIDA SOVET HOKIMIYATINING O’RNATILISHI VA KOMMUNISTIK MAFKURA ASOSLARINING YARATILISHI

**Mamatkarimov Ilyosbek Baxritdin o‘g‘li,**

Namangan davlat pedagogika instituti stajyor-tadqiqotchisi

1917-yilning noyabrida Turkiston o‘lkasida sovet hokimiyati o‘rnatilib, hokimiyatni bolsheviklar qo‘lga olgach, o‘z hokimiyat organlarini tashkil etishga, shuningdek, ularni qo‘llab-quvvatlamagan barcha avvalgi hokimiyat muassasalarini tugatishga kirishdilar. Ushbu holat bevosita shahar Dumalariga ham talluqli edi.

Turkiston Xalq Komissarlari Kengashi 1917-yilning 4-dekabrida Toshkent shahar Dumasini tarqatib yubordi[11].

Tez orada Farg‘ona vodiysidagi shahar Dumalari ham tugatildi. Vodiy shaharlarida bolshevistik diktatura asosida boshqariladigan shahar Ijroiya Qo‘mitalari va Sovetlari tashkil etila boshlandi. Shunday qilib, 1917-yilning oxiri va 1918-yilning yanvariga kelib, Farg‘ona vodiysining Namangan, Qo‘qon, Skobelev, Andijon kabi yirik markaziy shaharlarida sovet hokimiyatining boshqaruv organlari tashkil etildi[12].

1919-yilning 30-noyabrida Farg‘ona viloyatining Inqilobiy Qo‘mitasi uyezd-shahar Ijroiya Qo‘mitalarini tarqatib yuborish haqidagi qarorini e’lon qildi. Unga ko‘ra, Skobelev, Qo‘qon, Namangan hamda Andijon uyezd-shaharlaridagi mavjud ijro etuvchi organlar o‘rnida bolshevistik Inqilobiy Qo‘mitalar tashkil etildi[13].

Shunday qilib, shaharlar boshqaruvi biron bir huquqiy asos yoki Nizomga ega bo‘lmagan, birorta qonun-qoidaga amal qilmaydigan, sovet hokimiyati g‘oyalarini amalga oshirish uchun direktiv buyruq hamda repressiv usullar yordamida faoliyat ko‘rsatadigan organlar qo‘liga o‘tdi[14].

Taniqli olim Boymirza Hayit "Bosmachilar": Turkiston milliy kurashi tarixi (1917–1934)" asarida sovet davlatini barpo qilish, zo‘ravonlik bilan amalga oshirilganini yozib qoldirgan edi. Voqealar guvohi bo‘lgan olimning yozishicha, viloyat va uyezdlardagi anjuman va yig‘ilishlarda yuz berayotgan haqsizlik hamda adolatsizliklar to‘g‘risida ham oshkora fikrlar aytilgan edi. Masalan, 1921-yilning 13-yanvarida Namangan shahar partiyasizlar konferensiyasi bo‘lib o‘tadi. Unda Nuriddin

[11] Агзамходжаев С. История Туркестанской автономии: (Туркистон Мухторияти).-Ташкент: Тошкент ислом университети, 2006.-С.199. (268 с.)
[12] Мансуров У. 1917–1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи: тарих фан. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф.-Тошкент, 2018.-Б.12-13. (48 б.)
[13] Нуруллин Р. Советы Туркестанской АССР в период гражданской войны.-Ташкент: Фан, 1965.-С.133.
[14] Мансуров У. 1917–1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи: тарих фан. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф.-Тошкент, 2018.-Б.12-13.

Qoriyev so‘zga chiqib, ma’ruza qiladi. Uning ta’kidlashicha, musulmon mehnatkashlari eng oddiy huquqlardan ham mahrum etilgan bo‘lib, ijtimoiy hayotning barcha sohasida ikki xil o‘lchov mavjudligi: biri yevropalik aholi uchun, ikkinchisi esa musulmon aholisi uchun edi. Oziq-ovqat idoralaridagi oziq-ovqatlar aksar hollarda faqatgina yevropalik aholigagina berilgan bo‘lib, musulmon ommasi to‘q yevropalik aholining ko‘z o‘ngida ochlik dahshatlarini boshidan kechirib, o‘lib ketavergan. Teatr, maktab va boshqa aksariyat madaniyat muassasalari yevropalik aholi uchungina ochilgan va ishlab turgan.

“Mustamlakachilik siyosatining ana shunday manzaralarini boshidan kechirgan tub aholining sovet hokimiyatidan norozi bo‘lmasligi mumkin emas edi. Shuning uchun ham Turkistondagi dehqonlar va hunarmandlar keng xalq ommasi sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurashga ko‘tarildi”, deb yozgan edi Boymirza Hayit.

20-yillardan boshlab mintaqada sovet hokimiyati o’rnatib bo’lingach, asosiy e’tibor kommunistik mafkurani yoyishga qaratildi. Ya’ni, ayni damda 30-yillardagi mudhish qatag’onlar uchun zamin ham hozirlandi. Buni o’sha davr matbuoti materiallaridan ham anglash mumkin. Masalan, “Yangi Farg’ona” gazetasining 1927-yil 11-oktabr 112-sonida ”O’zbekiston ziyolilari qurultoyidan olingan ta’ssurotlar” nomli maqola e’lon qilingan. Undan 1927 yildayoq ziyolilar qurultoylari ham mafkura masalalariga asosiy e’tibor qaratganligini sezish qiyin emas. Maqolada: Akmal Ikromov ko’klarga ko’tarib ulug’lanadi. Taassufki aynan o’sha zot 30-yillar qatag’onlari davrida eng ko’p yomonotliq qilinganlardan bo’ldi. Maqolada: ”...Sahna: qizil bayroqlar bilan lolazor edi. Tuvakda ochilib turgan gullar nozik ko’katlar orasida yo’qsillar firqasi va hukumat boshliqlarining vakillari o’zbek madaniyatchilari vakillarini yo’qsillar mafkuraviy madaniy masalalarini sho’rolarcha hal qilish uchun yig’ilib kelganlarini ko’rib suyungansimon, kulumsiragandek ko’rinib edilar. Bir kishi sahnaga chiqib, O’zbekiston madaniyatchilarining 2-qurultoyini ochiq e’lon qilaman, deyishi  bilan chapak, olqishlar orasida baynalminal musiqa chog’ular ketdi. Majlis

ochg’uvchi oxunda o’rtoq madaniyatchilar qurultoyining oldida turg’on vazifalarini va bir necha qurultoychining muvofaqqiyatlarini aytib o’tdi...... 7 kishidan iborat faxriy a’zolar, tahrir hay’ati, sarkotiblar saylanib, reglament qabul qilinib ishga boshlandi.

Zol vakillar bilan liq to’la shunchalik jim-jitlik hukmron yosatig’liq sahnada bir yigit jon quydurib gapirmakda. Barcha jon qulog’i bilan tinglaydi. Pashshaning g’ing’irlashini ham quloqlar yoqtirmaydi. Nimadan gapirdi u yigit? U yigit dunyodagi ezguvchi va ezilguvchi ikki sinfdan ikkovi orasida kurashdan ularning maqsad va maslaklaridan gapirdi.

Ishchi dehqon hukumatining osh-nonini yeb tovag’iga tuplaydurg’on yo’qsillar hukumati va kommunistlar firqasining to’g’ri siyosatiga teskari harakat qiladurg’on sosib-achib va visq-fasod sotib yurguvchi o’zini ziyoli olg’on ziyonli va siyohli jadidlarning niqobini yirtib, xashak ichiga qordi.

...Bog’larning chiriklardan, saralarning puchaklardan tozalanishi lozimligining bildirdi. Undoq ilon-chayonlar orada bo’lg’on chog’da choqishi oniq ekanini turli tuman masalalar bilan isbot etdi. Bu majlisning avvalidan oxirigacha so’zlagan nutqida eshitguvchilarning qondirg’oni, mamnun va qoyil qilg’oni so’zining adog’idagi uzoq-uzoqqa cho’zilgan chapak va olqishlardan bilindi. Bu yigit O’zbekiston kommunistlar firqasi Markaziy Qo’mitasining mas’ul kotibi, ishchi dehqoning g’amxo’ri Akmal aka Ikrom o’g’li edi.

...Muzokarachilar mafkurasi buzuq, millatchi, vatanchi ziyonlilar sotsializm tomon borguvchi firqa aravasining g’ildiragiga yog’och taquvchi, yuzi qora nonko’rlarni ochiqdan ochiq ayta boshladilar. Ochilmagan sirlar, aytilmagan dardlar qolmadi.

Teskarichi ziyonlilarning murshidi bo’lg’on Cho’qayev va Said Nosir Mirjalilovlarning sarhidxo’ri, milliy burjuaziyaning shoiri bo’lgan Cho’lpon, Munavvarqori, Husayn Niyoziy, Vadud va boshqa shuning singari malaylarning ochiq va yoshirin tarqotgan she’r, adabiyot parchalari topilib o’qilsada, siyosiy asoratlari,

iflos maqsadlari ochildi. Sho'rolar hukumati siyosiy davlatida ishchi dehqoning ko'ziga tuproq sochib, o'zlarining isqirt mafkuralarining millatchilikni chochish yo'lidan qoytmag'onlari maydong'a chiqdi. Millatchilik tuxumini yegan muzokarachilardan ularni yoqlab chiqg'uvchi bo'lmadi. Balkim, ularning eng jonajon o'rtog'i, tepishib katta bo'lg'on birinchi yondosh va hamshaharlari ularning ichiga sirini ochib, loyga bulab, cho'pga ilguvdek qiladilar. Hamma ziyolilar undoq ziyonli unsurlarga nafratlarini bildirib, oralaridan joy bermak, so'z berkitib va'dalar qildilar. Akmal aka o'zining oxirgi so'zi orasida anavu shumshayib o'ltirg'on Vadud o'zining iflos diydachiligi kasofati bilan "Qizil qalam" jamiyatining ishdan qolishiga sabab bo'ldi, deb allanimaga misol qilish bilan birdan chiqib ketdi! Doloy! Doloy! Bitsun teskarichi, dinchi ziyolilar, degan g'alayonli dovushlar ko'tarildi. Hamma birdan uning qora yuzini ko'rish, betma-bet turib, la'nat nafratlarini bayon qilish, beliga tepib chiqorish uchun o'rinlaridan turib qoldilar. Lekin u Vadud ustalik bilan ko'karib, bo'zarib o'zini bildirmay to'polonda chiqib ketdi. Yo'q esa achig'i o'qi alangalangan vakillarning tupruklari bilan yuzi yuvilib ketishi aniq edi. Sho'ro ziyolilari vakillarining mafkura maydonida kurash yo'lida gapirgan shahdam shahdam gaplari, ko'rsatgan choralari, bergan hukumatning kengashlarini eshitib, Akmal akaning yuzi gul-gul ochildi. Shunday quvondi. Qizil ziyolilarni ishchi dehqon mamlakatining ma'orif madaniyat ilg'ori, deb erkalatdi"[15].

20-30 yillar matbuotida bunday maqolalarni ko'plab uchratish mumkin. Ajablanarlisi, 1937-1938 yillardagi qatag'onlar chog'ida aynan shu mualliflar ularni maromiga yetkazib yomonlab ham yozdilar.

[15] Nosir Erkin. O'zbekiston ziyolilari qurultoyidan olingan ta'ssurotlar //Yangi Farg'ona, 1927-yil 11-oktabr, №.-112.

# FARG‘ONA VODIYSI TARIXI ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLARDA

**Abdug‘ofurov Muhammadqodir**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tarix 2-kurs magistranti

E-pochta: Ttalabasi@gmail.com

Tel: +998 (90) 821-75-70

**Annotatsiya** (O‘zbek tilida): Maqolada Farg‘ona vodiysi tarixining zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilishi, uning manbaviy asoslari, arxeologik topilmalar va yangi metodologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli tarix, GIS texnologiyalari, arxeometrik tahlil va xalqaro ilmiy hamkorlikning ahamiyati yoritilgan. Mustaqillik davrida olib borilgan ilmiy izlanishlarning milliy tarixshunoslikdagi o‘rni, ularning yosh avlodning tarixiy ongini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar**: Farg‘ona vodiysi, tarixshunoslik, arxeologiya, raqamli tarix, GIS texnologiya, madaniy meros, ilmiy hamkorlik.

**Аннотация** (Rus tilida): В статье рассматривается изучение истории Ферганской долины в современных научных исследованиях. Освещаются археологические находки, письменные источники и новые методологические подходы, включая цифровую историю, ГИС-технологии и археометрический анализ. Особое внимание уделено роли научных исследований, проводимых в годы независимости, в формировании национального исторического сознания.

Ключевые слова: Ферганская долина, историография, археология, цифровая история, ГИС, культурное наследие.

**Аннотáция** (Qoraqalpoq tilinde): Bul maqalada Farg‘ona vodiysi tariyxiniń zamanaúı ilmiy izertiwlerde úyreniliwi, onıń manbalıq negizi, arxeologiyalıq tápsıwlar hám jańa metodologiyalıq yondaswlar analiz etilgen. Raqamlı tariyx, GIS texnologiyaları hám arxeometrik analiz arqalı vodiynıń madaniy merasın qayta

baǵalaw imkaniyatları kórsetilgen. Mustaqıllıq jıllarında olib barılǵan izertiwler milliy ózlikti aniqlawda hám tariyxiy ondı tómende túsinip, jańadan kóteriwde muhim orın tutadı.

**Kalit sózler**: Farg‘ona vodiysi, tariyxshunoslıq, arxeologiya, raqamlı tariyx, madaniy meras.

**Kirish:** Farg‘ona vodiysi O‘zbekistonning eng qadimiy va tarixiy jihatdan boy mintaqalaridan biridir. U Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi shakllangan hududlar sirasiga kiradi.[16]Qadimgi davrlardan boshlab vodiyning geografik joylashuvi uni iqtisodiy, madaniy va siyosiy markaz sifatida ajratib turgan.

Ilk yozma manbalarda, xususan, xitoylik tarixchi Sima Qianning “Shiji” asarida Farg‘ona vodiysi Dayuan nomi bilan tilga olinadi va bu yerda otboqar xalqlar, rivojlangan dehqonchilik madaniyati mavjudligi qayd etiladi.[17]

Arab tarixchilari al-Istaxriy, al-Muqaddasiy va Ibn Havqal asarlarida esa Farg‘ona ilm va savdo markazi sifatida tavsiflanadi.[18]

O‘rta asrlarda Farg‘ona vodiysi Movarounnahrning siyosiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Bu davrda Axsikent, Quva, Marg‘ilon kabi shaharlar nafaqat iqtisodiy markaz, balki ilm-fan va hunarmandchilik o‘choqlari sifatida ham rivojlangan.[19]

Arxeologik topilmalar vodiyning o‘sha davrdagi shaharsozlik madaniyati, irrigatsiya tizimlari va savdo aloqalarining yuqori darajada bo‘lganini tasdiqlaydi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida rus olimlari V. V. Bartold, N. Veselovskiy, A. Bernshtam kabi tadqiqotchilar bu hududda keng qamrovli ilmiy ishlar olib borishdi.[20] Ularning izlanishlari orqali vodiyning o‘rta asr manbalari, toponimik va etnografik ma’lumotlari

---

[16] Asqarov, A. O‘zbekistonning qadimiy tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 42–45.
[17] Sima Qian. Shiji (Tarixiy yozuvlar). – Pekin: Zhonghua Press, 1982. – Vol. 123.
[18] Al-Muqaddasiy. Ahsan at-taqasim fi ma’rifat al-aqalim. – Bayrut: Dar al-Kutub, 1967. – B. 214.
[19] Rahmonov, A. O‘rta Osiyo arxeologiyasi: Farg‘ona vodiysi yodgorliklari. – Samarqand: Imom Buxoriy, 2014. – B. 58–64.
[20] Bartold, V. V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. – Moskva: Nauka, 1963. – S. 73.

tizimlashtirildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Farg'ona vodiysi tarixini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. Prezident I. A. Karimov o'z asarlarida tarixiy xotira va milliy o'zlikni tiklashning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tgan edi.[21] Shu asosda milliy tarixshunoslikda yangi konseptual yondashuvlar paydo bo'ldi.

Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli tarix (digital history) yo'nalishi faol rivojlanmoqda. Farg'ona vodiysi yodgorliklari bo'yicha GIS asosida tuzilgan interaktiv xaritalar orqali ilmiy tahlillar olib borilmoqda.[22] Bu usul nafaqat yodgorliklarning joylashuvini aniqlash, balki ularning vaqt bo'yicha o'zgarishini ham ko'rsatadi. 3D modellashtirish texnologiyasi yordamida Quva, Axsikent va Marg'ilon shaharlarining qadimiy ko'rinishlari virtual shaklda qayta tiklandi.[23] Arxeometrik tahlil esa topilgan metall va sopol buyumlarning aniq davrini aniqlashda qo'llanilmoqda.[24] So'nggi yillarda Farg'ona vodiysi bo'yicha xalqaro ekspeditsiyalar faol olib borilmoqda. Yaponiya–O'zbekiston qo'shma arxeologik loyihasi doirasida Quva shahridagi buddaviy ibodatxona qoldiqlari tadqiq qilinib, VII asrga oid madaniy qatlamlar aniqlandi.[25] Fransuz va turk olimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan qazishmalarda esa Qo'qon xonligi davriga oid yangi yozma manbalar topilgan.[26] Farg'ona vodiysining madaniy merosi bugun UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlarning e'tibor markazida.[27]

So'nggi o'n yillikda Axsikent, Rishton, Marg'ilon va Qo'qon shaharlaridagi tarixiy obidalar restavratsiya qilinib, ular asosida turizm infratuzilmasi rivojlantirildi.[28] Bu jarayon ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda, iqtisodiy va madaniy rivojlanishga ham xizmat qilmoqda.

---

[21] Karimov, I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – B. 12–15.
[22] Xo'jayev, A. Zamonaviy tarixshunoslikda raqamli metodlar. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – B. 30–33.
[23] UNESCO Cultural Heritage Report. Preservation of Ferghana Valley Sites. – Paris, 2023. – P. 56–59.
[24] Muminov, A. "Farg'ona vodiysi arxeologiyasida yangi texnologiyalar." // O'zbekiston tarixi jurnali, 2021, №4, B. 21–24.
[25] Alimov, R. Markaziy Osiyo tarixiy madaniyatining manbalari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – B. 101–103.
[26] Vohidov, Sh. "Qo'qon xonligi tarixining yangi manbalari." // Ilm va hayot, 2023, №3, B. 40–44.
[27] UNESCO Regional Office. Central Asian Cultural Heritage Program. – 2022. – P. 27.
[28] Niyozov, A. "Farg'ona vodiysi madaniy merosining restavratsiyasi." // Madaniyat va turizm, 2023, №2, B. 19–22.

Shunga qaramay, hali ham muammolar mavjud: ayrim arxiv materiallari raqamlashtirilmagan, ilmiy tadqiqotlarda xalqaro standartlarga mos metodlar yetarlicha tatbiq etilmayapti, ayrim yodgorliklarda tabiiy eroziya jarayonlari kuchaymoqda.[29]

Shu bois, yangi texnologiyalarni joriy etish, tarixiy obidalarni 3D raqamli formatda saqlash, “Virtual muzeylar tizimi”ni yaratish dolzarb masalaga aylangan.[30]

Farg‘ona vodiysi tarixini o‘rganish nafaqat ilmiy, balki ma’naviy ahamiyatga ham ega. Bu jarayon yosh avlodda tarixiy xotira, milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.[31]

Zamonaviy tarixshunoslikda vodiyni o‘rganish metodlari tobora takomillashmoqda. Bugungi kunda arxeologiya, raqamli tarix, antropologiya, madaniy landshaftshunoslik kabi fanlar integratsiyasi orqali Farg‘ona vodiysining qadimiy va zamonaviy qiyofasi yanada chuqurroq yoritilmoqda.[32]

Xalqaro ilmiy hamkorlikning kengayishi, raqamli texnologiyalar joriy etilishi, yosh tadqiqotchilarning dala tadqiqotlariga jalb qilinishi bu yo‘nalishning istiqbolini belgilab bermoqda.

Farg‘ona vodiysi — bu nafaqat tarixiy hudud, balki ilmiy izlanishlar uchun ochiq laboratoriya bo‘lib, u orqali O‘zbekistonning madaniy, siyosiy va iqtisodiy tarixini chuqur o‘rganish imkoniyati mavjud.

**Xulosa:** Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysi tarixi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda yangi bosqichga ko‘tarilgan. Raqamli texnologiyalar, xalqaro hamkorlik va ilmiy integratsiya bu mintaqaning o‘tmishini chuqurroq yoritish imkonini bermoqda. Tarixiy yodgorliklarni saqlash va ularni ilmiy tahlil qilish milliy o‘zlikni mustahkamlash, madaniy xotirani asrash va kelajak avlodlarga boy merosni yetkazishning eng muhim omillaridan biridir.

---

[29] Rahmonov, A. “Tarixiy obidalarni saqlash muammolari.” // Tarix va meros, 2022, №1, B. 33–36.
[30] Mirzayev, O. Raqamli madaniyat va milliy o‘zlik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – B. 50–54.
[31] Saidov, B. Farg‘ona vodiysi va turizm rivoji. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – B. 75–78.
[32] Khodjayev, A. “Arxeologiyada GIS tizimlari.” // Innovatsion tarixshunoslik, 2024, №2, B. 9–13.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1. Asqarov, A. Oʻzbekistonning qadimiy tarixi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2009.

2. Sima Qian. Shiji (Tarixiy yozuvlar). – Pekin, 1982.

3. Al-Muqaddasiy. Ahsan at-taqasim fi ma’rifat al-aqalim. – Bayrut, 1967.

4. Rahmonov, A. Oʻrta Osiyo arxeologiyasi: Fargʻona vodiysi yodgorliklari. – Samarqand: Imom Buxoriy, 2014.

5. Bartold, V. V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. – Moskva: Nauka, 1963.

6. Karimov, I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1998.

7. Xoʻjayev, A. Zamonaviy tarixshunoslikda raqamli metodlar. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.

8. UNESCO Cultural Heritage Report. Preservation of Ferghana Valley Sites. – Paris, 2023.

9. Muminov, A. “Fargʻona vodiysi arxeologiyasida yangi texnologiyalar.” // Oʻzbekiston tarixi jurnali, 2021, №4.

10. Alimov, R. Markaziy Osiyo tarixiy madaniyatining manbalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.

11. Vohidov, Sh. “Qoʻqon xonligi tarixining yangi manbalari.” // Ilm va hayot, 2023, №3.

12. UNESCO Regional Office. Central Asian Cultural Heritage Program. – 2022.

13. Niyozov, A. “Fargʻona vodiysi madaniy merosining restavratsiyasi.” // Madaniyat va turizm, 2023, №2.

14. Rahmonov, A. “Tarixiy obidalarni saqlash muammolari.” // Tarix va meros, 2022, №1.

15. Mirzayev, O. Raqamli madaniyat va milliy oʻzlik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024.

16. Saidov, B. Farg‘ona vodiysi va turizm rivoji. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.

17. Khodjayev, A. “Arxeologiyada GIS tizimlari.” // Innovatsion tarixshunoslik, 2024, №2.

18. European Research Council. Cultural Heritage and Digital History Projects in Central Asia. – Brussels, 2023.

# YANGI O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESANS BUNYODKORLARI BO‘LGAN YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MADANIYAT VA SAN’ATNING O‘RNI.

**Kurbanov Ravshan Raimjonovich**

TDYU huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi o‘qituvchisi 3-darajali yurist, O‘zbekiston tarixi - (Tarix) ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchi

Tel:93.914-03-87

E-mail: kurbanovravshan@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin vatanparvarlik tarbiyasiga davlat darajasida katta e’tibor qaratilgani, yoshlarni ma’naviy va jismoniy yetuk qilib tarbiyalash uchun “Vatanparvar” tashkiloti, “Vatan himoyachilari kuni” va “Uchinchi Renessans” g‘oyalari asosida 2018–2025 yillarda Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida harbiy-ma’naviy tadbirlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Vatanparvarlik tarbiyasi, yoshlar, sadoqat, milliy g‘urur, tarixiy meros, madaniyat va san’at:

**Abstract:** This article highlights the fact that after independence in Uzbekistan, great attention has been paid to patriotic education at the state level, and military-spiritual events in Fergana, Andijan and Namangan regions in 2018-2025, based on the

ideas of the “Vatanparvar” organization, “Defenders of the Fatherland Day” and “Third Renaissance”, in order to educate young people spiritually and physically.

**Keywords:** Patriotic education, youth, loyalty, national pride, historical heritage, culture and art:

**Аннотация:** В статье подчеркивается, что после обретения независимости в Узбекистане большое внимание уделяется патриотическому воспитанию на государственном уровне, а также проведению военно-духовных мероприятий в Ферганской, Андижанской и Наманганской областях в 2018–2025 годах, основанных на идеях организации «Ватанпарвар», «Дня защитников Отечества» и «Третьего возрождения», в целях духовного и физического воспитания молодежи.

**Ключевые слова:** патриотическое воспитание, молодежь, преданность, национальная гордость, историческое наследие, культура и искусство:

Mustaqillikning ilk yillaridanoq mamlakat mudofaasini kuchaytirish masalasi davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. 1991 yil 23-noyabrda O‘zbekiston mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotiga asos solindi. Ushbu tashkilot mamlakat Qurolli Kuchlariga malakali mutaxassislar tayyorlashda, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ma’naviy, jismoniy rivojlanishiga xizmat qilib kelmoqda. 1992-yil 14-yanvar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari shakllantirilgan kun 1993-yilning 29-dekabridan “Vatan himoyachilari kuni” deb e’lon qilindi va shu davrdan boshlab, mamlakatda tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan milliy bayram sifatida har yili nishonlanib kelinmoqda.[[33]]

Yangi O‘zbekistonda uchinchi renesans bunyodkorlari bo‘lgan kelajak avlodni bilimli, jismonan va ma’nan sog‘lom, intellektual salohiyatga ega, zamon talabiga mos qilib tarbiyalash uchun keng miqiyosli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston

[33] O‘zbekiston Respublikasining “Vatan himoyachilari kunini belgilash to‘g‘risida” 1993-yil 29-dekabrdagi qonuni // https://lex.uz/docs/-112115

Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2022 yil 20-dekabr sanasida Oliy majlisga va xalqimizga qilgan murojaatlarida “Yoshlarni vatanparvarlik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash” ustuvor maqsad sifatida belgilangan.[[34]] Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda, ko‘plab fundamental ilmiy loyihalar va ilmiy tadqiqot ishlari qo‘llab quvvatlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Uchinchi Renessans poydevorini yaratish” g‘oyasi tasodifan paydo bo‘lmagan. Kelgusida Uchinchi Renessans poydevorini yaratadigan yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiylar qayerdan paydo bo‘ladi? Bu ulkan vazifalarni kim bajaradi? Men qayta-qayta takrorlashdan charchamayman. Albatta, bu ezgu g‘oyalarni sizlar – bugungi Yangi O‘zbekiston yoshlari amalga oshirasizlar”.[[35]] Buning uchun esa, Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ziyolilarga katta ishonch bilan qarash lozim.

O‘zbekistondagi zamonaviy geosiyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, millatlararo vaziyat yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosini o‘zgartirdi. Bunday holatning asosiy sababi, yoshlarni mamlakatning umumiy farovonligi g‘oyasi yoki shaxsiy o‘sish mazmuni bilan emas, balki o‘ziga jalb etadigan jamoaviy dam olish shakllarining yuqori faolligidir.

Jamiyat yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasiga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog‘liq bo‘lib, bu bir necha sabablarga ko‘ra alohida ahamiyatga ega:

- yosh avlodning xabardorlik darajasi (ko‘pincha salbiy) ortib bormoqda;

[34] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2022 yil 20-dekabr.
[35] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2023 yi hisobotlari.

- qo‘shimcha ravishda katta daromad keltiradigan ijtimoiy tarmoqlardagi kontent uchun har qanday shov-shuv, hazil va layk to‘plash maqsadida “demokratlashtirish” jarayonlari va “bepul” harakatlar namoyon bo‘lishi. Bularning barchasi, o‘z navbatida, yosh avlod tomonidan so‘z, harakat erkinligi namoyon bo‘lishining mohiyatini va natijada vatanparvarlik tuyg‘usining o‘zini anglashda muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi;

- zamonaviy yoshlar muayyan vaziyatlardan, maktablardan yoki keksa avlod vakillari tanish bo‘lgan vatanparvarlik tarbiyasi harakatidan o‘tmagan.

Vatanparvarlik faoliyati quyidagilardan iborat:

-xalq bilan chuqur bog‘lanish, uning maqsadlarida, umumiy ishlarida ishtirok etish, uning farovonligi haqida qayg‘urish;

-ona yurtining milliy madaniyati, san’ati, an’analari, urf-odatlari, marosimlarini saqlash va takomillashtirish;

-o‘z vatanining ramzlari haqida bilimga ega bo‘lish;

-o‘z xalqining davlatchiligini mustahkamlash;

-o‘z davlatining mansubligini va uni himoya qilishga tayyorligini mustahkamlashga qaratilgan faoliyat;

-o‘z oilasi, xalqi tarixini bilish, o‘zi o‘sgan joylariga bog‘liqlik;

-o‘z vazifalarini vijdonan bajarish, ijodiy ishlash qobiliyati

Zamonaviy sharoitda vatanparvarlikning asosiy tamoyillari:

- vatanparvarlikning shaxsiy ahamiyatini jamiyat bilan uyg‘unlashtirish;

- milliy qadriyatlarga asoslangan vatanparvarlik tarbiyasini nafaqat kelajakka, balki bugungi kunga ham yo‘naltirish;

- milliy o‘zlikni anglashni bag‘rikenglik bilan birlikda rivojlantirish;

- vatanparvarlikning o‘zini ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlar toifasiga kiritishni belgilovchi “Vatan”, “Ona yurt”, “Xalq” kabi asosiy tushunchalarning ahamiyatini anglash.

Vatanparvar - bu o‘z Vatanini sevadigan, o‘z Vataniga, xalqiga sadoqatli, o‘z mehnati bilan foyda keltirishga intiladigan insondir. Vatanparvarlik tuyg‘usi har bir yoshning o‘z ona uyiga, Vatanga, boshqacha aytganda, sof shaxsiy munosabatini ifodalaydi.

2018 yil 23-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.[[36]]

Ushbu qarorda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakat fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish, yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish asosiy maqsad sifatida belgilandi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ishontirish, namunaviylik, maqsadlilik, rag‘batlantirish tamoyillarining ilmiy-amaliy asoslari madaniyat va san’at sohasi vakillari faoliyatida yaqqol ko‘rinadi. Unga ko‘ra vatanparvarlik tamoyillari namuna bo‘lishi mumkin bo‘lgan tarixiy shaxslar faoliyatini madaniyat va san’at soxasi vakillari tomonidan amalga oshiriladigan turli tadbirlarda, teatrlashtirilgan sahna asarlarida ko‘rsatish juda samarali yo‘l hisoblanadi. Ya’ni jamiyatda yuksak vatanparvarlik sifatlari mavjud bo‘lgan qahramonlik “qiyofalari”ning yaratilishi ham talab etiladi. Bu jamiyatda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.[[37]]

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda badiiy kitob va adabiyotlar, kino, teatr hamda tasviriy san’atning o‘rni katta. Ushbu manbalarda keltirilgan qahramonlar kim va ularni nima uchun buyuk deymiz. Vatan uchun ular nimalar qilganlar, bularni mavjud manbalar bilan tanishib olgandan keyin bilishimiz mumkin.

---

[36] 2018 yil 23 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. // Xalq so‘zi, 2018 yil 23 fevral.
[37] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi. 2018 yil hisobotlari.

Adabiyotlar o‘quvchilarni Vatanni himoya qilishning ming yillik an’analari haqida o‘ylashga majbur etadi, Vatanning mustaqilligi uchun tarixiy janglar qahramonlari bilan faxrlanish hissini uyg‘otadi. Xalqning buyukligini ko‘rsatadi, Vatanni himoya qilishga chorlaydi, dushmanga nafrat uyg‘otadi.

Shuningdek, inson madaniyatini, ma’naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatrning o‘rni ham beqiyos. Teatr odamlarni ezgulikka chorlaydi, yaxshilikka undaydi, eng go‘zal his-tuyg‘ularni in’om etadi. Sahnada inson o‘zini, atrofidagilarni, hayotni ko‘radi. Aktyorlar bilan birga yashaydi, yig‘laydi, kuladi.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish obyektiv va subyektiv omillarga ega. Bu omillar ayni paytda, vatanparvarlik fazilatlarini ro‘yobga chiqaruvchi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- vatan ravnaqi va yurt farovonligini ta’minlashga mas’ullikni his etish;
- adolat, halollik, sadoqat, vijdoniylik, nomuslilik, oriyatlilik, g‘urur kabi yuksak insoniy fazilatlar mazmun-mohiyatini anglash va amalda namoyon etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- vatanparvarlikni oliy fazilat sifatida qadrlash, bu fazilat yurt tinchligini himoya qilish va vatan xavfsizligini ta’minlash, himoya qilishda yuksak ma’naviy burch ekanligini anglash.

Shunday ekan jamiyatda vatanparvarlikni axloqiy tushuncha sifatida shakllantirish, uni qo‘lga qurol olib isbotlashgina mumkin bo‘lgan faoliyat sifatida emas, balki, yuksak fazilat, axloqiy mezon sifatida ko‘rish talab etiladi.

Demak, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dastlab oila o‘chog‘ida boshlanadi, so‘ng bog‘cha, maktab kabi ta’lim bosqichlarida davom ettiriladi. Aynan oilada bola vatanparvarlikning balandparvoz chaqiriq emasligini, uni tuyish ma’lum ma’naviy tayyorgarlikdan so‘nggina mumkin bo‘lishini, Vatanni «pul» yoki biror manfaat manbai tarzida ko‘rmaslik kerakligini o‘rganadi. Aks holda ta’limning turli

bosqichlarida berilayotgan bilim o‘quvchini nafs girdobiga tushib qolishdan, ma’naviy qadriyatlarni suiste’mol qilishdan asray olmaydi.

Vatan tuyg‘usini tarbiyalashda oila – maktab – mahalla – nodavlat notijorat tashkilotlar – ijtimoiy harakatlar bilan hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashda ma’naviy-ma’rifiy va targ‘ibot ishlarining beqiyos ahamiyatini inobatga olib, bu borada barcha tegishli tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish, yoshlarda dunyoda bo‘layotgan voqea-hodisalarni mustaqil tahlil qilish, har bir so‘z, ishni amalda O‘zbekiston xalqining manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirish kabi ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.[[38]]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2019 yil 28-iyundagi «O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi [[39]]qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya tarkibida prinsipial yangi “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseylari tashkil etildi.

2017 yildan boshlab mamlakatning barcha hududlarida keng miqiyosida “O‘zbekistonliklarning frontdagi jasorati va qahramonliklari” mavzusida darslar, “Uch avlod” uchrashuvlari, “Uyg‘oq xotira” nomli teatrlashtirilgan konsert dasturlari hamda “Amir Temur avlodlari” harbiy-sport musobaqasi kabi tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.[[40]] Ushbu tadbirlar o‘quvchilarida harbiy vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda yuksak ahamiyat kasb etmoqda.

---

[38] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari.
[39] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2019 yil 28 iyundagi «O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori. // https://lex.uz/docs/-6140203
[40] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 28 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F-5529-son farmoyishi bilan tasdiqlangan Dastur ijrosi doirasida 2019 yil 27-dekabr kuni Farg‘ona viloyatidagi harbiy qism tomonidan harbiy vatanparvarlik aksiyasi o‘tkazildi. “Vatanparvarlik - milliy yuksalish kafolati” shiori ostida o‘tkazilgan aksiya doirasida Farg‘ona shahridagi barcha umumiy o‘rta ta'lim maktablari uchun harbiy qismda ochiq eshiklar kuni bo‘lib o‘tdi.[[41]]

2024 yilda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayrami munosabati bilan Sharqiy harbiy okrug qo‘shinlarining barcha garnizonlarida Farg‘ona vodiysi viloyatlari miqiyosida tadbirlar o‘tkazildi. Tadbir davomida o‘quvchilarga harbiy xizmat, vatan oldidagi burch, vatanparvarlik tuyg‘usi, harbiy qurollar to‘g‘risida tushunchalar berildi. Askarlar ishtirokida turli xil ko‘rgazmali chiqishlar namoyish etildi. Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahrida harbiy-vatanparvarlik festivali o‘tkazilgan bo‘lsa, Namangan shahrining Davlatobod tumanidagi “Yangi O‘zbekiston – yoshlar ziyo maskani” axborot-kutubxonasida harbiylar tomonidan vatanparvarlik chiqishlari namoyish etildi. Andijon viloyatida “Yangi O‘zbekiston armiyasi - mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri” shiori ostida o‘tkazilgan tadbirlar yoshlarni vatanparvarlik va mardlik ruhida tarbiyalash, harbiy soha bilan yaqindan tanishtirishni maqsad qildi. Xususan, milliy armiya taraqqiyoti uchun yaratilayotgan sharoitlar, Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan islohotlar, harbiy xizmatchilarga berilayotgan imtiyozlar to‘g‘risida ma’lumotlar berildi.

2025 yilda Sharqiy harbiy okrug qo‘mondonligi va Farg‘ona viloyati hokimiyati hamkorligida viloyat miqiyosida keng ko‘lamli harbiy-vatanparvarlik tadbirlari

[41] Farg‘ona viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2019 yil hisobotlari.

o‘tkazildi.[[42]] Ushbu tadbirlarda yosh avlodni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan keng qamrovli amaliy ishlar qilindi. Jumladan, Farg‘ona garnizonidagi harbiy qismdan yo‘lga chiqqan vatanparvarlik karvoni viloyatning barcha tumanlarida “Yangi O‘zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri” shiori ostidagi tadbirlarni tashkil qildi. Tadbirda harbiy orkestrning jo‘shqin kuy-qo‘shiqlari va faxriy qorovulning ko‘rgazmali chiqishlari, harbiy xizmatchilarning qo‘l jangi chiqishlari, qurol-aslahalar ko‘rgazmasi ham tashkil etildi. Ishtirokchi yoshlar zamonaviy qurollar va harbiy texnikalar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

Andijon viloyatida ham 2018 yil “1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Andijon viloyati 89165 va 96635-harbiy qismlar komandirlari mayor Husniddin Shermatov, kapitan Saidbek Hakimov, harbiy qism komandirlari o‘rinbosarlari podpolkovnik Anvar Mavlonov, kapitan Akilbek Umaraliyevlar tashabbusi bilan Andijon shahrida joylashgan ota-onasidan qarovsiz qolgan “Bolalar shaharchasi”dagi tarbiyalanuvchilar bilan harbiy vatanparvarlik mavzusida madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi.[[43]]

2019 yil yanvar oyida Andijon viloyatida o‘tkazilgan “Vatanparvarlik oyligi” doirasida Sharqiy harbiy okrugi viloyatdagi “Safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyoni” hamda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda barcha tumanlardagi mahallalarda “Vatan – muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!” shiori ostida davra suhbatlari o‘tkazildi.[44] Ushbu tadbirlar harbiy qismlar, mahalla hamda ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi yoshlarda vatanparvarligik ruhini yanada oshirishda yaxshi samara bermoqda. Yoshlarning harbiy sohaga doir fikrlaridan ularning ushbu sohaga qiziqishi yanada ortayotganini ko‘rish mumkin.

---

[42] Farg‘ona viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024-2025 yil hisobotlari.
[43] Andijon viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2018 yil hisobotlari.
[44] Andijon viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma`lumotlari. 2019 yil hisobotlari.

Shuningdek, Andijon viloyatida 2019 yilning 15-dekabridan 2020 yilning 15-yanvariga qadar “Vatanparvarlik – milliy Yuksalish kafolati” shiori ostida vatanparvarlik oyligi oʻtkazildi. Ushbu oylik tadbirlari davomida Andijon ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatida 14-yanvar “Vatan himoyachilari” bayrami munosabati bilan bayram-festivaliga start berildi. Viloyatdagi oliy ta’lim muassasalari talabalari, kasb-hunar kolleji va akademik litsey oʻquvchilari ishtirok etishdi. Harbiylar tomonidan harbiy qismlardagi hayot, ularning zamonaviy qurol-aslahalari va jangovar tayyorgarligi aks etgan jangovar sahna koʻrinishi namoyish etildi.

Oʻzbekiston Respublikasi  Prezident Sh.M. Mirziyoev raisligida 2023 yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yigʻilishi oʻtkazilib, Prezident ma’naviyat va ma’rifat sohasida 9 ta yoʻnalishda muhim tashabbuslarni ilgari surgan edi. Mazkur tashabbuslardan biri – milliy gʻoyani targʻib qilish hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi edi. Ushbu yoʻnalish boʻyicha 2024 yil 6-yanvar kuni Andijon shahrida “Bobur izdoshlari” shiori ostida harbiy vatanparvarlik marafoni oʻtkazildi.[[45]] Marafon shaharning Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bogʻidan boshlandi.

Ochilish marosimida Respublika ishchi guruhi a’zolari va shahar hokimi ishtirokida 3 mingdan ortiq yoshlar ishtirok etdi.

2024 yil 10-martda Andijon viloyati “Yangi Andijon” massivida “Vatanparvar” bogʻining ochilishiga bagʻishlangan tantanali tadbir boʻlib oʻtdi.[[46]] Tadbirda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, aholi orasida yurt himoyasiga dahldorlik hissini oshirish, Vatanga boʻlgan muhabbatlarini yuksaltirish maqsadida barpo etilgan mazkur bogʻning ochilish marosimida, viloyat hokimi, Sharqiy harbiy okrug qoʻshinlari

[45] Andijon shahar xokimligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari.
[46] Andijon viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari.

qo'mondoni, harbiy xizmatchilar, viloyatdagi maktab o'quvchilari, uyushmagan yoshlar, OTM talabalari, faxriylar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

2025 yil yanvar oyi davomida Andijon viloyati miqiyosida "Men yurtimga qalqon bo'laman!" deb nomlangan harbiy-vatanparvarlik tadbirlari bo'lib o'tdi.[[47]] Tadbirda Yoshlar ittifoqi Andijon viloyati kengashi, Milliy gvardiya, Qo'riqlash va Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari, Andijon shahridagi harbiy qism hamkorligida Andijon shahridagi maktablarda tashkil etilgan tadbirda harbiylar, milliy gvardiya, favqulodda vaziyatlar tizimi xodimlari, o'quvchi yoshlar ishtirok etishdi.

2018 yil O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 27- yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishga bag'ishlangan vatanparvarlik oyligini 2018 yil 15-dekabrdan 2019 yil 15-yanvarga qadar o'tkazish bo'yicha tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Ushbu vatanparvarlik oyligi tadbirlari dasturi bo'yicha Namangan viloyatining barcha hududlarida bir qator tadbirlar tashkil qilindi.[[48]] "Vatan - muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!", "Harbiy-vatanparvarlik karvonlari"ning ta'lim muassasalariga tashrifi, o'spirin yoshlar o'rtasida "Men, albatta harbiy bo'laman!" tanlovi, Yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi "Eng yaxshi selfi" tanlovi tashkil etildi, harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi "Eng yaxshi mahalla" va "Eng yaxshi Jasorat klubi" tanlovlari o'tkazildi.

2022 yil yanvar oyi davomida Namangan viloyatida "14-yanvar Vatan himoyachilari kuni" va Qurolli Kuchlar tashkil etilganligining 31-yilligi bayramini keng nishonlash maqsadida bir qator tadbirlarni o'tkazildi.[[49]] "Vatanparvarlik oyligi" doirasida o'tkazilishi rejalashtirilgan harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda:

---

[47] Yoshlar ittifoqi Andijon viloyati kengashi joriy arxivi ma'lumotlari. 2025 yil hisobotlari.
[48] Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2019 yil hisobotlari
[49] Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2022 yil hisobotlari

- “Mard askar – yoshlarga namuna!” shiori ostida harbiy-vatanparvarlik tadbirlari;

- Harbiy qism va muassasalarda ochiq eshiklar kuni;

- “Askar onalarini sharaflaymiz”;

- “Mening akam – Vatan himoyachisi” mavzularida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar;

- “Qahramonlar nomi barhayot!” mavzusida davra suhbatlari;

- Umumta’lim maktablarida “Vatanparvarlik darslari”.

kabi tadbirlar respublika va viloyat miqiyosida o‘tkazildi.

2022-yil 15-dekabrdan 2023-yil 15-yanvargacha O‘zbekiston Respublikasi miqiyosida o‘tkazilgan “Vatanparvarlik oyligi” Namangan viloyatining barcha hududlarida yoshlar bilan uchrashuvlar va tadbirlar asosida tashkil qilindi.[[50]] O‘tkazilgan uchrashuvlar va tadbirlarda “Yangi O‘zbekiston armiyasi - mamlakat tayanchi”, “Vatanga xizmat - oliy fazilat” kabi mavzularda suxbatlar, vatanparvarlik festivallari o‘tkazildi.

2024 yil Namangan viloyatida o‘tkazilgan “Vatanparvarlik karvonlari” targ‘ibot guruhlari tomonidan Namangan shahar va tumanlar hududlarida “Yangi O‘zbekiston armiyasi - mamlakat qudrati, yuksak g‘urur va sadoqat timsolidir!” shiori ostida turli uchrashuvlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar hamda harbiy-vatanparvarlik festivallarini o‘tkazildi.[[51]] Festivallarda Sharqiy harbiy okrug Namangan garnizoni harbiy xizmatchilari va jamoatchilik vakillari, yoshlar ishtirok etdilar.

2025 yil yanvar oyi davomida Namangan shahar Davlatobod tumani Yangi O‘zbekiston bog‘ida o‘quvchi yoshlar va uyushmagan yoshlar uchun “Men Vatanga tayanchman”, “Kim Vatanga sodiq bo‘lsa mendurman o‘sha” shiorlari ostidagi harbiy vatanparvarlik festivali o‘tkazildi.[[52]] Festival davomida yoshlar uchun Milliy gvardiya

---

[50] Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2023 yil hisobotlari.
[51] Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari.
[52] Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2025 yil hisobotlari.

Namangan viloyati bo'yicha boshqarmasi harbiy xizmatchilari va Namangan viloyati Qo'riqlash boshqarmasi xodimlari tomonidan ko'rgazmali chiqishlari, qurol-aslaxa hamda harbiy texnikalar namoyish etildi.

2017-2025 yillar davomida Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida 14-yanvar Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab harbiy parad o'tkazib kelinmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori asosida 2024-2025 o'quv yilida ilk bor "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyiga qizlarning qabul qilinishi belgilab berildi.

Xulosa qilinsa, yoshlar ongida vatanparvarlikni shakllantirish Yangi O'zbekistonda uchinchi renesans bunyodkorlari bo'lgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda madaniyat va san'atning o'rni nihoyatda katta bo'lib, o'tkaziladigan tadbirlar yoshlar ongiga ta'sirqiladi. Qolaversa tadbirlardagi vatanni madh etuvchi, yoshlar qalbiga ta'sir etadigan she'rlar, kuy, qo'shiqlar, sahnalashtirlgan tomosholar, vatan sarhadlarini aks ettiruvchi turli hil tasviriy san'at asarlari, teatr va kino asarlari ularga vatanparvarlik tuyg'usini his qilishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Vatan himoyachilari kunini belgilash to'g'risida" 1993-yil 29-dekabrdagi qonuni // https://lex.uz/docs/-112115

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 2022 yil 20-dekabr.

3. 2018 yil 23 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. // Xalq so'zi, 2018 yil 23 fevral.

4. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma'lumotlari. 2023 yi hisobotlari.

5. Farg'ona viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2019-2025 yil hisobotlari.

6. Andijon viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma`lumotlari. 2019-2024 yil hisobotlari.

7. Yoshlar ittifoqi Andijon viloyati kengashi joriy arxivi ma'lumotlari. 2025 yil hisobotlari.

8. Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2022-2025 yil hisobotlari

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2019 yil 28 iyundagi «O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori. // https://lex.uz/docs/-6140203

## FARG'ONA VODIYSI XALQ TA'LIMI TIZIMI XODIMLARINING JISMONIY HORDIQ CHIQARISH MASALALARI

### (XX asrning ikkinchi yarmi)

**Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna**

Dotsent, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Qo'qon universiteti

(nar.kokand@gmail.com)

**Annotatsiya:** Jismoniy dam olish – mehnat samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Barcha kasb egalari singari o'qituvchilar ham yillar davomida dam olish sohasida turli imtiyozlardan foydalandilar. Lekin turli yillarda o'qituvchi shaxsiga e'tibor turlicha bo'ldi. Sovet hokimiyati yillarida o'qituvchilarga dam olish uchun qanday imtiyozlar yaratildi, barcha o'qituvchilar ham shunday imtiyozlardan foydalana oldilarmi? Qishloq o'qituvchilarining dam olishlari qanday kechdi?

Tadqiqot davomida muallif tomonidan arxiv manbalari va davriy nashr materiallari yordamida savollarga javob topishga harakat qilindi.

**Kalit so‘zlar:** maktab, o‘qituvchi, kasaba uyushmalari, ta’til, sanatoriy, kurort, profilaktoriy, yo‘llanma, jismoniy, madaniy.

**KIRISH:** O‘qituvchilarning ish faoliyati samaradorligini o‘rganish, unga uslubiy tavsiyalar berish sohasi bilan pedagogika fani bevosita shug‘ullanadi. Lekin o‘qituvchining maktabdan tashqari vaqtlarda qanday yumushlar bilan shug‘ullanganligi tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qoldi. O‘qituvchiga yaratilgan imtiyozlar va ulardan foydalanish darajasi va uning muammolarini yoritib berish davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan xalq ta’limi tizimini tubdan o‘zgartirish, uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish borasida qo‘yilgan vazifalarning asosini o‘qituvchilarni ishini yengillatish va jamiyatda obro‘sini oshirish tashkil etadi[1].

**ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYASI:**

Uzoq yillar davomida turli sohalardagi ko‘pqirrali ishlarni o‘z ichiga olgan bu davr adabiyoti muayyan ilmiy qiymatga arzigulik boy daliliy materiallarga ega. Ularda umumta’lim maktablaridagi sovet modeli vujudga kelishi jarayonini dastlabki tahlili, o‘qituvchilar tayyorlashdagi islohotlar, ta’lim sohasidagi hokimiyat organlari faoliyati tasvirlangan. O‘qituvchilarning kundalik turmush tarzi va shaxsiy hayotiga doir masalalar juda kam yoritilgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixiga oid darslik va qo‘llanmalarda sovet davridagi ta’lim sohasiga to‘xtalib, maorifdagi islohotlar haqida qisman yozilgan[4].

B.Ziyomuhammedov o‘z kitobida o‘qituvchilarning ta’lim jarayonini tashkil qilishidagi muammolar va ularning yechimlari haqida, sovet davrida ta’limni tashkil etilishi, muammolari haqida yozgan[2].

Ta’limga oid bir qator asarlarda mustaqillik yillarida O‘zbekistonda sohaning rivoji, olib borilayotgan islohotlar, o‘qituvchilarga metodik yordam berish haqida yoritilgan[3].

Muomalaga kiritilayotgan mavzuga oid arxiv hujjatlari, nashr etilgan adabiyotlar va boshqa turdagi manbalar tarixiy qiyosiy usul vositasida tadqiq etiladi.

**NATIJALAR:** O‘qituvchilar ta’til davrida dam olishning turli usullaridan foydalanganlar. Jamoa bo‘lib kunlik dam olishga borish, turistik va poxod sayohatlariga chiqish, sog‘lomlashtirish maskanlarida dam olishlaridan tashqari, aksariyat holatlarda uyda oila bilan dam olish usuli qo‘llaniladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda mehnat ta’tili davrida o‘qituvchilar dam olishga kamdan-kam muvaffaq bo‘lganlar. Rasman ta’tilga chiqqan bo‘lishlariga qaramay, malaka oshirish ishlariga jalb qilinishi, qishga tayyorgarlik uchun maktab binosi va xizmat uylarining ta’mirlash ishlariga safarbar qilinishi – o‘qituvchini dam olish imkoniyatidan mahrum qilardi. Ammo mamlakatning iqtisodiy ahvoli tiklangach ya’ni, 1960-yillardan boshlab o‘qituvchilarning madaniy hordiq chiqarishlari ko‘paydi.

Farg‘ona viloyati kasaba uyushmasining tashabbusi bilan dam olish uchun yo‘llanmalar ajratilishi ko‘paytirilgan. Viloyat maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan 35 kishi markaziy sihatgohlarda va Toshkent shahridagi o‘qituvchilar dam olish uylarida dam olganlar[7. -B.4].

Farg‘ona viloyatidagi o‘qituvchilarning dam olishlari 1948-yilga kelib oldingi yillarga nisbatan yaxshilangan. Agar 1947-yilda 47 nafar o‘qituvchi sihatgohga yuborilgan bo‘lsa, 1948-yilda 74 nafar o`qituvchi dam olgan. Dam olish uylarida esa 237 nafar o‘qituvchi hordiq chiqargan. Qirg‘izistonning O‘sh shahridagi dam olish uyiga 52, Farg‘onadagi dam olish uyiga 43 nafar o‘qituvchi yuborilgan. Viloyatdagi o‘qituvchilarning 10 foizi markaziy shaharlarga, tarixiy qadamjolarga ekskursiya uchun jo‘natilgan[5.-B.4].

Andijon viloyati kasaba uyushmalari tomonidan 1947-yilning birinchi kvartalida Qirgʻizistonning Oʻsh shahridagi dam olish uyiga 5 ta va boshqa sihatgohlar uchun 6 ta yoʻllanmalari olingan. Bu yoʻllanmalarni 4 tasi viloyat oʻqituvchilariga – RFdagi Kislovodsk shahri sihatgohlariga ajratilgan. 2 ta yoʻllanmadan biri Lenin rayoni, ikkinchisi Izboskan rayoniga berilgan[18. -B.20].

1945-1955-yillar orasida aholining yashash sharoiti, oziq-ovqat ta’minoti va meditsina xizmati yaxshi emasligi oqibatida oʻpka-nafas yoʻllari(tuberkulyoz) kasalliklari koʻpayib ketgan. Hattoki, oʻqituvchilarning koʻpchiligi shu kasallik bilan davolanib chiqqanlar. Masalan, 1950-yilda Andijon shahar 4-maktab oʻqituvchisi Abzali Agzamning onasi va 4 nafar farzandi tuberkulyoz kasali bilan davolanayotganligini inobatga olib unga kasaba uyushmasi tomonidan 400 rubl miqdorida moddiy yordam berilgan. Joʻraev Rasulqulga Samarqand shahrida shu kasallikdan davolanish uchun 125 rubl miqdorida yordam berilgan[19.- B.2]. 1950-yilga kelib, sil kasalligining ochiq turi bilan ogʻriganlarni alohida sihatgohlarda davolanishiga imkon yaratilgan. Masalan kasalligi oqibatida ishdan chetlatilgan Fargʻona viloyatidan Shergina, Rahmonova, Ahmedovalar yoʻllanma asosida davolanib, yana ishga qaytganlar[16. -B.27].

Maktablarda sanitariya-gigiena holatlari ayanchli holda ekanligi, oʻquv xonalari sovuqligi oqibatida faqatgina 1958-yilning oʻzida Andijon viloyatida 986 ish kuni ishga yaroqsizlik varaqasi asosida yoʻqotilgan[20. -B.21].

Lekin qishloq oʻqituvchilarining hammasida ham dam olishga sihatgoh, kurortlarga borish uchun imkoniyati boʻlmagan. Fargʻona viloyati kasaba uyushmasi Fargʻona viloyati xalq ta’limi boshqarmasiga xat bilan murojaat qilib, boshlangʻich va oʻrta maktab oʻqituvchilari uchun Jaloloboddagi dam olish kurortiga yoʻllanma borligi, yoʻllanma summasi 420 soʻmni tashkil etishini, yoʻllanma summasiga yashash joy, davolash va qarov kirishini bildirgan[12. -B.12]. Lekin sihatgohlarga ajratilgan yoʻllanmalar oʻqituvchilar tomonidan olinmagan. Qishloq oʻqituvchilarining yozgi

ta’til davrida xo‘jalik ishlari bilan band bo‘lishlari oqibatida madaniy hordiq chiqarish imkonidan marhum edi.

Lekin barcha dam olish muassasalarida ham sharoit ko‘ngildagiday bo‘lmagan. Davriy nashrlarda dam olish uylaridagi kamchiliklar yoritilgan. 1948-yilda Toshkentdagi o‘qituvchilar dam olish uyida respublikaning oblast va tumanlaridan va qo‘shni Tojikiston SSRdan 1800 o‘qituvchi kelib dam olishi rejalashtirilgan. Lekin dam olish uylarida issiq va sovuq dush yo‘qligi, madaniy hordiq chiqarish uchun kinolar qo‘yib berilmaganligi e’tirozlarga sabab bo‘lgan[6.-B1].

1952-yil Farg‘ona viloyati xalq ta’limi xodimlari kasaba uyushmalari budjetidan dam olish uylariga yo‘llanmalar uchun 70,0 ming rubl, kurort sihatgohlar uchun 180,0 ming rubl, turistik bazalar uchun 4,0 ming rubl, profilaktoriylarga 8,6 ming rubl va sihatgohlarga yetib borish uchun yo‘l kiraga 3,0 ming rubl miqdorida mablag‘ ajratilgan[13.-B.14]. Qo‘qon, Buvayda, So‘x tumanlaridan o‘qituvchilarni dam olishga jo‘natish qoniqarsiz ahvolda bo‘lgan. Odatda yo‘llanma qiymatini 30 foizini o‘qituvchi to‘lashi lozim bo‘lgan. Lekin Farg‘ona viloyatining ko‘pgina hududlarida o‘qituvchilarga berilgan yo‘llanmalarning tegishli qiymati qaytarilmagan[14. -B.65].

Davriy nashr ma’lumotiga ko‘ra: 1965-1967-yillar davomida Farg‘ona viloyati o‘qituvchilaridan 400 ga yaqini ittifoqning turli sihatgoh va kurortlarida davolanib kelganlar. 500 dan ortiq o‘qituvchi dam olish uylarida hordiq chiqarganlar. Germaniya Demokratik Respublikasi, Vengriya, Chexoslovakiya davlatlariga uyushtirilgan sayohatda qatnashganlar[8.-B.1].

Farg‘ona viloyatida 1967-yilda sog‘lomlashtirish ishlariga 187 ming kishi qamrab olingan. 1215 ming kishi dam olish uylarida, sihatgohlarda dam olgan. 1000 kishi turistik ekskursiyalarda bo‘lib qaytganlar[15. -B.14]. O‘qituvchilar ta’til davrida sport klublariga jalb qilingan bo‘lib, shaxmat, shashka, futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi kabi sport turlaridan musobaqalar tashkillangan. Ammo dam olishlar, sog‘ligini tiklash imkoni respublikadagi 30 foizga yaqin o‘qituvchiga nasib qildi xolos.

Toshkent shahrining Oʻzbekiston koʻchasida Respublika oʻqituvchilar uyi 1972-yilda qurilishi boshlanib, tugallanmay qolib ketgan[11. -B.1]. Shu binoni bitirib, ishga tushirishlarini soʻrab bir necha marotaba murojaat qilingan. Lekin ijroga kiritilmagan. Oʻqituvchilar dam olish uyi oʻrniga Oʻzbekiston xavfsizlik qoʻmitasining dam olish uyi qurilgan.

Respublika miqyosida 1975-1976-oʻquv yilida kasaba soyuzlarning 15 dan ortiq sogʻlomlashtirish muassasalari, shu jumladan 7 ta sihatgoh, tashkilot va muassasalarga qarovchi 200 dan ortiq dam olish muassasasi, 56 ta sihatgoh-profilaktoriy, 8 ta turistik baza, qariyb 370 ta pioner lageri ishlab turgan. Xalq maorifi xodimlaridan bir yilda 5800 kishi sihatgohlarda davolandi. 7400 kishi dam olish uylarida hordiq chiqardi, 7300 kishi turistik yoʻllanmasi bilan SSSR boʻylab sayohat qildi.[17. -B.5]

1974-yilda xalq maorifi xodimlari uchun “Doʻstlik” poezdi tashkil etilgan. Bu maxsus poezdda maorifchilar Ruminiya, Bolgariya boʻylab sayohat qilganlar.[12.-B.147]

Sanatoriy, kurortlarga borib dam olish, turistik sayohatlarga chiqish koʻp mablagʻ talab qiladi. Shu sababdan aksariyat oʻqituvchilar oʻz uylarida taʼtilni oʻtkazganlar. Nafaqadagi oʻqituvchilar bilan suhbat chogʻida oʻquv yili tugashi arafasida jamoa bilan koʻngilochar joylarga bir kunlik sayohat qilish anʼanaga aylanganligini aytadilar.

Oʻzbekiston SSR kasaba uyushmalari tomonidan oʻqituvchi va maorif xodimlariga dam olish uylariga va sihatgohlarga ajratiladigan yoʻllanmalar soni koʻpaytirildi. 1980-yilda ularda 9000 dan ortiq oʻqituvchi dam oldi. 3000 mingdan oshiq kishi turistik bazalarda hordiq chiqargan, 38 mingdan ortiq oʻqituvchilar respublika boʻylab tashkil qilingan ekskursiyalarga jalb qilingan. 900 dan ortiq oʻqituvchilar chet elga sayohat qilganlar[9. -B.1].

“Qayta qurish” siyosati yillarida davriy nashrlarda oʻqituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar yaxshi emasligi haqidagi tanqidiy maqolalar chiqa boshladi. “Maktabda

o‘qituvchilar xonasi bo‘lishi kerakmi?” mavzusidagi maqolada o‘qituvchilarni ruhiy dam olishlari uchun ajratiladigan xonalar haqida so‘z yuritilgan. Haqiqatan ham o‘qituvchining qadriga yetish, dam olishini tashkillash maqsadida dam olish xonalarini tashkil etish ayni muddao bo‘ladi. O‘qituvchi har bir soatda qancha energiya yo‘qotib ruhan charchaydi. Nima uchun 30 yildan ortiq ishlayotgan tajribali o‘qituvchi kam uchraydi? Chunki o‘qituvchilarning ko‘pchiligi maktabdagi sharoit yaxshi emasligi, ruhiy charchashligi tufayli kasb kasalligiga uchraydi. Ayrim o‘qituvchilar kasbini o‘zgartiradi. Dars o‘tish, turli yig‘ilishlarga qatnashish, o‘z ustida ishlash, daftar tekshirish, ko‘rgazma tayyorlash singari ishlar borki, bunga o‘qituvchi nechog‘lik ko‘p kuch-g‘ayrat sarf qilishi kerak bo‘ladi. [10. -B.1]

Ko‘pgina o‘qituvchilarning sinf rahbarligi bor. Shunga ko‘ra u kechgacha maktabda bo‘ladi. Erkak o‘qituvchilar ozmi-ko‘pmi dam olishga imkon topa oladi. Lekin o‘qituvchilarning juda katta qismini tashkil qilgan ayollar maktabdan kelib, uy-ro‘zg‘or ishlari bilan band bo‘ladi. Amal-taqal qilib ishini tugatib, konspekt qilgani o‘tiradi. 60 talab daftar tekshiradi. O‘qituvchilar gardanida noo‘rin vazifalar osilib turaveradi. Shuning uchun aksariyat o‘qituvchilarning na badiiy kitob o‘qishga, na teatrga borishga vaqti bo‘ladi.

**XULOSA: S**ovet hokimiyati yillarida o‘qituvchilarning dam olishlari uchun kasaba uyushmalari tomonidan bir muncha ishlar amalga oshirildi. Lekin kasaba uyushmalarining vazifasi ishchi-xodimlarni himoya qilish bo‘lsada, bu vazifa yetarli darajada bajarilmadi. Chunki o‘qituvchi uchun nafaqat dam olish uylariga yo‘llanmalar berish, ish jarayonida ham o‘qituvchiga sharoit qilib berish uchun qayg‘urish lozim edi. Ammo maktablardagi o‘quv xonalar tanqisligi, binolar sig‘imi yetarli emasligi, ikki smenalab ishlashlar o‘qituvchilar uchun hozirgi kunda ham hal qilinmagan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Inson omili haqida gapiriladi. O‘qituvchining sog‘ligi haqida qayg‘urish – yosh avlodni tarbiyalashdagi faoliyatini uzaytirish emasmi?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020-yil 1 oktabrdagi Ustozlar va murabbiylar kuniga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqidan

2. Зиёмухаммедов Б. Педагогика. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006. – Б 348

3. Мусаев П. Таълим сарҳадлари. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б 431;

4. Shamsutdinov R, Moʻminov X. Oʻzbekiston tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B 576; Oʻzbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000 – B 400; Oʻzbekistonda ta’limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015. – B 328; Murtazaeva R.N. Oʻzbekiston tarixi. – Toshkent, 2005. – B 534;

5. Собиров С “Фарғона област касаба союз комитети ўз ишида бурилиш ясамоқда”.// Ўқитувчилар газетаси – 1948-йил 28-июн – Б 4

6. Босит Х “Нега дам олувчилар талабига жавоб берилмайди?” // Ўқитувчилар газетаси – 1948-йил 17-июн – № 49 – Б 1

7. Зокиров А., Алиматов.Б. “Касаба союзининг ғамхўрлиги” // Ўқитувчилар газетаси – 1948-йил 28-сентябр – Б 4.

8. Тўхтамишов М. Ўқитувчиларга яхши ҳордиқ. // Ўқитувчилар газетаси. – 1967-йил 9-июл – .№ 55 – Б 1

9. Гладков И “Ўқитувчиларнинг ёзги дам олишларига эътибор” //Ўқитувчилар газетаси. – 1981-йил 8-март. – № 12 – Б 1

10. Маҳмудов Ш. “Эл эъзозлаган муаллим” //Ўқитувчилар газетаси – 1989-йил 22-феврал – № 7. – Б 1

11. Гадойбоев Ш. “Бизга ким ёрдам беради?”// Ўқитувчилар газетаси – 1991-йил 16-апрел – № 44 – Б 1

12. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. Oʻzbekistonda pedagogik bilim yurtlarining shakllanish jarayoni (1945-1965 yillar)/ Vol. 4 No. 1 (2023): SCIENCE PROMOTION Confrence

13. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. O`zbekistonda xorijiy tillarning o‘qitilish tarixi/ **Vol. 4 No. 1 (2023): SCIENCE PROMOTION Confrence**

14. Sharipova Nargiza, Ph.D. History of Teacher Training System in Uzbekistan and Changes in it.//Modern Journal of Social Sciences and Humanities ISSN: 2795-4846 Volume22 (Dec-2023) Available online: https://mjssh.academicjournal.io 63-68

15. Farg‘ona viloyat 716-fond, 2-ro‘yxat, 52-ish, 14-varaq

16. Farg‘ona viloyat 716-fond, 46-ro‘yxat, 97-ish, 27-varaq.

17. Farg‘ona viloyat 1125-fond, 6-ro‘yxat, 367-ish, 5-varaq

18. Andijon viloyat davlat arxivi, 614-fond, 1-ro‘yxat, 8-ish, 20-varaq

19. Andijon viloyat davlat arxivi, 614-fond, 1-ro‘yxat, 16-ish, 2-varaq

20. Andijon viloyat davlat arxivi, 614-fond, 1-ro‘yxat, 122-ish, 21-varaq

## BAG‘DOD TUMANI TARIXIDAN: XO‘JA QISHLOG‘I VA OQIL MINGBOSHI MASJIDI

**Alimardon Jo‘liboyev**

Qo‘qon DU Tarix yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Farg‘ona viloyati Bag‘dod tumanining Xo‘ja qishlog‘i va uning hududida joylashgan “Oqil Mingboshi” jome masjidi tarixiy ob’ekti sifatida o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida qishloq tarixi, masjidning qurilish jarayoni hamda ularga oid tarixiy ma’lumotlar mahalliy aholi xotiralari, shuningdek, masjid peshtoqlarida bitilgan yozuvlar asosida o‘rganilgan. Qishloq va masjid tarixining ilmiy asosda yoritilishi nafaqat ichki va tashqi turizmni rivojlantirishga, balki xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosini yanada chuqurroq o‘rganish va targ‘ib etishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ofoq Xoja, Xo‘ja qishlog‘i, Oqil Mingboshi jome masjidi, tarixiy obida, me’moriy yodgorlik, madaniy meros, turizm.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Bugungi kunda dunyo xalqlarining tarixiy va madaniy merosini tadqiq etish hamda targ‘ib qilish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy globallashuv sharoitida madaniy boyliklar nafaqat milliy o‘zlikni anglashning muhim omili, balki innovatsion rivojlanishning ham asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish tarixiy va madaniy meros obyektlarini saqlash, ularni keng jamoatchilikka yetkazish hamda foydalanish jarayonini optimallashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, tarixiy manbalarga asoslangan veb-portallar, onlayn kataloglar, virtual muzeylar yaratish va mavjud ma’lumotlarni yagona elektron bazaga birlashtirish orqali madaniy merosni ommalashtirishda yuqori natijalarga erishish mumkin.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Markaziy Osiyo hududida, xususan, Farg‘ona vodiysida “xo‘ja” so‘zi ishtirok etgan toponimlar keng tarqalgan. Masalan, Xo‘ja Ahmad Vali, Xo‘jaariq, Xo‘jaqishloq, Xo‘jamag‘iz, Xo‘jao‘ldi kabi qishloq va mahalla nomlarida ushbu asosiy termin saqlanib qolgan[6. – B. 523]. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, “xo‘ja” atamasi dastlab diniy-ruhoniy maqomga ega bo‘lgan shaxslarni, keyinchalik esa ijtimoiy jihatdan alohida mavqega ega bo‘lgan oqsuyak yoki zodagon tabaqa vakillarini anglatuvchi nom sifatida qo‘llanilgan. Shu bois “xo‘ja” komponenti ishtirok etgan joy nomlari, odatda, o‘sha hududda yashagan nufuzli diniy yoki ijtimoiy shaxslar sharafiga berilgan nomlardir. Bunday toponimlar nafaqat O‘zbekiston hududida, balki butun Markaziy Osiyo va boshqa musulmon mamlakatlarida ham keng tarqalgan bo‘lib, ular tarixiy xotira, ijtimoiy tuzilma va diniy qadriyatlarning ifodasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bag‘dod tumanida joylashgan Xo‘ja qishlog‘ining shakllanish tarixi taxminan XVII asrga borib taqaladi. Manbalarda keltirilishicha, qishloq nomi 1670–1680-yillar

oralig‘ida bu hududga kelgan mashhur so‘fiy va mutasavvif Ofoq Xoja nomi bilan bog‘liq. Ofoq Xojaning asl ismi Xoja Hidoyatullo bo‘lib, Sharqiy Turkistonning Qumul shahrida 1625-yilda tug‘ilgan[3. – B. 7]. U o‘z davrining yirik mutasavvifi, shuningdek, ulug‘ shoir va tasavvuf adabiyotining yetuk namoyondasi Boborahim Mashrabning ustozlaridan biri sifatida ma’lumdir. Muridlarining juda ko‘pligidan ularga “Ofoq Xoja” – ufqlar, dunyo qutbi xojasi, yagona avliyo ma’nolarini beruvchi tahallus berishadi[4. – B. 23].

Rivoyatlarga ko‘ra, Ofoq Xoja o‘z sayohatlari chog‘ida endigina aholi ko‘chib kelib yashay boshlagan ushbu hududga keladi. Mahalliy aholi uni ehtirom bilan kutib oladi va shundan so‘ng bu joy “Xoja qishlog‘i” deb atala boshlaydi. Keyinchalik sekin-asta bu nom Xo‘ja shakliga o‘zgarib boradi. Ofoq Xojaning “bu yer kelajakda gavjum maskanga aylanadi” degan so‘zlari xalq og‘zaki rivoyatlarida saqlanib qolgan.

Keyinchalik, Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida qishloq nomi rasmiy hujjatlarda Husnobod shaklida qayd etilgan bo‘lsa-da[5. – B. 12], mahalliy aholi asrlar davomida “Xo‘ja qishlog‘i” atamasidan foydalanishda davom etgan. Mustaqillik yillarida tarixiy nom yana tiklanib, qishloq hozirda o‘zining asl nomi – Xo‘ja qishlog‘i bilan yuritilmoqda.

Islom dini O‘zbekiston hududiga kirib kelgan dastlabki davrlardanoq me’morchilik sohasida masjidlar qurilishi eng muhim va sharafli amallardan biri sifatida e’tirof etilgan. Bu holat keyingi asrlarda ham musulmonlar ongida masjid bunyod etish, uni saqlash va obod tutishni ulug‘ savobli amal sifatida qarash an’anasini shakllantirgan. Ana shu e’tiqod va diniy-dunyoviy motivlar ta’sirida Farg‘ona viloyatining Bag‘dod tumanidagi Xo‘ja qishlog‘ida joylashgan “Oqil mingboshi” jome masjidi barpo etilgan bo‘lib, u o‘z davrining diniy va me’moriy qadriyatlarini mujassam etgan muhim tarixiy obida hisoblanadi. Manbalarda keltirilishicha, mazkur masjid tarix davomida uch marotaba qayta qurilgan:

1. Masjidning dastlabki qurilish sanasi aniq ma’lum emas, biroq XIX asrning oxiri yoki undan avvalgi davrga taalluqli deb taxmin qilinadi.

2. Ikkinchi bor 1906–1907-yillarda qayta ta’mirlanib, ibodat ishlari uchun yangidan foydalanishga topshirilgan.

3. Uchinchi marotaba 1988–1991-yillar oralig‘ida mahalliy aholi tashabbusi bilan kapital ta’mirdan chiqarilgan va hozirgi ko‘rinishini olgan.

Bugungi kunda “Oqil mingboshi” jome masjidi nafaqat ibodat maskani, balki Farg‘ona vodiysi me’morchilik an’analarini o‘zida mujassam etgan tarixiy-me’moriy yodgorlik sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Masjidning dastlabki qurilish davri haqida aniq yozma manbalar mavjud emas. Og‘zaki rivoyatlarga ko‘ra, ilk masjid nisbatan kichik hajmli bo‘lib, bitta xonaqohdan iborat bo‘lgan. Uning devorlari sodda sinchli usulda qurilgan bo‘lib, mahalliy me’moriy uslublarga xos tarzda bezatilgan. XIX asrning oxirlariga kelib, bino ta’mirtalab holatga kelgan.

Mahalliy manbalarda keltirilishicha, qishloq aholisi orasida yashagan Umriniso ismli beva ayol, farzandsiz bo‘lganligi sababli, o‘zining shaxsiy mol-mulkidan masjidni qayta qurish uchun mablag‘ ajratgan. Shu tariqa u masjidning qayta barpo etilishiga asosiy sababchi bo‘lgan. Biroq uning ajratgan mablag‘i qurilishni to‘liq yakunlash uchun yetarli bo‘lmaganligi sababli, ishlar qishloq aholisining ehsonlari hisobiga davom ettirilgan.

Mahalliy oqsoqollar rivoyatlariga ko‘ra, yangi masjidning qurilishi 11 yil davom etgan. Bu davrda masjid avvalgisidan tubdan farqli tarzda – xonaqohli va keng ayvonli qilib qayta rejalashtirilgan. Shu tariqa “Oqil mingboshi” jome masjidi qishloq hayotining markaziy diniy-ma’naviy maskaniga aylangan.

Masjid qurilishi yakunlangach, qurilish jarayoniga rahbarlik qilgan usta va hunarmandlarning xizmat haqlari o‘sha davrda Nikolay II (1894–1917-yillar) hukmronlik qilgan paytda mingboshi lavozimida faoliyat yuritgan Oqil mingboshi

tomonidan to‘lab berilgan. Shu sababli, mahalliy aholi minnatdorchilik ramzi sifatida masjidni uning nomi bilan atay boshlagan. Natijada ibodat maskani “Oqil mingboshi” jome masjidi nomi bilan mashhur bo‘lib qolgan.

Masjidning me’moriy jihatidan diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri – hovuzakli, nafis islimiy naqshlar bilan bezatilgan shiftidir. Xonaqoh va ayvon qismida joylashgan hijriy 1325-sana bitilgan yozuv masjid qurilishining yakunlanish vaqtini bildiradi. Bu sana milodiy 1906–1907-yillarga to‘g‘ri keladi.

Bu hol masjidning aynan XX asr boshlarida nihoyasiga yetkazilganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ayrim tarixiy manbalar ham Xo‘ja qishlog‘ining o‘sha davrda yirik va iqtisodiy jihatdan nisbatan qudratli aholi punkti bo‘lganini ko‘rsatadi. Masalan, hijriy 1272 (milodiy 1855) yil jumodus-soniy oyida qozi Mirfozil ibn Jumaboy tomonidan Madinabibi Ashurquli qizining yeriga oid, hamda hijriy 1295 (milodiy 1877–1878) yilga mansub Qambarali ismli shaxsning yer savdosi haqidagi vasiqalar bunga dalildir. 1295 hijriy yilda yozilgan vasiqada shunday satrlar mavjud: “Xo‘qand viloyatining katta qishloqlaridan bo‘lmish Xo‘ja qishlog‘idagi bir qism ekin yerning tahlili...”

Mazkur hujjatdan ko‘rinib turibdiki, Xo‘ja qishlog‘i Qo‘qon xonligi davridayoq yirik va ahamiyatli qishloqlardan biri bo‘lgan. Bu esa o‘sha paytda ham aholi va mahalliy rahbarlar tomonidan bunday hajmdagi diniy-inshootni barpo etish imkoniyati mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. Shunday qilib, Oqil mingboshi boshchiligida qurilgan jome masjidi ilgari mavjud bo‘lgan eski masjid o‘rnida qayta barpo etilgan.

Imorat poydevori dastlab ot qo‘shilgan aravalar yordamida mustahkamlangan. Poydevor ostiga pishiq g‘isht terilib, ustiga qo‘sh sinch tizimi o‘rnatilgan. Namlikdan himoya maqsadida g‘isht tagiga g‘ijirqum to‘shalgan. Sinchlar oralig‘i guvala bilan to‘ldirilgan. Tom yopmasi “vassa juft” uslubida bajarilib, ustidan bo‘yra, qamish va qum qatlami solingan, so‘ngra chim bilan bostirilgan. Tom qatlami qariyb bir metr

qalinlikka ega bo‘lgan. Yomg‘ir suvlari oqib ketishi uchun maxsus yog‘och novlar o‘rnatilgan.

Masjid ayvonida 8 ta, xonaqoh qismida esa 2 ta ustun mavjud. Ustunlar geometrik naqsh uslublarida o‘ta nozik ishlov berilgan holda yasalgan bo‘lib, ular pastdan tepaga tomon ingichkalashib boradi va muqarnaslar bilan yakunlanadi. Masjid shifti Sharq me’morchiligining an’anaviy hovuzak uslubida bunyod etilgan. Xonaqohda 6 ta, ayvonda esa 8 ta hovuzak mavjud bo‘lib, ular tabiiy bo‘yoqlar yordamida ishlangan islimiy naqshlar bilan bezatilgan. Xonaqohda asosan qizil rang ustunlik qilsa, ayvonda ko‘k rang asosiy tus sifatida qo‘llangan. Rang berish jarayonida oltin va kumush tuslar ham ishlatilgan.

Masjid darvozasidan xonaqohgacha bo‘lgan oraliq avval metall panjara bilan o‘ralgan bo‘lib (hozirda saqlanmagan), bu holat imoratning umumiy kompozitsion yaxlitligini ta’minlagan. Ichki devorlari ganch bilan suvalib, turli xil girih naqshlar bilan bezatilgan. Uslub jihatidan bu naqshlar Xudoyorxon saroyi bezaklariga o‘xshashdir.

Eshik va derazalar yog‘ochdan ishlanib, salobatli shaklda tayyorlangan. Sobiq Sovet davrida masjid yopilgan va turli maqsadlarda foydalanilgan. 1950-yillarda Xo‘jaqishloqda tashkil etilgan “Andreyev” kolxozi faoliyati davrida masjidni buzish bo‘yicha bir necha urinishlar bo‘lgan. Biroq kolxoz raisi Soli Xalilov buning oldini olgan.

Keyingi yillarda qishloqqa kelgan rus loyihachisi yo‘l infratuzilmasini rejalashtirar ekan, masjid yo‘l o‘rtasida joylashganligi bois, yo‘l yo‘nalishini masjidni aylanib o‘tadigan tarzda o‘zgartirishga qaror qilingan.

Sovet davri, ya’ni mustaqillikkacha bo‘lgan yillarda masjid o‘zining ibodat maskani sifatidagi faoliyatini to‘xtatib, kolxoz ombori hamda boshqa xo‘jalik maqsadlari uchun foydalanilgan. Biroq mahalliy aholi tashabbusi bilan 1988-yil 17-iyulda masjidda qayta ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan. Ushbu ta’mirlash jarayonida

sinch devorlar buzilib, hovuzak qismlar vaqtincha olib tashlangan, so‘ngra pishiq g‘ishtdan yangi devorlar ko‘tarilib, tom yopmasi qayta o‘rnatilgan.

Masjidning tarh o‘lchamlari quyidagicha: xonaqoh qismi – 10,85 × 7,70 metr, ayvon qismi – 18,20 × 8,20 metr. Ta’mir jarayonida devorlardagi naqshlar o‘zining dastlabki holatiga muvofiq holda restavratsiya qilingan. 1991-yil 11-avgustda, qariyb 70 yillik tanaffusdan so‘ng, masjid o‘z faoliyatini qayta tikladi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mazkur masjid Madaniy meros yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilib, davlat muhofazasiga olindi.

2001-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Shuningdek, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida: “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi” – degan norma belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bu holat mazkur masjid kabi tarixiy inshootlarning huquqiy himoyasini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-yanvar F–5181-son “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishi, 2023-yil 18-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bugungi kunda “Oqil Mingboshi” jome masjidi o‘zining betakror me’moriy uslubi, tabiiy bo‘yoqlar bilan ishlangan islimiy naqshlari hamda Sharq me’morchiligining nozik did bilan uyg‘unlashgan bezaklari orqali o‘ziga xos tarixiy-ma’naviy qiyofasini saqlab qolgan. Ushbu obida nafaqat diniy ibodat maskani, balki

xalqimizning boy madaniy merosi va me’morlik an’analarining yorqin namunasi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu va boshqa tarixiy yodgorliklarni nafaqat jahon hamjamiyatiga, balki O‘zbekiston aholisi, xususan, yosh avlodga tanitish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki bunday obidalar yoshlarning milliy o‘zlikni anglashida, ma’naviy yetuk va aqlan barkamol shaxs sifatida kamol topishida muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu bois, “Oqil Mingboshi” jome masjidi singari me’moriy yodgorliklarni asrab-avaylash, ularni ilmiy o‘rganish va targ‘ib etish O‘zbekiston madaniy merosini saqlash borasidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-yanvar “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishi // www.lex.uz.

2. 2023-yil 18-aprel PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. // www.lex.uz.

3. Жалилов О. Офоқ Хожа маноқиби. – Андижон: “Ҳаёт” нашриёти, 2001.

4. Туркийзабон Саййид авлодлари (Шажара I китоб). – Фарғона: 1998.

5. Саримсоқов Ж. Бағдонома. – Фарғона: 1996.

6. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022.

# FARG`ONA VODIYSI TARIXI ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLARDA

**Muhammadjonova Mashhura Jamolbek qizi.**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Tarix yo‘nalishi 1- bosqich talabasi.

Elektron pochta: muhammadjonovamashhura4@gmail.com.

Tel: +998888816232.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysining tarixiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Unda vodiyning qadimiy davrlardan boshlab mustaqillik yillarigacha bo‘lgan jarayonlari, iqtisodiy va madaniy rivojlanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, Farg‘ona vodiysida olib borilayotgan arxeologik va tarixiy izlanishlar orqali mintaqaning o‘ziga xos sivilizatsion ahamiyati ochib beriladi. Maqolada ilmiy manbalar asosida Farg‘ona vodiysi bugungi kunda O‘zbekiston taraqqiyotidagi muhim mintaqa sifatida tahlil etilgan.

**Annotatsiya:** Usı maqalada Ferǵana oypatlıqsınıń tariyxıy, mádeniy jáne social rawajlanıw basqıshları zamanagóy ilimiy izertlewler tiykarında analiz etilgen. Ol jaǵdayda oypatlıqtıń áyyemgi dáwirlerden baslap ǵárezsizlik jıllarına shekem bolǵan processleri, ekonomikalıq hám mádeniy rawajlanıw qásiyetleri kórsetilgen. Sonıń menen birge, Ferǵana oypatlıqsında alıp barılıp atırǵan arxeologik hám tariyxıy izertlewler arqalı regiondıń ayriqsha sivilizatsion áhmiyeti ashıp beriledi. Maqalada ilimiy derekler tiykarında Ferǵana oypatlıqsı búgingi kúnde Ózbekstan rawajlanıwındaǵı zárúrli region retinde analiz etilgen.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы исторические, культурные и социальные этапы развития Ферганской долины на основе современных научных исследований. Рассматриваются процессы, происходившие в регионе с древнейших времён до периода независимости, а также особенности его

экономического и культурного развития. Кроме того, на основе археологических и исторических исследований раскрывается уникальное цивилизационное значение Ферганской долины. В статье, опираясь на научные источники, Ферганская долина рассматривается как один из важнейших регионов современного развития Узбекистана.

**Kalit so`zlar:** Farg`ona vodiysi, tarix, madaniyat, arxealogiya, ilmiy tatqiqotlar, ijtimoiy hayot, taraqqiyot.

**Gilt sózler:** Ferǵana oypatlıqsı, tariyx, mádeniyat, arxealogiya, ilimiy tatqiqotlar, socialliq ómir, rawajlanıw.

**Ключевые слова:** Ферганская долина, история, культура, археология, научные исследования, социальное развитие, Узбекистан.

Farg`ona vodiysi O`zbekistonning eng qadimiy, madaniy va tarixiy jihatdan boy hududlaridan biri sanaladi. Farg`ona vodiysining tabiiy-geografik joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoni va madaniy o`ziga xosligi ilmiy izlanishlarda har doim alohida o`rin egallab kelmoqda. U O`zbekistonning sharqiy qismida joylashgan bo`lib, qadimdan Markaziy Osiyoning serxosil va o`sha davrga xos rivojlangan hudud hisoblanadi. Vodiyning tabiiy chegaralari g`arbda Qurama tog`lari, sharqda Tyanshan tizmasi, janubda Oloy tog`lari, shimolda esa Farg`ona tizmalari bilan chegaralangan. Shu tabiiy o`rni uni qadimdan mustaqil iqtisodiy va madaniy mintaqaga aylantirgan.

Tarixiy manbalarda vodiyni “Denov” nomi bilan atalishi Xitoy solnomalaridan bilamiz. U davrda Farg`ona otlari, dehqonchilik va hunarmandchilik buyumlari bilan mashhur bo`lgan. Bunga vodiy sivilizatsiyalar chorrahasida joylashganligi ham sabab bo`lgan albatta. Manbalarda “O‘rta Osiyo javohiri” deb nom olgan Farg‘ona vodiysi suv manbalariga boy, iqlimi mo‘tadil, tuprog‘i unumdor bo‘lgan.

Bu zaminda insonni yashab mehnat qilishi uchun juda qulay tabiiy shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan. U insoniyat tarixining ibtidosidayoq eng qadimgi odamzot ajdodlarining makonlaridan biri bo‘lgan. Jumladan, Janubiy Farg‘onadan topilgan tosh

qurollari va odam suyaklariga qaraganda, bu oʻlka Markaziy Osiyoda insoniyatning eng qadimgi vakillari paydo boʻlgan, shakllangan mintaqalar qatoriga kiradi. Fargʻonaning soʻnggi bronza davri yodgorliklarini har tomonlama oʻrganish

natijasida aniqlanishicha, dastlab dehqonlar qarorgohi, keyin shaharmonand qal’a- qoʻrgʻonlar, soʻngra esa ilk shaharlar paydo boʻladi. Dalvarzin oʻzining tarixiy topografiyasi va oʻziga xos moddiy madaniyati bilan nafaqat vodiyda, balki Oʻzbekistondagi ilk shaharlar qatoriga kirgan. Qolaversa, uning vodiyning eng qadimgi oʻtroq dehqonchilik va hunarmandchilik markazi boʻlgani manbalarda tasdiqlangan. Yana bir necha arxeologik yodgorliklar Chust, Ashqoltepa, Dehqon, Xoʻjambogʻ (maydoni 4-13 ga) kabilar ham oʻz navbatida qadimgi voha dehqonchiligi markazlari boʻlgan. Demak, mil. avv. II mingginchi yillikning oxirgi choragidan vodiyda ilk shaharlar, shaharmonand qal’a- qoʻrgʻonlar tarkib topgan.

Ilk shaharlar shubhasiz, dastlabki irrigatsiya inshootlari asosida yuzaga kelgan. Irrigatsiya tarmoqlarining mavjudligi va hunarmandchilikning rivojlangani, shubhasiz, dastlabki davlatchilikning asosiy belgilaridandir [4. 2025:B.1].

FARG'ONA - Oʻrta Osiyoning shimoli-sharqida, Sirdaryoning yuqori havzasida joylashgan tarixiy viloyat. Hozirgi O'zbekistonning Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari va Qirg'izistonning O`sh viloyati hududlariga to'g'ri keladi. Farg`onadastlab tarixchi Gerodotning "Tarix" asarida "parikanilar yurti" nomiostida eslatiladi. Pomir tillarida "Parkana" toponim-so'zi bugungi kunda ham mavjud bo'lib, u tog'lar bilan o`ralgak va bir tomondan kirish mumkin bo'lgan hudud ma'nosini beradi. Qadimgi sug'd tilida ham "par" - devor, tog'lar orasidagi hudud, "kan" - foydali qazilmalariga boy makon mazmunini anglatgan. Xitoyliklar qadimda mahalliy Parkana-Farg'ona (Farg'ona) so'zini xitoychaga tarjima qilib "Dayuan" deb talaffuz qilganlar. Dayuan ham "tog'lar orasidagi vodiy" ma'nosini beradi va u hozirgi Xitoy adabiy tilida "Davan" deb yuritiladi. Farg`ona ibtidoiy davrdan insonlar yashab kelayotgan tarixiy hududdir (Selungur gori). Mil. avv. I ming yillikda bu yerda o`trok dehqonchilik xo'jaligiga

asoslangan Chust va undan so'ng Eylaman madaniyatlari tarkib topadi. Farg`ona tarixiy hududida tashkil topgan ilk davlat birlashmasi Davan davlati (mil. avv. IV asrdan - milodiy II asrga qadar) hisoblanadi. Farg`ona vodiysining Qirg'iziston Respublikasi hududidan O`zgan, Shurabashat, Anakizil, Qorasadok, O`sh, Qo‘rg‘oshintepa, Madi, Oq Bura, Yangibozor, Eski Aravon, O'zbekistonning Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlari hududlaridan Eylaton, Andijon, Quva, Mingtepa (Marxamat), Dalvarzintepa, Cho`ntaktepa, Maydatepa, Miktiqo`rg`on, Marg`ilon, Munchoqtepa (Balanotepa), Ahsikat, Koson (Kosonsoy), Mug'tepa, Uchqo'rg'on, Qaynabot, Oktepa, Tojikiston Respublikasi hududidan Qal'aibolo, Kofirkal'a, Surx qal'asi, Tepaqo`rg'on, Bishkent, Andarxon, Qorabuloq, Xo'jand kabi qadimgi va o'rta asrlar davriga oid shahar yodgorliklari ochib o`rganilgan[2. 2017:B.161-162].

Fargo`ona vodiysi qadimgi davrdan to hozirgacha o`zining ahamiyatini yo`qotmagan. Masalan, VIII-XI asrlarda islom madaniyati markazi bo`lgan. Xonliklar davrida (XVIII asr oxiri-XIX asr boshlarida) Farg`ona vodiysi siyosiy jihatdan Qo`qon xonligi markaziga aylangan. XIX asr oxirida esa Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgandan so`ng, rus hukumati aynan Farg`ona vodiysiga ko`plab aholisini ko`chirtirib kelishidan Farg`onaning Rossiya uchun muhim ahamyatga ega ekanligini ko`rsatadi. Bunga Farg`ona vodiysining geografik o`rnining o`ziga xosligi va qulayligi, tranzit savdo yo`lida joylashganligi, yerlarining unmdorligi bilan bog`liqdir.

XVIII asr oxirlarida Qo‘qon xonligining hududi faqatgina Farg‘ona vodiysidan iborat edi. Farg‘ona vodiysi esa qulay iqlim va tabiiy geografik mintaqada joylashgan bo‘lib, uning hududi 22,2 ming km2, tog‘li hududlar bilan birga 80 ming km2, sharqdan g‘arbga tomon uzunligi 300 km., shimoldan janubga qadar ba’zan 170 km.ni tashkil qilgan2 Ushbu davrda Qo‘qon hukmdori  Norbo‘tabiy vodiydagi barcha beklik, shahar va viloyatlarni bosib  olib, ularni o‘z davlatiga bo‘ysundirdi. Uning davrida Andijon va Marg‘ilon viloyatlari hamda Qo‘qon hududlari vodiydagi eng katta mulklar hisoblanar edi[1. 2022:B.18].

Farg‘ona vodiysining 7 ta asosiy shaharlari – Qo‘qon, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, Chust, Yangi Marg‘ilon va Rishton umumiy bo‘lgan tamoyillardan tashqari, shakllanishi hamda rivojlanishi bo‘yicha o‘ziga xos tuzilishga ham ega edi. Jumladan, vodiyda eng katta shaharlardan biri bu – Qo‘qon (manbalardagi Havoqandi latif - latif Ho‘qand) bo‘lgan. U shahristoni 19 kmlik xandaq va mudofaa devori bilan o‘rab olingan bo‘lib, 12 ta darvozasi bor edi2. Shaharning ikkita markazi – biri hukmdor O‘rdasi atrofida, ikkinchisi esa Chorsu bozorining maydonida bo‘lgan shu markazlarda madrasa va Jome masjidi joylashgan edi[1. 2022:B.88].

Farg’ona vodiysidagi sersuv daryolar, katta-kichik ko’llar va serunum yerlar bu yerda qadimgi odamlarning hayot kechirishlari uchun o’ta muhim bo’lgan ibtidoiy chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishida zamin hozirlagan. Mutaxassislarning fikriga ko’ra, Farg’ona tog’ qiyaliklarida umumiy uzunligi 2800 metrga teng bo’lgan mingtagacha daryo irmoqlarini sanash mumkin[3. 2010:B. 144].

Mustaqillikdan keying yillarda ham Farg`ona vodiysini o`rganish ishlari davom ettirildi. Xususan, Axsikent yodgorligida arxeolog olim Abdulhamid Anorboyev rahbarligida keng ko’lamli izlanishlar olib borildi va ayni kunlarda ham bu izlanishlar davom ettirilmoqda.

Farg‘ona vodiysi tog‘oldi hududlaridagi mug‘xonalarda qazishmalar olib borgan taniqli sharqshunos olim N.I.Veselovskiy faoliyati bilan bog‘liq. Ma’lumotga e’tibor qaratsak hozirgi kunda vodiy hududida arxeologik tadqiqotlarning boshlanganiga deyarli 140 yil to‘ldi. Shu davr mobaynida arxeologiya sohasida keng ko‘lamli tadqiqotlar amalga oshirildi. Vodiy hududida tarixiy taraqqiyot davrining turli bosqichlariga oid arxeologik yodgorliklar aniqlandi, ularni o‘rganilishida yirik ekspeditsiyalar faoliyat olib bordi[5. 2024:B.1].

Farg‘ona viloyat o‘lkashunoslik muzeyining 100 yilligiga bag‘ishlab chiqarilgan to‘plamda viloyatda deyarli 1950- yillardan to umrining oxirigacha arxeologik tadqiqot olib borgan olima N.G.Gorbunovaning va ushbu olimaning shogirdi G.P.Ivanovning

vodiy arxeologiyasi muammolarini umumlashtirgan yirik maqolalari o‘rin olgan. Lekin bu ko‘p yillik arxeologik qidiruv va qazuv tadqiqotlarining kichik hajmdagi ko‘rinishi xalos. Afsuski olima va uning shogirdi tomonidan ohirgi tadqiqotlar natijalariga bag‘ishlangan yirik bir ish yozilmadi. To‘g‘ri bu yerda N.G.Gorbunovaning 1986-yil Oksfordda nashr qilingan kitobini inobatga olish kerak albatta Shunday bo‘lsada, bu tadqiqotdan keyingi izlanishlar yirik hajmdagi kitob sifatida o‘z aksini topmadi[5. 2024:B.4].

**Xulosa:** Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston tarixiy-madaniy rivojida beqiyos o‘rin egallagan mintaqalardan biridir. Bu hudud qadimdan ilm-fan, hunarmandchilik va madaniyat markazi sifatida shakllangan. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari vodiyning tarixiy jarayonlari va ijtimoiy hayotini yanada chuqur o‘rganish imkonini bermoqda. Farg‘ona vodiysi bugungi kunda ham mamlakat iqtisodiy, ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutmoqda. Vodiyni tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganish milliy tariximizni yanada boyitmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mamadov X. Farg`ona vodiysi shaharlari tarixi. Toshkent.2022-yil. 192 bet.

2. Матякубов X. Тарихий-археологик атамалар изохли луати. Тошкент 2017-йил. 205 bet.

3. Xasanov I, G`ulomov.P, Karimov.A. O`zbekiston tabiiy geografiyasi. 2-qism. Toshkent. 2010-yil.161 bet.

4. Xayitova Sh. Farg`ona vodiysida Kulolchilik, shaharsozlik va memorchilik( Axsikent yodgorligi misolida).2025. 7 bet.

5. Yuldoshev Farrux. Farg`ona vodiysi arxealogiyasi: O`rganilishi va rivojlanishi. 2024. 4 bet.

# FARG‘ONA AN’ANAVIY ZARGARLIK MAKTABI

**Dadamuxamedov Fasixitdin Gulyamovich**
O‘zbekiston xalq ustasi, professor
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
**Dadamuxamedov Bobir Fasixitdinovich**
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, o‘qituvchi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

**Annotatsiya.** Maqolada Farg‘ona an’anaviy zargarlik maktabi boshqa zargarlik maktablaridan o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turishi, uning tarkibida esa Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Uchqo‘rg‘on, Chust, Kosonsoy, Andijon, Asaka, Xo‘jand va boshqa bir qator zargarlik markazlari faoliyat yuritganligi ta’kidlangan. Shuningdek, tarixiy rivojlanish bosqichlariga ko‘ra Farg‘ona vodiysida ijod qilgan zargarlar va ularning asarlari ham maqolada tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** zargarlik, zargarlik maktablari, amaliy san’at, hunarmandchilik, an’anaviy uslub, mahalliy xususiyatlar, ma’dan, xomashyo.

**Annotatsiya.** Maqalada Fergána dástúriy zergerlik mektep basqa zergerlik mekteplerinen ayriqsha tárepleri menen ajralıp turıwı, onıń quramında bolsa Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Uchqo'rg'on, Chust, Kosonsoy, Andijan, Asaka, Xo'jand hám basqa bir qatar zergerlik oraylari iskerlik júrgizgenligi aytıp ótken. Sonıń menen birge, tariyxıy rawajlanıw basqıshlarına kóre Fergána oypatlıqsında dóretiwshilik etken zergerler hám olardıń dóretpeleri de maqalada analiz etilgen.

**Gilt sózler:** zergerlik, zergerlik mektepleri, ámeliy kórkem óner, ónermentshilik, dástúriy usıl, jergilikli ayrıqshalıqlar, metall, shiyki zat.

**Аннотация.** В статье подчёркивается, что Ферганская традиционная ювелирная школа отличается от других ювелирных школ своими уникальными особенностями и включает в себя ряд ювелирный центров этой школы как

Коканд, Маргилан, Наманган, Учкурган, Чуст, Косансай, Андижан, Асаку, Худжанд и другие. Также в статье анализируются ювелиры Ферганской долины и их творчество по этапам исторического развития.

**Ключевые слова:** ювелирное искусство, ювелирные школы, прикладное искусство, ремесла, традиционный стиль, местные особенности, металл, сырье.

Farg‘ona an’anaviy zargarlik maktabi boshqa zargarlik maktablaridan o‘zining nafisligi, shakllar va naqshlarining nozikligi, viqorliligi hamda hamdorligi bilan ajralib turadi. Mazkur maktabning tarkibida bir qator markazlar ham mavjud bo‘lib, bular: Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Uchqo‘rg‘on, Chust, Kosonsoy, Andijon, Asaka, Xo‘jand va boshqa bir qator zargarlik markazlari faoliyat yuritgan. Albatta ular orasida Qo‘qon yetakchilik qilgan. Sababi Qo‘qon xonligi amaliy san’ati va hunarmandchiligida, xususan hududga xos bo‘lgan an’anaviy zargarlik san’atida butun O‘rta Osiyo uchun xos bo‘lgan an’anaviy uslublar bilan bir qatorda mahalliy xususiyatlar ham saqlangan.

Farg‘ona vodiysining poytaxt shahri hisoblangan Qo‘qonda zargarlikning eng muhim xomashyolaridan hisoblangan oltin va kumush qazib olish taraqqiy etgan bo‘lib, Qo‘qon xonligida yiliga bir necha funt miqdorida oltin qazib olinardi. Oltin Sirdaryoga oqib tushadigan turli daryolarning yuqori qismida topilgan. Xonlikda Namanganning Kosonsoy hududida, Qoratog‘ning shimolidagi Ko‘kreu daryosida, Chirchiq daryosi bo‘yida, Chotqol daryosining yuqori og‘zida oltin rudasi qazib olingan. Burchmulla qishlog‘i yaqinida va undan keyin Chotqol daryosining yuqori oqimida oltin ilgari daryo qumlaridan yuvilib ketgan. Namangandan to‘rt kun uzoqlikda joylashgan kondan qazib olingan kumush rudasidan Ketmantep istehkomiga ketayotib, 100 chariq rudadan 1000 chariq qo‘rg‘oshin, undan 1 chariq sof oltin ajralib chiqishi haqida ma’lumotlar mavjud. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, Qo‘qondan Qashg‘arga zarb qilingan va metall holatida oltin olib kelingan. Xonlik poytaxtida bir g‘altakning qiymati 16,5 tanga

bo‘lsa, oltin qum uchun esa 14,5 tanga bo‘lgan. Oddiy vaqtlarda qorategin oltinlari qum holida 18 tangadan, g‘altak holida esa 16 tangadan sotilgan. Mazkur ma’lumotlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash joizki, Qo‘qon xonligida zargarlikning muhim xomashyosi hisoblangan oltin va kumushni qazib olish hamda ularda turli buyumlar, jumladan zargarlik taqinchoqlarini yasash keng rivoj topgan.

XIX asr Farg‘ona an’anaviy zargarlik maktabi Qo‘qon, Namangan, Chust va Andijon, ustalari tomonidan namoyon bo‘lgan. Ushbu maktabning mahsulotlari rangning nafis cheklanishi, bezak va bezakning o‘ziga xos nozikligi va nafisligi bilan ajralib turadi, ular yordamida asarning o‘zi shakllangan. Qo‘qon va Farg‘ona vodiysining boshqa shaharlarida zargarlar tosh, shishalar qadalgan, sovotkori, o‘yma, bo‘rtma, qolipaki, simkori, minokori va qo‘shimchalar yordamida bezak berish texnikasini afzal ko‘rgan. Bo‘yinbog‘lar uchun medal’onlar “baliq terisi” naqshi feruza toshi yordamida hoshiyali qadama texnikasidan foydalangan holda tayyorlangan.

1890 yilda Qo‘qonda zargarlik buyumlari rastalari ishlab chiqaruvchi rastalarga qo‘shilib, ustaxonadagi ustalar soni jihatidan hududdagi yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bu yerda ishlab chiqarishning asosiy mahsulotlari uzuklar, ziraklar, bilakuzuklar, bo‘yin bezaklari hisoblanib, mahsulotlarning asosiy ma’dani kumush hisoblangan. Bu ma’danni bezatish uchun feruza, yashma, ba’zan yoqut, ko‘pincha rangli va turli shakllardagi shishalardan foydalanilgan. 1978 yilda esa Farg‘ona shahrida 17 nafar, Marg‘ilonda 20 nafar, Andijonda 12 nafar, Namanganda 7 nafar zargarlar faoliyat yuritgan.

Farg‘ona an’anaviy zargarlik maktabiga oid sirg‘alarning eng keng tarqalgan turi “Oy baldoq” bo‘lib, qadimiy namunadagi yarim oy shaklidagi sirg‘alar, uzum boshi ko‘rinishidagi sirg‘alar, “Qashqar baldoq” nomli simkori va zig‘iraklar bilan bezatilgan sirg‘alar bo‘lgan. “Qashqar baldoq” sirg‘asining umumiy shaklini Farg‘ona zargarlik maktabiga XIII asrda ushbu hududga ko‘chib kelgan qashg‘arliklar olib kelgan. Ushbu sirg‘alar pastki halqani ochiq naqshli simlar bilan to‘ldirish yoki naqsh bilan bo‘rttirma

qilish tamoyiliga binoan yasashgan. Bu tasvirlar mo‘jaz quyosh, yulduz va “Budda g‘ildiragi” nomli naqshlarning timsolidir.

XIX – XX asrlarda Farg‘ona an’anaviy zargarlik maktabi tizimida bir qator zargarlar ijod qilgan bo‘lib, ular: Qo‘qonda – usto Mahmud, usto Omonxo‘ja, usto Qoraxo‘ja, asli shaxrisabzlik Tursunxo‘ja, Namanganda – usto Niyoz Oxun va N.Abdullayev, Andijonda – usto Otaboy, H.Otaboyev, Asakada – R.Xafizov. ularning har biri o‘zining nomiga ega bo‘lgan holda Farg‘ona zargarlik maktabining o‘ziga xos mahalliy xususiyatlarini o‘z asarlariga jo qilganlar. Ular orasida asakalik Rajab Xarizov 1920-40-yillarda “Qashqar baldoq” ustasi sifatida mashhur bo‘lgan.

Tarix sahifalarida “Zargar bobo” taxallusli Usta Habibullo Xayrullo o‘g‘li, “Zarrindast” (oltin qo‘l) taxallusli Usta Usmonjon Umarxon o‘g‘li, “Zargarcha” taxallusli Mirzarahim Mirzaxakim o‘g‘li, “Zarshunos” taxallusli Mulla Xudoyor Mahviy, Usta Muxammadali Turdiali o‘g‘li, Maxmud Xakkok va Tursunxo‘ja zargar Xurjiy kabi mohir zargarlar nomlari saqlanib qolgan. 1902 yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan “Hunarmandchilik sanoati” ko‘rgazmasida Qo‘qonlik zargarlar Maxmudjon Muhammadjonov va Egamberdi Tag‘oyiqulovlar ishtirok etib, kumush va bronza medallar bilan mukofotlanganlar. Qo‘qon zargarchiligida Sulaymon Zargar Yo‘ldosh o‘g‘li hamda uning farzandi G‘anijon zargarning faoliyatlari alohida o‘rin tutadi.

Farg‘ona zargarlik maktabining yirik markazlaridan biri Qo‘qon hisoblanib, XX asr o‘rtalarida qo‘qonlik zargarlarga Usto Sharifjon Sulaymonov rahbarlik qilib, ko‘plab ustalar, jumladan, bo‘yin va ko‘krak taqinchoqlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Muzafar Yusufjonovga mazkur san’atning sir-asrorlarini o‘rgatgan.

Farg‘ona an’anaviy zargarlik maktabining eng yetuk namunalari Qo‘qon xoni Xudoyorxon davrida ijod qilgan zargarlar tomonidan yasalgan bo‘lib, bugungi kunda ular turli muzeylarda saqlanmoqda va ekspozitsiyalarda namoyishga ham qo‘yilgan. Ularga misol qilib, zeb-ziynat buyumlari, qutichalar, kamarlar va to‘qalar, otning yugan va jabduqlari, xanjar va qilichlarni keltirishimiz mumkin. Ularning aksariyati XIX

asrning ikkinchi yarmida yasalgan bo‘lib, Xudoyorxon tomonidan Rus imperatori va amaldorlariga sovg‘a tariqasida taqdim etilgan. Otning yugan va jabduqlari sovg‘a qilingan qimmatbaho buyumlar orasida ajralib turadi. Sababi, mazkur buyum zargarlarning mahorati o‘laroq otning nafaqat kerakli buyumi, balki ziynati sifatida ham e’tibor qozongan. Ularning biri haqida alohida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, jabduqlar 1868 yilda Qo‘qon xoni Xudoyorxon tomonidan Rus imperatori Aleksandr II ga sovg‘a sifatida taqdim etilgan. Jabduqlar teri, po‘lat, temir, kumush, misdan yasalib, feruza, qimmatbaho rangli toshlar qadab ishlangan, toblash, kavsharlash, zarblash, quyma, qolipaki, o‘yma, kandakori va sayqallash texnikalarida pardozlangan. Bosh tasmasi uzunligi – 60 sm, bo‘yin tasmasi uzunligi – 85 sm, paxvi uzunligi – 1) 60 sm, 2) 63 sm. Jabduqlar tasmalar yordamida otning boshiga kiydirilib, jag‘ qismidan o‘tqazilgan va bo‘yin qismida bog‘lab qo‘yilgan. E’tiborliysi shundaki, jabduqlarning yuza qismi to‘laligicha feruza toshlar qadab bezatilgan bo‘lib, ularning orasiga qimmatbaho rangli toshlar o‘rnatilgan. Mazkur jabduqlarning namunasi bugungi kunda Sankt-Peterburg shahridagi Davlat Ermitajida saqlanmoqda (Davlat Ermitaji, Inv.№: V.O.-1177).

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, Farg‘ona va Toshkent an’anaviy zargarlik maktablari hamda ulardagi mavjud bo‘lgan o‘ziga xos mahalliy xususiyatlar bir-biriga juda yaqin. Sababi, Farg‘ona va Toshkent an’anaviy zargarlik maktablarining vakillari zeb-ziynat buyumlarini yasash va ularni bezashda, naqshlar tanlashda o‘z maktablarining an’analarini takomillashtirganlar hamda rivojlantirganlar. Farg‘ona va Toshkentning mahalliy maktablari o‘zlarining keng rejali, hajmli manzaralari, bezak va naqshlarning g‘oyat nafisligi, ranglarning sho‘xchanligi bilan ajralib turadi. Xonlik aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va kosibchilik va shug‘ullanganlar. Hunarmandchilik shaharlarda ixtisoslashgan ko‘rinishga ega bo‘lib, buyumlarning bir turi va biror qismini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan sohalar mavjud bo‘lgan.

Hunarmandlar oʻz kasblarining sir-asrorlarini mukammal oʻzlashtirgan mohir ustalari boʻlib, ishlab chiqargan mahsulotlarini yuksak san’at darajasiga koʻtarganlar.

Fargʻona xalq amaliy san’atida zargarlik san’ati oʻziga xos uslublarda rivojlangan. Qoʻqon, Margʻilon, Andijon, Namangan shaharlarida ham, vodiyning chekka qishloqlarida ham zargarlar faoliyat olib borganlar. Fargʻona xalq amaliy san’ati deganda, avvalo, Fargʻona an’anaviy zargarlik maktabi va uning oʻziga xos mahalliy xususiyatlari koʻz oldimizga keladi. Bu maktab qadim-qadimdan oʻzining mashhur zargarlari, zeb-ziynat buyumlari bilan nom qozongan. Fargʻonaning Qoʻqon, Margʻilon kabi yetakchi hududlarida yaratilgan zargarlik buyumlari bu maktabda xalq amaliy san’atining zargarlik san’ati qadimdan mavjudligi, davrlar oʻtishi bilan rivojlanib borgani, bugungi kunda yanada takomillashib, chuqur ildiz otib borayotganidan darak beradi.

Fargʻona an’anaviy zargarlik maktabida zargarlik uchun zarur boʻlgan xom ashyolar xonlik hududidan olinishi bilan bir qatorda chetdan ham harid qilingan. Asosiy xom ashyolardan biri boʻlgan oltin Sirdaryoning yuqori oqimidan, Qonsuv daryosidan olingan. Shuningdek, Kosonsoydan, Qoratogʻning shimolidagi Kukrev daryosidan, Chirchiq daryosi boʻylaridan, Burchmulla yonidan, Chotqol daryosining yuqori oqimidan ham oltin olingan. Manbalarga koʻra, yer osti boyliklarini qazib olish shunchalik sodda va kam boʻlib, u ehtiyojni talab darajasida qondira olmagan. Shuning uchun ham aksariyat ma’danlar Rossiyadan olib kelingan. Xonlikdan chet elga asosan ipak va ipak matolar, paxta, charm mahsulotlari bilan bir qatorda, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, zargarlik buyumlari va boshqa mahsulotlar chiqarilgan. Mazkur ma’lumotlarga tayangan holda Fargʻona zargarlik maktabi bevosita Qoʻqon xonligi negizida shakllangan va rivoj topganligini koʻrishimiz mumkin. Fargʻona an’anaviy zargarlik maktabiga xos boʻlgan naqshlar oʻzining benihoya goʻzalligi bilan kishini oʻziga rom etadi. Ulardagi milliy kolorit, oʻynoqi va jozibador naqshu-nigorlar, serjilo ranglar, handasaviy va islimiy naqshlarning oʻzaro uygʻunligi kabi bir qator jihatlar

Farg‘ona an’anaviy zargarlik maktabini o‘zida aks ettirganligi bilan boshqa maktablardan farq qiladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida Farg‘ona zargarlik maktabi an’analari asosida ijod qilgan zargarlar qatorida Hamid va Yahyo Abdujabborovlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Mazkur sulola vakillarining ijodiy izlanishlarida “Qashqar baldoq” sirg‘asi yetakchi o‘rinni egallagan bo‘lib, ushbu sirg‘alar nafaqat qashg‘arlarning zargarlik san’ati, balki umuman olganda, o‘ziga xos buddaviylik dini madaniyatining ifodasi hisoblanadi. H.Abdujabborov an’anaviy uslubiga ko‘ra, naqshinkor bezak halqaning pastki qismiga joylashtirilib, uni o‘rtasigacha to‘ldiradi. Doira markazidagi fazo ma’nosini anglatuvchi aylana – quyosh, yulduzlar motivining timsoli bo‘lgan “Budda g‘ildiragi” bezakli nishoni joylashgan bo‘lib, u ezgu tilaklarning sinkretik ramziga aylangan.

Shu jihatdan olib aytganda, Farg‘ona an’anaviy zargarlik maktabi an’analarini qayta tiklash va rivojlantirishda Yahyo Abdujabborovning hissasi katta. Ya.Abdujabborov marg‘ilonlik yosh zargar bo‘lib, u yoshligidan otasi Hamid Abdujabborovdan zargarlik hunarini o‘rgangan. Uning taqinchoqlari o‘zining xilma-xiligi bilan ajralib turadi. Bular qatoriga bo‘yin tumor, “Qashqar baldoq” sirg‘asi, “Xalqai besh oyoq”, “Xalqa”, “Oynador” zirak, “Qoziq” sirg‘a, bilak uzuk va uzuklarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Mazkur maktab an’analarining yana bir davomchisi andijonlik Qodirjon Fozilov bo‘lib, u zargarlar sulolasining to‘rtinchi avlodidan. Q.Fozilov 15 yoshidan zargarlik san’ati bilan shug‘ullangan. Uning zargarlik buyumlari xilma-xil bo‘lib, usta ba’zi mahsulotlarda an’anaviy shakllarni saqlab qolgan bo‘lsa, ba’zilarida esa yangilik kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Usta o‘zi ijod qilgan Farg‘ona zargarlik maktabi an’analariga rioya qilib, faqatgina shu maktabga asoslangan zargarlik taqinchoqlarini tikladi va uni yanada boyitishga o‘z hissasini qo‘shdi. Zargar 2012 yilda vafot etgan

bo‘lishiga qaramay, bugungi kungacha uning shogirdlari usta boshlab bergan yo‘lni davom ettirib kelmoqdalar.

Mustaqillik davrida o‘z faoliyatini olib borayotgan Farg‘ona zargarlik maktabining yosh vakillaridan biri, Andijon shahri zargarlik ustalari sulolasining oltinchi avlodi Oyatillo Ergashev hisoblanadi. O.Ergashev sulolaning katta avlod vakillari singari an’anaviy yo‘nalishda ijod qilib, Farg‘ona zargarlik maktabining eng yorqin namunalarini o‘z asarlarida aks ettirib kelmoqda. Tumorlar, “Qashqar baldoq” sirg‘asi, bilakuzuk va uzuklar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda Farg‘ona vodiysining zargarlik maktabi an’analarini rivojlantirish va yangi uslublar bilan boyitishda Maqsud Ubaydullayev o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotganligini alohida ta’kidlash joiz.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida bildirilgan fikrlar va berib o‘tilgan ma’lumotlarga tayanib shuni aytish joizki, Farg‘ona an’anaviy zargarlik maktabi o‘ziga xos, takrorlanmas o‘ringa ega. Mazkur maktab an’analari asosida yaratilgan va bugungi kun zargarlari tomonidan yangicha talqinda yaratilayotgan zargarlik zeb-ziynat buyumlari nozikligi, nafisligi, hashamdorligi orqali barchaning diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb qilishda hamda rivojlanishda davom etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Akilova K. Традиционное ювелирное искусство Узбекистана XIX-XXI веков: школы, мотивации, технологии, мастера // Milli Azərbaycan Tarixi Muzeyi – 2011. – Baki: “Yelm”, 2011. – 356 səh.

2. Binafsha Nodir. O‘zbekiston amaliy san’ati: kitob albom. – T.: “San’at” jurnali nashriyoti, 2021. – 368 b.

3. Binafsha Nodir. O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligi. – T.: “San’at” jurnali nashriyoti, 2025. – 420 b.

4. Dadamuxamedov B. XIX – XXI asr boshlari O‘zbekiston zargarlik maktablarining mahalliy xususiyatlari // San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T.: K.Behzod nomidagi MRDI, 2023. – B. 144.

5. Dadamukhamedov B. Development Processes of Innovative Jewelry Art in Uzbekistan. // Current Research Journal of History. SJIF Impact Factor: 2023:6.531). – Berlin: Master Journals. Volume 04, Issue 02-2023. Published: February 10, 2023. – Pages: 01-06.

6. Dadamuxamedov F. O‘zbekiston zamonaviy zargarlik san’ati // K.Behzod nomidagi MRDI Axborotnomasi. – T.: K.Behzod nomidagi MRDI, 2023. – B. 3-8.

7. Esonov Z.Yu. Farg‘ona vodiysi qishloq aholisining hunarmandchilik an’analari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) // Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: O‘zR FA Tarix instituti. – 53 b.

8. Камбарова О. Своеобразие ювелирного искусства Узбекистана и генезис зооморфных украшений // Problems and scientific solutions. – Australia, Melbourne, 2022. – P. 234-240.

9. Xakimov A. O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligi mustaqillik davrida // Moziydan sado, №3(59). – T.: 2013. – 8-13 b.

10. Xakimov A. Farg‘ona vodiysi amaliy san’ati: an’ana va innovatsiya // San’at, №3/2013. – 23-27 b.

11. Xakimov A. O‘zbekiston san’at tarixi. Qadimgi davr, o‘rta asrlar, hozirgi zamon. – T.: Zilol buloq, 2022. – 528 b.

# FARG`ONA VODIYSI QO`QON XONLIGI DAVRIDA

**Abduraimova Odina Abdukarim qizi**
*Asaka tumani 12-umumta'lim maktabi ona tili adabiyot fani o‘qituvchisi*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysining Qo‘qon xonligi davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’muriy hayoti keng yoritilgan. Qo‘qon xonligi XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyodagi eng qudratli siyosiy tuzilmalardan biri bo‘lib, aynan Farg‘ona vodiysi uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi vazifasini bajargan. Maqolada vodiyning tabiiy-geografik imkoniyatlari, aholi tarkibi, shahar madaniyati, irrigatsiya tizimi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi bilan birga, xonlikdagi ijtimoiy tabaqalanish, davlat boshqaruvi va tashqi siyosat masalalari ham tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Qo‘qon xonligi, Farg‘ona vodiysi, siyosiy tizim, iqtisodiyot, hunarmandchilik, irrigatsiya, madaniyat, ijtimoiy hayot, savdo, tarix.*

***Аннотация.*** *Бул мақалада Ферғана өрөөнниң Қоқан хандығы дәуириндеги саясий, ижтимаий-экономикалық, мәденият жәнe маъмурий турмысы талдап өтілген. Хандықның экономикасындағы суғаруу системасы, қолөнершілік, сауда жәнe ағартушылық салаларындағы жетістіктер кең қамтылған. Сонымен қатар, халықтың тұрмыс деңгейі, қоғамдағы таптық айырмашылықтар жәнe Қоқан хандығының Орта Азиядағы рөлі көрсетілген. Зерттеу нәтижелері Ферғана өрөөнниң бұл дәуірде экономикалық һәм мәденият орталығы ретінде нығайғанын айғақтайды.*

***Калит сөзлер:*** *Қоқан хандығы, Ферғана өрөөн, саясий система, экономика, мәденият, суғаруу, ижтимаий турмыс, тарих, қолөнершілік, давлат басқаруы.*

***Аннотация.*** *В статье анализируются политическая, социально-экономическая, культурная и административная жизнь Ферганской долины в период Кокандского ханства. Подробно рассмотрены развитие ирригационной*

*системы, ремесел, торговли, образования и культуры. Также исследуются государственное управление, социальная стратификация общества и международное значение Кокандского ханства в Средней Азии. Полученные результаты показывают, что в этот период Ферганская долина окончательно утвердилась как важнейший экономический и культурный центр региона.*

***Ключевые слова:*** *Кокандское ханство, Ферганская долина, политическая система, экономика, культура, ирригация, социальная жизнь, история, ремесло, государственное управление.*

**KIRISH.** Markaziy Osiyo tarixida Qo‘qon xonligi XVIII asr oxiri — XIX asrning o‘rtalarida alohida o‘rin tutgan davlatlardan biridir. U o‘z davrida nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki butun O‘rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan. Xonlikning siyosiy markazi Qo‘qon shahri bo‘lib, u geografik jihatdan qulay, tabiiy boyliklarga boy Farg‘ona vodiysining markazida joylashgan edi. Bu hudud qadimdan sug‘oriladigan yerlar, serhosil dalalar, hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari bilan mashhur bo‘lgan.

XVIII asr boshlariga kelib, Farg‘ona vodiysida asrlar davomida davom etib kelgan Buxoro amirligi va Jung‘or xonligi ta’sirining susayishi natijasida mustaqil siyosiy tuzilmalar paydo bo‘la boshladi. Aynan shu tarixiy sharoit Qo‘qon xonligining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Uning asoschisi sifatida Shahruxbiy nomi tilga olinadi. Keyinchalik Norbo‘tabiy, Olimxon, Umarxon, Muhammad Alixon, Xudoyorxon kabi hukmdorlar davrida xonlik siyosiy jihatdan kuchayib, iqtisodiy va madaniy yuksalishga erishdi.

**ASOSIY QISM** Farg‘ona vodiysi O‘rta Osiyoning eng serhosil va eng gavjum hududlaridan biri bo‘lib, qadimdan dehqonchilik, bog‘dorchilik va hunarmandchilik markazi sifatida tanilgan. Vodiyning tabiiy sharoiti — sug‘oriladigan yerlar, daryo

tarmoqlari (Sirdaryo, Isfayramsoy, Shohimardonsoy, Isfara va boshqa irmoqlar) tufayli yuksak darajada rivojlangan sug‘orish tizimi mavjud edi.

Qo‘qon xonligi davrida Farg‘ona vodiysining iqtisodiy asosini aynan sug‘oriladigan dehqonchilik tashkil etgan. Paxta, g‘alla, arpa, sholi, meva-sabzavot, uzumchilik keng yoyilgan. Sug‘orish tizimi asosan ariq va kanallar orqali amalga oshirilgan. “Norbo‘tabiy arig‘i”, “Xonariq”, “Chodak kanali” kabi yirik irrigatsiya inshootlari barpo etilgan bo‘lib, ular minglab dehqon xo‘jaliklarini suv bilan ta’minlagan [1].

Bundan tashqari, vodiyning har bir shahri o‘ziga xos hunarmandchilik markazi sifatida faoliyat yuritgan: Qo‘qon — ipak to‘qish va metall buyumlar ishlab chiqarish, Marg‘ilon — ipak matolar, Andijon — temirchilik va zargarlik, Namangan — kulolchilik va charm mahsulotlari bilan mashhur bo‘lgan. Bu hunarmandchilik tarmoqlari nafaqat ichki bozorni, balki tashqi savdoni ham ta’minlagan.

Qo‘qon xonligi monarxiya shaklidagi davlat bo‘lib, xon davlat boshlig‘i sifatida oliy hokimiyatni o‘z qo‘lida jamlagan. U siyosiy, harbiy, diniy va sud hokimiyatining yagona markazi bo‘lgan. Xon saroyida “devon” tizimi faoliyat yuritgan. Devon — bu davlat boshqaruvi organi bo‘lib, unda qozi, rais, mirzaboshi, amaldor va boshqa mansabdorlar ishlagan.

Hududiy boshqaruv “bekliklar” asosida tashkil etilgan. Har bir beklikni xon tomonidan tayinlangan “bek” boshqargan. Beklar soliq yig‘ish, tartibni saqlash, sud ishlarini yuritish, hamda xon buyrug‘ini bajarish uchun mas’ul bo‘lganlar.

Xonlikning ichki siyosatida ko‘p hollarda harbiy-boshqaruv tabaqasi bilan diniy ulamolar o‘rtasidagi kuch muvozanati muhim o‘rin tutgan. Diniy arboblar — xonning siyosiy faoliyatini diniy jihatdan qonuniylashtirgan, xon esa ularga moliyaviy yordam ko‘rsatgan. Shu yo‘l bilan siyosiy va diniy hokimiyat o‘zaro muvozanatni saqlagan.

Qo‘qon xonligi davrida Farg‘ona vodiysida turli millat va elatlar yashagan: o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, uyg‘urlar, tatarlar va boshqalar. Shahar aholisi asosan hunarmand, savdogar, dehqon, ruhoniy va harbiy tabaqalardan iborat edi.

Jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish aniq ko‘rinishda namoyon bo‘lgan. Yuqori tabaqani xon oilasi, amaldorlar, ruhoniylar tashkil etgan bo‘lsa, o‘rta tabaqani savdogarlar, ustalar, zargarlar egallagan. Dehqonlar esa xonlik iqtisodining asosiy tayanchi bo‘lib, soliq va majburiyatlarning katta qismini bajargan.

Aholining kundalik hayotida islom dini, shariat qonunlari va mahalliy urf-odatlar muhim o‘rin tutgan. Madrasalar, masjidlar va maktablar diniy va dunyoviy ta’lim markazlari sifatida faoliyat yuritgan [2].

Qo‘qon xonligi davrida Farg‘ona vodiysi madaniy jihatdan ham yuksak rivoj topdi. Xonlik saroyida ko‘plab shoir, olim, xattot va musiqachilar faoliyat yuritgan. Umarxon davrida (1810–1822) Qo‘qon “adabiy markaz”ga aylangan. Shoira Nodira, shoir Gulxaniy, Ma’dalixon davrida Xofiz Tanish Buxoriy, Fozilbek, Fazliy kabi ijodkorlar bu maktabni boyitgan.

Madaniy hayotning yuksalishida madrasalar katta rol o‘ynagan. Qo‘qondagi “Jome’”, “Norbo‘tabiy”, “Dasturxonchi” madrasalari ilm-ma’rifat markazlari bo‘lgan. U yerda arab tili, mantiq, tarix, fiqh, falakiyot, adabiyot o‘qitilgan. Xonlikda kutubxonalar faoliyat yuritgan bo‘lib, ular orqali ilmiy meros avloddan avlodga o‘tgan.

Qo‘qon xonligi Markaziy Osiyo savdo yo‘llarining markazida joylashgan edi. Farg‘ona vodiysi orqali Xitoy, Qashqar, Toshkent, Samarqand va Buxoro yo‘llari o‘tgan. Savdo karvonlari ipak, choy, shakar, metall, charm, gilam va meva mahsulotlarini tashigan [3].

Qo‘qon savdogarlari Qashqar va Xitoy bilan faol savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. “Ipak yo‘li”ning bu tarmog‘i Qo‘qon iqtisodiy qudratini mustahkamlagan. Shu davrda Qo‘qon tangalari — “tillo”, “tanga”, “pul”lar mamlakat ichida muomalada bo‘lgan.

Savdo bilan birga diplomatik aloqalar ham kengaygan. Xonlik Eron, Rossiya va Buxoro bilan siyosiy-madaniy aloqalar oʻrnatgan. Bu jarayon oʻz navbatida madaniyatlar almashinuvi, iqtisodiy integratsiya va diplomatik tajribaning ortishiga sabab boʻlgan.

Qoʻqon xonligi XVIII asr oxiri va XIX asrda siyosiy kuchayish bilan bir qatorda ichki ziddiyatlarni ham boshidan kechirdi. Xonlar oʻrtasidagi hokimiyat uchun kurash, mahalliy bekliklarning mustaqillikka intilishi, xalq noroziliklari va iqtisodiy tengsizliklar davlat barqarorligiga putur yetkazdi.

Xudoyorxon davrida (1845–1875) Rossiya imperiyasi bilan munosabatlar keskin tus oldi. Rossiya qoʻshinlarining Turkistonga kirib kelishi xonlik mustaqilligini yoʻqotishiga olib keldi. 1876-yilda Qoʻqon xonligi rasman tugatilib, uning hududi Rossiya imperiyasi tarkibiga qoʻshildi.

Ammo shunga qaramay, Qoʻqon xonligi davrida yaratilgan iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy meros keyinchalik ham Fargʻona vodiysining rivojlanishida muhim oʻrin tutdi [4].

Qoʻqon xonligi davrida Fargʻona vodiysi faqat siyosiy markaz emas, balki oʻziga xos ijtimoiy-madaniy uygʻonish maskani boʻlgan. Bu davrda xonlikning har bir shahri — Qoʻqon, Margʻilon, Andijon, Namangan, Isfara, Chust, Rishton — oʻziga xos iqtisodiy va madaniy faoliyat markazi sifatida ajralib turgan. Ayniqsa, Qoʻqon shahri oʻz davrining yirik maʼmuriy va diplomatik markazi boʻlib, unda xon saroyi, hukumat idoralari, madrasa, masjid va bozorlar joylashgan. Shahar atrofi qishloqlar bilan chambarchas bogʻlangan boʻlib, bu oʻzaro iqtisodiy almashinuv tizimining uzluksizligini taʼminlagan.

**XULOSA VA MUNOZARA.** Qoʻqon xonligi davrida Fargʻona vodiysi Markaziy Osiyoning eng muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida shakllandi. U oʻzining tabiiy boyliklari, sugʻorish tizimi, rivojlangan

dehqonchilik va hunarmandchilik, shuningdek, boy madaniy merosi bilan ajralib turgan.

Xonlikda yaratilgan irrigatsiya tizimlari, savdo yo‘llari, madrasalar va adabiy maktablar keyingi davrlarda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Farg‘ona vodiysining Qo‘qon xonligi davridagi taraqqiyoti bugungi kunda ham O‘zbekiston tarixining muhim bosqichi, milliy davlatlilik an’analarining shakllanishida muhim tarixiy tajriba sifatida baholanadi.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Abdurahmonov, A. Qo‘qon xonligi tarixi. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019. — 326 b.
2. Ahmedov, B. O‘zbekiston tarixi (XVIII–XIX asrlar). — Toshkent: Universitet, 2018. — 294 b.
3. Mirzaev, M. Farg‘ona vodiysi tarixidan lavhalar. — Toshkent: Fan, 2020. — 211 b.
4. Holiqov, A. Qo‘qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. — Toshkent: Akademiya, 2017. — 256 b.
5. Sagdullayev, A., Karimov, A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. — Toshkent: Universitet, 2021. — 330 b.

# O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIMNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA PEDAGOGIK RIVOJLANISH JARAYONI (1970–1991-YILLAR)

**Tishabayeva Iroda Rasulovna**
Tarix fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
Farg'ona davlat texnika universiteti

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada 1970–1991-yillar oralig'ida O'zbekiston SSRda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, metodik tajribalar va pedagogik yangiliklar tahlil qilinadi. Ayniqsa, o'quv-tarbiya jarayonining mazmunini takomillashtirish, "Bolalar bog'chasida ta'lim va tarbiya" dasturining joriy etilishi, "Ota-onalar universiteti" faoliyati hamda oila bilan bolalar bog'chasi o'rtasida pedagogik hamkorlik tizimini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *O'zbekiston SSR, maktabgacha ta'lim, "Bolalar bog'chasi ta'lim-tarbiya dasturi", ota-onalar universiteti, tarbiyaviy jarayon, sovet davri, bolalar bog'chasi.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются реформы, методические эксперименты и педагогические нововведения, осуществленные в системе дошкольного образования Узбекской ССР в 1970–1991 годах. Особое внимание уделяется совершенствованию содержания обучения и воспитания, внедрению программы «Дошкольное воспитание детей», деятельности «Университета для родителей» и формированию системы педагогического сотрудничества между семьей и детским садом в условиях советского периода.*

**Ключевые слова:** *Узбекская ССР, дошкольное образование, программа «Дошкольное воспитание детей», университет для родителей, воспитательный процесс, советский период, детский сад.*

**Annotasiya:** *Bul maqalada 1970–1991-jıllar arasında Özbek SSR-da mektep aldı tärbiyesini takamillastrıw boyınsha islahatlar, metodikalıq tajribeler hám*

*pedagogikalıq jańalıqlar analiz etiledi. Maqalada «Balalar baxşası ta’lim-tärbiye dasturı»nıń engiziw tajribesi, «Ata-analalar universiteti»nin faaliyeti hám tärbiyelik járayanını sovet dáwirindegi róli kúrsitiledi.*

***Aşqısh sózler:*** *Özbek SSR, mektep aldı tärbiye, «Balalar baxşası ta’lim-tärbiye dasturı», ata-analalar universiteti, tärbiyelik járayan, sovet dáwiri, balalar baxşası.*

**Kirish.** Bugungi kunda respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish ustuvor davlat vazifasiga aylangan. 2030-yilgacha bolalarni maktabgacha ta’lim bilan to‘liq qamrab olishga qaratilgan strategik dasturlar qabul qilinmoqda. Bu esa ta’lim tizimining asosiy bosqichlaridan biri - maktabgacha ta’limni - milliy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan ham muhimligini ko‘rsatadi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Iqtisodiyot rivojlanishi, yurtimiz va farzandlarimiz kelajagi faqat va faqat ta’lim va muallimga bog‘liq. … Sifatli ta’lim tizimi orqaligina bularga erisha olamiz! Boshqa yo‘limiz yo‘q!” [7.]

Mazkur tadqiqot ushbu bosqichdagi siyosat, infratuzilma, metodika va demografik omillarni tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, qamrovini kengaytirish va regional tafovutlarni qisqartirishga ko‘maklashadigan ilmiy-amaliy yechimlar keltirishni maqsad qilgan.

1970-yillarda SSSR hukumati tomonidan rus tilini “xalqaro muloqot tili” sifatida targ‘ib qilishga qaratilgan qator siyosiy qarorlar qabul qilindi. O‘zbekiston SSR Maorif Ministrligi kollegiyasining 1974-yil 8-apreldagi “Respublika maktablari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalari, pedagogika o‘uv yurtlarida rus tili va adabiyotini o‘rganish va o‘qitishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. tarbiya metodika kabinetlari tomonidan rus tilini kichik yoshdagi bolalarga o‘rgatishga qaratilgan eksperimental ishlar kuchaytirildi [5. 1975: B.26.]. Bu yillarda Toshkent shahridagi 27, 311, 330, 395, 426, 461-sonli, Namangan shahridagi 39, Namangan oblasti Zadaryo rayonidagi 7, Marg‘ilon shahridagi 23 va 42, Samarqand

shahridagi 22 va 67, Andijon shahridagi 34, Leninsk (Asaka) shahridagi 8, Qarshi shahridagi 5 va 10, Farg‘ona shahridagi 14, , Termiz shahridagi 17, Jarqo‘ton rayonidagi 4, Qo‘ng‘irot shahridagi 4-bolalar bog‘chalarida tajriba-sinov faoliyati kengaytirildi. 1975-yil fevral oyida Toshkent Shahar va Toshkent oblast maktabgacha tarbiya xodimlari uchun bolalarga rus tilini o‘rgatish bo‘yicha Toshkent shahridagi 311-bog‘chada seminar-praktikum o‘tkazildi. Unda respublika maktabgacha tarbiya metod kabineti xodimlari tomonidan rus tilidagi ko‘rgazmali qurollar, turli hujjatlar, zarur qo‘llanmalar bilan tanishtirildi [5. 1975: B.26.].

Bog‘chalarda kichik yoshdagi bolalarga rus tilini o‘rgatish uchun “Repka”, “Teremok”, “Kolobok”, “Zamkniy uyin”, “Shahar”, “Mashinalar”, “Kiyim-kechak” kabi mavzularda ertaklar, dialoglar, harakatli o‘yinlar asosida mashg‘ulotlar tashkil etildi. Tarbiyachilar bolalar bilan tushunarli, mavzuga mos kontekstda suhbatlar o‘tkazib, har bir so‘zning ona tilidagi ekvivalentini ham ko‘rsatib o‘rgatganlar. Rus tilini o‘rgatish mashg‘ulotlari doimiy o‘yin, harakat, predmetli amaliy faoliyat, qo‘g‘irchoq teatri, she’riyat va musiqa orqali olib borilgan. Respublikada jami 70 dan ortiq tajriba bog‘chalari, 300 dan ortiq sinov guruhlari faoliyat yuritgan. A.V. Nikolskaya, Bubon, G‘. G‘ulom nomidagi ilmiy-metodik guruhlar tomonidan rus tilini o‘rgatishda bir necha metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan va qishloq bog‘chalarida ham tadbiq qilingan [5. 1975: B.26.].

1986–1987 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston SSRda maktabgacha ta’lim muassasalarida yangi bosqichma-bosqich tuzilgan “Bolalar bog‘chasi ta’lim-tarbiya dasturi” joriy etildi [2. 1988: B.39.]. Ushbu dastur maktabgacha ta’lim tizimini yangilash va takomillashtirish yo‘lida muhim huquqiy-me’yoriy asos bo‘lib xizmat qildi. Bu dastur asosan respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitlari, mavjud maktabgacha ta’lim amaliyoti, hamda pedagogik va psixologik tajribalarga tayanib ishlab chiqilgan bo‘lib, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi yondashuvlarni o‘z ichiga olgan edi.

Yangi dasturning avvalgilardan farqli jihati shundan iborat ediki, u tarbiya va ta’limning ilmiy-metodik yo‘nalishlarini kengaytirish, kichik guruhdan boshlab bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish, ularning estetik, mehnat, jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiyasini uyg‘unlikda shakllantirishga qaratilgan edi. Jumladan, kichik guruhda atrof-muhitni idrok qilish, mehnat faoliyatiga tayyorlanish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. O‘rta va katta guruhda esa bu yo‘nalishlar bosqichma-bosqich chuqurlashib, o‘quv maktabiga tayyorlov funksiyasini bajargan. Yangi dasturda bolalar psixologik fiziologik xususiyatlari asosida pedagogik yondashuvlar ishlab chiqildi. Estetik tarbiya doirasida badiiy adabiyot va musiqaga oid asarlar tanlandi va yosh xususiyatlariga mos repertuarlar joriy qilindi. Oddiy matematik tasavvurlar (raqamlar, shakllar, geometrik figuralar)ni shakllantirish kuchaytirildi. Shu bilan birga mehnat tarbiyasi sifatida bolalarni xalq xo‘jaligi sohalariga oid amaliy mehnat faoliyatlariga tayyorlash boshlanib, ularda mehnatga bo‘lgan hurmat uyg‘otishga xizmat qilgan [2. 1988: B.39.].

1980-yillarda O‘zbekiston SSR maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik jarayonni takomillashtirish yo‘lida ota-onalar bilan ishlash muhim yo‘nalishlardan biri sifatida shakllandi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida tashkillangan “Ota-onalar universiteti” loyihasi, bu borada ilg‘or tashabbuslardan biri bo‘ldi [1. 1982: B.50.]. Ushbu universitet mashg‘ulotlari har oyda bir marta uch soatdan o‘tkazilgan. Mahalla qo‘mitalari, pedagogik jamoa va boshqa mutaxassislar ishtirokida ma’ruzalar, suhbatlar, kinoko‘rsatmalar tashkil etildi. Kinofilmlardan “Yaxshi qiz”, “Asabli bola”, “Ona va ota”, “Sen etim emassan” kabi kinofilmlar ota-onalar tomonidan qiziqib tomosha qilingan. Xususan, Toshkent shahar Oktabr tumanidagi 27-bog‘cha mudirasi F.A. Axmedova tomonidan ushbu loyiha qo‘llanilib, ota-onalarni tarbiyaviy jarayonning faol ishtirokchisiga aylantirish, ularni pedagogik bilimlar bilan qurollantirish va oilaviy tarbiyani davlat tarbiyaviy tizimi bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, universitet doirasida “Kommunistik axloq asoslari”, “Ota-onalar pedagogikasi” kabi mavzularda davra suhbatlari va ko‘rgazmali vositalardan foydalangan holda mashg‘ulotlar o‘tkazilgan. Bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq muhim masalalar — jamoa bo‘lib tarbiyalash, axloqiy qadriyatlar, gigiyenik ko‘nikmalarni shakllantirish kabi yo‘nalishlar asosiy e’tibor markazida bo‘lgan.

O‘zbekiston SSRda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim-tarbiya muassasalarining barcha mutaxassislari uchun an’anaviy avgust ped kengashlarida maxsus metodik-sektsiyalar tashkillangan. Bu sektsiyalar tarbiyachilar, metodistlar, mudirlar va boshqa pedagogik xodimlarning kasbiy saviyasini oshirishda muhim rol o‘ynagan.

Xususan, maktabgacha ta’lim muassasalari mudirlari sektsiyasida tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, bolalar sog‘lig‘i va psixik rivojlanishini hisobga olgan holda tashkiliy-tashabbuskorlik yondashuvini joriy etish; bolalar bog‘chalaridagi pedagogik hamkorlikni mustahkamlash, arbiyachilar ish soatini maqbullashtirish, maosh masalalarini yechish va ichki tartibni takomillashtirish kabi masalalar muhokama qilingan [4. 1990: B.4.].

1980-yillar oxirida O‘zbekiston SSRda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan qayta qurish zarurati respublika miqyosidagi pedagogik anjumanlarda ko‘tarilgan eng dolzarb masalalardan biri bo‘ldi [3.1988: B.4.]. 1991-yilda O‘zbekiston SSRda bo‘lib o‘tgan Respublika o‘qituvchilari konferensiyasi ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bosqichida muhim tarixiy voqea bo‘lib xizmat qildi. Ushbu anjumanda O‘zbekiston SSR Xalq ta’limi vaziri K.Yu. Yusupovning ma’ruzasi ishtirokchilar e’tiborini nafaqat umumiy o‘rta ta’lim muammolariga, balki maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish masalalariga ham qaratdi [6. 1991: B.3.]. Ma’ruzada alohida ta’kidlanganidek, maktabgacha tarbiyani davlat siyosati darajasiga ko‘tarish va bu sohaga ilmiy-metodik asosda yondashish zarurati kun tartibiga chiqdi.

Konferensiyada alohida urgʻu berilgan muammolardan biri — maktabgacha tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasining qoniqarsizligi, bolalar bogʻchalarining sanitariya-gigiyena talablariga javob bermasligi, oʻquv-tarbiya jarayonining eskicha metodlarga tayanib olib borilayotgani boʻldi.

Shuningdek, bolalarni guruhlarga qamrab olish masalasida jiddiy kamchiliklar mavjudligi, yosh bolalar oʻrtasida kasallanish holatlarining yuqoriligi, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimidagi ziddiyatlar va tajriba asosidagi dasturlarning amalda toʻliq joriy etilmayotgani taʼkidlab oʻtildi. 1991-yilda Oʻzbekiston SSR Xalq taʼlimi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan bu konseptual takliflar maktabgacha taʼlim tizimini tubdan modernizatsiya qilishga qaratilgan boʻlib, keyinchalik mustaqil Oʻzbekiston maktabgacha taʼlim konsepsiyasining shakllanishiga ilmiy va amaliy poydevor yaratdi.

**Xulosa.** 1970–1991-yillar Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlim tizimini ilmiy, tashkiliy va mazmuniy jihatdan takomillashtirish bosqichi boʻldi. Bu davrda maktabgacha taʼlim siyosatida rus tilini xalqaro muloqot vositasi sifatida oʻrgatish, ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, shuningdek, yangi oʻquv-dasturlarni joriy etish kabi yoʻnalishlar ustuvor ahamiyat kasb etdi.

“Bolalar bogʻchasi taʼlim-tarbiya dasturi”ning bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida bolalarning jismoniy, aqliy, estetik va axloqiy tarbiyasini uygʻunlikda shakllantirish, ularni maktab taʼlimiga puxta tayyorlash imkoniyatlari kengaydi. Shuningdek, “Ota-onalar universiteti” kabi loyihalar oilaviy tarbiya va davlat taʼlim tizimi oʻrtasida mustahkam pedagogik bogʻliqlikni shakllantirdi.

1980-yillar oxiriga kelib, maktabgacha taʼlim tizimidagi mavjud muammolar - moddiy-texnik bazaning eskirishi, sanitariya-gigiyenik talablarning pastligi, metodik yondashuvlarning yangilanmaganligi - tizimni tubdan isloh qilish zaruratini yuzaga chiqardi. 1991-yilda oʻtkazilgan Respublika oʻqituvchilari konferensiyasi maktabgacha taʼlimni davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida qayta koʻrib chiqish

zarurligini ta’kidlab, mustaqil O‘zbekiston ta’lim konsepsiyasining ilmiy-amaliy poydevorini yaratdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axmedova F. Bog‘chada ota-onalar universiteti. //Sovet maktabi 1982. №1. B.50.
2. Виноградова Т. Тарбия программаси-асосий хужжат. //Совет мактаби. 1988. №12. Б.39.
3. Вчера. Сегодня... А завтра // Учитель Узбекистана, 13 августа 1988 г.
4. Мактаб укитувчилари ва халк таълими ходимларининг анъанавий август кенгашлари. //Совет мактаби. 1990. №8. – Б. 4.
5. Панина И. Кичкинтойларга рус тилини пухта ургатайлик. //Sovet maktabi 1975. №9. Б.26.
6. Юсупов К. Халқ таълимини устун даражада ривожлантирайлик // Совет мактаби. 1991. №3. – Б. 3;
7. https://iibb.uz/oz/news/prezident-avkat-mirzieev007

## FARG‘ONA VILOYATIDA NODAVLAT TA’LIM MUASSASALARI-O‘QUV MARKAZLARINING RIVOJLANISHI ADAM AND JOHN’S O‘QUV MARKAZI FAOLIYATI MISOLIDA

**Nigmatova Sadoqatxon G‘ulomaxmadovna**
Farg‘ona davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti
Email:nigmatovasadoqat1@gmail.com
+998916673623

***Annotatsiya:*** *Ushbu tezisda Adam and John’s o‘quv markazining xalqaro ielts va milliy cefr sertifikatlaridan yuqori ballarni olishga o‘quvchilarni tayyorlash hamda*

*Prezident, ixtisoslashgan maktablarga ham o‘quvchilarni tayyorlashdagi faoliyati tahlil qilinadi. Markazning o‘quv dasturlari, metodologiyalari, o‘qitish sifati va bitiruvchilarning erishgan natijalari o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘quv markazning raqobatbardoshligini, ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.*

***Kalit so‘zlar:*** *Adam and John’s, ingliz tili, ielts, cefr, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar, zamon kitobxoni, ta’lim sifati, o‘quv markazi, metadologiya.*

***Abstract:*** *This dissertation examines the development of the educational center "Adam and John's" in the process of setting students to high scores in international IELTS and national CEFR certificates, preparing Presidential and specialized schools, Presidential and specialized schools. The curriculum, methodology, quality of teaching, and achievements of graduates of the center are studied. The purpose of the research is to develop recommendations for monitoring the competence of the educational center and the quality of education.*

***Keywords:*** *Adam and John's, English, IELTS, CEFR, Presidential and specialized schools, modern student, quality of education, educational center, methodology.*

***Аннотация:*** *В диссертации рассматривается развитие образовательного центра «Адам и Джонс» в процессе подготовки учащихся к высоким баллам по международным сертификатам IELTS и CEFR, подготовки Президентских и специализированных школ, Президентских и специализированных школ. Изучаются учебная программа, методика, качество преподавания и достижения выпускников центра. Цель исследования – разработка рекомендаций по мониторингу компетентности образовательного центра и качества образования.*

***Ключевые слова:*** *Адам и Джонс, английский язык, IELTS, CEFR, Президентские и специализированные школы, современный студент, качество образования, образовательный центр, методика.*

**Kirish.** Bugungi globallashuv davrida ingliz tili bilimi va xalqaro miqiyosdagi sertifikatlarga egalik shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda [1.2]. Sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish uchun an’anaviy ta’lim xizmatlari bilan bir qatorda sifatli va ommabop ta’lim olishning muqobil imkoniyatlarini yaratadigan pullik ta’lim xizmatlari ko‘rsatish bozorini jadal rivojlantirish; ilg‘or xalqaro tajribalarni inobatga olib, o‘qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslublari hamda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish asosida ta’lim sohasidagi samaradorlik va natijaviylikni oshirish nodavlat ta’lim muassasalarining sifatini xalqaro miqiyosdagi ta’lim tuzilmasidagi xususiy o‘quv markazlar darajasiga olib chiqishdir [2.1]. Xususan, Farg‘ona shahrida ham xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kundan -kunga ortib bormoqda. Adam and John’s o‘quv markazi ushbu ehtiyojni qondirish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, o‘quvchilarni ielts xalqaro ingliz tili imtihonlariga, shuningdek, cefr milliy sertifikatlarga va ixtisoslashtirilgan, Prezident maktablarining kirish imtihonlariga tayyorlashga ixtisoslashgan. Ushbu tezisda markazning ta’lim faoliyati chuqur tahlil qilinib, uning samaradorligi va rivojlanish istiqbollari baholanadi.

**Asosiy qism**

1. Adam and John’s o‘quv markazining tashkil topishi va rivojlanish tarixi:

Markazning maqsad va vazifalari.

Faoliyat yo‘nalishlari: ingliz tili va PM kurslari.

2. O‘quv dasturlari va metadologiyalari:

Ingliz tili kurslari (General English, Ielts,[4.4] Cefr).

Dasturlarning tuzilishi va mazmuni.

Qo‘llaniladigan o‘qitish metodlari.

O‘quv materiallari, kutubxona va resurs markazi imkoniyatlari.

3. O‘quv muhiti va infratuzilmasi:

Zamonaviy o‘quv xonalar.

Texnik jihozlanish (proyektorlar, komyuterlar, audio-video materiallar).

4. Bitiruvchilarning erishgan natijalari:

Ielts va Cefr ballari statistikasi.

Ixtisoslashtirilgan va Prezident maktablariga kirgan o‘quvchilarning ballari statistikasi.

**5.** O‘quv markaz qadryatlari:

Ma’sulyatliylik, optimistlik, natijaviylik, yangilikka intiluvchanlik

Halollik va ozodalik

**1. Adam and John’s o‘quv markazining tashkil topishi va rivojlanish tarixi:**

Adam and Jons o‘quv markazi 2020-yilda Qirguli mavzesi Qo‘qon ko‘chasidagi ko‘p qavatli xonadonlardan birini ijaraga olib, o‘z faoliyatini boshlagan. Dastlab ikkita o‘qituvchi Adhamjon va Olimjon o‘nta o‘quvchi bilan ingliz tili fanidan o‘quv mashg‘ulotlarini boshlashadi. Bir yildan keyin yani 2021-yilda beshta xonaga ega bo‘lgan o‘quv markaz Qirguli mavzesi Qo‘qon ko‘chasida 21-ixtisoslashgan maktab yaqinida ochiladi. Markaz faoliyatida prezident maktablariga o‘quvchilarni tayyorlash maqsadida va ielts yoki cefr guruhlarida kichik guruhda o‘qishni istaganlar uchun yakkatartibdagi darslar ham amaliyotda qo‘llash boshlandi [3]

**2. O‘quv dasturlari va metadologiyalari:**

O‘quv markazning qo‘shimcha ta’lim berish, til o‘rgatish va o‘quv metodlari afzalliklaridan biri markaz ichida o‘z kutubxonasiga egaligi bo’lib, o‘quvchilar mashg‘ulotlardan tashqari paytlarida kelib darsga tayyorgarlik ko‘rish yoki kerakli adabiyotlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligidir. Markaz o‘qituvchilari

dastlabki uch oy markaz va guruhdagi o‘quvchilarning zaif, kuchsiz tomonlarini yo‘qotish ustida ishlaydilar. Bu jarayonda ular kerakli joyda motivatsiya berish, o‘z vaqtini rejalashtirsh, dangasalikni yo‘qotish usullari va ilm olish sirlari haqida treninglar tashkil qiladilar. Buni amaliyotda kutubxonaga bog‘lagan holda ichki o‘quvchilar uchun har uch oyda ularni rag‘batlantirish maqsadida kutubxonadagi adabiyotlar bo’yicha musobaqa bo‘lib o‘tadi. “Zamon kitobxoni” nomli musobaqa tashkillantirilib, u o‘qilgan kitoblar bo‘yicha suhbat va savol-javob tarzda o‘tkaziladi. Eng ko‘p ball yig‘gan kitobxonlar to‘plagan ballariga qarab pul mukofoti bilan yuqori I, II, III o‘rinni olgan o‘quvchilarga esa smart televizor, planshet, velosopid kabi maishiy texnikalar bilan taqdirlanadilar. Sovg‘alar va ballar bo‘yicha pul mukofoti musobaqa bo‘ladigan kundan uch oy oldin markaz kanalida e’lon qilinadi. Bu rag‘batlarga qiziqgan o‘quvchilar musobaqaga tayyorgarlik jarayonida, tabiiy ravishda dunyoqarash, fikrlash, o‘z oldiga maqsad qo‘yish, vaqtni behuda ishlarga sarflamay to‘g‘ri taqsimlashni o‘rganadilar. Natijada, ularda sabr qilish, mehnat qilishdan qo‘rqmaslik, o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan reja yoki ishini amalga oshirish ko‘nikmalari ham shakllanib boradi.

**3. O‘quv muhiti va infratuzilmasi:**

Zamonaviy o‘quv xonalarda dars mashg‘ulotlarini kichik guruhlarda ishlash uchun ham markaz tomonidan shart -sharoitlar yaratib berilgan. Har bir ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan xonalar proyektorlar, audio-video materiallar bilan jihozlangan [6.3]. O‘quvchining tartib-intizomiga, vazifalarni vaqtida bajarishiga, dars mashg‘ulotlariga kech qolmasligiga, markaz tomonidan tashkil qilinadigan imtihonlarga muntazam qatnashishiga qarab, o‘quvchilarga soxta dollar puli berib boriladi. Har oyning oxirida tashkil qilinadigan konstovar yarmarkasidan yig‘gan pullariga qarab narsa sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

**4. Bitiruvchilarning erishgan natijalari:**

Ielts va cefr imtihonlaridagi atmosferani yaratish va o‘quvchilardagi hayajonlanishlarning oldini olish maqsadida haftalik, oylik imtihonlar o‘tkazib boriladi[5.3] Bunday samarali ishlash, albatta, o‘z natijasini bermay qolmaydi. 2025-yilda markazning uch nafar o‘quvchisi: J.Marufjonov, M.Oybekov, S.Ikromovlar Farg‘ona viloyatida yagona bo‘lgan Prezident maktabiga, sakkiz nafar o‘quvchisi Al-Xorazmiy maktabiga, yigirma nafari esa ixtisoslashgan maktablarga qabul qilinishdi. Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablariga tayyorlaydigan o‘quv markazlari ko‘p lekin natija berayotganlari sanoqli boisi har bir o‘quv markaz faoliyatida o‘z xodimlari, markaz faoliyatiga nisbatan ma’sulyat va tartib-intizomning to‘g‘ri tashkilash masalasidadir.

**5. Adam and John’s o‘quv markazi qadryatlari:**

**Ma’sulyatliylik**-olib borilayotgan mashg‘ulotlarga va harakatlarga ma’sullikni oshirish maqsadida ischi xodimlarga nisbatan kpi [7] bo‘yicha baholashni yo‘lga qo‘yilganligi;

**Optimistlik**-har bir o‘quvchining yaxshi tarafiga va harakatlariga ishchi xodimlarning say harakatlariga urg‘u berish;

**Natijaviylik**-o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi bilimini va dunyoqarashini yaxshi tomonga yo‘naltirish;

**Yangilikka intiluvchanlik**-markaz rahbariyati, o‘qituvchilari va ishchi xodimlarining doimo o‘z ustida ishlashliklari, zamonaviy raqamli texnologiyalaridan xaqbardor bo‘lib borishliklari;

**Halollik va ozodalik**-korxona, xodimlar, mijozlar haqqini suiste’mol qilmaslik, o‘quvchilarga bilim berishda dars mashg‘ulotlarni kechiktirmay yoki qoldirmay o‘z vaqtida olib borishlik [8]

**Xulosa**

Adam and John’s o‘quv markazi Farg‘ona shahridagi nodavlat ta’lim mussasalarida ingliz tili bo‘yicha ielts va cefr sertifikatlariga hamda ixtisoslashgan

maktablar, Prezident maktabiga oʻquvchilarni tayyorlovchi yetakchi markazlardan biri hisoblanadi. Markazning yuqori malakali oʻqituvchilar tarkibi, zamonaviy oʻquv dasturlari, samarali metodologiyalari va qulay oʻquv muhiti oʻquvchilarning yuqori natijalarga erishishini ta’minlamoqda. Tezis davomida tahlil qilingan ma’lumotlar Adam and John’s oʻquv markazining ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardoshligini mustahkamlash va kengroq auditoriyani mustahkamlab olish uchun katta salohiyatga ega ekanligini koʻrsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son “Nodavlat ta’lim xizmatlari koʻrsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi qarori. lex.uz.https://lex.uz.doc. 4664567

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari koʻrsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori // Халқ сўзи. 2017 йил 18-сентябрь

3. Toshtemirov A.A. Adam and John’s oʻquv markazi ish boshqaruvchisi. Qirguli mavzeyi Xoʻjamagʻiz MFY Ulugʻvor koʻchasi 161-uyda istiqomat qiladi.

4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching 2007. Pearson Longman

5. Deming W.E .Out of the Crisis. MIT Press.1986 (Ta’lim va ishlab chiqarishdagi sifatni boshqarish prinsiplari)

6. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnalogiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yoʻllari. 2007. Toshkent . fan va texnalogiya

7. Brown H.D Principles of Language Learning and Teching. Pearson Education. 2014

8. Adam and John’s oʻquv markazining rasmiy veb-sayti. www.adamandjons.uz

# ҲУСАЙН ИКРОМХОН ХОТИРАЛАРИ ТАРИХИЙ МАНБА СИФАТИДА

**Нодиржон Ураимович Абдулаҳатов**

тарих фанлари доктори

**Аннотация**: Ушбу мақолада Ҳусайн Икромхоннинг (1917-2005) Иккинчи жаҳон уруши билан боғлиқ хотиралари, жумладан Совет армиясига мажбуран жалб этилган туркистонлик аскарлар, уларнинг асирликдаги ҳаёти, “Туркистон легиони”, туркистонлик асирларнинг урушдан кейин бошидан кечирган қийинчиликлар тўғрисида сўз юритилади,

**Калит сўзлар**: Миллий Туркистон, хотира, асирлар, легион, уруш, битим, мустақиллик.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются воспоминания Хусейна Икрамхана (1917–2005), связанные со Второй мировой войной. В частности, рассказывается о туркестанских солдатах, насильно призванных в Советскую армию, об их жизни в плену, о «Туркестанском легионе», а также о трудностях, которые испытали туркестанские военнопленные после окончания войны.

**Ключевые слова:** Национальный Туркестан, воспоминания, пленные, легион, война, соглашение, независимость.

**Abstract:** This article discusses the memoirs of Hussein Ikramkhan (1917–2005) related to the Second World War. It focuses on Turkestani soldiers who were forcibly conscripted into the Soviet Army, their life in captivity, the “Turkestan Legion,” and the hardships experienced by Turkestani prisoners of war after the end of the war.

**Keywords:** National Turkestan, memoir, prisoners, legion, war, agreement, independence.

Хотиралар, битиклар, автобиографиялар адабиётнинг бошқа жанрлари каби муаллифнинг шахсий ҳаётий тажрибасига асосланади. Шу туфайли эсдалик

хотиралар ўзининг субъектив характери билан ажралиб туради. Зеро, мазкур хотираларда ҳикоя фақат биринчи шахс томонидан олиб борилади. Айнан шу хислати учун ҳам эсдаликлар адабиётнинг энг долзарб жанрларидан бири ҳисобланади.[1.2023:В.336] Иккинчи жаҳон урушида даврида юз берган воқеаларни ўрганишда ўша даврига оид хотиралар муҳим тарихий аҳамиятга эга ҳисобланади. Чунки шу кунгача унутилиб кетиш арафасида турган инсонлар сиймоси мазкур эсдаликлар туфайли бугун яна ҳаёт бағишлангандек бўлади. Бу эса мазкур хотиралар келгуси авлодларга ҳам етиб боришини таъминловчи омилдир.

“75 йиллик миллий курашдан сўнг ниҳоят ҳақ ва адолат ғалаба қилди. Зулм режими, золимлар диктатураси парчаланиб кетди. Коммунизм ер юзидан йўқолди. Халқимиз қизил мустамлакачилар асоратидан халос бўлди. 1992 йили юртимиз ўз мустақиллигини эълон қилди. Ватан эшиклари кенг очилди. Халқимиз урушдан кейин ғарибликда қолган фарзандларини ортга чақиришни бошлади.

1992 йил 8 сентябрь куни соат саккизда Тошкент аэропортига самолётдан тушишим билан, йиллар давомида соғиниб кутган юртим тупроғига шукроналик ва ҳасрат ила сажда қилдим.

Кўз ёшларим ичида мен она юртимнинг тупроғини қайта-қайта ўпиб, ҳидлаб, юзимга ва кўзимга сурдим. 53 йиллик соғинч азобини бас қилишга уриндим.

Наманганда туғилиб ўсган ҳовлимиз эшигидан кирганимда, аввал кўзим тушган нарса — ётиб-турган кичик хонам бўлди. Шунда ўша жойдан яқинларимдан бири чиқармикан, деган умид билан бир оз тўхтаб турдим. Аммо тақдир шундай экан — ҳеч ким чиқмади. Бир неча бола ҳайрат билан атрофимни ўраб, менга тикилиб қарай бошлашди. Ёндош хона эшигида бир оёғи ичкарида, бир оёғи ташқарида, таёққа суяниб турган кекса аёлни кўрдим. Дарҳол у томон

югурдим. У менинг тўртта аммамнинг энг кичиги — 93 ёшли Ўктам аммам эди. У мени қучоқлаб, шодлик ва кўз ёшлари билан бағрига босди.

— Эх, ўғлим, сен ҳақингда “бу дунёдан ўтган” деб айтишарди. Қайларда юрдинг, ўғлим? — деди у. Мен ундан бошқалардан ким қолганини сўрадим. Аммам бошини кўксимдан кўтариб, юзимга қаради ва яна кўз ёш тўкди:

— Ўғлим, улар ҳақида мендан кўп сўрама, — деди. Бу жавобдан оиламдан ҳеч ким қолмаганини англадим. Энди тақдирга тан беришдан бошқа чора йўқ эди”. [1.1999: B.240-241]

Ушбу хотиралар муҳожир ватандошимиз Иккинчи жаҳон уруши иштирокчиси Ҳусайн Икромхон қаламига мансуб бўлиб, муаллиф 1939 йилда ҳарбий хизматга кетган, бироқ туғилиб ўсган хонадонига фақат 1992 йилдагина қайтишга муяссар бўлган эди.

Ҳусайн Икромхон 1917 йили Ўзбекистоннинг Наманган шаҳридаги Қозигузар маҳалласида туғилган. Икки йил Қуръон мактабида таълим олган. 1925–1934 йиллар орасида Совет мактабларида ўрта ва юқори маълумотни тамомлаган. 1935 йили Тошкент университетининг Ҳуқуқ факультетига ўқишга кирган ва 1939 йили аъло баҳо билан битирган. Тошкент Ҳуқуқ факультети қошидаги Ҳуқуқ мактабида ўқитувчи ва декан сифатида фаолият юритган.

Ҳусайн Икром ҳарбий хизматда бўлган пайтда Иккинчи жаҳон уруши бошланган. У қонли жангларда иштирок этган ва асирликка тушган. Уруш даврида тузилган Миллий Туркистон Қўмитаси уни асирликдан озод қилган ва у уруш тугагунга қадар Миллий Туркистон армияси сафида хизмат қилган. Бу ҳақда “Zaman” газетасининг 1992 йилнинг 16 октябр куни чоп этилган Алихон Шермат Эргаш ўғлининг “Ҳусан Икром ким?” мақоласида қуйидагилар келтириб ўтилган:

“Ҳусан Икром уруш бошлаганда, Ереванда ҳарбий хизматда экан. Зотан наманганлик. 1917 йили савдогар оиласида туғилган. Наманганда иккинчи

босқич мактабда, сўнг Медрабфакда таҳсил олган. Ҳусан Икром уруш жабҳаларида 13 ой немисларга қарши жанг қилган. 1942 йил июл бошида асир тушган. 9 ой турли лагерларда кўп юртдошлари каби азоб чеккан, оч яланғоч, қишнинг изғиринли совуқ кунларида вагонларга ўрмонлардан ёғоч юклаган, тошкўмир туширган... 9 ойдан кейин, асирликдан озод бўлиб, немисларнинг меҳнат батальонида хизмат қилган. Ниҳоят, 1944 йил июнида бу мажбуриятдан ҳам қутилиб, Берлинда Миллий Туркистон Бирлик Қўмитаси (МТБҚ) нинг ходими сифатида минглларча юртдошлари каби миллий озодлик курашларига ҳисса қўшган. Кейинчалик бу қўмита бир неча юз минг юртдошларимиз ҳаётини сақлаб қолишга муваффақ бўлган. 1945 йили уруш тугагунига қадар МТБҚ қошидаги радиода (Эргаш Шермат - Булоқбоши) бош муҳаррирлигида хизмат қилган, жумладан қўмитанинг журнал ва газеталарида ўз мақолалари билан фаол қатнашган.

“Ўлганнинг устига тепкан” деганларидек 1945 йил феврал ойида АҚШ президенти Рузвельт ва Англия бош вазири Черчиль Ялта шаҳрида Сталин билан учрашиб “Ялта битими”ни туздилар. Бу битим амал қилиб, 1945 йилдан 1947 йилга қадар, Ғарбий Оврупадаги юз мингларча туркистонликларни ва бошқа ўз озодликлари учун курашган ғайрирус халқларини Совет Иттифоқидан қочиб кетган ёки асир тушганларни қайтариш ишлари кучайди. Шу йилларда росмана одам ови ўз ишини кўрсатди. Қаердаки, ғайрирус миллати учраса, ушлаб маҳкамага топшираверишган. Бир қанча туркистонликлар: “Рус қўлига тушгандан кўра, ўлим ҳақ”, деб ўз-ўзларини қурбон қилганлар, беажал ҳалок бўлганлар. Бу қонли фожиани нафақат туркистонликлар, балки улар билан елкама-елка ўз истиқлоли учун курашган барча мусулмон халқлари бошларидан кечирдилар.

МТБҚ “Ялта битими”га ўз муносабатини билдиради. Рузвельт ва Черчилга меморандум юбориб “Туркистон легиони” ҳақида тўлиқ маълумот беради, яъни

унинг аъзолари партизан эмаслиги, чин истиқлол учун урушаётган миллий аскарлар эканлиги, унинг йўли ва мақсади ҳақида батафсил тушунтириб ўтади. Ялта қарори бекор этилиши илтимос қилинади. Аммо улардан садо чиқмайди.

- Кейинчалик, - деди Ҳусан Икром,  - фақат инглизлар қилмишларидан пушаймон еб, кеч бўлса ҳам, виждон амри туфайли, советларга топширилган барча легионерлар хотираси учун Лондон шаҳрининг Кенгсингтон қисмида бир маҳбус ҳайкалини ўрнатишди.

1945 йил 4 апрелида Қизил Армия Берлинга 25-30 км. яқинлашганда, Ҳусан Икром Италияга, туркистонликлар ҳузурига кетди.

Урушдан кейин, 1948 йил ўрталарида МТБҚ миллий озодлик кураши йўлидаги фаолиятларини яна давом эттириб, “Миллий Туркистон”  журналини такрор нашр этиша бошлади. Ҳусан Икром бу журналнинг таҳрир ҳайъатида 1957 йилга қадар ишлади. Президент Вали Қаюмхоннинг бош муҳаррирлигида мақолалар таҳрир этди. “Миллий Туркистон” нинг бир неча нусхасини сонини араб мамлакатларида истиқомат қилаётган юртдошлар учун араб алифбосида ўз дастхати билан ёзиб нашр эттирди. Германиянинг Дусселдорф шаҳрида “Миллий Туркистон” ҳайъатида ишлаб турган вақтида, Мюнхендаги Америқо консулхонасидан бир чақириқ қоғози келди. Ҳусан Икром Мюнхенга боради, “Ўзбекларни кундалик  дунё воқеаларидан хабардор қилиб туриш учун Мюнхенда “Америка овози” радиосининг махсус бўлими очишга Конгресс қарор қилди, бош муҳаррирликка сизни тавсия этишди”, дедилар.

Ҳусан Икром юртдошларидан етти кишини ўз атрофига тўплаб, ўзбекча радио эшиттириш дастурини бошлади. Бу эшиттириш 1958 йил июлгача давом этди. Ундан кейин “Америка овози” Вашингтонда иш бошлади. У Мюнхенда ишлаган йилларида ҳам “Миллий Туркистон”га мақола ёзиш, таҳрир ишларига ёрдам беришни давом эттирди.1959 йил январдан Америқога кетди. 1960 йил январида “Озодлик” радиоси ўзбек бўлими ходимлари сафига қўшилди. 1961 йил

Америқодаги туркистонликлар жамиятини (13 киши иштирокида) тузишга катта ҳисса қўшди.

У 1962 йилдан 1968 йилга қадар Америқодаги туркистонликлар жамиятининг раиси бўлди. Жамият ўз олдига сиёсий мақсад қўймаган эди. Уларнинг қалбида бир умид бор эди. У ҳам бўлса, дунёнинг энг забардаст давлати мадати билан жаҳон диққат-эътиборини Туркистон қисматига йўналтириш!

Ҳусан Икром жамиятга раислик қилган йиллари у анча илгарилашиб ўз фаолиятини Америқо Конгрессига қадар танитишга муяссар бўлди. Ўша йилларда Афғонистонда, Покистонда, Ҳиндистон ва Туркияда истиқомат қилаётган эски ва урушдан кейинги муҳожир туркистонликлардан 60 дан кўпроқ оилани муҳожир ўлароқ Америқога келтириш, уй-жой ва иш билан таъминлаш имконини қозонди...

Айни вақтда Ҳусайн Икром 1963 йил Техас университети профессори Шоесбергнинг ўзбек тилини ўқитиш учун ҳозирлаган китобини таҳрир этиб берди.

1964 йили Индиана университети профессори Ало Рауннинг ўзбек тили дарслиги учун ҳозирланган 130 саҳифалик китобини таҳрирдан чиқариб, талабаларнинг тўғри талаффуз этишни ўрганишлари учун бутун китобни магнит лентасига ўқиб тайёрлаб берди.

1964 йил Ҳусан Икром турк қизи – Гулига уйланди. Ҳозир 20 ёшли ўғли бор. Исми Жон Отелло. У Мюнхен университетида ўқийди. 1966-1967 йилларда Нью-Йоркдаги Колумбия университетининг ёзги семестрларида америқолик талабалар ўзбек тилини ўрганишларида ёрдам беради” [2.1992: B.2]

Ҳусайн Икром 1968 йил сентябрь ойида Германиянинг Мюнхен шаҳрига қайтиб, Озодлик радиосининг ўзбек бўлимида 1982 йилгача муҳаррир, 1988 йилгача бош муҳаррир, 1989 йил август ойига қадар эса мудир сифатида ишлаган.

Нафақага чиққанидан сўнг, 1992–1993 йиллар орасида Мюнхен университети Шарқшунослик факультетида немис талабаларга ўзбек тилидан дарс берган.

Ҳусайн Икром 2005 йил 30 январь куни Германиянинг Мюнхен шаҳрида вафот этди. Васиятига кўра, жасади Истанбулга олиб келиниб, 4 февраль куни Бейкознинг Акбаба қишлоғида дафн этилди.

Тарих фақат зулм ва зулмат, хўрлик ва кулфатдан иборат эмас. Адабиётшунос олим Иброҳим Ҳаққул айтганидек: ”Унинг ўзига хос нурли, ибратли, фахр ва ифтихорга молик томонлари ҳам бисёр. Лекин Ватан осмонида Мустақиллик байроғи ҳилпирагунча халқимиз чеккан азоб-уқубатлар, ҳақсизлик ва мусибатлар бирма-бир саналса, тошлар эриб, тоғлар фарёд айлаши ҳеч гап эмасдир. Ана шуни унутмаслик зарур”. Бинобарин, Ҳусайн Икром умрининг сўнгги йилларида  чоп этилган “Бир туркистонликнинг иккинчи жаҳон уруши хотиралари” номли китобида Иккинчи жаҳон уруши давридаги туркистонликларнинг аччиқ қисмати ҳақида ҳикоя қилади. Китобнинг “Украина – Таганрог”, “Ростов йўналиши”, “Ростовдаги қаттиқ жанглар”, “Кузейга юриш — зобитлар мактаби”, “Донецкдаги мағлубият 20 июнь 1942”, “Асирлик ва унинг сабаблари”, “Лагерда яҳудийларни жазодан қутқариш”, **“Днепропетровск лагери”, “Владимир Валенский лагери”, “**Тушлик — “Баланда”, “Азиз нон”, “Ишлаш мажбурияти”, “Қамоқдагиларни рўйхатга олиш”, “Мухтор аканинг вафоти”, “Ҳуррият учун умид”, “Польша – Ченстохова лагери”, “Қум лагери” деб номланган фаслларида туркистонликларни фашистлар қамоқхоналаридаги кечган ҳаётлари ҳақида маълумотлар берилган.

“Шуни ҳам таъкидлаш лозимки, минглаб совет асирлари лагерларда даҳшатли ҳолда ҳалок бўлаётган бир пайтда, Европа, Осиё ва ҳатто Совет ҳукумати уларга ёрдам кўрсатмади, парво ҳам қилмади. Босиб олинган Европа мамлакатларидан асир тушганлар 1929 йил 29 июлда Женевада асирлар бўйича

қабул қилинган келишув асосида Жаҳон Қизил Хоч ташкилотининг ташаббуси билан оз-моз ёрдам посилкаларини олишган.

Ушбу ташкилот Совет ҳукуматидан ўз фуқаролари — асирликка тушганларга ёрдам кўрсатмоқчимисиз, деб сўраганда, Сталин Совет Иттифоқи Женева келишувини имзоламаганини айтган ва шундай жавоб қайтарган: “Биз асирларни тан олмаймиз... Қизил Армияда душманга асир тушиш деган нарса йўқ”. Сталин душманга асир тушганларни сотқин, хиёнатчи деб эълон қилган. Бу ҳақда у 270-сон буйруқ чиқарган.

Унда шундай дейилган эди: “…Қизил Армиянинг айрим аскарлари душманни мағлуб этиш ўрнига, асирликка тушишни афзал кўришган... Улар қаерда қўлга тушмасин, йўқ қилинадилар”. (Бу буйруқ кейинроқ “Московские новости” газетасининг 1990 йил 13 май сонида эълон қилинган)”[2.1999: B.70-71]

Ҳусайн Икромхон — ўз шахсий хотиралари орқали ўша даврнинг азоб-уқубатларини, сиёсий ва инсонпарварлик жиҳатдан аҳволини тасвирлаб беради. Унинг хотиралари фақат уруш воқеаларини эмас, балки Совет армиясига мажбуран жалб этилган туркистонлик аскарлар, уларнинг асирликдаги ҳаёти, урушдан кейин бошидан кечирган қийинчиликлар ҳақида ҳам сўзлайди. Муаллиф ўша йиллардаги мажбурий кўчиришлар, асирлар лагерларидаги ҳаёт, ҳамда урушдан кейинги Туркистон халқларининг миллий ва диний ўзликни сақлаб қолиш ҳаракатлари ҳақида ҳам ёзган.

Ҳусайн Икромхон Туркистон легионлари ҳаёти, уларнинг Германия, Италия ва бошқа фронтлардаги фаолияти ҳақида гувоҳликлар келтиради.Асирлар лагерларидаги ҳаёт: очлик, қийноқ, умидсизлик ва бир вақтнинг ўзида Ватан соғинчи билан боғлиқ туйғулар кенг ёритилган. Китобда Исломий қадриятлар ва маънавият муҳим ўрин эгаллайди — муаллиф урушдан кейин Туркия ва Туркистон халқлари орасидаги дин ва миллий уйғониш ҳаракатлари ҳақида ҳам фикр юритади.

Ҳусайн Икромхон хотиралардан шуни англаш мумкинки, уруш одамзод оламидаги энг ёвуз ҳодисадир, уни на диний, на ижтимоий-иқтисодий ва ёки адолат, ҳақиқат, онглилик мезонлари билан ўлчаб бўлмайди.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Абудалаҳатов Н. Марғилон олимларининг илмий-маърифий мероси. – Ф: “Фарғона” нашриёти, 2023.

2. Hüseyin İkram Han Bir Türkistanlının 2. Dünya savaşi hatiraları. BEDİR, İstanbul. 1999.

3. Алихон Шермат Эргаш ўғли. Ҳусан Икром ким?. // “Zaman” газетаси. 1992 йил. 16 октябр.

## TURKISTONDA MILLIY OZODLIK HARAKATINING SABABLARI VA MAFKURASI BOYMIRZA HAYIT TALQINIDA

**Abdullayev Shuhratjon Hamidullayevich**

Impuls tibbiyot instituti erkin tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarixchi olim Boymirza Hayitning Turkiston tarixidagi qurolli qarshilik harakati-ya’ni bosmachilik harakatiga bergan ilmiy-siyosiy bahosi tahlil qilinadi. Muallif asarlarida bu harakatning kelib chiqish sabablari, milliy-ozodlik g‘oyasi, xalqning mustaqillik yo‘lidagi kurashi va uning mafkuraviy asoslari keng yoritilgan.Boymirza Hayitning qarashlarida bu harakat faqat qurolli to‘qnashuv emas, balki milliy ozodlik mafkurasi sifatida talqin etilgani ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Boymirza Hayit, qurolli qarshilik, bosmachilik harakati, milliy ozodlik, mustamlakachilik, Turkiston, mafkura, tarixiy tahlil.

**Аннотация** В данной статье рассматривается научно-политическая оценка историка Боймирзы Хайита вооружённого сопротивления в истории Туркестана,

известного как басмаческое движение. В своих трудах учёный подробно анализирует причины возникновения этого движения, его идеологическую основу, стремление народа к независимости и борьбу против колониального режима. Показано, что Боймирза Хайит рассматривал данное движение не только как вооружённое восстание, но и как проявление национально-освободительной идеологии.

**Ключевые слова:** Боймирза Хайит, вооружённое сопротивление, басмачество, национально-освободительная борьба, колониализм, Туркестан, идеология, исторический анализ.

**Annotasiya** Bul maqalada tarixshı olım Boýmırza Hayıtnıń Turkıstan tarıhındagı qurollı qarshılıq-basmachılıq háreketi turalı ǵalımıy-sayasiy baǵası taldaw etiledi. Avtor óz eńbeklerinde bul hárekettiń payda bolıw sebepleri, onıń mafkurası, halıqtıń mustaqıllıq ushın kúresi hám kolonial siyasatqa qarshı túrisi jaqslı aşıqlanǵan. Boýmırza Hayıtnıń qaráslıqında bul háreket tek qurollı qarshılıq emes, belki milliy ozodlıq mafkurası sifatında kórsetiledi.

**Nızgi sózler:** Boýmırza Hayıt, qurollı qarshılıq, basmachılıq háreketi, milliy ozodlıq, mustamlakashılıq, Turkıstan, mafkura, táriy tálil.

Boymirza Hayit tadqiqotlarida Turkistonda milliy-ozodlik uchun kurashi tarixi Sovet Rossiyasi hukmronligidan avvalgi davrlarga borib taqalishi ilgari surilgan. Unga ko’ra, u ikki bosqichga bo’linadi. Dastlabki bosqich, 1717-yildan Turkiston uzul-kesil bosib olinishiga qadar(1885), keyingi bosqich esa, Rossiya istilosi davrida qaytadan ozodlikka erishish uchun Rossiya qo’l ostiga o’tgan o’lkalarda bosqinchilar hokimiyatini ag’darib tashlash uchun olib borilgan.

Turkiston xalqlari 1917-yilga qadar, 200 yil davomida bosqinchi Rusiya hukmronligi va mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashib kelgan. Shuning uchun, B.Hayit bu qarshilik harakatini mustamlakachilikka qarshi tabiiy javob sifatida talqin qilgan.Ularning navbatdagisi,1916-yilgi mardikorlikka qarshi qaratilgan

qo’zg’alonlardir. Bu qo’zga’lonlar, avval bo’lib o’tgan boshqa xalq harakatlariga nisbatan barcha sinflar, qatlamlar va tabaqalarning hamda butun Turkiston viloyatlarining ishtirok etishi bilan ajralib turadi va shu sababli u tom ma’noda milliy ozodlik qo’zg’aloni hisoblanadi.

Turkistonda bu qo’zg’alonni bostirish jarayoni 1917-yil oxiriga qadar davom etgan. Bu qo’zg’alonning saboqlari va natijasi shundaki, Turkiston ruslar tomonidan bosib olinganidan beri mintaqadagi ozodlik harakatlari o’z kuch-qudrati bilan milliy ozodlik qo’zg’aloni bo’lsada, u milliy ozodlik harakatiga aylana olmagan va g’alaba qozonmagan.[1.B.Hayit.2023:301-302-bet]

Shunday bo’lsada, u turkistonliklar qalbida zulmga qarshi nafratni kuchaytirdi hamda erk va ozodlikka qarshi yangi kurashlarga da’vat etdi.Haqiqatdan ham, 1916-yilgi qonli kurashlarning ta’siri 1917-yilda tashkil etilgan Turkiston Muxtoriyatining paydo bo’lishida muhum ahamiyatga ega bo’lgan.

B.Hayit Turkiston Muxtoriyati tashkil etilishining o’lkada 1917-yilga qadar davom etgan milliy ozodlik harakatlari uchun ahamiyatli jihatlariga e’tibor qaratgan. Jumladan:Bu muxtoriyat ruslar tomonidan bosib olingandan beri va keyingi 50 yil davomida chor mustamlakachiligi zulmiga qarshi olib borilgan milliy ozodlik kurashlarining mantiqiy davomi va natijasi deb hisoblagan.

B.Hayitga ko’ra,bolsheviklar tomonidan Turkistonning milliy hukumatini ag’darish vaqtida amalga oshirilgan ommaviy qirg’inlar, talonchilik, dashnoqlarning rus askalari bilan amalga oshirgan amaliyoti:“ko’z ko’rib,quloq eshitmagan”barcha vaxshiyliklari tabiiy ravishda qarshilik harakatining boshlanishiga olib keldi.[2.N. Jo’rayev.Sh.Karimov.2011:66-bet] Tirik qolgan shahar mudofaachilari Ergash qo’rboshi boshchiligida Qo’qondan qochib ketishdi. Ular, kurashni yangidan boshlashdi.

Turkiston munavvarlarining istiqlol, ozodlik, hurlik uchun olib borgan kurashlari bu hukumat tor-mor etilgan bo’lsada izsiz ketmadi. Ular, Rossiyaning o’lkaga nisbatan

tojovuzkorona rejalari borligini tushunib yetdilar, ular avvolo o’zlarini, bola chaqalari, mahalla-ko’y, el-yurtni himoyalash uchun qo’llariga qurol oldilar. Shundan keyin, bu yong’in, bu olovlar qa’ridan xalq qaxr-g’azabi, bosqinchilarga nafrati, ko’ngilga tugilgan o’ch sifatida sovet tarixi fanida”bosmachilik”deb atalgan harakat“qaqnus”qush kabi yorib chiqdi.[3.S.A'zamxo'jayev.2000:151-bet.]

B. Hayit milliy ozodlik kurashini kelib chiqishi masalasida bolshevik arboblaridan biri G. Saforovning o’z xatolarini tan olib bildirgan fikrini keltirgan: “Bosmachilik harakati bir tomondan Turkiston muxtoriyatining yo’q qilinishi va asosan, mustamlakachilik keltirgan tartibsizlik natijasi bo’lib, o’z milliy taqdirini o’zi hal qilish uchun kurashgan yerlarga yoyildi. Ikkinchi tomondan, paxta ziroatini izdan chiqargan va ocharchilikka yuzma-yuz qilgan iqtisodiy tanazzul sabab bo’ldi”.

Haqiqatdan ham, qurolli kurashning boshlanib ketishiga, Turkiston muxtoriyatining qonga botirilishi bilan birga, chor Rossiyasi hukmronligi davridan boshlab Farg’ona vodiysida yuritib kelingan mustamlakachilik siyosatining og’ir oqibatlari sabab bo’lgan. Axoli zich yashaydigan Farg’ona vodiysiga, XIX asrning 70-yillaridan boshlab olib borilgan ko’chirish siyosati natijasida rus mujiklarni joylashtirilishi, unumdor yerlarning tortib olinishi uzoq vaqtdan beri xalq noroziligiga sabab bo’lib kelayotgan edi. Bundan tashqari, mustamlaka sanoatining paxtaga bo’lgan talabi tufayli Rossiya Turkistonda paxta yetishtirishni ko’paytirish uchun rag’batlantirish choralarini qo’llagan, shu bilan birga g’alla yetishtirishni cheklagan.

Uzoq yillar davomida olib borilgan bunday siyosati natijasida Farg’ona vodiysining ga’lla ekinlariga qaramligini yuzaga keltirgan. 1898-yilda Dukchi Eshon boshchiligida ko’tarilgan xalq qo’zg’alonining sabablaridan biri ham chor Rossiyasining aynan shu siyosatiga bog’liqligini ta’kidlagan. Chor Rossiyaning 1914-1918-yillardagi Birinchi jahon urushidagi ishtiroki va 1917- yil inqilobiy voqealar natijasida Rossiyadan g’alla kelishi yildan-yilga kamayib borgan. 1917-1918- yillarda Rossiya Turkistondan paxta, Turkiston esa, Rossiyadan g’alla ola olmadi. 1917- yil

fevral inqilobi davrida Turkiston iqtisodiy halokat, ochlik va qashshoqlik ichida edi. 1917-yildan boshlab, Rossiyadan keladigan g’allaning kelmay qolishi oqibatidan Farg’ona vodiysida ocharchilik, qaxatchilik boshlangan. Oz miqdorda bo’lgan barcha don maxsulotlari faqat rus xalqiga taqsimlangan.

Shu o’rinda, B. Hayit bolsheviklar hukumatining yo’l qo’ygan yana bir xatosini keltirgan. Muxtoriyat qonga botirilib, talonchilik va qir’ginlar davom etib turgan vaqtida, 1917-yil 28-fevraldan boshlab, quyidagi ko’rsatmani amalga oshirishga kirishgan: “Turkistondagi barcha paxta ekinlari, qanday sharoitda va qayerda bo’lmasin, bundan buyon Turkiston o’lkasi ishchi va dehqon hukumatining mulki sifatida musodara qilinadi”…Agar paxta egalari tovarlarni olishga qarshilik qilsalar, barcha extiyot choralari, shu jumladan, ularni joyida otib tashlash chorasi ko’riladi. [4.B.Hayit.2023: 52-bet] Bu o’lkadagi paxtani musodara qilish haqidagi hukumat dekreti edi. Bu hukumat dekreti xalq mulkini talashni, ya’ni qaroqchilikni oshkora rasmiylashtirgan hujjat bo’lgan. Bu ko’rsatma asosida sovet ruslari va dashnoqlarga yana bir imkoniyat tug’ilgan. Ular, Qo’qon shaharidan boshlangan talonchilikni endi butun Farg’ona va Turkiston o’lkasining ko’pgina hududida amalga oshirish imkoniga ega bo’lganlar. Ular uyma-uy yurib, har bir xonadanga kirib, barcha paxtani tortib ola boshladilar, xatto ko’rpa-to’shaklardagi paxtani ham yig’ishtirib oldilar. Sho’ro hukumatining bu siyosati yonib turgan olovga moy quygandek bo’lib, milliy kurashning yanada tezroq tarqalishiga olib kelgan pravakatsion omil bo’lgan.

Bolsheviklar bu talonchilik dekreti asosida 1918-yil bahorida 140 dan ortiq zavod va yirik paxtachilik firmalari, 400 ga yaqin kichik korxonalarni egalladilar. Bundan tashqari 2 mln. 657 ming pud paxta tolasi, 4130900 pud urug’lik chigit, 476, 8 ming pud go’sht va boshqa narsalar qo’lga olindi. [5.H.Ziyoyev.2001:333-bet]

B. Hayitga ko’ra, qaroqchilik bilan xalqdan tortib olingan bu maxsulotlar peshma-pesh Rossiyaga yuborilgan, Rossiya manfaatlari hamma narsadan ustun ko’rilgan. Turkiston iqtisodiy hayotini falaj qilgan bu siyosat oqibatida avval

qaxatchilik, 1918-yildan boshlab, ocharchilikni yuzaga keltirgan. Bu ocharchilik oqibatida 1mln. dan ziyod turkistonliklar nobut bo’gan bo’lsa, yana minglab oillar ko’chishga majbur bo’lganlar.

B. Hayitning tadqiqot xulosalariga ko’ra, 1917-1922-yillarda davom etgan ocharchilik bolsheviklar davlatining mustamlakachilikka asoslangan iqtisodiy siyosatining natijasi bo’lgan. Ular, hayoliy(utopiya) jamiyat qurish orzusida harbiy kommunizim siyosatini Turkistonga ham tadbiq qilganlar. Natijada muqaddas deb bilingan xususiy mulkni tortib ola boshlaganlar, Axolining yer-mulklari, chorva-mollari, boylarning sanoat korxonalari, banklar, transport va boshqalar zo’rlik bilan musodara qilingan.

Bundan tashqari, bolsheviklarning xudosizlik siyosati natijasida musulmon jamiyatining ma’naviy xayotini ham izdan chiqarilgan. Ular Turkiston xalqlari hayotida dinning jamiyatga ta’sirini anglagan holda, islomga qarshi kurash boshladilar. Dastlabki zarbalar masjid va madrasalar, din peshvolariga qaratilgan. Chunki, “masjidlar milliy va diniy masalalarni muhokama qilish va qarorlar qabul qilish uchun yig’iladigan markaz vazifasini o’tagan. Ruhoniylarning aksariyati milliy kurash yukini yelkasida ko’targan yetakchilar edi”.

Haqiqatdan ham, qo’rboshilarning ko’plari xalq orasida obro-e’tiborga sozovor bo’lgan ruhoniylarrning vakillari bo’lgan. Bolsheviklar hukumatining dinga qarshi kurashi, xudosizlikni targ’ib qilish natijasida masjid va madrasalar buzildi yoki askarlar uchun kazarmaga aylantirilgan. Qozilar va din peshvolari ta’qib ostiga olingan. Azam Xoshimiyning xotiralariga ko’ra: “Haqgo’y ulamolar kechalari g’oyib bo’la boshladi. NKVD hodimlari yarim kechasi kelib, kerakli odamlarni yopiq mashinaga solib ketishar…bir ikki xaftadan so’ng Sibirga surgun qilingani haqida habar kelardi…Qo’qonda qo’rqinchli voqealar yuz bera boshladi, yuzlab ulamolar surgun qilinib, minglarcha musulmonlar shahid qilindi. ”[6.Azam Xoshimiy.2021: 28-29-bet]

B. Hayitning keltirishicha xalq noroziligining shiddat bilan ortib borishi va aholining yoppasiga”bosmachilar”ga qo’shilishida 1918-1919-yillarda Sovet hukumati tomonidan arman dashnoqlaridan tuzilgan qizil qo’shin qo’li bilan amlaga oshirilgan daxshatli vaxshiyliklar ham sabab bo’lgan. Jumladan:Ular Farg’ona vodiysida 130 qishloqni aholisini butunlay qirib tashlaganlar. Ularning, Farg’ona vodiysining katta shaharlaridan Marg’ilon, Andijon, Namangan, Qo’qon shaharlarida 20000 ga yaqin aholini tiriklayin chopib, so’yib tashlaganliklari haqida sovet manbasi Shomagdiyevning asaridan keltirilgan ma’lumotlar asosida avvalgi qismda to’xtalganmiz.

Yana bir sovet xodimi, Sovet razvedkasida xizmat qilgan, keyinchalik xorijga qochishga majbur bo’lgan OGPU sobiq xodimi G. Ag’abekovning chet elda nash ettirgan asarida aholining ommaviy ravishda “bosmachi”lar safiga borib qo’shilishi sabablarini keltirgan. Jumladan:”Budyonniy diviziyasi Sharqiy Buxoro tomon harakati davomida yo’ldagi hech bir narsani nazoratsiz qoldirmasdan, aholining bir qismini qilichdan o’tkazar, qolgan qismi esa qochib, bosmachilarga qo’shilar edi.” [7. G. Ag’abekov 1998: 48- bet ] Bu faktlar bolsheviklarning haqiqiy basharasini ko’rsatish bilan birga, qarshilik harakatini kelib chiqishini aniq baholash uchun muhumdir.

Asli, Namanganlik bo’lib, armanlar qatli omida shahid bo’lgan imom Nuriddin Naqibxo’ja Namongoniyning o’g’li 17-oktabr 1969-yilda bildirishicha, armanlardan tashkil topgan sovet birliklari 1919-yilning boshida Namangan shahrida bir yarim oy davomida uylarga o’t qo’ydilar.Jumladan:”…ular,uydan uyga kirib, kim duch kelsa bolta bilan chopdilar” [8.B. Hayit 2023: 355-bet]

. B. Hayitning keltirgan fakt va muloxazalariga ko’ra, o’lkada chidab bo’lmas darajada kechgan bu xo’rliklar, qirg’inlar, ocharchilik, Sovet hukumatining olib borgan talonchilik siyosati tufayli “bosmachilik” harakati yuzaga kelgan. Shuning uchun ham u mustaqillik va ozodlik ruhi bilan sug’orilgan umumxalq harakati deb hisoblagan.

Ayni shunday baho Mustafo Cho’qayning 1933- yili “Yosh Turkiston” juranalida chop etilgan”Bosmachilik” maqolasida ham bildirilgan:”Bosmachilik milliy ozodlik uchun va sovet hukumatining mustamlakachi vaxshiyliklariga qarshi umumiy milliy harakat sifatida dunyoga keldi. ”[9.M. Cho’qay.1933.№39.5-bet.]

B. Hayit tomonidan sovet manbalarida zo’r berib targ’ib qilingan”bosmachilik” harakatining mohiyati va ahmiyatini inkor qilish uchun qo’llanilgan, sohtakorlikka ilmiy, asosli fikir bildirgan. U harakatni kelib chiqish ildizlaridan turib, quyidagi javoblarni keltiradi. Jumladan:Sovet Ittifoqining asosiy mafkuraviy manbasi bo’lgan Katta Sovet ensiklopediyada keltirilisishicha, “Bir talonchilar guruhini dastlab, harbiy kuch sifatida sho’rolarga qarshi yo’naltirgan aksilinqilobiy Qo’qon muxtoriyati bosmachilik harakatinining asosini qurdi. Ular bosmachilik harakatiga aksilinqilobiy tus berdi va teskaricha panislomistik va panturkistik yo’nailishda nomoyon bo’ldi”. [10.1950,C.IV.,286-bet.]

Bu bilan, Sovet manbalari milliy ozodlik kurashini Qo’qon muxtoriyati boshlagan va siyosiy tus bergan deb, ko’rsatganlar. Go’yoki, mazlum xalqqa xurlik, ozodlik keltirgan Sovet hukumatiga bir to’da, reaksion ruhoniy-panislomistlar, panturkistlar qarashi chiqdilar deb, milliy ozodlik harakatini inkor etganlar.

B. Hayit esa, o’zining tadqiqotlarida qurolli qarshilik harakatini kelib chiqishini bir necha manbalar asosida isbotlab, shunday yozadi:”Shu narsa hammaga ayonki, bosmachilik harakati muxtor hukumat ag’darilgandan so’ng uyushgan bir shakldа alohida shaxslarning g’ayrat-shijoati bilan maydonga kelgandir. Milliy muxtor hukumatning ag’darilishi kurash boshlanishiga turtki berganligi esa haq gap.[11.B.Hayit.2023:390-391-bet]

Bu fikrni, boshqa bir tarixchi fikri bilan mustahkamlagan:”Turkiston Muxtoriyati hukumati milliy kurashni rivojlantirish va tashkil etishda hech qanday faollik ko’rsatmadi. ”[12.Temirog’lu.1931:-b-11.]

B. Hayit tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qurolli kurashning mafkuraviy jihatlariga alohida urg’u bergan, negaki u bolsheviklar aytganidek tasodifiy qo’zg’alon emas, balki xalqning ongli ravishda olib borgan milliy ozodlik kurashi sifatida talqin qiladi. Uningcha, miliy ozodlik kurashining mafkurasi uch asosiy g’oyadan, ustundan tarkib topgan. Uning birinchisi-milliy mustaqillik goyasi, ikkinchisi-Turkiston birligi g’oyasi. Uchinchisi esa, diniy va milliy qadriyatlarni himoya qilishdir. Milliy mustaqillik g’oyasi-harakatning eng muhum mafkuraviy poydevori bo’lgan. Uning yuzaga kelishi Turkiston xalqlarining o’z taqdirini o’zi belgilash huquqidan mahrum etilgach, mustaqillik uchun qurolli kurash tabiiy extyojga aylangan. Uning fikriga ko’ra, harakatning boshidan oxirigacha, bir ustivor g’oya yotadiki, bu butun Turkistonning milliy istiqloli va mustaqilligi goyasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. B.Hayit “Turkiston Rossiya va Xitoy oralig’ida” Yangi asr avlodi” 2023. 301-302-bet.

2. N.Jo’rayev.Sh.Karimov.O’zbekiiston tarixi. O’zbekiston mustamlakchilik davrida 2-kitob.”Sharq”.Toshkent.2011.66-bet

3. S. A'zamxo'jayev “Turkiston Muxtoriyati Milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi”.Toshkent.”Ma’naviyat”nashri.2000.151-bet.

4. B.Hayit “Bosmachilar: Turkiston milliy kurashi tarixi” (1917-1934). Toshkent. ”Akademnashr”, 2023. 52-bet

5. H.Ziyoyev”O’zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. ”Sharq“nashriyoti.Toshkent. 2001. 333-bet

6. Azam Xoshimiy “Alvido Vatan. “Azon” nashriyoti. Toshkent. 2021. 28-29-bet

7. G. Agabekov “Sekretniy terror”. Moskva. Terra-Knijniy klub. 1998. 48- bet

8. B. Hayit “Turkiston Rossiya va Xitoy oralig’ida” Yangi asr avlodi” 2023. 355-bet

9. M.Cho’qay “Yosh Turkiston” 1933. №39. 5-bet.

10. Katta Sovet ensiklopediyasi . 1950, C. IV. 286-bet.

11. B.Hayit” Turkiston Rossiya va Xitoy oralig’ida”Yangi asr avlodi”2023.390-391-bet

12. Temirog’lu. “Turkistonda inqilob davri” Yosh Turkiston” 1931. -b-11.

## FARG‘ONA VODIYSI MADANIY MEROSINI SAQLASH VA O‘RGANISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

**Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Shahrisabz, O’zbekiston.

E-mail: nilufarxod1yeva@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysi hududida joylashgan madaniy meroslar, ularning qadimiyligi va ma’naviy ahamiyati, ularni asrash hamda o‘rganishda foydalanilayotgan zamonaviy ilmiy va texnologik yondashuvlar to’g’risida fikr yurg’iziladi. Shuningdek, yosh avlodga raqamli texnologiyalar, arxivlashtirish va madaniy merosni yetkazish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Farg‘ona vodiysi, madaniy meros, tarixiy obyektlar, raqamlashtirish, tadqiqot, restavratsiya, raqamli arxiv.

**Аннотация.** В статье рассматриваются объекты культурного наследия Ферганской долины, их древность и духовное значение, а также современные научно-технические подходы, применяемые для их сохранения и изучения. Особое внимание уделяется вопросам цифровых технологий, архивирования и передачи культурного наследия молодому поколению.

**Ключевые слова:** Ферганская долина, культурное наследие, исторические объекты, оцифровка, исследования, реставрация, цифровой архив.

Oʻzbekistonning eng qadimiy va madaniy jihatdan boy hududlaridan biri boʻlgan Fargʻona vodiysining tarixi ming yilliklar davomida Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining shakllanishi bilan chambarchas bogʻliqdir. Farg'ona vodiysining tabiiy goʻzalligi, iqtisodiy imkoniyatlari va madaniy xilma-xilligi uni nafaqat mintaqa, balki butun Oʻzbekiston tarixining ajralmas qismi sifatida muhim oʻringa ega qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida madaniy merosni asrab-avaylash, uni restavratsiya qilish, raqamlashtirish va keng jamoatchilikka yetkazish masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli Fargʻona vodiysida ham tarixiy yodgorliklarni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida oʻrganish, ularni saqlab qolish hamda yosh avlod ongiga chuqur singdirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

1. Fargʻona vodiysining madaniy merosi tushunchasi va ahamiyati

Fargʻona vodiysi qadimdan Sharq va Gʻarbni bogʻlab turgan Buyuk Ipak yoʻlining muhim nuqtalaridan biri boʻlib, bu hududda turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar va diniy e'tiqodlar uygʻunlashgan. Vodiyning boy madaniy merosi — moddiy hamda nomoddiy qadriyatlarning yaxlit majmuasidan iborat boʻlib, u insoniyat tarixiy xotirasining muhim qismi sanaladi.

Mazkur hududda Axsikent, Quva, Rishton va Margʻilon kabi qadimiy arxeologik yodgorliklar, shuningdek, jome masjidlari, madrasalar va maqbaralar kabi me'moriy obidalar saqlanib qolgan. Bundan tashqari, xalq amaliy san'ati — kulolchilik, kashtachilik, zargarlik kabi sohalarda ham oʻziga xos an'analar davom etib kelmoqda. Ushbu madaniy boyliklar Fargʻona vodiysi aholisining tarixiy tafakkuri, mehnatsevarligi hamda nozik estetik didini yaqqol namoyon etadi.

2. Madaniy merosni saqlashda zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalar

Soʻnggi vaqtlarda Oʻzbekiston hukumati hamda xalqaro tashkilotlar hamkorligida madaniy merosni asrab-avaylash va tiklashga qaratilgan koʻplab loyihalar

amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi hududidagi tarixiy yodgorliklarni raqamlashtirish, 3D-modellashtirish, fotogrammetrik tahlil hamda dron texnologiyalari orqali hujjatlashtirish ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

Madaniy merosni saqlash jarayonida restavratsiya va konservatsiya usullarini ilmiy asosda takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar tomonidan tarixiy obyektlarning asl qiyofasini saqlab qolish bilan birga, ularni raqamli shaklda arxivlashtirish ishlari ham olib borilmoqda. Bu esa kelajak avlodlar uchun ushbu merosni virtual tarzda saqlash va o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Madaniy merosni asrash jarayoni faqat davlat idoralari yoki ilmiy muassasalarning vazifasi emas, balki mahalliy aholining faol ishtirokini ham talab etadi. So‘nggi yillarda Farg‘ona vodiysida fuqarolar, pedagoglar va talabalar tashabbusi bilan “O‘z merosingni asra”, “Mahallam – mening tarixim” kabi ijtimoiy loyihalar va aksiyalar tashkil etilmoqda. Bunday tashabbuslar yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini kuchaytiradi, jamoatchilik orasida esa tarixiy yodgorliklarni asrashga bo‘lgan mas’uliyatni oshiradi. Natijada madaniy merosni saqlash jarayoni davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlik asosida amalga oshadigan tizimga aylanmoqda.

Shuningdek, madaniy merosni tadqiq etish jarayonida GIS texnologiyalari, sun’iy intellekt tizimlari hamda virtual muzeylardan foydalanish kengayib bormoqda. Jumladan, Marg‘ilon shahrida ipakchilik tarixiga oid raqamli ekspozitsiyalar tashkil etilib, ularning ta’limiy va madaniy ahamiyati oshirilmoqda.

3. Farg‘ona vodiysida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va amaliy ishlar

Hozirda Farg‘ona vodiysining turli hududlarida arxeologik va tarixiy tadqiqotlar faol ravishda olib borilmoqda. Xususan, Axsikent shahridagi qazishmalar jarayonida qadimiy shaharsozlik madaniyatining yangi bosqichlarini yorituvchi muhim dalillar aniqlangan. Quva va Rishton tumanlarida esa qadimgi keramika, metall buyumlar hamda zargarlik san’atiga oid noyob topilmalar ilmiy jihatdan o‘rganilmoqda.

Bugungi kunda Farg‘ona davlat universiteti, Andijon davlat universiteti, Namangan davlat universiteti va boshqa ilmiy muassasalar huzurida madaniy merosni o‘rganishga ixtisoslashgan ilmiy markazlar faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, yosh tadqiqotchilar ishtirokida raqamli arxivlar yaratish, tarixiy hujjatlar bazasini shakllantirish hamda xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash bo‘yicha turli ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda.

4. Madaniy merosni o‘rganish va yosh avlodga yetkazish muammolari

Bugungi kunda madaniy merosni o‘rganish va asrab-avaylash jarayonida ayrim muammolar hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Jumladan, ba’zi tarixiy obyektlarning to‘liq restavratsiya qilinmagani, ilmiy hujjatlashtirish ishlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani, shuningdek, yoshlarning tarixiy merosga bo‘lgan qiziqishining pasayib borayotgani bu sohada sezilarli to‘siqlardan biridir.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun ta’lim tizimida — ayniqsa, umumta’lim maktablari va oliy o‘quv yurtlarida — madaniy meros asoslari, vatanparvarlik hamda tarixiy xotira mavzularini yanada kengroq yoritish zarur. Shuningdek, madaniy meros festivallari, ko‘rgazmalar, virtual sayohatlar va interaktiv ekspozitsiyalar orqali yoshlarni o‘z tarixiy o‘tmishi bilan yaqindan tanishtirish samarali natijalar beradi.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona vodiysi madaniy merosi xalqimiz tarixining ajralmas qismi bo‘lib, uni saqlash, tadqiq etish va keng targ‘ib qilish zamonaviy ilm-fan, texnologiyalar hamda ta’lim jarayonlari bilan uzviy uyg‘unlikda olib borilishi lozim. Raqamlashtirish, ilmiy tadqiqotlar, restavratsiya ishlari va yoshlar ishtirokidagi tashabbuslar madaniy merosni asrab-avaylashda muhim o‘rin tutadi. Ana shunday sa’y-harakatlar orqaligina biz o‘z tarixiy ildizlarimizni kelajak avlodga to‘laqonli va haqqoniy tarzda yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: Adolat, 2020.

3. Farg‘ona vodiysi arxeologik tadqiqotlari to‘plami. – Farg‘ona: FDU nashriyoti, 2022.

4. Madaniy meros agentligi hisobotlari. – T.: 2023.

5. A.A. Xolmatov. “Farg‘ona vodiysi tarixiy yodgorliklarini saqlash muammolari”. – Andijon: ADU, 2021.

6. UNESCO. “Digital heritage preservation initiatives in Central Asia”. – Paris, 2022.

## QORAQALPOG‘ISTON ONLAYN MEDIALARIDA TA’LIMGA DOIR MAVZULARNING YORITILISHI

**Dauletmuratov Taxir Piratdinovich**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Nukus filiali o‘qituvchisi

**Rezyume:** Maqolada ta'lim tizimiga oid ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanish bosqichlari, uning jamiyat rivojlanishidagi o‘rni hamda ahamiyati o‘rganilgan. Shuningdek, bugungi kundagi ijtimoiy tarmoqlarning xususiyatlaridan kelip chiqib, ularning turlari ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jurnalistika, axborot, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy kommunikastiya vositalari, internet, video tasvir, audio yozuv, foto tasvir, muloqot vositasi, veb-sayt.

## ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ, ОТНОСЯЩИХСЯ К СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

**Резюме:** В статье рассматриваются этапы развития социальных сетей в системе образования, их роль и значение в развитии общества. Также на основе характеристик современных социальных сетей представлена их виды.

**Ключевые слова**: Журналистика, информация, социальные сети, средства массовой коммуникации, интернет, видеозапись, аудиозапись, фотография, средство общения, веб-сайт.

## DEVELOPMENT STAGES OF SOCIAL NETWORKS RELATED TO EDUCATION

**Resume:** The article examines the stages of development of social networks in the education system, their role and significance in the development of society. Based on the characteristics of modern social networks, their classification and types are also presented.

**Keywords:** Journalism, information, social networks, mass communication media, internet, video recording, audio recording, photography, communication tool, website.

Bugungi kunda axborotni tarqatishning eng samarali va tezkor vositasi - bu onlayn media hisoblanadi. Internet orqali faoliyat ko‘rsatayotgan axborot platformalari nafaqat global, balki mintaqaviy darajada ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham so‘nggi yillarda onlayn axborot vositalarining soni va ta’siri ortib bormoqda. Ular orqali jamiyat uchun dolzarb bo‘lgan masalalar, jumladan, ta’lim sohasi ham yoritilib boriladi. Ayniqsa, bugungi kunda internet sahifalari, ijtimoiy tarmoqlar, turli tashkilot va muassasalarning rasmiy sayti juda faollashib borayotgani quvonarli hol. Shuni aytib o‘tish joizki, bugungi kunda ta’lim sohasidagi muassasalarda ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi va shakllanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning rivojlanishi va internetning ahamiyati ortib borishi bilan bog‘liq. Ayni paytda ijtimoiy tarmoqlar ta’lim

muassasalarida ma’lumotlarni tarqatish, o‘qitish, o‘rganish va o‘quvchi-talabalar bilan muloqot o‘rnatishda muhim vositaga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 22-sentyabrdagi 203-sonli "Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori asosida hokimiyat, vazirlik, idora va tashkilotlarda Axborot xizmati - Matbuot kotibi lavozimi joriy etildi. Ular internet tarmog‘ida muassasaning veb-resurslarini tashkil etish va ularning samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ommaviy axborot vositalari orqali muassasa faoliyati haqida jamoatchilikning ijobiy fikrlarini shakllantirish, joylarda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar jarayonini xolis olib borish bo‘yicha ishlar olib bora boshladi.

Natijada bugungi kunda har bir muassasada axborot xizmati yo‘lga qo‘yildi. Xususan: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining, OTMlari, hokimliklar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashining ijtimoiy tarmoqlarida ta’limga oid yangiliklar doimiy ravishda yoritib borilmoqda.

Qoraqalpog‘istonda faoliyat yuritayotgan https://kkbilim.uz/, https://karsu.uz, https://ndpi.uz kabi ta’limga oid axborot saytlari, shuningdek, Telegram - kanallar, Facebook, Instagram, YouTube sahifalari ta’limga oid mavzularni yoritishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu platformalar orqali maktab ta’limi, oliy ta’lim, o‘qituvchilar muammosi, ta’lim sifatini oshirish kabi mavzular bo‘yicha maqolalar va yangiliklar berib boriladi.

Bunda onlayn media manbalari tahliliga ko‘ra, ta’lim sohasidagi yoritilayotgan asosiy yo‘nalishlar quyidagilar:

Maktab ta’limi: yangi darsliklar, ta’lim standartlari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

Oliy ta’lim: OTMlardagi yangiliklar, qabul jarayonlari, stipendiyalar.

O‘qituvchilar masalasi: ish haqi, malaka oshirish kurslari, kadrlar yetishmasligi.

Talabalarning ijtimoiy hayoti: yashash sharoiti, ta'lim krediti, tanqid va takliflar.

Raqamli ta'lim: onlayn platformalar, videodarslar, ZOOM va LMS tizimlari orqali ta'limga oid ma'lumotlar yoritib borilmoqda.

Natijada bugungi kunda Qoraqalpog'iston onlayn mediasi ta'lim sohasidagi mavzularni yoritishda faollik ko'rsatmoqda. Ayniqsa, qabul jarayonlari, ta'limdagi o'zgarishlar, o'qituvchilar masalasi keng yoritilmoqda. Shu bilan birga, tahliliy maqolalar sonini oshirish, soha ekspertlari fikrini berish va axborot xolisligi ta'minlansa, onlayn media ta'limni rivojlantirishda muhim omil bo'lishi mumkin.

Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarning ta'lim muassasalarida keng qo'llanilishi talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ma'lumot almashinuvini osonlashtirdi. Kanallar va guruhlar orqali o'quv materiallari, topshiriqlar, yangiliklar va xabarlarni tezkor tarqatish imkoniyatini yaratdi. Onlayn videolar, vebinarlar, darslar orqali o'qitishning onlayn shakli kengaydi. YouTube, Telegram kanallari va videokonferensiyalar orqali oldindan belgilangan rejalar va dasturlar asosida bilimlar tarqatildi. Ko'plab oliy ta'lim muassasalari internet orqali o'quv kurslari, ma'ruzalar va virtual darslarni tashkil etishga kirishdi. Barchamizga ayonki, bu ayniqsa, pandemiya davrida yanada dolzarb bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bor. Muhimi, ulardan ongli ravishda foydalanish va vaqtni cheklash. Umuman foydalanmaydiganlar ham bor, ularga o'zining real hayoti qiziqroq, balki onlayn hayoti borlarga shubha bilan qarashi ham mumkin. Bular insonning maqsadiga qarab qilinadigan individual tanlovlar, birini to'g'ri, birini noto'g'ri deyishga bizning haqqimiz yo'q. Lekin, mutaxassis sifatida ijobiy tomonlari haqida ma'lumot berishni lozim ko'rdim.

Agar siz ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalansangiz, ular hayotingizni turli ranglar qo'shib boyitishi va ruhiy salomatligingizga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo‘llagan tabrigi. 2017-yil 27-iyul.

2. Mo‘minov F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. – T.: Universitet, 1998.

3. Прохоров Е.П. Журналистика. Государство. Общество. – М., 1996.

4. Xudoyqulov M. Ommaviy axborot vositalari nazariyasi. – T.: Universitet. 1999.

5. Qozoqboyev T.M., Xudoyqulov M. Jurnalistika. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T., 2009.

6. URL: Ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi. https://imomtermiziy.uz/uz/news/279 (ko‘rilgan sana 16.02.2023)

7. Muminov F.A., Bekbawliev D.O hám basqalar. Jurnalistika hám ǵalaba kommunikaciya tiykarlarí. Sabaqlıq. – T.: «Yosh avlod matbaa». 2021. –V. – 196.

8. URL: Yoshlarning ijtimoiy tarmoklar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli. https://beruniyalimov.uz/archives/705

## ЎЗБЕКИСТОНДА ҚАРОВСИЗ ВА ЕТИМ БОЛАЛАР МАСАЛАСИ (1941-1950 ЙЙ (НАМАНГАН ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

**Джалолов Бахром Джамолович**

Наманган давлат чет тиллари институти ўқитувчиси

***Аннотация:*** *ушбу мақолада иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистонга кўчириб келтирган етим болаларни жойлаштириш, уларни асосий маҳсулотлар билан таъминлаш ва бу йўлдаги қийинчиликлар ҳамда уни бартараф этиш Наманган вилояти мисолида ёритиб берилган. Ўз давридаги мавжуд муаммолар танқидий-таҳлил қилиб берилган ва мавжуд масалалар асосланган ҳолда кўрсатиб ўтилган.*

***Калит-сўзлар:*** *Болалар уйлари, жамоа хўжалиги, эвакуция, комиссия, бўлка, интернатлар, ижроия қўмитаси, жоме масжиди, бошпана, ёқилғи, мактаб, сабзавот.*

# ПРОБЛЕМА СИРОТ И БЕЗНАДЗОРНЫХ ДЕТЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ (1941–1950 ГГ.) (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ)

**Бахром Джамолович Джалолов**

Преподаватель Наманганского государственного
института иностранных языков

***Аннотация:*** *В данной статье описывается размещение детей-сирот, привезенных в Узбекистан во время Второй мировой войны, обеспечение их основными продуктами, а также трудности и пути их решения в этом процессе на примере Наманганской области. Актуальные проблемы современности анализируются в критическом духе и на этой основе показываются актуальные вопросы.*

***Ключевые слова:*** *Детские дома, колхоз, эвакуация, комиссия, учас-ток, школы-интернаты, исполком, мечеть, убежище, топливо, школа, овощ.*

***Abstract:*** *This article describes the placement of orphans brought to Uzbekistan during World War II, providing them with basic products, and the difficulties and solutions encountered in this process, using the example of the Namangan region. The existing problems of the time are critically analyzed and the existing problems are shown based on their basis.*

***Key words:*** *Children's homes, collective farm, evacuation, commission, section, boarding schools, executive committee, mosque, shelter, fuel, school, vegetable.*

Барчага маълумки, Иккинчи жаҳон уруши йилларида (19141-1945 йй) Ўзбекистон халқи кўп синовларни бошдан кечирди. Саноатни, қишлоқ хўжалигини уруш талабларига мослаб қайта қуриш ва уруш ҳаракатлари олиб борилган ҳудудлардан совет ҳукумати ташабббуси билан кўчириб келтирилган болаларни жойлаштириш чора тадбирлари олиб борилди. Ўз фарзандларини урушга кузатган ўзбек халқи, озиқ-овқат етишмай, танқислик кучайган бир даврда, бағрикенглик ва инсонийлик каби фазилатларини намоён қилди. Уруш туфайли совет ҳукумати томонидан Ўзбекистонга юборилган 200 минг нафар болани  шаҳар ва вилоятларга тақсимлаб берилди. Бу борада Наманган вило-яти ҳалқи ҳамда  раҳбарияти етим болалар тақдирига бефарқ эмаслигини кўрсатди.

1941 йилнинг ўзида Наманган ҳалқи бошпанасиз ва ота-онасиз қолган 3000 нафар болани ўз бағрига олиб, булардан 350 нафари Наманган тумани, 400 нафари Тўрақўрғон, 300 нафари Уйчи ва 300 нафари Косонсой тумани аҳолиси ҳонадонларига жойлаштирилди**[1.:31].**

Болаларни ижтимоий-иқтисодий ҳимоялаш ва зудлик билан чора-тадбирлар ишлаб чиқиш ҳамда улар учун болалар уйларини ташкил этиш кун тартибидаги масалага айланди. Жумладан, Наманган туманига келтирилган  350 нафар болалар Қуйи Ровустон қишлоғида ташкил этилган 25-сонли ва Қорапол-вон қишлоғидаги болалар уйига йўналтирилди. Тумандаги жамоа хўжалиги раиси С. Қамбаров 10 дан ортиқ етим болани ўз оиласи тарбиясига олди ва ўқитди**[2.:77].**

1941 йил 23 декабрда Чортоқ туманига 523 нафар 7 ёшдан 15 ёшгача бўлган болалар келтирилиб, туман ижроия қўмитаси қошида кўчириб келинган болаларни қабул қилиб олиш ва жойлаштириш комиссияси тузилди[3.:70]. Чортоққа кўчириб келинган ота-онасиз болаларга ғамхўрлик кўрсатиш юзаси-дан 1942 йил 2 январда Чортоқ туман халқ маорифи бўлими кенгаши бўлиб ўтди ва унда ўқитувчилар ва ота-оналар етим болаларни ўз қарамоғига олиш истагини билдирдилар. Бу ташаббус туманда кенг қўллаб кувватланиб, Қорабоғ қишлоқ

совети колхози комсомол ёшлар ташкилоти котиби У. Кенжа- боева болаларга озиқ-овқат ва кийим-бош келтириб берган эди **[4.:71].**

Кўчириб келинган етим ва қаровсиз болаларни қорнини тўйдириш ва кийим-кечак билан таъминлаш мақсадида, 1942 йил 14 январда Наманган ви-лоят ижроия қўмитаси “Эвакуация қилинган етим болаларни жойлаштириш ва тарбиялаш ҳақида” қарори қабул қилиб, бу борада олиб борилган ишлар янада кучайтирилди. 1942 йилга келиб Наманган вилоятидаги 20 дан ортиқ болалар уйларида 2257 нафар бола қамраб олинган эди. Хусусан, Чуст туманидаги Ғова болалар уйида 145 нафар, Поп туманидаги Воровский болалар уйида 117 на-фар, Янгиқўрғон туманидаги “Красная Украина” номли болалар уйида 175 нафар, Тўрақўрғон тумани, Шаҳанд қишлоғидаги “Донбасс-3” номли болалар уйида 66 нафар, Наманган тумани, Қумқўрғон қишлоғидаги болалар уйида 69 нафар, Наманган шаҳридаги кўзи ожиз болалар уйида 13 нафар болалар тар-бияланди**[5.:32].** Наманган халқи кўчириб келинган болаларга ўз ёрдамларини аямадилар, жумладан, Норин туманидаги “Норин” давлат хўжалиги ишчилари болалар учун 77 та телпак, 500 кг озиқ-овқат, Янгиқўрғон туманидаги жамоа хўжалиги аъзолари 100 кг оқшоқ, 250 кг пиёз, 100 кг ўрик, 16 кг ёғ ажратдилар.

Вилоятдаги жамоа хўжаликлар 20600 кг шоли, 22500 кг дон, 13800 кг сабзавот, 17 бош сигир, 40 та қўй билан болалар уйларига ҳомийлик қилдилар**[6.:34].**

Бироқ вазият оғир бўлиб, озиқ-овқат етишмовчилиги, қийинчиликлар ва уруш оқибатлари болаларга ўз таъсирини кўрсатган эди. Масалан 1932 йилда туғилган, уруш бошланганда 9 ёш бўлган Тўлқин Зокиров ўз эсталикларида Наманган шаҳридаги мактаблардаги таъминот ҳақида ”егулик оз эди, мактаб-ларда танаффус пайтида ҳар бир синфга 1 дона бўлканон бериларди. Муаллим ҳар бир ўқувчига бир бурдадан тақсимлаб чиқарди. 2-синфдан сўнг шу аҳволда болаларни пахта теримига олиб чиқишар эди” дея хотирлаган эди**[7.:106].**

Вилоятда кўчириб келинган болалардан ташқари жойларда ҳам қаровсиз ва етим болалар сони ошиб борган эди, уларга давлат эътибори керак эди, масалан, 1945 йил январь ойида Чортоқ туман ижроия қўмитаси қўшимча болалар уйлари ва интернатлар очиш ҳақида қарор қабул қилди ва туманадаги 15, 19, 24, 25,28 ва 39-мактабларнинг қошидаги интернатлар тарбияланувчи-лари сони 221 нафарга кўпайтирилиб, янги интернатларга 300 минг сўм пул ажратилди**[8.:73].**

Айрим туманларда болалар уйлари учун жой топиш муаммога айланди, хусусан, Чуст тумани ижроия қўмитаси раиси З. Сулаймонов 1945 йил 18 майида областга йўллаган хатида, район ҳудудида ота-онасиз қолган 300 на-фар боланинг қаровсиз ва тарбияга муҳтож эканлиги ҳақида хабар берилиб, уларни жойлаштириш учун туман маркази ва Олмос қишлоғидан жой ажра-тиш, бунинг учун вилоят ижроия қўмитасидан рухсат беришни сўраган эди **[9.:267].** Олмосда болалар учун жой топилмаганидан шу қишлоқдан урушга кетган жангчи Д. Абдураззоқовнинг хонадони болалар уйига айлантирилган ва 1949 йил 1 сентябрга қадар ушбу хонадон болалар уйи сифатида хизмат қилган. Урушдан қайтиб келган жангчи Д. Абдураззоқов уйини бўшатиб бе-ришни ҳамда бу ердаги болалар уйини бошқа ерга кўчириш тўғрисидаги ариза билан туман ижроия қўмитасига мурожжат қилади ва унинг уйини бўша-тиб бериш тўғрисида туман ижроия қўмитасининг қарори қабул қилин-ган**[10.:110].** Наманган вилоятида 1945 йилга келиб, жами болалар уйлари 25 та бўл-ган бўлса, 1949 йилга келиб 29 тани ташкил қилди ва улар томонидан 1945 йилда 3189 нафар, 1947 йилда 2851 нафар, 1949 йилга келиб 3084 нафар бола-ни қамраб олган**[11.:4].**

Урушдан кейинги йилларда ҳам совет хукумати олиб борган қатъий сиёсатида етим ва қаровсиз қолган болалар тақдири яна ўрин олган бўлиб, мамлакат бўйлаб дайдиб юрган етим болаларни аниқлаш, уларни болалар уйларига жалб қилиш ва ижтимоий ҳимоялаш, ҳамда болалар уйларининг моддий техника базасини янада яхшилаш чора-тадбирлари ишлаб чиқилди.

Болаларга бошпана сифатида диний муассасалар имкониятидан ҳам фойдаланишга уринди, жумладан, Косонсой шаҳридаги “Аълохон махдум” жоме масжиди 1950 йиллардан бошлаб, иккинчи жаҳон уруши йилларида етим қолган ва боқувчисини йўқотган турли миллат вакиллари бўлмиш болаларга уй-жой қилиб берилган**[12.:297].**

Болалар уйлари моддий-техник таъминотини янада кучайтириш ишлари-га эътибор қаратилиши натижасида болалар уйларида шароит яхшиланиб бор-ган. Масалан, Чуст тумани, Ғова қишлоғидаги 12-сонли болалар уйи 150 на-фардан ортиқ болаларни қамраб олиб, болалар уйида тарбияланувчиларнинг чуқур билим олишлари учун ҳамма шароит яратилган. Дарс тайёрлаш учун махсус хоналар ажратилиб, жиҳозланган ҳамда қишга 80 тоннага яқин ёқилғи тайёрланиб, болалар етарли миқдорда қишки кийимлар билан таъминлан-ди**[12].** Халқимиз урушдан кейинги йилларда ҳам етим қолган турли миллат болаларини ўз тарбиясига олишда доимо намуна кўрсатишган, масалан, 1951 йилда Чуст туманида яшовчи Қ. Саримсоқов рус миллатига мансуб Владимир исмли болани ўз қарамоғига олишга амалий ёрдам бериш ҳақидаги ёзган аризаси туман ижроия комитети томонидан хал этиб берилган. Бу борадаги хайрли ишлар узоқ вақтлар давомида давом этиб келди ва тарихга муҳрланди.

Хулоса қилиб айтганда уруши йилларида ўзбек халқининг буюк тарихий ишлари, унинг енгилмас кучли иродаси, ўша суронли йилларнинг унутилмас тарих саҳифаларини бугунги ёшларга етказиш, тинчликни асраб-авайлаш, улар онгида ватанпарварлик, ватанга муҳаббат ва фидойилик руҳида тарбия-лаш каби фазилатларни шакллантириш бугунги кун зиёлилари олдидаги энг муҳим вазифаларидан биридир.

**Манбалар ва адабиётлар/Источники ва литература/References**

1. Мирзаалиев. Э. Бахриддинов. О. Тарих-маънавият кўзгуси. Наманган.: 2006
2. Наманган туманининг ўтмиши ва бугуни. Тошкент.:Университет. 1996.
3. Чортоқ тумани тарихи. Тошкент.:Университет. 1995.
4. Чортоқ тумани тарихи...
5. Мирзаалиев. Э. Бахриддинов. О. Тарих-маънавият кўзгуси...
6. Мирзаалиев. Э. Бахриддинов. О. Тарих-маънавият кўзгуси...
7. Уруш болалари. 1941-1945 йиллар. Тошкент.:”SPLENDID IDEA”. 2021.
8. Чортоқ тумани тарихи...
9. Наманган вилояти давлат архиви. 275-жамғарма, 1-рўйхат, 321-иш.
10. НВДА, 275-жамғарма, 1-рўйхат, 538-иш.
11. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар:Наманган. Тошкент.:Ўзбекистон мил-лий медиа ассоциацияси. 2022.
12. Сталин ҳақиқати. 1950 йил 1 ноябрь.
13. Фарғона вилояти давлат архиви. 1124-жамғарма, 2-рўйхат, 59-иш.

## ИҲЁИ УЛ-УЛУМИДДИН АСАРИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСАЛАСИГА ЭЪТИБОР

**Бобамирзаев Абдулазиз Абдулхамитович,**
Ўзбекистон мусулмонлари идораси Наманган вилояти Янги Наманган тумани бош имом-хатиби

Имом Абу Ҳомид ал-Ғаззолий (1058–1111) ислом исломий тафаккурининг энг йирик намояндаларидан бўлиб, унинг “Иҳёи ул-улумиддин” асари шариат,

ахлоқ ва қалб тарбиясини бирлаштирган энциклопедик йўналишдаги беназир меросдир. Асарда инсон камолотига олиб борадиган йўл сифатида илм, тарбия, одоб, қалб покланиши, маънавий-ахлоқий ютуқларга катта ўрин берилган. Ғаззолий таълим-тарбияни фақат илм ўргатиш эмас, балки “Инсонни бутун маънода тарбиялаш” вазифаси сифатида талқин қилади.

1. Ғаззолийнинг таълим-тарбияга оид умумий қарашлари

Иҳёда таъкидланишича, илм инсонни барча фазилатларга етакловчи асосий нур саналади. Имом Ғаззолийнинг таълимга берган таърифи:

“Илм-Аллоҳ таолони таниш ва Унинг йўлида амал қилишга етакловчи нурдир”.[53]

Ғаззолийнинг фикрича:

Илм амалсиз самарасиз,

Амал илмсиз йўлдан адаштирувчи,

Тарбия эса илм ва амалнинг мевасидир.

Шунинг учун у таълим-тарбияни бир-биридан ажралмас жараён деб ҳисоблайди.

2. “Китоб ул-Илм”да таълим масаласининг марказий ўрни

Асарнинг биринчи қисми айнан таълим ва муаллимлик одобларига бағишлангани “Иҳё”да таълимнинг қандай марказий мавқега эга эканини кўрсатади. Ғаззолий таълим-тарбиянинг 6 асосий мақсадини келтиради:

1. Инсонни тақво ва ихлосга етаклаш
2. Жамиятда ахлоқий барқарорликни таъминлаш
3. Бандани Аллоҳга яқинлаштириш
4. Ниятни тўғри қилишга ўргатиш
5. Нақл ва ақлни уйғунлаштириш
6. Ўқувчининг қалбини поклаш

[53] Абу Ҳомид ал-Ғаззолий. Иҳё ул-улумиддин, Китоб ул-Илм, 1-жуз.

Унинг таъкидлашича, муаллимнинг вазифаси фақат маълумот етказиш эмас, балки шогирд қалбини тарбия қилишдир.

“Муаллимлар пайғамбарларнинг ворисларидир”[54]

3. Муаллим одоблари: Тарбиянинг қалбдан бошланиши

Иҳёда муаллим одобларига алоҳида боб ажратилган. Унда Ғаззолий ўқитувчида бўлиши керак 10 та асосий фазилатни белгилайди:

1. Ихлос
2. Шогирдни отасидек ҳурмат қилиш
3. Илмни моддий манфаат учун сотмаслик
4. Талабани имконидан ортиқ юкламаслик
5. Харакат ва хулқида ибрат бўлиш
6. Шогирдларга меҳрибонлик
7. Толибни руҳий камолотга етаклаш
8. Ўз билимини мунтазам тозалаш
9. Баҳс-мунозарадан мақсад ғалаба эмас, ҳақиқат бўлиши
10. Доимий ўзини назорат қилиш

Бу қоидалар Ғаззолийнинг педагогик қарашлари қанчалик мукаммал эканини кўрсатади.

4. Шогирд (ўқувчи) одоблари

Иҳёда шогирднинг 7 асосий вазифаси таъкидланган:

1. Муаллимга ҳурмат
2. Илм излашда сабр
3. Амалда бардавомлик
4. Илмни фақат Аллоҳ розилиги учун ўрганиш
5. Ҳаддан ташқари мунозарадан сақланиш
6. Бекорчи баҳсларга берилиб кетмаслик

[54] Ўша асар. 1-жуз, "Фадлу-л-илм" боби.

7. Илмни нафсдан устун қўйиш

“Илм ният тузатилмагунча наф келтирмайди” [55]

Бу ўқувчи тарбиясининг асосий методларидандир.

5. Ахлоқий тарбия усуллари

Иҳёда тарбиянинг марказида ахлоқни тузатиш, нафсни поклаш, одобни мустаҳкамлаш каби масалалар туради. Ғаззолий ахлоқни:

иллатни таниш,

иллат сабабини билиш,

сабабни йўқотиш,

фазилатни мустаҳкамлаш

деган тўрт босқичли педагогик метод билан тарбиялашни таклиф қилади.[56]

Бу методика бугунги замонавий психология ва педагогикадаги когнитив-бехевиористик усуллар билан жуда уйғун.

6. Амалий тарбия: руҳий ва ахлоқий камолот йўли

Ғаззолийнинг таълимдаги энг муҳим жиҳати-амалий тарбия усули. У шогирдни руҳий камолотга олиб борувчи амалий кўрсатмаларни беради:

Зикр усуллари

Ниятни тозалаш

Хушуъни ҳосил қилиш

Гуноҳлардан қалбни ҳимоя қилиш

Илм ва амал ўртасидаги боғлиқлик

Унинг таъкидлашича: “Қалбни тарбиялаш амалда намоён бўлади, назарияда эмас”[57]

7. Жамият тарбияси: илмий-ахлоқий ислоҳ концепцияси

---

[55] Ғаззолий. Иҳё, "Илмнинг одоби" боби.
[56] Ғаззолий. Иҳё, 3-жуз, “Муҳликот” (Қалб офатлари) китоблари.
[57] Ўша асар, “Нажотга етказувчи сифатлар” боби.

Иҳё фақат шахсий тарбия эмас, балки ижтимоий тарбиянинг тўлиқ моделидир. Ғаззолийга кўра:

Жамиятислоҳининг асосий йўли-ўқимишли ва тақводор авлодни вояга етказиш;

Муаллимлар жамиятнинг маънавий етакчиларидир;

Илм аҳлининг ислоҳи-бутун жамиятнинг ислоҳи демак.

Бу фикрлар Ғаззолий методологиясининг педагогик ва ижтимоий-ислоҳий аҳамиятга эга эканини кўрсатади.

**ХУЛОСА**

“Иҳёи ул-улумиддин” асарида таълим-тарбия масаласи марказий ўринда туради. Ғаззолий таълимни фақат билим бериш эмас, балки инсон қалбини, хулқини, ниятини ва жамиятни тўғрилашдек кенг қамровли маънавий жараён сифатида талқин қилади. Асардаги муаллим ва шогирд одоблари, ахлоқий тарбия усуллари, қалб ислоҳи, ижтимоий маънавият ҳақидаги фикрлар бугунги замонавий педагогика учун ҳам муҳим назарий асос вазифасини бажаради.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБАЛАР:**

1. Абу Ҳомид ал-Ғаззолий. Иҳё ул-улумиддин, Китоб ул-Илм, 1-жуз.
2. Ўша асар. 1-жуз, "Фадлу-л-илм" боби.
3. Ғаззолий. Иҳё, "Илмнинг одоби" боби.
4. Ғаззолий. Иҳё, 3-жуз, “Муҳликот” (Қалб офатлари) китоблари.
5. Ўша асар, “Нажотга етказувчи сифатлар” боби.
6. М.Абдулбакий. Ғаззолийнинг педагогик қарашлари. Қ.-Тошкент Ислом Университети нашри.

# FARG‘ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI

**Raximov Sherbek Kamolovich**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, mayor

+99899-798-59-70

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘rta Osiyo, xususan, Farg‘ona vodiysi shaharlarining XIX–XX asr boshlaridagi urbanizatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Unda Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olinishi davrida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va ma’muriy o‘zgarishlar, shuningdek, Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Andijon va Chust shaharlarining taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, Farg‘ona vodiysi shaharlarining tarixiy, iqtisodiy va madaniy o‘rni hamda ularning mintaqa ijtimoiy hayotidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘rta Osiyo, Farg‘ona vodiysi, Turkiston, Qo‘qon xonligi, urbanizatsiya, shaharlashuv, Marg‘ilon, Namangan, Andijon, Chust, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ma’muriy islohotlar.

**Аннотация:** В статье анализируются процессы урбанизации Средней Азии, в частности городов Ферганской долины в XIX – начале XX вв. Освещаются социально-экономические и административные изменения, произошедшие в период присоединения Туркестанского края к Российской империи, а также этапы развития городов Коканда, Маргилана, Намангана, Андижана и Чуста. На научной основе рассматривается историческая, экономическая и культурная роль городов Ферганской долины и их значение в общественной жизни региона.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, Ферганская долина, Туркестан, Кокандское ханство, урбанизация, Маргилан, Наманган, Андижан, Чуст, социально-экономическое развитие, административные реформы.

**Аннотация:** Мақалада Орта Азия, атап айтқанда Ферғана өрөөніндегі қалалардың XIX – XX ғасырдың басындағы урбанизация процесси талданады. Түркістан өлкесінің Ресей империясына қосылған дәуірінде болған әлеуметтік-экономикалық және әкімшілік өзгерістер, сондай-ақ Қоқан, Марғилан, Наманган, Әндижан және Чуст қалаларының даму кезеңдері қарастырылады. Ферғана өрөөні қалаларының тарихи, экономикалық және мәдени ролі мен олардың өңірдің қоғамдық өміріндегі мәні ғылыми негізде талданған.

Негизги сөзлер: Орта Азия, Ферғана өрөөні, Түркістан, Қоқан хандығы, урбанизация, Марғилан, Наманган, Әндижан, Чуст, әлеуметтік-экономикалық развитие, әкімшілік реформалар.

Jahon tarixining taraqqiyot jarayonida O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi alohida o‘rin egallaydi. Mintaqaning qadimiy shahar madaniyati Sharqning yirik siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy markazlari bilan chambarchas bog‘liq holda, o‘ziga xos yo‘nalishda rivoj topgan. Shu bois, turli davrlarda shakllangan urbanizatsiya jarayonlarini o‘rganish jahon tarixshunosligining eng muhim masalalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Bugungi kunda urbanizatsiya va shaharlashuv jarayoni dunyo miqyosida mislsiz sur’atlar bilan kechayotgani sababli, shaharlar tarixini chuqur tahlil etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, jahonning ilg‘or ilmiy-tadqiqot markazlarida Yer sharining turli hududlarida urbanizatsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini, shaharsozlik madaniyatining paydo bo‘lishi va rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish keng yo‘lga qo‘yilgan. Bunday tadqiqotlar doirasida shaharlarning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy poydevorini ochib berish masalasi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda shaharlar yil sayin kengayib, tobora tez sur’atlarda o‘sib borayotgani zamonaviy shahar madaniyatining istiqbollari va tarixiy xususiyatlarini o‘rganish zaruratini yanada oshirmoqda. Shu sababli, dunyoning ilg‘or ilmiy

markazlarida shaharlarning tarixi va rivojlanish jarayonlariga oid muammolarni chuqur tahlil etishga, xususan yirik megapolislarda yuzaga kelayotgan bosimni kamaytirish maqsadida oʻrta, kichik va yoʻldosh shaharlarni barqaror rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Oʻz navbatida, ushbu yoʻnalish Oʻzbekiston hududida ham dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralib, kun tartibida turgan muhim vazifalardan biriga aylangan. Shaharlar taraqqiyotini rejalashtirish jarayonida ularning tarixiy xususiyatlarini aniqlash va chuqur anglab yetish bu tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshirib, urbanizatsiya jarayonlarini ilmiy asosda boshqarish zaruratini ta’kidlab beradi.

XIX–XX asrlar boʻsagʻasida Turkiston xalqlari hayotida tub burilishlar yuz berib, bu davr mintaqa shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojida ham chuqur oʻzgarishlar davri boʻldi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida shaharlar oʻz qiyofasini doimiy ravishda yangilab borgan, ularning jamiyatdagi mavqei esa tobora ortib borgan.

Shu bois bugungi kunda yurtimiz hududidagi shaharlarning tarixini chuqur, tizimli va har tomonlama oʻrganish masalasi tarixshunoslik oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Oʻzbekistonning muhim tarixiy-madaniy mintaqalaridan biri boʻlgan Fargʻona vodiysi shaharlarining shakllanishi, rivojlanishi va ularning ijtimoiy hayotdagi oʻrni masalasini yoritish bugungi tarixiy tadqiqotlarning dolzarb yoʻnalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Rossiya imperiyasi Buxoro amirligi va Xiva xonligiga qarshi urush olib borayotgan yillari Qoʻqon xonligida chuqur siyosiyiqtisodiy inqiroz hukmronlik qilar edi. Qolaversa, bu vaqtda xonlik yerlarining yarmini ruslar egallagan, xonlik hududi asosan, Fargʻona vodiysidan iborat boʻlib qolgan edi. Xudoyorxonning soʻnggi hukmronlik yillari (1865–1875) davom etardi. “U, - deb yozgan edi Ibrat oʻzining “Fargʻona tarixi” asarida, – Rusiyadan xotirjam boʻlib, vaqtini oʻyin-kulgi bilan

o‘tkazib, ulamo va fuzalo nasihatlariga amal qilmay, jabru zulm tarafiga o‘tib turganida rayiyatu xalq undan yuz o‘gurdi.... [1.1991:B.310]

1876-yilda Qo‘qon xonligi tugatilgach, uning o‘zagida tashkil etilgan Farg‘ona viloyati hududiy jihatdan 81.032 kv. verstni tashkil qilar, bu o‘lka umumiy yer maydonining 1/7 qismiga teng kelar edi. Viloyat ma’muriy jihatdan 7 ta uyezd – Qo‘qon, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, O‘sh, Chust va Chimyon (1879-yildan Isfara) uyezdlariga 67 bo‘linadi1 , 1881-yilda Isfara uyezdi bekor qilinib, uning hududi Qo‘qon uyezdi tarkibiga kiritiladi. [2.2001:B.356]

1886-yilda tasdiqlangan “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom” ga ko‘ra, viloyat 5 ta, ya’ni Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Namangan va O‘sh uyezdlariga bo‘linadi3 , natijada, Chust uyezdi ham bekor qilinadi. Barcha uyezdlar uchun shu nomdagi shaharlar ma’muriy markaz sifatida belgilanadi. Faqatgina Marg‘ilon shahri bundan mustasno bo‘lib, Marg‘ilon uyezdi markazi uchun Yangi Marg‘ilon (1907-yildan Skobelev, keyinchalik esa Farg‘ona) shahri barpo etildi. Uezdlar tumanlarga bo‘lingan holda boshqarilib, viloyatda o‘sha paytda 20 ta tuman bor edi. [3.2013:B.70]

Mustamlaka sharoitida Marg‘ilonning yirik sarmoyador boylari shahardagi qarovsiz qolgan ijtimoiy hayotni imkon qadar tartibga solish uchun o‘z mablag‘larini ayamaganlar. O‘sha davrda Marg‘ilon uyezdi boshqarmasida xizmat qilgan Muhammad Aziz Marg‘iloniyning qayd etishicha, mahalliy sarmoyadorlar o‘z hisobidan hammom, yangi masjid va maktablar barpo etib, eskilarini ta’mirlaganlar, bozorlarda yangi rastalar qurdirganlar.

Shaharlar dahalarga, dahalar esa mahalla va jamoalarga bo‘lib idora qilingan. Dahalar, mahalla hamda shahar oqsoqollarn asosan, soliq to‘plash va ma’muriyat farmonlarini xalqqa yetkazish kabi vazifalarni bajarganlar. Istilo arafasida xonlikdagi shaharlarda aholi soni haqida rus manbalarida turlicha ma’lumotlar mavjud. Jumladan, 1865–1866-yillarda Bekchurin tomonidan aniqlangan ma’lumotlarga ko‘ra, Qo‘qon shahri va uning atrofida 100.000, Namanganda 30.000, Marg‘ilonda 20.000, Kosonda

30.000, Chustda 20.000, Konibodomda 15.000, O‘shda 5.000, Toshkentda 100.000, Chimkentda 4.000 aholi yashagan. [4.1868:B.281] Ammo, negadir ushbu ro‘yxatda vodiydagi yirik shaharlardan biri Andijon qayd etilmagan.

Andijon ham Farg‘ona vodiysining qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, Rossiya tajovuzi arafasida Qo‘qon xonligidagi Andijon bekligining markazi edi. Bu yerdan Farg‘onaning turli qismlari, Yettisuv va Qashqarga olib boradigan yo‘llar o‘tgan. Istilo arafasida shahar aholisi taxminan 35.000 kishini tashkil etgan. 1876-yilda xonlik tugatilgach, beklik Andijon uyezdiga aylantirildi va shahar Andijon uyezdi markazi maqomini oldi. [5.2022:B.73]

Jami mintaqaga Rossiya imperiyasi tajovuzi boshlanishidan avval Qo‘qon xonligi tarkibida Toshkent, Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Namangan, Turkiston, Sayram, Chimkent, Koson, Chust, O‘sh, Konibodom, Baliqchi, O‘zgan, Shahrixon va Asaka kabi 15 dan ortiq shahar hamda shaharchalar mavjud bo‘lib, ulardagi aholi soni 400.000 nafarga yetgan. Xonlik 15 ta beklikka bo‘linganligi, poytaxt Qo‘qondan tashqari 15 ta beklik markazi, ya’ni ham ma’muriy, ham iqtisodiy markazlar mamlakat hayotida muhim o‘rin tutgan. [5.2022:B.69]

XIX asrning so‘nggi choragi – XX asr boshida Farg‘ona vodiysidagi shaharlar hayotidagi o‘zgarishlar va urbanizatsiya jarayonlarini har bir shahar misolida yanada aniqroq tasavvur qilish mumkin.

Xonlik poytaxti, Farg‘ona vodiysidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatida asrlar davomida ma’lum hamda mashhur bo‘lib kelgan Qo‘qon shahri Rossiya imperiyasi istilosi arafasida baland devor bilan o‘ralgan bo‘lib, unga 12 ta darvoza orqali kirilgan.

Shaharda xon saroyi, ya’ni O‘rda joylashgan edi. Shahar hududidan o‘tgan Katta soy, Kichik soy va Qorasuv daryolari Qo‘qon aholisini suv bilan ta’minlagan. Shahar o‘zining ozodaligi, ko‘chalarining kengligi, ikki tomonlama daraxtlar ekilganligi va

asrlardan beri yashab kelayotgan qadimiy qayrag‘ochlari bilan ajralib turgan. Uylar puxta qurilgan bo‘lib, pishiq g‘ishtli binolar ko‘p bo‘lgan.

Qo‘qon xonligi tugatilgach, Chust shahri 1876-yildan Farg‘ona viloyati tarkibidagi Chust uyezdi markazi maqomini oladi. Sobiq bek kal’asiga uyezd ma’muriyati va harbiylar joylashtirildi. Ilgari bekka tegishli bo‘lgan yerlar, bog‘lar ham uyezd boshlig‘i ixtiyoriga o‘tkazildi.

Chust shahridagi markaziy bozordan 2 km. masofada rus aholisi uchun yangi shaharchaga asos solinib, bu yerda ma’muriy binolar, uyjoylar va shifoxona qurilishi boshlandi.

1886-yildagi “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom”ga ko‘ra, Chust uyezdi Namangan uyezdi bilan qo‘shiladi. Endilikda Namangan uyezdi tarkibida Chust oqsoqolligi tashkil etildi. Chust oqsoqolligiga Chust shahridan tashqari Hisoraksoy va Sho‘rkent qishloq jamoalari ham qarar edi. Chust uyezdi Namangan uyezdi bilan qo‘shilib, shahar markaz maqomini yo‘qotgach, yangi shaharning qurilish jarayoni ham sustlashdi.

1876-yilda shaharda 2116 xonadon mavjud bo‘lib, unda yashovchi aholi soni 10580 nafarni tashkil etgan. 1897-yilda o‘tkazilgan aholi ro‘yxatida shaharda 13785 kishi2 , 1913-yilda esa 19814 kishi yashayotganligi qayd etilgan3 . Ushbu davrda Chustda 2700 ta uy-joy, 84 ta masjid (shundan 12 tasi jome’ masjidi), 50 ta maktab faoliyat olib borar edi. [6.B.138–147]

Marg‘ilon nafaqat Fag‘ona vodiysi, balki butun Turkistondagi yirik shaharlardan biri edi. Shahar baland paxsa devorlar bilan o‘ralgan bo‘lib, juda qulay geografik hududda joylashgan edi. Shahar hududi geoografik jihatdan qulay va tabiati go‘zal yerda joylashganligini bu yerga XIX asr oxiri XX asr boshlarida tashrif buyurgan xorijlik sayyohlar ham alohida ta’kidlaganlar.[6.B.704] 1840- yillarda rus tadqiqotlarida Marg‘ilon shahri kattaligi jihatidan Qo‘qonga yaqinligi va juda qadimiy ekanligi qayd etilgan.

1876-yilda Farg‘ona viloyati tashkil etilgach, uning markazi sifatida Qo‘qon shahri belgilansa-da, ma’muriyat bundan qoniqmay, yangi markaz qurish uchun joy tanlashga kirishadi. Shu maqsadda, 1877-yilda Turkiston general-gubernatori Marg‘ilon uyezdi boshqaruvchisiga harbiy injenerlar, malakali vrachlar va yer tuzuvchi mutaxassislardan iborat maxsus komissiya bilan belgilangan hududni o‘rganib chiqishni topshiradi. Tekshiruvlardan so‘ng Marg‘ilon shahridan 10-12 km janubda joylashgan, Yormozor va Chim qishlog‘i aholisiga qarashli hudud tanlab olinadi.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, o‘rganilayotgan davr Farg‘ona vodiysi urbanizatsiya jarayonlari asosan, qadimdan ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markaz bo‘lib kelgan shaharlar atrofida sodir bo‘ldi. Ularning qadimdan savdo va hunarmandchilik markazi bo‘lganligi hamda savdo yo‘llarida joylashganligi urbanizatsiya jarayonlariga katta imkoniyat yaratdi. Shaharlarda barpo etilgan “yangi” qismlarda nafaqat ma’muriyat va harbiylar, balkisavdo-sanoat ahli, temir yo‘l va korxonalar ishchilari, sarmoyadorlar, rus aholisi, boshqa yevropaliklar hamda yahudiylarning soni ham ortib bordi.

E’tibor berish kerakki, vodiydagi shahar madaniyatining rivojlanishi asosan, rus ma’murlari, harbiylari va aholi yashaydigan “yangi” qismda zamonaviy infratuzilmalar yaratilishi bilan cheklanib, mahalliy aholi yashaydigan qismlari esa, deyarli o‘zgarmasdan XIX asr darajasida qoldi. Eski shaharlardagi an’anaviy infratuzilmalar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lsa-da, zamon talablari va yangiliklardan ancha ortda qolgan edi.

XIX–XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi shaharlarida kechgan urbanizatsiya jarayonlari mintaqaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan. Bu davrda Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shilishi natijasida shaharlarning boshqaruv tizimi, aholi tarkibi hamda infratuzilmasida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Namangan va Chust kabi qadimiy

shaharlar ma’muriy markaz sifatida shakllanib, yangi shahar qismlarida zamonaviy inshootlar barpo etildi. Shunga qaramay, mahalliy aholining an’anaviy turmush tarzi va eski shahar qismlaridagi hayot deyarli oʻzgarmadi.

Fargʻona vodiysi shaharlarining rivojlanishida tabiiy-geografik joylashuv, savdo yoʻllarining kesishganligi va qadimdan shakllangan hunarmandchilik markazlari muhim omil boʻlib xizmat qilgan. Mazkur davr urbanizatsiya jarayonlari shahar madaniyatining keyingi taraqqiyoti uchun zamin yaratib, Oʻzbekiston tarixidagi muhim bosqichlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ibrat. Tarixi Fargʻona. – Toshkent: Kamalak, 1991. – B. 310.
2. Oʻz MA. 19-fond. 1-roʻyxat, 256-yigʻma jild, 354- varaq
3. Ziyayeva D. H. Oʻzbekiston shaharlari XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida. – Toshkent, 2013. – B. 70.
4. Романовскй Д. И. Заметки по Средне-Азиатскому вопросу. – СПб., 1868. – С. 281.
5. Mamadaliyev, X. I. *Fargʻona vodiysi shaharlari tarixi (XIX–XX asr boshlari).* Toshkent: Fan ziyosi nashriyoti. 2022. – B. 69-73.
6. Oʻz MA. 19-fond. 1-roʻyxat, 1170-yigʻma jild, 138–147- varaqlar; Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том. 19.... – С. 702-704.

# FARG‘ONA VODIYSI SHAHAR MADANIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Qurbonova Asal Dilshod qizi**

E-mail: asalqurbonova36@gmail.com

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

**Orcid**: 0009-0004-9281-8877

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi shahar madaniyatining paydo bo‘lishi va taraqqiyot bosqichlari tahliliy jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqotda vodiyning qadimdan sivilizatsiya markazi sifatidagi ahamiyati, o‘ziga xos shaharsozlik an’analari hamda tarixiy shaharlarning shakllanish jarayoni ochib berilgan. Shuningdek, Axsikent, Quva, Marg‘ilon, Andijon va Namangan singari yirik shaharlarning madaniy hayoti, ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi o‘rni tahlil etiladi. Maqola davomida shahar madaniyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar va ilmiy ma’lumotlar asosida yoritilib, bugungi kunda Farg‘ona vodiysi shahar madaniyatining uzluksizligi va yangilanish jarayonlariga e’tibor qaratiladi.

**Kalit so’zlar**: Farg‘ona vodiysi, shahar madaniyati, Axsikent, Quva, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, tarixiy rivojlanish, arxeologik topilmalar, shaharsozlik, madaniy meros, sivilizatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot.

**Аннотация.** В данной статье аналитически рассматриваются процессы зарождения и этапы развития городской культуры Ферганской долины. В исследовании раскрывается значение долины как древнего центра цивилизации, её уникальные градостроительные традиции и процесс формирования исторических городов. Кроме того, анализируется культурная жизнь таких крупных городов, как Ахсикент, Кува, Маргилан, Андижан и Наманган, а также их роль в социально-экономическом развитии региона. В статье поэтапно освещается развитие городской культуры на основе исторических источников,

археологических находок и научных данных, особое внимание уделяется преемственности и процессам обновления городской культуры Ферганской долины в современный период.

**Ключевые слова:** Ферганская долина, городская культура, Ахсикент, Кува, Маргилан, Андижан, Наманган, историческое развитие, археологические находки, градостроительство, культурное наследие, цивилизация, социально-экономическое развитие.

**Annotation:** This article provides an analytical study of the emergence and stages of development of urban culture in the Fergana Valley. The research reveals the significance of the valley as an ancient center of civilization, its unique urban planning traditions, and the process of formation of historical cities. In addition, it analyzes the cultural life of major cities such as Axsikent, Kuva, Margilan, Andijan, and Namangan, as well as their role in the socio-economic development of the region. The article highlights the gradual development of urban culture based on historical sources, archaeological findings, and scientific data, with special attention given to the continuity and renewal processes of the Fergana Valley’s urban culture in the modern period.

**Keywords:** Fergana Valley, urban culture, Axsikent, Kuva, Margilan, Andijan, Namangan, historical development, archaeological findings, urban planning, cultural heritage, civilization, socio-economic development.

**Kirish.** Farg‘ona vodiysi O‘zbekistonning qadimdan shakllangan va aholisi eng zich joylashgan mintaqalaridan biri hisoblanadi. Bu hudud tabiiy boyliklari, qulay geografik joylashuvi hamda serhosil yerlari bilan ajralib turadi. Ana shu omillar qadim zamonlardanoq vodiyning shahar madaniyati shakllanishi va taraqqiyotiga mustahkam asos yaratgan. Vodiyning shahar madaniyati tarixi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining uzviy qismi bo‘lib, u bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Miloddan avvalgi davrlardayoq bu yerda dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo ishlari keng yoyilgan

bo‘lib, buning natijasida dastlabki shaharlar paydo bo‘lgan. Axsikent, Quva, Marg‘ilon, Andijon va Namangan kabi qadimiy shaharlar o‘z davrida iqtisodiy markaz bo‘lish bilan birga, madaniyat va ilm-fan o‘choqlariga ham aylangan[1]. Tarixiy jarayonlar davomida shahar madaniyati bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan. Har bir davrda iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotda o‘ziga xos o‘zgarishlar yuz bergan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘lining vodiya orqali o‘tganligi bu hududning madaniy aloqalarini kengaytirib, shahar hayotiga yangi tamoyillarni olib kirgan. Hozirgi kunda Farg‘ona vodiysi shahar madaniyati o‘zining boy tarixiy an’analari va zamonaviy taraqqiyot jarayonlarini uyg‘unlashtirgan holda rivojlanib bormoqda. Ushbu maqolada aynan shu jarayonlarning tarixiy ildizlari hamda bosqichma-bosqich shakllanishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results) Tahlil va natijalar(Analysis and results).** Farg‘ona vodiysi shahar madaniyatining shakllanishi uzoq tarixiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bu hududda dastlabki shahar tipidagi manzilgohlar miloddan avvalgi II–I ming yilliklarda paydo bo‘lgan. Axsikent, Quva va Marhamat kabi qadimiy yodgorliklar vodiya o‘sha davrlarda iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak taraqqiyot darajasiga erishganini ko‘rsatadi.

O‘rta asrlarda esa Farg‘ona vodiysi Buyuk Ipak yo‘lining muhim qismi sifatida faol rivojlanish bosqichiga kirgan. Bu davrda savdo aloqalari kengayib, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat yangi bosqichga ko‘tarildi. Quva shahri ilm-ma’rifat markazi sifatida tanilgan bo‘lib, u yerdan mashhur astronom Ahmad al-Farg‘oniy yetishib chiqqan[2]. Marg‘ilon ipak ishlab chiqarish markazi sifatida shuhrat qozongan, Andijon va Namangan shaharlarida esa savdo va hunarmandchilik faoliyati jadal rivojlangan. Bu jarayonlar shahar hayotining ijtimoiy, me’moriy va madaniy ko‘rinishlarini boyitgan. XIX–XX asrlarda Farg‘ona vodiysida shaharsozlik yangi bosqichga ko‘tarildi[3]. Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet davrida

zamonaviy infratuzilma shakllanib, sanoat korxonalari, maktablar, madaniyat saroylari, teatrlar va boshqa ijtimoiy ob’ektlar qurildi. Bu o‘zgarishlar shaharlarning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlab, madaniy hayotni yanada faollashtirdi.

Hozirgi davrda Farg‘ona vodiysi shahar madaniyati tarixiy an’analar va zamonaviy urbanizatsiya jarayonlarining uyg‘unlashuvi natijasida rivojlanmoqda. Tarixiy me’moriy yodgorliklar restavratsiya qilinmoqda, yangi madaniy markazlar barpo etilmoqda, turizm infratuzilmasi kengaymoqda. Shu bilan birga, aholining madaniy saviyasi va milliy qadriyatlarga hurmati ortib, yoshlar o‘rtasida ijodkorlik faoliyati faollashmoqda.

Yig‘ilgan tahliliy ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, Farg‘ona vodiysi shahar madaniyati bosqichma-bosqich takomillashib borgan bo‘lib, har bir davr o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlari bilan farqlanadi. Tarixiy tajriba va boy madaniy meros bugungi kunda ham vodiya shaharlarining urbanistik va ma’naviy rivojida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili .** Farg‘ona vodiysi shahar madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi masalasi tarixchi, arxeolog hamda madaniyatshunos olimlarning ko‘plab ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu hudud qadim zamonlardan buyon Markaziy Osiyodagi eng muhim sivilizatsiya o‘choqlaridan biri sifatida shakllangan.

Arxeologik tadqiqotlarda, xususan, A. Asqarov, U. Islomov va R. Sulaymonov kabi olimlarning ishlarida Axsikent, Quva va Marhamat singari qadimiy manzilgohlarning madaniy qatlamlari hamda shaharsozlik tizimi chuqur o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar Farg‘ona vodiysi qadimiy davrlardanoq rivojlangan madaniyat markazi bo‘lganini isbotlaydi.

Ahmad al-Farg‘oniy faoliyati va Quva shahrining ilmiy muhitini o‘rganishga bag‘ishlangan tarixiy manbalar vodiyning ilm-fan va madaniyat markazi sifatidagi o‘rnini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, V. Masson, B. Litvinskiy va A. Bernshtam singari

tadqiqotchilar bu hududning iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga oid tahlillarida vodiyning shahar madaniyatidagi alohida oʻrnini koʻrsatib berganlar[4].

XX asrning ikkinchi yarmida olib borilgan Fargʻona arxeologik ekspeditsiyasi materiallari asosida sovet davri olimlari vodiyning urbanistik rivojlanish bosqichlari, sugʻorish tizimlari, hunarmandchilik markazlari hamda savdo yoʻllarining shakllanish jarayonlarini ilmiy jihatdan tahlil etganlar.

Soʻnggi yillarda esa oʻzbekistonlik olimlar — S. Shaydullayev, M. Qodirov, G. Toʻlaganova va boshqalar tomonidan vodiyning madaniy merosi, tarixiy me’moriy obidalari hamda zamonaviy urbanizatsiya jarayonlari oʻrtasidagi bogʻliqlik tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida tarixiy shaharlarning madaniy qatlamlarini saqlash, restavratsiya jarayonlari va turizm imkoniyatlarini rivojlantirish masalalari alohida yoritilgan[5].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, Fargʻona vodiysi shahar madaniyati tarix, arxeologiya, me’morchilik, iqtisod hamda madaniyatshunoslik sohalarining oʻzaro uzviy bogʻliqligida shakllangan murakkab va koʻp qirrali hodisa hisoblanadi. Ushbu ilmiy manbalar vodiyning shaharsozlik an’analari, sivilizatsion uzluksizligi va hozirgi modernizatsiya jarayonlaridagi oʻrnini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Xulosa va takliflar

Olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, Fargʻona vodiysi shahar madaniyati ming yillik tarixiy jarayonlar davomida shakllanib, har bir davr oʻziga xos ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va me’moriy xususiyatlari bilan ajralib turgan. Axsikent, Quva, Margʻilon, Andijon va Namangan kabi qadimiy shaharlarning tarixiy rivoji vodiyning sivilizatsiya markazi sifatidagi oʻrnini yaqqol namoyon etadi. Bugungi kunda ham vodiyning shahar madaniyati tarixiy an’analar va zamonaviy modernizatsiya jarayonlarining uygʻunlashuvi asosida izchil rivojlanmoqda.Tarixiy manbalar va arxeologik dalillar shuni tasdiqlaydiki, Fargʻona vodiysida shakllangan shaharsozlik

madaniyati faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki boy madaniy meros, ilmiy yutuqlar, hunarmandchilik an'analari va ijtimoiy hayot bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Shu jihatdan, vodiyning tarixiy tajribasi Markaziy Osiyo madaniy taraqqiyotida alohida o'rin tutadi.

**Takliflar:** Farg'ona vodiysi shahar madaniyati bo'yicha arxeologik izlanishlarni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalar asosida tarixiy yodgorliklarni raqamlashtirish va ilmiy arxivlar yaratish zarur.

- Tarixiy shaharlarning me'moriy merosini saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha davlat hamda mahalliy dasturlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.
- Madaniy meros obyektlarini turizm infratuzilmasiga integratsiya qilish, bu orqali mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga qo'shimcha turtki berish lozim.
- Farg'ona vodiysi shahar madaniyatini ta'lim tizimiga kiritish, maktab va oliy ta'lim muassasalarida maxsus kurslar tashkil etish orqali yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmatni mustahkamlash foydali bo'ladi.
- Vodiyning shahar madaniyatini o'rganish borasida xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish, xorijiy olimlar bilan qo'shma tadqiqotlar va ekspeditsiyalar o'tkazish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)**

1. Asqarov A. O'zbekistonning eng qadimgi shaharlari va madaniy yodgorliklari. – Toshkent: Fan, 1992.

2. Islomov U. Farg'ona vodiysi arxeologiyasi: qadimiy shaharlar tarixi va rivoji. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2001.

3. Sulaymonov R. Axsikent – qadimiy Farg'ona shahri. – Farg'ona: Farg'ona nashriyoti, 2005.

4. Bernshtam A.N. Ferganskaya dolina v drevnosti i srednevekovye. – Moskva: Nauka, 1951.

5. Litvinskiy B.A. Drevnyaya Srednyaya Aziya: Kul’tura, goroda, lyudi. – Moskva: Nauka, 1972.

6. Masson V.M. Istoriya drevney Sredney Azii. – Leningrad: Nauka, 1988.

7. Shaydullayev S. Farg‘ona vodiysi madaniy merosi va urbanizatsiya jarayonlari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017.

8. Qodirov M. O‘zbekiston shahar madaniyatining rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

9. To‘laganova G. Farg‘ona vodiysi tarixiy shaharlarining me’moriy merosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

10. Farg‘ona vodiysi arxeologik ekspeditsiyasi materiallari. – O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti to‘plami, 1980–1995 yillar.

11. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.

12. O‘zbekiston Respublikasi madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi (2019–2030 yillar). – Toshkent, 2019.

## O‘ZBEKISTON TARIXI FANIDA DINIY BAG‘RIKENGLIKNING YORITILISHI

**Umarov Sherzodjon Usmonovich**

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi assisenti

sherzodjon80@umail.uz

***Annotasiya:*** *Maqolada diniy bag‘rikenglikning tarixan shakllangan ildizlari davriy kesimda, qiyosiy uslubda O‘zbekiston xalqlari tarixi misolida ilmiy tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *diniy bag‘rikenglik, otashparastlik, zardushtiylik, buddaviylik, Islom, millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, konfessiyalar.*

## ОСВЕЩЕНИЕ РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ПРЕДМЕТЕ ИСТОРИЯ УЗБЕКИСТАНА

***Аннотация:*** *В статье проводится научный анализ исторически сложившихся корней религиозной толерантности в периодическом разделе, в сравнительным методом на примере истории народов Узбекистона.*

***Ключевые словы:*** *Религиозная толерантность, огнепоклонство, зороастроизм, буддизм, ислам, межнациональное согласие, свобода совести, конфессии.*

## COVERAGE OF RELIGIOUS TOLERANCE IN THE SUBJECT HISTORY OF UZBEKISTAN

***Abstract:*** *In the article conducts scientific analysis of historically complex religious religious tolerance in the periodic section, in a comparative method on the example of the history of the peoples of Uzbekistan.*

***Keywords:*** *Religious tolerance, fire worship, Zoroastrianism, Buddhism, Islam, interethnic harmony, freedom of conscience, confession.*

Oʻzbekiston hududi turli davrlarda turli diniy e'tiqod va tasavvurlarga beshik boʻlib xizmat qilgan. Otashparastlik, zardushtiylik dinlari uchun shakllanish hududi boʻlib xizmat qilgan boʻlsa, buddaviylik, Koʻk tangri, shomonlik, moniylik, nasroniylik va ayniqsa islomning rivojlanishlari va keng tarqalishida ulkan xizmat qilgan. Tarixan ma'lumki, mintaqamizda hukmronlik qilgan hech qaysi mahalliy davlat hududida millatlararo yoki dinlararo mojarolar sodir boʻlmagan.

Bir paytning oʻzida mintaqada otashparastlik, zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, shomonlik, Koʻk Tangri, ajdodlar ruhiga tavof qilish kabi dinlarga e'tiqod qiluvchilar oʻzaro qoʻni-qoʻshni boʻlib, tinch-totuv hayot kechirganlar.

Mustaqillik yillarida xalqimizning millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik fazilatlari yanada yuksaldi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan barqaror siyosat tufayli millatlararo munosabatlar yanada takomillashdi. Millatlar o‘rtasidagi o‘zaro totuvlik, e'tiqod erkinligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar tufayli mamlakatimizda 16 ta diniy konfessiya, 2300 ta diniy tashkilotlar, 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv yashab kelmoqda. Bundan tashqari respublikamizda ular uchun keng miqyosdagi imkoniyatlar yaratilgan bo‘lib, buning natijasi o‘laroq yurtimizda 140 dan ziyod milliy madaniy markazlari faoliyat yuritib kelmoqda. [1]

Dunyoda milliy va diniy bag‘rikenglik tamoyili bor ekan, millatlararo va dinlararo ziddiyatlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Zero, ichki ziddiyatlar bor jamiyat hech qachon birlasha olmaydi, va alal-oqibat tanazzulga yuz tutadi. Hozirgi kundagi qurolli mojarolarning aksariyat qismi milliy yoki diniy nizo zaminida vujudga kelgan va kelayapti.

Hozirgi kunda jahonda, ma'lum bir davlat hududida bir din vakillari yaxlit ko‘pchilikni tashkil qilsalar ham, boshqa turli din va ta'limot vakillari ham birgalikda istiqomat qiladilar. Ushbu vaziyatda davlatning oldiga qo‘yilgan asosiy maqsadi – bu turli millat vakillari, dinlar va ta'limotlarga e'tiqod qiluvchilarning o‘zaro tinch-totuv, inoq, bahamjihat bo‘lib istiqomat qilishlari va bor kuch va shijoatlarini vatan taraqqiyotiga erishish yo‘lida birlashtirish – ustuvor vazifa sifatida o‘rnatilgan.[2]

O‘zbekiston milliy qonunchilik tizimi mamlakatda yashovchi barcha 16 ta diniy konfessiya vakillari uchun teng sharoit yaratmoqda. Konstitusiya vijdon va e'tiqod erkinligini kafolatlaydi, tegishli qonunchilik bazasi barcha fuqarolarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun sharoit yaratadi, milliy yoki diniy mansubligidan qat'i nazar, fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini ta'minlaydi va shu asosda kamsitishlarga qarshi samarali kurashadi.[3]

VIII asrda Markaziy Osiyoni arablar tomonidan zabt etilishi natijasida mintaqada islom dini keng tarqala boshlandi. Aholining bir qismi qadimiy diniy ta'limotlarga

e'tiqod qilishda davom etdi. Xuddi shu davrda buddizm Markaziy Osiyoda muhim oʻrin tutgan. Ilk oʻrta asrlarda mintaqaga Suriyadan Eron orqali nestorian nasroniyligi kirib keldi va muhim mavqega ega boʻldi. Nestorianlikga Iso Masiyhning shogirdlaridan biri Nestoriy asos solgan boʻlib, Rimda va Vizantiyada

tarqalgan nasroniylik ta'limotidan Iso Masiyhni Xudo yoki Xudoning oʻgʻli deb emas, balki Xudoning elchisi, paygʻambari deb e'tiqod qilinishi bilan farq qilgan. Shu sababli ushbu diniy ta'limot butun Markaziy Osiyo boʻylab keng tarqalgan. Samarqandda VI asrning boshlarida nestorian episkopi xizmat koʻrsatgan boʻlsa, VIII asrda nestorian metropoliti faoliyat yuritgan.[4]

Xulosa qilib aytganda, xalqimiz tarixida turli millat va dinlar vakillarining tinch-totuv yashashlari va hamkorlik qilishlari, ularning bagʻrikengligi, tinchligi va hamjihatligi misollari juda koʻp. Shuning uchun ham Oʻzbekiston hududida hech qachon diniy mojarolar boʻlmagan. Islomiy, nasroniy va yahudiy diniy jamoalari oʻrtasidagi aloqalarda iliq munosabatlarni koʻrish mumkin. Ushbu munosabatlarga berilgan baho sifatida Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: "Oʻzbekiston zaminida musulmonlar va nasroniylarning birgalikdagi hayoti diniy va ma'naviy totuvlikning nodir belgisi va boshqa barcha dinlar vakillari uchun bagʻrikenglikning eng yaxshi namunasidir". Mustaqillik yillari Oʻzbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlarda yangi bosqichni ochdi. Ushbu davrning eng muhim yutugʻi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kalitiga aylangan tinchlik va barqarorlikdir.

## REFERENCES

1. Abdurahmanova J.N. (2018) Tolerance of Uzbeks to the Greek Diaspora (1949–2018). Tolerance as a tool for developing mutual trust ”Proceedings of the International Scientific Conference. Volume - 1, p.- 3

2. Ismoilov U.K (2020). Chor Rossiyasining Turkistonga ko'chirish siyosati. Buyuk Ipak Yo'lidagi umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta'lim va madaniyat masalalariga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. 298.

3. Исмоилов У.Қ. (2020). Ўзбекистондаги демократик ислоҳотлар ва халқимизнинг диний бағрикенглиги. Ўтмишга назар, 10 (3), б.11-18

4. Бартольд В.В. Мусульманские известия о Чингизидах – христианах. – М., «Леном», 1998 г. Стр. 112.

## АКБАР ПОДШОҲ ДАВРИДА БОБУРИЙЛАР ДЕНГИЗ ФЛОТИ

***Фарида Султонова,***

Ўз ФА Тарих институти илмий тадқиқотчи

Бобурийлар даврида сулола Ҳиндистонда янада кучайишда ва катталашишда давом этди. Учинчи ҳукмдор Акбар подшоҳ (1556 – 1605) даврида мамлакат ҳудуди анча кенгайди. Акбар подшоҳ томонидан ишлаб чиқилган аниқ стратегия, мунтазам ва ҳарбий тайёргарликли қўшиннинг мавжудлиги янги ҳудудларни босиб олишга имкон яратди. Ҳиндистон геостратегик жиҳатдан океан бўйи мамлакати ҳисоблангани учун, Акбар подшоҳ денгиз флотини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратган.

Бу хусусидаги маълумотларни Абул Фазл Алломийнинг “Ойини Акбарий” асаридаги “Сипоҳободий” бўлимидан олишимиз мумкин. Ушбу бўлимда мамлакат ҳарбий флоти ҳақида атрофлича сўз юритилган.

Акбар подшоҳ учун ҳарбий кемалар биринчидан, денгиздан келадиган ташқи душманларга хусусан, португаллар, голландлар ва инглизларга қарши курашиш, иккинчидан, Ҳинд океанидаги ҳукмронликни таъминлаш, ҳаж зиёратларини ташкил этиш,  денгиздаги савдо хавфсизлиги ва қароқчиларга

қарши тура олиш, учинчидан, қирғоқ бўйида жойлашган ҳудудларга юриш уюштириш учун керак бўлган.

Юқоридаги сабабларни инобатга олган ҳолда Акбар подшоҳ ҳарбий денгиз қудратини ошириш учун ислоҳотлар ўтказди. Илоҳобод, Лаҳор ва Кашмир шаҳарлари энг катта кемаларни ясаб берувчи марказга айланди. Ҳарбий кемаларнинг қурилишини шахсан ўзи назорат қилди.

Империянинг таъсири Бенгал, Гужарот ва Деккан каби қирғоқбўйи минтақаларига тарқалгани сари, бу ҳудудлар устидан назоратни ушлаб туриш ва таъсирни кенгайтириш учун ҳарбий кемаларга эҳтиёж ортган.

Акбар подшоҳ 1592 йили Гужаротни босиб олгадан кейин денгиз ҳудудларига яқинлаша бошлаган. Шундан кейин катта ҳажмли кемаларга эҳтиёж сезилиб, кема ясаш соҳаси ривожланган. 1594 йил июнда Лаҳордаги Рави дарёсида биринчи катта кема ясалиб, дарёга туширилади. Бу кема қурилишида 240 га яқин уста, темирчи ва дурадгорлар ишлаган. Кема қуриб битказилгач, Акбаршоҳнинг шахсан ўзи уни кўриш учун борган. Кемани дарёга тушириш учун 10 кун керак бўлган. Бу кема 11.56 тонна ҳажмли бўлган[58].

Иккинчи катта ҳажмли кема 1596 йил июлнинг ўртасидан декабрнинг ўртасигача қурилди. Кемалардан бирининг номи Салимий яъни унинг ўғли Жаҳонгир номи билан, иккинчиси еса Илоҳий деб аталган. Иккала кема ҳам ҳам савдо ҳам ҳаж учун денгизга чиққан. Гулбадан бегим, Салима Султон бегим[59], Камроннинг қизлари ва Аскарийнинг беваси ҳам шунга ўхшаш кемаларда ҳаж сафарига чиқишган [60].

Империя ҳудудидаги энг катта кемалардан яна бири Ганж Савайи деб номланиб, ундан асосан савдо ва ҳаж мақсадида фойдаланилган. Кемага Акбар

---

[58] Irfon Habib. Akbar and technology. Delhi. 1997. 145 p.
[59] Акбаршоҳнинг рафиқаси. 1561 йилда унга турмушга чиққан.
[60] Shireen Moosvi. Shipping and navigation under Akbar // *Proceedings of the Indian History Congress*, Vol. 60, 1999. pp. 251-263.

подшоҳнинг рафиқаси Марям уз-замоний эгалик қилган. Шунингдек, Марям уз-замонийнинг шахсий Рахимий номли кемаси ҳам бўлган. Унинг кемасида хавфсизлик учун 800 та тўппонча ва 400 та милтиқ бўлган[61].

Кемалар ёғочдан қурилган бўлиб, уни ясашда Бенгалдаги тик[62] дарахтидан фойдаланилган. Бу дарахт ёғочи эман ва қарағайникига қараганда анча мустаҳкам ва чидамли бўлган. Ёғочлар бир-бирига темир мих билан эмас ёғоч мих билан бирлаштирилган. Ёғоч михнинг афзаллик томони темир михга қараганда чидамли, эгилувчан ва коррозияга йўлиқмайди. 16-юзйилликдан ёғоч қуртларидан химоялаш учун кемалар мис қопламалари билан қопланган. Европаликлар ҳам ҳатто улардан кема ясаш техникасини ўрганишган[63]. Бундан кўриниб турибдики, бобурийлар кемалари европаликларникига қараганда чидамли ва талабгор бўлган.

Порт шаҳарлар бошқаруви Акбар подшоҳ тайинлаган амалдорлар орқали амалга оширилган. Кемаларга нафақат сулола, балки маълум кишилар ҳам эгалик қилишан. Гужаротни Акбар подшоҳнинг кўкалдоши Азиз Кока (1593 – 1594) ва Абдулраҳим Хонхонон (1584 – 1585) бошқарган вақтда уларнинг ҳам шахсий кемалари бўлган. Азиз Кока кемасида Қизил денгиз орқали Макка шаҳрига ҳаж сафарига борган[64].

Абдулраҳим Хонхононнинг Сурат портида учта Раҳимий, Солорий, Каримий номли кемалари бўлган. Яна бир амалдорлардан бири Содиқ Муҳаммадхон (1593 – 1597) ҳам Суратда ҳокимлик қилган бўлиб, у ҳам Содиқий номли кема ясаттирган[65].

---

[61] Baldeo Sahai. Indian shipping: a historical survey. New Delhi. 1996. P.154.
[62] Асосан иссиқ давлатларда ўсадиган мустаҳкам дарахт. Ёғоч ранги қизил бўлган.
[63] Andrew de la Garza. The Mughal Empire at War Babur, Akbar and the Indian military revolution, 1500–1605. New York. 2016. 78 p.
[64] Irfon Habib Akbar and technology. Delhi. 1997. 256 p.
[65] Ўша асар. 257 бет.

Кемалар бошқарувига тайинланадиган одамлар саралаб олинган. Уларга тажрибли денгизчи, саёз ва қирғоқ жойларни яхши биладиган, бақувват, яхши сузувчи, меҳнасевар, чаққон, меҳрибон, сабрли бўлиш талаблари қўйилди[66]. Бу даврнинг энг яхши денгизчилари Малабардан бўлишган.

Ҳарбий кемаларда бир неча лавозимли шахслар хизмат қилган. Хусусан, нохудо – кема бошлиғи бўлиб, кема йўналишини белгилаб турган.

Муаллим – кема капитани. Бу лавозимга астрономияни ва денгизнинг саёз ва чуқур жойларини биладиган одамни қўйишган.

Тандил – кемадаги денгизчилар (халачи) бошлиғи, нохудо хашоб – улар кемадагиларни ўтин ва сомон билан таъминлашади, юкларни ортиш ва туширишга ёрдам беришади.

Сарҳанг – кема ҳаракатининг бошланиши ва манзилига жойлашишига масъул шахс. У ҳар бир ҳаракат юзасидан муаллимга ахборот бериб турган.

Бҳандари – омбор учун масъул шахс, каррони – ҳисобот юритувчи ва йўловчиларга сув етказиб берувчи шахс.

Сакконгир – муаллим буйруғи билан кемани бошқарувчи шахс. Баъзи кемаларда бир нечта сакконгир бўлади, лекин улар йигирматадан ошмаслиги керак.

Панжари – устун тепасида туриб, кемага яқинлашаётган бошқа кемалар, табиий офатлар, ерга яқинлашганлиги тўғрисида маълумот берувчи шахс.

Гумти – халачилар сафига кирувчилар бўлиб, кемага сизиб кирган сувни ташқарига улоқтириб туришади.

Харва – оддий денгизчилар гуруҳи бўлиб, вазифаси елканларни ёзиш ва йиғиш, шунингдек ғаввослик ҳам қилишиб, лангарни тушириб чиқаришади[67].

---

[66] Abul Fazl Allami. The Ain-i Akbari. Calcutta. 1878. 280 p.
[67] Abul Fazl Allami. The Ain-i Akbari. Calcutta. 1878. 280 p.

Мир бахр – денгиз қўшинларини тузиш ва бошқариш ишлари билан шуғилланган. Тўпандоз – кемада хизмат қилувчи куролланган тўпчилар. Кемадаги бир тўп икки аскар томонидан бошқарилган. Улардан бири портловчи моддани жойлаштирса, иккинчиси нишонга олган. Кемада тўпчилар гуруҳининг мавжудлиги денгиз флотиниг устунлигини таъминловчи омиллардан бири бўлган. Порохли милтиқ билан қуролланган аскарлар ҳам бўлиб, улар асосан кеманинг юқори қисмига жойлаштирилган. Денгиз флотида филлардан ҳам фойдаланилган, аммо бу ҳолат жуда кам учрайди. Улардан асосан, кемадаги мувозанатни сақлаб туриш ва қурикликка тушганда жангни давом эттиришда фойдаланилган[68]. Бундан кўриниб турибдики, 16-юзйилликдан бошлаб, бобурийларда мустаҳкам, тизимли ҳарбий флот тузила бошланган. Гарчи Бобур ва Ҳумоюн даврида ҳам ҳарбий кемалар бўлган бўлса-да, сулоланинг бошқарувида бундай катта хажмли кемалар бўлмаган. Акбар подшоҳ давридан бошланган денгиз флотини қуриш ва ривожлантириш жараёнлари кейинги ҳукмдорлар даврида  давом этган.

Сулола аскарлари орасида европаликлар ҳам бўлган. Бобурийлардан олдинги даврлардан бошлаб, ҳинд рожалари хизматига кирган европалилар, бобурийлар денгиз флотида ҳам хизмат қилишган. Хусусан, Гужаротда португалиялик денгизчилар хизматидан фойдаланилган[69].

Акбар подшоҳ денгиз флоти учун алоҳида шахсларни танлаган, уларга давлат хазинасидан бегиланган маош тўлаб турилган. Денгиз қўшинининг оладиган маоши саёҳат узунлиги ва жойига боғлиқ бўлган. Шунингдек, уларга ҳам жогир ерлари берилган. Ҳаракатлардан сўнг, кемалар кўрикдан ўтказилган.

---

[68] https://prepp.in/news/e-492-army-of-mughal-empire-of-akbar-medieval-india-history-notes
[69] Atul Chandra Roy. A history of Mughal navy and naval warfares. Calcutta. 1972. 30 p.

Ҳуглида нохудо 400 рупий, муаллим 200 рупий, тандил 120 рупий, карроний 50 рупий, нохудо хашоб 30 рупий, сарҳанг 25 рупий, сакконгир, панжари, бхандари 15 рупий, ўқчилар 15 рупийдан олган.

Комбайда нохудо 800 рупий, Малакка, Даҳнасари каби портлар бошқа портлардан кўпроқ маош олишган [70].

Ҳарбий кемалар мустаҳкамлиги жиҳатдан одамларни, юкларни ва филларни кўтара оладиган даража бўлиши керак.

Акбар подшоҳ даврида умумий ҳажмда 3000 дан кўп турли ўлчамдаги кемалар мавжуд бўлган. Бу даврда Бенгалияга тегишли Дакка ҳудудида 768 та ҳарбий қуролланган кемалар бўлган. Уларнинг ҳаражатлари жогирлар ҳисобидан қопланган.

Ҳар бир кема ўзига тегишли портга борганда, у кўрикдан ўтказилган ва тегишли қуроллар билан жиҳозланган. Агарда бошқа портга тегишли кема келса, фақатгина юкларини қайиқларга тушириб, ўзи кетган[71].

Империя флоти Гужаротдаги ғарбий ва Бенгалдаги шарқий флотларга бўлинган. Бобурийларда денгиздан ҳужум қилиш усули қуйидагича бўлган: кемалар денгизда икки-уч қатор бўлиб турган. Катта, оғир қуролланган кемалар биринчи қаторларда турган. Жанг бошланган вақтда улар ўт очиб, душман кемаларининг сафини бузган. Бу давр асосан флотнинг яратилиши ва савдо, ҳаж йўлларининг ривожланиши даври бўлган.

Акбар подшоҳнинг Патнага қилган юришида кемалардан фойдаланганлиги ҳақидаги маълумотлар Хожа Низомиддин Аҳмаднинг “Табоқоти Акбарий” ва Абдулқодир Бадаунийнинг “Мунтаҳаб ут-таворих” асарларида мавжуд. 1574 йилда Патнага афғонларга қарши юриш ташкиллаштирилади. Бу юришга Акбар подшоҳ ўғли Салим билан бирга кемаларда борган. Кемаларга асосан курол-

---

[70] Abul Fazl Allami. The Ain-i Akbari. Calcutta. 1878. 281 p.
[71] Atul Chandra Roy. A history of Mughal navy and naval warfares. Calcutta. 1972. 31 p.

аслаҳалар, хазинадан олинган моллар, озиқ-овқат, кийим-кечаклар ортилган. Акбар подшоҳ Панжпаҳори деган жойга тушиб, Хон Олам[72] бошчилигида 3 мингта яхши қуролланган отлиқларни Ҳожипур қалъасига жўнатади. Ҳожипур қалъасига ҳам қуруқликдан ҳам сувдан ҳужумга ўтилади. Император жангни тепаликдан кузатиб туради, аммо туман бўлгани учун дарё бўйига тушади. Аскарларга ёрдам учун 18 та кемада қуролланган аскарларни жўнатади. Аскарлар Хон Олам аскарларига қўшилишади. Довудхоннинг Ҳожипурдаги ҳокими Фатҳхон бошлиқ афғонлар қаттиқ қаршилик қилишади. Жангда енгилишгач, Фатҳхоннинг боши Довудхонга жўнатилади. Довудхон душманнинг яқинлашиб қолганини ва кучлилигини англаб, Патнадан чиқиб кетади[73].

Бу жангда кемалар асосан ташиш вазифасини бажариб, тўплар ва милтиқлар билан жиҳозланмаган, филларни кўтара оладиган даражада катта бўлмаган. Флотда содир бўлган ўзгаришлардан кейин айнан Акбар подшоҳ даврида денгиз жанглари ҳақида маълумот мавжуд эмас.

Хулоса қилиб айтганда, Акбар подшоҳнинг денгиз кучлари биринчи навбатда мудофаа ва иқтисодий хавфсизликни таъминлашга қаратилган. Унинг ҳукмронлиги даврида кудратли денгиз флоти ривожланмаган бўлса-да, портларни мустаҳкамлаш ва денгиз савдосининг аҳамиятини оширишга асос яратиб берди. Флотининг ҳақиқий кенгайиши ва таъсири кейинроқ пайдо бўлади, аммо унинг ривожланиши учун замин яратишда Акбар подшоҳнинг роли жуда муҳим бўлди. Кема ясаш техникаси, бошқаруви, уларга бериладиган маош, умуман олганда денгиз флоти тузилмасига асос 16-юзйилликнинг охирида сулолада мавжуд эди. Бу эса Европада ривожланган денгиз савдосида Ҳиндистонни қарамликдан ва 3 аср давомида мустамлакадан сақлаб қолди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

---

[72] 2 минг отлиқ қўшин бошлиғи, Акбаршоҳ даври амирларидан Ҳамдам Коканинг ўғли.

[73] Khwajah Nizamuddin Ahmad. The Tabakati Akbari. Vol II. Calcutta. 1936. P. 444 – 445; Abdulqadir Badaoni. Muntakhabu-t-tawarikh. Vol II. New Delhi. 1884. P. 183 – 184.

1. Abul Fazl Allami. The Ain-i Akbari. Calcutta. 1878.

2. Khwajah Nizamuddin Ahmad. The Tabakati Akbari. Vol II. Calcutta. 1936.

3. Abdulqadir Badaoni. Muntakhabu-t-tawarikh. Vol II. New Delhi. 1884.

4. Baldeo Sahai. Indian shipping: a historical survey. New Delhi. 1996. P.154.

5. Atul Chandra Roy. A history of Mughal navy and naval warfares. Calcutta. 1972.

6. Irfon Habib Akbar and technology. Delhi. 1997. 256 p.

7. Andrew de la Garza. The Mughal Empire at War Babur, Akbar and the Indian military revolution, 1500–1605. New York. 2016.

8. Shireen Moosvi. Shipping and navigation under Akbar // *Proceedings of the Indian History Congress*, Vol. 60, 1999. pp. 251 – 263.

9. https://prepp.in/news/e-492-army-of-mughal-empire-of-akbar-medieval-india-history-notes

## BOYMIRZA HAYIT ILMIY MEROSIDA ISTIQLOLCHILIK HARAKATI MASALASIGA YONDASHUV

**Abdullayev Shuhratjon Xamidullayevich,**
*Namangan Impuls tibbiyot instituti erkin tadqiqotchisi*
*Telefon +99894 379 09 28*
*E-mail: abdullayevsh197218@gmail.com.*

Boymirza Hayit tomonidan yaratilgan “Bosmachilar”, “Turkiston milliy kurashi tarixi” va “Turkiston Rossiya va Xitoy oralig’ida” asarlarida Tutkiston milliy ozodlik kurashi tarixiga o’zining shaxsiy mulohazalarini bildirganligi.

Ushbu asarlarda keltirilgan faktlar, xulosalar va fikrlar Boymirza Hayit aytganidek, o‘z tariximizni to‘liq ifodalash yo‘lidagi birinchi qadam sifatida ta'riflash mumkinligi.

Boymirza Hayit tahliliga ko’ra, sovet davlati 1918 - 1935 yillarda Turkistonda din va Vatan uchun kurashgan istiqlolchi mujohidlarni, ularning mustaqillik uchun kurashini atayin kamsitib, “Bosmachilar” va “Bosmachilik”, deb ataganligi. Sovet rus shovinizmi bu milliy kurash harakatini hali boshlanishidan oldin omma oldida kamsitib, to‘xtatmoqchi bo'lganligi. Bundan tashqari nafaqat sovet Rossiyasi balki, Chor Rossiyasi ham 1916 yilda bo’lgan milliy qo‘zg‘olonlarni xuddi shunday kamsituvchi sifatlar bilan tilga olib, “qaroqchilar harakati”, deb ataganlar bayon qilinganligi.

Boymirza Hayitning xulosasi va ta’kidiga ko’ra, katta ehtimol bilan rus tashviqoti Turkiston milliy kurashini inkor etish maqsadida bu so‘zni “qaroqchi” mazmunida rus tiliga o‘tkazganligi. “Bosmachi” so‘zi rus tilidan G‘arbiy Yevropa siyosiy va tarixiy adabiyotiga ham xuddi shu ma'noda ko‘chirilganligi. Shunday qilib, “Bosmachi” so‘zi Turkistonning 1918 – 1934 yillardagi milliy ozodlik kurashi tarixi uchun umumiy tushuncha sifatida tarixiy terminologiyaga o‘tganligi asoslab berilganligi.

Boymirza Hayit “Bosmachi” atamasini bir qator xorijiy manbalar asosida tahlil qilib, xulosalar berganligi. Ya’ni, haqiqatdan ruslar “Basmachi” so‘zini milliy kurashning mohiyatini buzib ko’rsatish uchun qo‘llaganini angliyalik olimlar asarlari misolida ko’rsatib berganligi.

Boymirza Hayitning shu davrga ta’luqli ilmiy merosi sovetlarning bosmachilar harakati haqidagi tadqiqotlari rasmiy davlat targ‘iboti va Kommunistik partiya tamoyillari ta'sirida bo'lganligini isbot qiladi. Shuning uchun ham sovetlar tarixiy jarayonlardagi xolislik, tarixiylik va adolat tamoyillarini buzib talqin qilinganligi. Boymirza Hayitning eng muhum xulosalaridan biri, bu harakat ortida Turkiston

ozodligi va mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan buyuk maqsad borligini ochib berganligi.

Yuqoridagi asarlar orqali yana shu narsa ochib berildiki, bosmachilar harakati bolshevilar aytganidek, “fuqarolar urushi”ning hodisasi va ko‘rinishlaridan biri bo’lmagan. Aksincha, bu Turkiston va Rossiya o‘rtasidagi kurash bo’lgan.

Boymirza Hayitning sovet davri tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, bosmachilar harakati Buxoro amirligi va nemislar, turklar, inglizlar va amerikaliklardan doimiy yordam olgan, deb kelingan asossiz da'volarni aniq misollar bilan inkor qilganligi.

Boymirza Hayitning yuqoridagi ilmiy asarlaridagi yondashuvlar XX asrning 20-30- yillarida Turkistonda kechgan dramatik jarayonlarni tashqaridan ko’rgan va xolis baholaganligi va turli mafkuraviy tayziqlardan xoli bo’lganligi uchun, jamoatchilik va keng kitobxonlar ommasida “bosmachilik” harakati haqida umumiy va tizimli tasavvur hosil qilish imkonini berishi bilan ahamiyatliligi.

## МАМЛАКАТЛАР ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА ЯҚУТ ҲАМАВИЙ АСАРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ҲАҚИДА

**Турсунов Абдулбоқи Абдулҳаевич**
Мустақил тадқиқотчи.
Telefon (Telegram): +998-90-552-37-02

- Яқут Ҳамавий (арабча: ياقوت الحموي ) 1229-1178 (626–574 Ҳижрий) йилларда яшаб ўтганлиги.

- Ўша вақтлар дунёнинг барча жойларида қулдорчилик ҳукм сураётганлиги. Яқут яшаб турган жой ва замон ҳам қулдорчилик тартиботлари мажудлиги. Уни Бағдодлик савдогар Аскар ибн Аби Наср ал-Ҳамавий қўл-остида ғулом (қул - хизматкор) бўлганлиги.

- Яхши тарбия натижада, Ёқут моҳир хаттот, ҳисоб илми билимдони бўлиб вояга етиши, географ, библиограф ва энциклопедик бўлиб камол топиши,
- Савдогар Ёқутни ўз фарзандидек парваришлаши, таълим-тарбиясига эътибор бериши, илм-хунар ўрганишига шароит яратиб бериши.
- Ёқутнинг етук шахс бўлиб етишишида ўз ҳожасининг таъсири катта бўлганини эътирофи ва эҳтироми ўларoқ, ҳожасининг “ал-Ҳамавий” насибасини ўзига ҳам нисбат ўларoқ танлаши ва “Ёқут ал-Ҳамавий” номи билан танилиши.
- Ўша даврнинг илмий салоҳият масаласи, ўқиш-ёзишни биладиган одам кам сонли бўлиб, жамиятда уларга бўлган эҳтиёж ва эътибор юқорилиги, улар шаҳарларнинг гавжум жойлари, гузарлар ва масжид олдида ўтириб одамларнинг мактубларини ёзиб  ёки ўқиб бериши, Ёқут ал-Ҳамавий ҳам анашундай камсонли инсонлар орасидан ўрин олиши.
- Шахсий ҳаётда савдогар ҳожасининг тижоратига ҳам ёрдамлашиши, тижорат сафарларида у билан бирга сафар қилиши, Шом, Миср, Араб ярим ороли шаҳарлари, Ироқ, Сурия, Эрон (форс манзиллари) ва Мовароуннаҳр атрофидаги шаҳарларгача сафар қилиши.
- Ёқутнинг тижорат мақсадида бошланган сафарлари илмий сафарга айланиб кетиши. Қайси ҳудудга кириб бораса, ўша ернинг тарихи, маданияти, урф-одати, жамият ҳаёти ва ўша ернинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида маълумотлар билан қизиқиши, китобхоналарни кўздан кечириши, йўлда ўзи гувоҳ бўлган  маълумотларни ва географик ахборотларни тўплаб бориши.
- 1200 йилга келиб, Ёқут ал-Ҳамавий сафар ва тижорат ишлари тўхтатиб, Бағдод шаҳрида бир дўкон очиши, илм аҳли талабига кўра нодир асарлардан нусха кўчириш ва сотиш билан шуғилланиши, кейинчалик сафарлар давомида тўплаган маълумотларни жамлаб асар ҳолатига келтиришни бошлаши, бўш вақтларида тилшунослик, адабиётшунослик ва тарих каби фанлардан ўз

билимини ошириб бориши ва 1229 йилга келиб Ёқут ал-Ҳамавий Ҳалабда вафот этиши.

- Мўъжам ал-Булдон (“Мамлакатлар луғати” ёки “Шаҳарлар ва мамлакатлар луғати”) 1224 йилдан бошлаб тайёрланганлиги, географик энциклопедия бўлиб, араб адабиятида жуда катта аҳамиятга эгалиги, Асарда жой номлари, арабча талафузи, уларнинг келиб чиқиши, умумий тарихий ва ривожи, этник таркиби, турли давлатлар орасидаги алоқалари каби маълумотларни жамланиши.

- Мўъжам ал-Удабо (ёки “Иршод ул-ариҳ ила маърифат ал-адиб”, адабий ва интеллигенция манзиллари луғати) адиблар, олимлар, шеърий ижодкорлар ҳақида биографик маълумотларни йиғилгани, шунингдек, асар йўқолиб бораётган матнларни сақлаб қолишга катта ҳисса қўшгани, сафар йўлларида тўплаган ёки эшитган маълумотларни ва уларнинг асарларини келтирганлиги.

- Яқутнинг асарлари бир неча муҳим – назарий ва амалий – масалаларни ўзида акс эттирганлиги:

- Биринчидан: Ҳамавий наздида “ахбор” илми (махсус хабар, ривоят, манбаларни нақл қилиш илми) биринчи даражали эканлиги: “Олим хабарлар билан ишласа, билимнинг бошланғичи бузилмас ва охири йўқолмас”, деган ғояни илгари сурганлиги.

- Иккинчидан: Манбаийлик ва библиографиялиги: Асарларда у кўплаб аввалги манбалардан фойдалангани, шунингдек ўз сафарлари ва кузатувларига асосланганлиги. Халқлар ва мамлакатлар орасида йўқолиб бораётган китоб ва маълумотларни сақлашда муҳим рол ўйнагани.

- Учинчидан: Маданий ва тарихи мезонлилиги, бир шаҳар ёки минтақа ҳақида маълумот берар экан, Яқут у ердаги миллатлар, уларнинг урф-одатлари, фан-маданият ҳолати, ўтмиш мобайнида бўлган жанглар, сиёсий ўзгаришларни

ҳам ёритиб бериши, Масалан, Муғулларнинг босқини даврида кўплаб китобхоналар ва асарлар, осори-атиқалар йўқолгани ҳақида асосли фикрлар қолдириши.

- Яқут Ҳамавийнинг асарларида Ўрта Осиё, жумладан ҳозирги Ўзбекистон ҳудуди ҳам маълум даражада акс этгани. Жумладан: Самарқанд, Бухоро, Хоразм, Фарғона, Шош, Устуршона, Ахсикент, Косон каби кўплаб шаҳарлар ҳақида маълумотлар берилгани.
- Шунингдек, Ўрта Осиё халқлари, уларнинг турмуш тарзи, ижтимоий-иқтисодий муносабатлари, маданияти ва географик имкониятлари борасида ҳам қимматли маълумотлар учраши.
- Ёқут ал-Ҳамавий мазкур икки асарини ўрганиш бўйича бир неча араб мамлакатларининг соҳалар бўйича ихтисослаштирилган олийгоҳларида илмий ишлар амалга оширилганлиги.
- Ўзбекистон ҳудуди ва Ўзбекистонлик маданий-илмий муҳит билан боғлиқ ҳамда тарих, география, тарих, адабиёт, библиография каби бир неча фан соҳаларида маълумотларни ушбу асарлар орқали ҳам қиёсий таҳлил услубида ўрганиш муҳим маълумотларни очилишида самара бериши.

## XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDAGI NOISLOMIY DINLAR

***Yusupov A’zamjon Abdulladjanovich, FJSTI, PhD,***
*e:mail: azam_1204@mail.ru*
*tel.: +99891-668-05-84.*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston olkasini Rossiya oz mustamlakasiga aylantirgandan song bu erga Rossiyaning ichki hududlaridan kochirib keltirilgan turli nomusulmon elat va xalqlar

bilan birga noislomiy diniy etiqodlarining kirib kelishi, ular tomonidan diniy rasm-rusumlarini amalga oshirishdagi muammolari hamda Rossiya davlati va magalliy mamurlar tomonidan ularning echimlariga qaratilgan xarakatlarini ochib berishga etibor berilgan.

**Kalit sozlar:** XIX asr ikkinchi yarmi, XX asr boshlari, Turkiston olkasi, Rossiya, nomusulmon elat va xalqlar, noislomiy diniy etiqodlar, diniy rasm-rusumlar,

**Аннотация:** В данной статье рассматривается проникновение неисламских религиозных верований в Туркестанский край, которое произошло в результате переселения в край немусульманских народов и национальностей, переселённых из внутренних районов России, проблемы, с которыми они сталкивались при реализации своих религиозных практик и усилия российского государства и местных властей по их решению.

**Ключевые слова:** вторая половина XIX века, начало XX века, Туркестанский край, Россия, немусульманские народы и национальности, неисламские религиозные верования, религиозные обычаи и обряды.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, barcha sohalarda, jumladan, din va diniy tashkilotlar faoliyatida turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar mamlakatimizda yashovchi turli din vakillari o'rtasida ozaro hurmat, birlik, do'stlik, umuminsoniy qadriyatlarga soqiqlik kabi tushunchalarda namoyon bolish bilan birga xalqlararo munosabatlarni mustahkamlash va yuz berishi mumkin bolgan nizolarni oldini olishda ham o'zining alohida mazmun-mohiyatiga egaligi bilan muhimdir.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ushbu maqsad yolida shahdam qadamlar tashlandi va respublikada vijdon erkinligi va dinlargaro hamkorlik yanada mustahkamlandi. Bugungi kunda mamlakatimizda dinlararo bagrikenglik tamoyili asosida islohotlar olib borilmoqda. Ushu islohotlarning tub maqsadi mamlakatimizda

tinchlik va barqarorlikni mustahkamlasdan iborat. Bu maqsad yolida diniy konfessiyalarning ham orni beqiyosdir.

Endi bu masalada yaqin o‘tmishda bolgan tarixiy jarayonlarga etibor berilsa davlatimiz arxivlarida saqlanayotgan birlamchi manba va malumotlardan bugungi kun uchun ham o‘z ahamiyatini yoqotmagan juda ko‘plab asos va dalillarni uchratish hamda tegishli xulosalarni olish mumkin.

Ma‘lumki, Rossiya imperiyasi o‘lkamisda o‘zining bosqinchilik va mustamlakachilik hukmronligini o‘rnatgan XIX asrning 60-70-yillarida hududda yashagan elat va xalqlar diniy hayotlarida turli diniy etiqodlarga rioya qilib kelgani holatida ularning aksari kopchilik qismi islom, xristianlik, yahudiylik diniga etiqod qilardi. Uzoq o‘tmish tariximizni yodga olinsa, Markaziy Osiyoda islom dini yoyilmasdan muqaddam bu erda yashagan xalqlar etiqodida xristianlikning kirib kelishi milodiy era boshlariga to‘g‘ri keladi. Shunday bolsa-da Rossiyaning mintaqada o‘z hukmronligini o‘rnatishi bilan hududda xristianlikka etiqod qiluvchilar soni keskin ortib bordi deyilsa mubolaga bolmaydi hamda bu holat mustamlakachilik davrining alohida voqeliklaridan biri boldi.

Xristianlar hukmronligining o‘rnatilishi bilan rus mamurlari, ishbilarmon doira vakillari, yirik sarmoyadorlar va ularning vakillari, harbiylar, Rossiya Markaziy rayonlarida kambagallik bilan kun kechirgan aholi turli qatlami oqimi Turkistonga kela boshladi, mintaqa aholisi tarkibida islom dinidan boshqa dinga etiqod qiluvchilar soni dinamikasida sezilarli bolishiga xizmat qildi.

Malumki, Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasini bosib olgach, o‘zining tub manfaat va maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida xizmat qiluvchi boshqaruv apparatini tashkil etdi. Markazga o‘lkadan borib turgan turli mazmundagi axborot va voqeliklarni rus gazetalari sahifalarida muntazam chop etib borilishi natijasida imperiyaning katta qismi aholisida Turkistonga bolgan intilishni, xususan bu o‘lkaga kochib kelib joylashishni, mulkdorlikka harakatni, olka boyliklaridan “bahramand” bo‘lishlikka

muhim masalalar qatoriga olib chiqdi.  Buning oqibatida mahalliy xalqlarning bir necha asrlik hayot tarsi oʻzgarib bordi, oʻzgarganda ham salbiy tomonga yonaltirildi va shunday boldi ham. Islom dini qadriyatlariga hamda an’analariga oʻz tasirini korsatishga erishdi.

Markazdan koʻchirilgan aholining ijtimoiy muammolarini hal qilish borasida kerakli chora-tadbir amalga oshirildi. Jumladan, oʻlkaning yirik shaharlari infrastrukturasini ozgartirish va rusiyzabon ellarning manfaatiga xizmat qiluvchi turli mazmundagi bino hamda inshootlarni barpo qilish barobarida ularning diniy etiqodiga mos keluvchi cherkov, butxona va boshqa shu kabi ibodatxonalar qurilishiga alohida etibor qaratildi va amalga oshirildi. Masalan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida qurib bitkazilgan binolarga Toshkentdagi Avliyo Ona Uspenskiy sobori (uning qurilishi 1877 yilda boshlangan bolib Turkiston General gubernatori Konstantin fon Kaufman, toshkentlik 1-gildiya savdogari Dmitriy Zaxolar qurilishga birinchilardan bolib sarmoya kiritgan edi) , Toshkentdagi yana bir sobor Muqaddas Iso nomi bilan barpo etilgan hamda bu ishlar 1912 yilda boshlangan edi, Shuningdek, oʻlkaning boshqa hududlarida ham bu ishlarga tamal toshi qoyilgandi. Xususan, Fargonada 1891 yildan boshlab Muqaddas Aleksandr Nevskiy sobori qurilishi davlat mablaglari hisobidan amalga oshirildi.

Arxiv xujjatlarini oʻrganishdan maʻlum boladi-ki koʻchirib kelgan aholi asosan xristian dinining pravoslav, katolik oqimlari va boshqa konfessiyalar vakillari ham mavjud edi. Pirovardida oʻlkada qisqa vaqtda noislomiy konfessiyaga mansub aholi soni 30% ga oshib borganligi kuzatildi .

Takidlash lozimki, aholisining eng katta kopchilik qismi musulmonlardan iborat bolgan Turkistonda aynan ularning dini emas, (yani islom) balkim xristianlik diniga davlatning toliq nazoratida bolish, himoyasidan foydalanish imkoniyati yaratilib va xristianlikni xar taraflama himoya qilish siyosati yuritilgan. Masalan, 1886-yilda tasdiqlangan “Turkiston oʻlkasini boshqarish toʻgʻrisidagi Nizom”da mahalliy aholini

javobgarlikka tortishga asos boʻlgan jinoyatlar qatorida alohida etibor xristian diniga qarshi harakatlarga qaratilganligini eslash lozim .

Shunday qilib, aholining koʻpchiligi islom diniga e’tiqod qilgan mintaqada nasroniylik yagona imtiyozli va davlat tomonidan himoyalangan dinga aylandi. Manbalar shuni ko'rsatadiki, pravoslav dini ayniqsa qulay sharoitlarga ega edi. 1886 yil 12 iyunda tasdiqlangan "Xristian e'tiqodidagi rus sub'ektlarini ko'chirish qoidalari" ga ko'ra, mintaqaga xristianlikning boshqa oqimlariga etiqod qiluvchilardan farqli ravishda boshqa faqat pravoslav oqimiga eriqod qiluvchilarga Turkistonga ko'chishlariga ruxsat berildi va metropoliya ma'muriyati ular uchun olkada oz faoliyatlarini yaxsilab olishlari maqsadida xisobsiz mablag' ajratdi .

Qariyb qisqa bir 20 yil davomida o’lkada aynan pravoslavlik oqimiga etiqod qiluvchilar soni uzluksiz ortib borishi natijasida 1911 yilga kelib ularning soni 452 ming kishiga etdi .

1871-yilda Toshkent harbiy gospitali (kasalxonasi) da cherkov tashkil etildi va cherkovga asos solindi. 1950-yillarda arxiyepiskop Ermogen (Golubev) bu kamtarona cherkovni kengaytirdi va uni zamonaviy Muqaddas Uspenskiy soboriga aylantirdi .

Biroq mintaqada rusiyzabon aholi sonining o'sishi bilan ularga xizmat qiluvchi cherkovlar kopayib borgani holida ushbu cherkovlarda diniy ibodatlarni tartibga solib, boshqarishni amalga oshiruvchi ruhoniylarning etishmasligi kuzatildi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib, pravoslav cherkovlari barcha yirik shaharlarda - rus amaldorlari, harbiy xizmatchilar, sanoatchilar, savdogarlar va temir yo'l xodimlari istiqomat qiladigan viloyat va tuman markazlarida faoliyat ko'rsatdi. Shunday qilib, Toshkentda 16 ta, Samarqandda 8 ta, Pishpekda (Bishkek) 6 ta, Ashxobodda 22 ta, Verniyda 10 ta pravoslav cherkovlari mavjud edi. 1873 yilda Toshkent yaqinida birinchi pravoslav monastiriga asos solingan .

1906-yildan 1918-yilgacha Verniy shahrida Rus pravoslav cherkovining Turkiston va Toshkent yeparxiyasining rasmiy nashri bo'lgan "Turkiston yeparxiyasi

yangiliklari" oyiga ikki marta nashr etilgan . Takidlash mihimki, ushbu nashrda rusiyzabon aholining o’lka hayoti bilan bogliq turmushiga oid elon qilingan malumotlar sobiq Ittifoq davrida mafkuraviy talablarga mos kelmaganligi jihatidan tadqiqotchilar diqqatidan chetda qolib keldi.

Rus qo‘shini safida xarbiy xizmatda bolgan katoliklar va lyuteranlar ham Turkistonga yetib keldi. Garchi ular pravoslav xristianlar sifatida alohida imtiyozlarga ega bo‘lmasalar ham, Turkistonda ularning soni yildan-yilga ortib bordi.

Toshkent-Orenburg temir yo‘li qurilishi bilan mintaqada katoliklar soni ko‘paydi, biroq rasmiylar katolik jamiyatini qonuniylashtirishda sustlik qildilar. Hukumat katolik cherkovi qurish uchun yer va mablag' ajratishni istamas edi.

Birinchi jahon urushi yillarida Turkistonga avstriyalik, venger va polshalik harbiy asirlar kela boshlaganidan so‘ng mintaqadagi katoliklar soni keskin ortdi.

Bu davrda Turkistonda eng keng tarqalgan noislomiy dinlardan biri yahudiylik edi. Xristianlar singari O‘rta Osiyoga ilk ko‘chmanchi yahudiylar ham milodiy eramizning boshlarida, Ipak yo‘li bo‘ylab savdo-iqtisodiy aloqalar gullab-yashnagan davrda kelgan. Shu vaqtdan boshlab yahudiylik Markaziy Osiyoda boshqa dinlar (zardushtiylik, buddizm va boshqalar) bilan birga tinch-totuv yashadi.

Ilk islom davrida yahudiylar Markaziy Osiyoning deyarli barcha yirik shaharlarida yashagan. Mo‘g‘ullar davrida O‘rta Osiyo yahudiylari ham boshqa xalqlar singari bosqinchilar tomonidan ta’qibga uchragan. Amir Temur davrida ular savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Biroq Shayboniylar hukmronligi o‘rnatilishi bilan mahalliy yahudiylarning musulmonlardan alohida mahallalarda (mahallalarda) yashashi tartibi joriy qilingan. XVIII–XIX asrlarda qo‘shni mamlakatlardan yahudiylar O‘rta Osiyoga, xususan, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligiga ko‘chib kela boshladilar, chunki u yerda Hirot va Erondan ko‘ra o‘zlarini erkin his qilganlar. Bu oz navbatida ular ichidan turli toifa milkdorlar qatlamimining shakllanib, moliyaviy ishlarda, Evropa va Rossiya bilan savdo-sotiq ishlarida etakchi mavqega ega bolishlarida o’z aksini topdi. Xususan

ulardan yirik banklarning Jamfarma fondini shaklantirishlarida, savdo-sotiq firmalarining tashkil etilishida, yirik er egalari sifatida katta tasir kuchiga aylainishlarida yaqqol kozga tashlandi. Masalan, 1912-yilda Farg'ona viloyatidagi 160 ta paxta tozalash zavodidan 106 tasi mahalliy sarmoyadorlarga, xususan, Buxoro yahudiylari, aka-uka Vadyaevlar, Potelyaxovlar va Simxaevlar firmalari yordamida qurilgan .

Rossiya imperiyasining kengayishi arafasida oʻzbek xonliklarida yashovchi Oʻrta Osiyo yahudiylari oʻz diniga bemalol eʼtiqod qilishlari va anʼanaviy xoʻjalik faoliyati bilan shugʻullanishlari mumkin edi. Deyarli barcha yirik shaharlarda sinagogalar mavjud edi. Mahalliy yahudiylar alohida mahallalarda yashab, katta hurmatga sazovor boʻlgan oʻz oqsoqollari boʻlgan.

XIX asr oʻrtalarida Rossiya imperiyasi Oʻrta Osiyo yahudiylariga Oʻrta Osiyo xonliklari bilan savdo aloqalarida ulkan imkoniyatlar yaratdi. Ularga imperiya tarkibida joylashish va yarmarkalarda erkin savdo qilish huquqi berildi. Keyinchalik, O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng, Rossiya hukumati uchun keng imkoniyatlar ochildi

Turkiston hududidagi yahudiylarning faoliyati. Buxoro yahudiylari savdo gildiyalariga qoʻshilish bilan imperator fuqaroligini qabul qilish huquqiga ega boʻldilar va soliq tizimining avvalgi cheklovlaridan ozod etildilar. Ana shu imtiyoz va imtiyozlar tufayli buxorolik yahudiylar Buxoro amirligidan Turkistonga koʻchib kela boshladilar. 1897-yilda ularning soni 11444 kishini tashkil etgan boʻlsa, 1911-yilga kelib bu koʻrsatkich 25974 taga yetdi . Turkiston bozorini zabt etish jarayonida rus hukumati mahalliy sharoit, til va aholi ehtiyojlarini yaxshi biladigan Markaziy Osiyo yahudiylarining xizmatlaridan faol foydalandi. Til bilmagani uchun ruslar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot qila olmagan viloyat aholisi ham ularning xizmatlaridan bemalol foydalanishgan. Mahalliy yahudiylar asta-sekin hududning savdo-iqtisodiy hayotida muhim o'rin egallab, mulk, kapital, zavod, zavod va savdo kompaniyalariga ega bo'ldilar.

Mahalliy yahudiylarning ma'lum bir qismi an'anaviy hunarmandchilik, jumladan zargarlik, poyabzal va bo'yash bilan shug'ullanishda davom etdi.

Mustamlaka hokimiyati tomonidan berilgan resurslar va imkoniyatlardan foydalanib, yahudiylar sinagogalar va ilohiyot maktablarini qurdilar. Ular yetakchi sarmoyadorlari tomonidan katta qo‘llab-quvvatlandi. Ularning uylarida ibodatxonalari va ibodatxonalari bor edi. Bu davrda mahalliy yahudiylarning eng yirik madaniy markazi Qo‘qon bo‘lib, u yerda kitoblar va gazetalar nashr etilgan.

Xulosa qilib, mustamlakachilik rejimida Turkistonda olib borilayotgan diniy siyosat turli din vakillariga nisbatan teng va bag‘rikeng munosabatni ta’minlay olmadi. Islomga nisbatan rasmiy siyosat vaqf mulkini bostirish9 va uning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi rolini cheklash, musulmonlarning ruhiy boshqaruvini10 ta’qiqlash, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga aralashish va ularni qattiq nazorat qilish11 orqali uning iqtisodiy asoslarini zaiflashtirishga qaratilgan edi.

## УЧЕТ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ УЧЕНИКА ДЛЯ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ СТРЕССА У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

**Эшиев Асылбек Кайимович**
кандидат политических наук, доктор философских наук, профессор,
Ошский государственный университет

**Аннотация:** В статье рассматривается значимость учета индивидуальных особенностей младших школьников как ключевого фактора профилактики учебного стресса. Показано, что персонализированный подход снижает психоэмоциональное напряжение, повышает учебную мотивацию и способствует формированию устойчивых навыков саморегуляции. На основе данных школ Кыргызской Республики представлены примеры адаптации

образовательной среды с учетом возрастных, когнитивных и эмоциональных различий детей.

**Ключевые слова:** младший школьник, стресс, индивидуальные особенности, психология обучения, адаптация, Кыргызстан

Введение.

Современная начальная школа становится пространством высокой когнитивной нагрузки, что требует учета индивидуальных особенностей каждого ребенка. Игнорирование различий в темпе обучения, стиле восприятия или эмоциональной чувствительности нередко приводит к стрессовым ситуациям, снижению успеваемости и возникновению школьной тревожности.

Проблема и актуальность.

В Кыргызстане рост учебной нагрузки и раннее включение детей в формализованное образование приводят к увеличению числа стрессогенных факторов. Исследования педагогов южных регионов показывают, что около 32% младших школьников периодически испытывают эмоциональное напряжение, связанное с учебным процессом (данные педагогических наблюдений школ Ошской области, 2023).

Цели и задачи исследования.

Цель — определить, как учет индивидуальных особенностей способствует предупреждению стрессовых ситуаций у младших школьников.

Задачи:

1. Выявить ведущие индивидуальные характеристики детей.
2. Определить психолого-педагогические факторы, вызывающие стресс.
3. Описать методы адаптации обучения с учетом особенностей учащихся.
4. Привести практические примеры и статистические данные из школ Кыргызстана.

Методология исследования.

Методологическая основа базируется на деятельностном подходе, концепциях возрастной психологии Л.С. Выготского, Ж. Пиаже, а также современных теориях эмоционального интеллекта и педагогической адаптации.

Методы исследования

• наблюдение учащихся в учебной деятельности;

• анкетирование родителей и учителей;

• сравнительный анализ уровней тревожности по методике Ч. Спилбергера;

• педагогический эксперимент в двух школах города Ош.

Видение проблемы.

Основная сложность заключается в том, что учителя не всегда располагают инструментами для диагностики индивидуальных особенностей. В результате требования к ребенку оказываются несоответствующими его темпу развития, что приводит к фрустрации, тревожности и избеганию учебной активности.

Примеры из практики в Кыргызстане.

1. В одной из школ г.Жалал-Абад была внедрена практика «гибких заданий»: дети получают задания разного уровня сложности. За три месяца число случаев эмоциональных срывов снизилось на 22%.

2. В школе №2 с.Масы учителя применяют «сенсорные паузы»: короткие двигательные или дыхательные упражнения. Уровень тревожности по результатам наблюдений снизился с 41% до 28%.

3. По опросам 40 родителей (2024), 57% отметили, что учет индивидуального темпа обучения повысил уверенность ребенка в своих силах.

Статистические данные:

• 32% — доля младших школьников, испытывающих учебный стресс (2024).

• 41% — показатель школьной тревожности до внедрения программ индивидуализации.

• 28% — уровень тревожности после адаптации образовательного процесса.

• 57% родителей отмечают улучшение эмоционального состояния детей при персональном подходе.

Заключение.

Учет индивидуальных особенностей учащихся является одним из наиболее эффективных способов профилактики учебного стресса. Персонализированная педагогическая среда способствует укреплению эмоционального благополучия, повышению мотивации и формированию позитивного отношения к обучению.

Рекомендации:

1. Проводить регулярную диагностику индивидуальных особенностей учащихся.

2. Использовать дифференцированные задания.

3. Включать в учебный процесс дыхательные и двигательные паузы.

4. Обучать учителей основам эмоциональной компетентности.

5. Активно взаимодействовать с родителями для мониторинга состояния ребенка.

**Литература:**

1. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. - М., 2005. - 98–112 с.
2. Пиаже Ж. Психология интеллекта. - М., 2003. - 45–60 с.
3. Спилбергер Ч.Д. Измерение тревожности у детей.- СПб., 2012. - 14–29 с.
4. Министерство образования КР. Аналитический отчет по эмоциональному состоянию учащихся начальной школы. - Бишкек, 2023. - 5–18 с.

# РОЛЬ ПЕДАГОГА В ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ СТРЕССОВЫХ СИТУАЦИЙ У ШКОЛЬНИКОВ

**Эшиев Асылбек Кайимович -**

кандидат политических наук, доктор философских наук, профессор,

Ошский государственный университет

**Аннотация.** Статья раскрывает ключевую роль педагога в профилактике стрессовых ситуаций у школьников. Рассматриваются психологические, педагогические и организационные факторы, определяющие эмоциональное состояние учащихся. На основе данных школ Кыргызской Республики представлены примеры эффективных практик, показаны результаты наблюдений и статистические данные. Подчеркивается значимость эмоциональной компетентности педагога, индивидуального подхода и здоровой образовательной среды.

**Ключевые слова:** стресс у школьников, педагог, профилактика стресса, эмоциональная устойчивость, школьная среда, Кыргызстан

Введение.

Школьный возраст — период интенсивного психического и социального развития, когда дети ежедневно сталкиваются с эмоциональными и когнитивными вызовами. Педагог выступает ключевой фигурой, способной регулировать образовательную среду и предупреждать стрессовые состояния. Его профессиональная позиция, стиль взаимодействия и уровень эмоциональной культуры определяют, насколько ребенок будет чувствовать себя в школе спокойно и уверенно.

Проблема и актуальность.

В последние годы в Кыргызстане фиксируется рост школьной тревожности и эмоциональных нарушений у учащихся. По данным педагогических мониторингов (Ошская и Джалал-Абадская области, 2024.), около 35–40% школьников регулярно испытывают психоэмоциональное напряжение. Нагрузка, частые контрольные, конфликтность среды, цифровые отвлечения — все это делает проблему стресса одной из ключевых для системы образования.

Цели и задачи исследования.

Цель - определить роль педагога в профилактике стрессовых ситуаций у школьников и описать эффективные педагогические стратегии.

Задачи:

1. Проанализировать основные источники школьного стресса.

2. Определить педагогические факторы, влияющие на эмоциональное состояние учащихся.

3. Описать успешные практики педагогов Кыргызстана.

4. Представить статистические данные, отражающие масштабы проблемы.

Методология исследования.

В исследовании использованы положения возрастной психологии, гуманистической педагогики и теории эмоционального интеллекта. Анализ основан на деятельностном подходе и современных моделях профилактики школьного стресса.

Методы исследования:

• наблюдение за учебным процессом;

• опросы учащихся и педагогов;

• анкетирование родителей;

• анализ школьной документации;

• педагогический эксперимент в двух школах города Ош;

• сравнительный анализ уровней тревожности по методике Спилбергера–Ханина.

Видение проблемы.

Стресс школьников возникает не только из-за учебной нагрузки. Гораздо сильнее влияют эмоциональные и коммуникативные аспекты: стиль общения учителя, уровень поддержки, отношение к ошибкам, способность педагога создавать атмосферу доверия. Если педагог действует преимущественно директивно и ориентируется на жесткую дисциплину, вероятность стрессовых реакций значительно возрастает.

Примеры из практики в Кыргызстане.

1. В школе №19 города Манас внедрена программа «Учитель как наставник». После регулярных индивидуальных бесед с детьми количество стрессовых ситуаций снизилось на 30% за полгода.

2. В одной из школ Ноокенского района педагоги применяют «метод мягкого старта урока»: первые 3–5 минут посвящают дыхательным упражнениям и проверке эмоционального состояния. Учителя сообщили о снижении конфликтности в классах на 18%.

3. В Джалал-Абадской области реализована практика «зона спокойствия» — специально оборудованный уголок класса, куда дети могут уйти на короткую эмоциональную паузу. Это снизило число стрессовых реакций у детей с повышенной тревожностью на 25%.

4. По результатам анкетирования 30 родителей (2024), 62% отметили, что эмоциональная поддержка учителя является главным фактором, уменьшающим стресс ребёнка.

Статистические данные.

• 35–40% школьников в Кыргызстане испытывают периодический или постоянный стресс (педагогический мониторинг 2024).

• 30% - снижение частоты стрессовых ситуаций после внедрения программ наставничества.

• 25% - уменьшение стрессовых реакций у тревожных детей при наличии «зоны спокойствия» в классе.

• 62% родителей считают стиль общения педагога ключевым фактором эмоционального благополучия ребенка.

Заключение.

Педагог играет центральную роль в предупреждении стрессовых ситуаций. Он формирует психологический климат класса, влияет на самооценку школьников и создаёт безопасную среду, в которой ребенок чувствует поддержку. Эмоциональная компетентность, умение распознавать и регулировать эмоции учащихся, индивидуальный подход - это не дополнение, а обязательная часть профессиональной деятельности современного учителя.

Рекомендации:

1. Развивать у педагогов навыки эмоционального интеллекта и стресс-менеджмента.

2. Внедрять мягкое начало урока и краткие эмоционально-регулятивные паузы.

3. Укреплять культуру позитивного общения: уменьшить акцент на наказаниях, усилить поддержку.

4. Организовывать тренинги по профилактике школьного стресса.

5. Применять индивидуальные образовательные маршруты для детей с высокой тревожностью.

6. Активно привлекать родителей к мониторингу эмоционального состояния школьников.

**Литература:**

1. Выготский Л.С. Психология развития. - М., 2005.

2. Роджерс К. Взгляд на образование. - М., 2012.

3. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. - СПб., 2018.

4. Министерство образования КР. Аналитический отчет о психоэмоциональном состоянии школьников. - Бишкек, 2023.

5. Спилбергер Ч.Д. Методика определения уровней тревожности. - СПб., 2012.

# ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОБУЧЕНИЯ ДЕВОЧЕК ЦЕННОСТНЫМ КАЧЕСТВАМ В КЫРГЫЗСКИХ СЕМЬЯХ

**Эшиев Асылбек Кайимович**

кандидат политических наук, доктор философских наук, профессор,

**Абдибакир кызы Кундуз**

аспирант, Ошский государственный университет

**Аннотация.** Статья посвящена анализу педагогических условий формирования ценностных качеств у девочек в кыргызских семьях. Рассматриваются культурные традиции, семейные педагогические практики, влияние социальных изменений и образовательной среды. Исследование опирается на данные наблюдений, опросов и официальной статистики. Представлены практические примеры из регионов Кыргызстана и рекомендации для совершенствования семейного воспитания.

**Ключевые слова**: семейная педагогика, ценностные качества, воспитание девочек, кыргызская семья, традиции, социальные изменения.

## ВВЕДЕНИЕ

В кыргызском обществе воспитание девочек традиционно рассматривается как фундаментальная часть семейной культуры и социального развития.

Ценностные качества - уважение, трудолюбие, скромность, ответственность, взаимопомощь - формируют основу будущего поведения и роли женщины в обществе. В условиях ускоренной урбанизации и изменения семейных структур вопрос адаптации традиционных педагогических подходов становится особенно актуальным.

ПРОБЛЕМА И АКТУАЛЬНОСТЬ

Современная кыргызская семья находится под влиянием миграции, цифровизации и социально-экономических вызовов. Эти процессы меняют стили воспитания, создавая разрыв между традиционными моделями и новыми социальными реалиями. Наблюдается снижение внимания к целенаправленному воспитанию девочек, формированию у них устойчивых ценностных ориентиров. По данным Национального статистического комитета, в 2024 году более 32% семей в Кыргызстане живут в условиях раздельного проживания родителей из-за трудовой миграции, что влияет на воспитательный процесс.

ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ИССЛЕДОВАНИЯ

Цель - выявить ключевые педагогические условия, способствующие формированию ценностных качеств у девочек в кыргызских семьях.

Задачи:

1. Определить традиционные и современные педагогические практики в семьях.

2. Проанализировать влияние социальных факторов на воспитание девочек.

3. Выявить успешные семейные модели и практики в Кыргызстане.

4. Разработать рекомендации для улучшения педагогических условий.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Исследование основано на сочетании качественных и количественных методов: социологических опросов, интервью, педагогического наблюдения,

анализа нормативных документов и статистики. Методологическую основу составляют принципы культурно-исторического подхода и этнопедагогики.

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

– анкетирование семей (n=40, Ошская область);

– глубинные интервью с педагогами и родителями;

– наблюдение за образовательными и семейными практиками;

– сравнительный анализ традиционных и современных моделей воспитания.

ВИДЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ

Результаты исследования показывают, что значительная часть родителей отмечает недостаток времени на воспитание девочек (67%). Снижается роль бабушек как носителей традиционной воспитательной культуры. Одновременно усиливается влияние школы и цифровой среды, где ценностные ориентиры разнообразны и противоречивы. Девочек всё чаще воспитывают в условиях информационной перегрузки и недостаточной эмоциональной поддержки.

ПРИМЕРЫ ИЗ ПРАКТИКИ В КЫРГЫЗСТАНЕ

1. В семьях южных регионов сохраняются практики коллективного труда, что помогает формировать трудолюбие и ответственность. Девочки участвуют в ведении хозяйства, уходе за младшими.

2. В городских семьях развивается практика совместного принятия решений, когда девочка учится выражать мнение и критически мыслить.

3. Родители всё чаще используют цифровые образовательные платформы для формирования у детей ценностных навыков — например, курсы по эмоциональному интеллекту и коммуникативным умениям.

4. В некоторых семьях мигрантов девочки воспитываются бабушками, что помогает сохранять традиционные качества, но ограничивает развитие современных компетенций.

СТАТИСТИЧЕСКИЕ ДАННЫЕ

— 54% родителей признали, что используют традиционные формы воспитания.

— 29% семей применяют смешанный воспитательный стиль.

— 17% ориентируются преимущественно на современные педагогические практики.

— 41% девочек 10–15 лет испытывают трудности с эмоциональной саморегуляцией (данные школьных психологов).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Формирование ценностных качеств у девочек в кыргызских семьях возможно при сочетании культурных традиций и современных педагогических подходов. Успешное воспитание требует внимания к эмоциональному благополучию ребёнка, диалога в семье и адаптации методов под изменяющиеся социальные условия.

РЕКОМЕНДАЦИИ

1. Усиливать роль семьи в формировании эмоциональной устойчивости и ответственности у девочек.

2. Разрабатывать программы семейной педагогики в школах и сообществах.

3. Поддерживать взаимодействие поколений и передачу культурных традиций.

4. Использовать цифровые ресурсы для развития ценностных компетенций.

5. Создавать условия для участия девочек в социальной и волонтёрской активности.

## ЛИТЕРАТУРА:

1. Абдрахманова Г. Семейная педагогика Кыргызстана. Бишкек, 2021.

2. Мамытов К. Этнопедагогические основы воспитания. Ош, 2020.

3. National Statistical Committee of the Kyrgyz Republic. Social Reports 2023–2024.

4. Чоротегин Т. Культурные традиции кыргызского народа. Бишкек, 2018.

# MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASINING SHARQ SIVILIZATSIYLARI TARKIBIDAGI XUSUSIYATLARI
## (sun'iy intellekt talqinida)

**Fayziyeva Ra'no Rahimovna**

Tadqiqotchi (Toshkent)

**Аннотация**. Тема древней цивилизации Центральной Азии и влияния Востока – одна из самых обширных и сложных в истории человечества. В данной статье мы анализируем социальное, экономическое и культурное развитие Центральноазиатского региона с древнейших времён, основываясь на достоверных исторических источниках. На следующем этапе будут рассмотрены инновации, сформировавшиеся благодаря торговым путям, в частности, возникновение Великого Шёлкового пути, и культурный синтез, который он принёс, металлургию и аграрные системы. Мы также представим всесторонний анализ того, как влияние Востока проникало в Центральную Азию, и какие инновации происходили благодаря религиозным, научным и философским обменам.

В данной статье представлены теоретические и эмпирические данные об истоках Центральноазиатской цивилизации, её росте и развитии, а также о культурных, экономических и технологических достижениях, достигнутых ею благодаря глубоким связям с регионами Востока. В исследовании будут подробно рассмотрены социальная структура, система торговли, развитие металлургии и механизмы культурного обмена в древних местах.

**Ключевые слова**: Цивилизация, Центральной Азия, восток, культура, религия, орошение, урбанизация, земледелие, номадизм, кочевые империи.

## FEATURES OF THE CENTRAL ASIAN CIVILIZATION AS PART OF THE EASTERN CIVILIZATIONS (in the interpretation of artificial intelligence)

**Abstract**. The topic of ancient Central Asian civilization and Eastern influence is one of the most extensive and complex in human history. In this article, we analyze the social, economic, and cultural development of the Central Asian region since ancient times, drawing on reliable historical sources. Next, we will examine the innovations shaped by trade routes, in particular the emergence of the Silk Road and the cultural synthesis it brought, metallurgy, and agrarian systems. We will also present a comprehensive analysis of how Eastern influence penetrated Central Asia and the innovations that resulted from religious, scientific, and philosophical exchanges.

This article presents theoretical and empirical data on the origins of Central Asian civilization, its growth and development, as well as the cultural, economic, and technological achievements it achieved through deep ties with regions of the East. The study will examine in detail the social structure, trade systems, the development of metallurgy, and the mechanisms of cultural exchange in ancient sites.

**Key words**: Civilization, Central Asia, East, culture, religion, irrigation, urbanization, agriculture, nomadism, nomadic empires.

**Kirish:** Markaziy Osiyo qadimgi tsivilizatsiyasi va Sharq ta’siri mavzusi insoniyat tarixidagi eng boy va murakkab xususiyatlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada biz ishonchli tarixiy manbaalarga asoslanib, qadimgi davrdan boshlab Markaziy Osiyo mintaqasining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini tahlil qilamiz. Keyingi bosqichda savdo yo‘llari, ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘lining yuzaga

kelishi va uning olib kelgan madaniy sintezi, metallurgiya va agrar tizimlar orqali shakllangan innovatsiyalar o‘rganiladi. Shuningdek, Sharq ta’sirining Markaziy Osiyoga qanday yo‘l bilan singdirilgani, diniy, ilmiy va falsafiy almashuvlar orqali qanday yangilanishlar yuz berishi haqida keng qamrovli tahlil beriladi3,5.

Bu maqola Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining ildizlari, uning o‘sishi va evolyutsiyasi, shuningdek, Sharq mintaqalari bilan bo‘lgan chuqur aloqalar orqali qanday madaniy, iqtisodiy va texnologik yutuqlarga erishgani haqidagi nazariy va empirik ishonchli dalillarni taqdim etadi. Ushbu tadqiqotda qadimgi makonlardagi ijtimoiy tuzilma, savdo tizimi, metallurgiya rivoji va madaniy almashuv mexanizmlari keng yoritiladi.

## 2. Markaziy Osiyo qadimgi sivilizatsiyasi: Tarixiy rivojlanish va ijtimoiy tizim

### 2.1 Qadimgi jamiyatlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari

Qadimgi davrda Markaziy Osiyo mintaqasida insoniyatning dastlabki sivilizatsiyalari rivojlanishi ko‘plab ijtimoiy va iqtisodiy tajribalarni o‘z ichiga olgan. Ushbu hududda kichik, muvozanatli ko‘chmanchi jamoalardan tortib, keng va murakkab shahar davlatlariga qadar turli shakldagi yashash joylari kuzatilgan. Agar kichik guruhlar asosan ko‘chmanchilik, mehnat va oziq-ovqat yetishtirish bilan shug‘ullanib, tenglik asosida hayot kechirgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi rivojlanishi va keng ko‘lamli urbanizatsiya jarayonlari murakkab ijtimoiy qatlamlarning paydo bo‘lishiga, shu jumladan, rahbarlar va diniy arboblarning ustunligiga olib kelgan.

Mesopotamiya misolida, sug‘orish tizimi va savdo aloqalari natijasida shahar-davlatlar yuzaga kelib, ularda rahbarlik roli va diniy rasm-rusumlar katta ahamiyat kasb etgan. Misrda esa birlashtirilgan markaziy hokimiyatning ta’siri orqali mahalliy qatlamlar o‘rtasida tartib-intizom saqlanib kelgan5. Markaziy Osiyo hududida esa ko‘plab sivilizatsiyalar – Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlar – o‘zlarining

iqtisodiy va siyosiy tizimlari orqali rivojlanib, savdo, madaniyat va ilm-fan markazlariga aylangan.

## 2.2 Ijtimoiy qatlamlar va siyosiy tizimlar

Qadimgi jamiyatlarda ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi farqlar biologik emas, balki iqtisodiy strategiyalar, geografik sharoitlar va madaniy tajriba orqali shakllangan. Kichik, ko‘chmanchi guruhlar aholisi asosan teng huquqli bo‘lgan bo‘lsa, kattaroq va agrar jamiyatlarda qatlamlashgan ijtimoiy tizimlar, masalan, rahbarlar, qobil, hunarmandlar va dehqonlar mavjud bo‘lgan.

Hammurapi qonuni kabi huquqiy hujjatlar qadimgi Mesopotamiya jamiyatida ijtimoiy qatlamlar va ularning huquqiy statusiga aniqlik kiritgan bo‘lsa, Ind daryosi havzasi hududida kast tizimini tashkil etish orqali qatlamlashgan ijtimoiy tuzilmaning yanada murakkablashuvi kuzatilgan5. Markaziy Osiyo shaharlarida esa savdo va ma’muriy tizimlar rivojlanishi, shahar markazlarining kengayishi va ularning tashqi savdo aloqalari ijtimoiy qatlamlarni yanada kuchaytirgan.



## 2.3 Geografik sharoit va ekologik omillar

Geografik sharoit va atrof-muhit ham qadimgi sivilizatsiya shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Sahro va yarim sahro zonalari, o‘rmonlar va o‘zgaruvchan ob-havo sharoitlari butun mintaqadagi iqtisodiy faoliyat, qishloq xo‘jaligi va savdo tarmoqlarining yo‘nalishini aniqlagan. Keng maydonlar va qulay tabiiy resurslar, xususan, suv manbalari ham urbanizatsiya va ijtimoiy qatlamlashuv jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

### 3. Savdo yo‘llari va Buyuk Ipak yo‘li: Savdo, metallurgiya va madaniy sintez

#### 3.1 Savdo yo‘llarining paydo bo‘lishi va ularning ahamiyati

Markaziy Osiyo qadimgi savdo yo‘llari va muloyim iqtisodiy aloqalarning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. Ushbu savdo yo‘llari nafaqat tijorat jarayonlarini emas, balki madaniy, diniy va ilmiy almashuvlarni ham qo‘llab-quvvatlagan. Savdolar orqali Xitoy, Hindiston, Gretsiya, Rim va boshqa sivilizatsiyalar o‘rtasida mahsulotlar, g‘oyalar va texnologiyalar almashinuvi amalga oshirilgan.

Savdo yo‘llarining rivojlanishi orqali metall, ipak, ziravorlar va boshqa qimmatbaho tovarlar mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu yo‘llar nafaqat moddiy boyliklar almashinuvi, balki madaniy sintez va yangi g‘oyalar shakllanishi uchun ham maydon yaratdi.

#### 3.2 Buyuk Ipak yo‘lining rivojlanishi va strategik roli

Buyuk Ipak yo‘li qadimgi dunyo savdo aloqalarining eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida tanilgan. U Xitoydan boshlanib, Markaziy Osiyo orqali Yaqin Sharq va O‘rta Yer dengizi mamlakatlariga qadar cho‘zilgan va savdo, diplomatiya hamda madaniy almashuv uchun betakror platforma bo‘lgan.

Bu yo‘l orqali nafaqat tovarlar, balki diniy g‘oyalar, ilmiy kashfiyotlar, san’at asarlari va hatto savdo metodologiyalari uzatilgan. Misol uchun, Xitoy ipak sanoati, hind ziravorlari, Misrning shishalari va Rimning vino mahsulotlari bir-biriga almashilgan. Shuningdek, Ipak yo‘li orqali buddizm, xristianlik hamda boshqa diniy g‘oyalar mintaqa bo‘ylab tarqalgan.

Buyuk Ipak yo‘lining paydo bo‘lishida geografik ahamiyat katta rol o‘ynagan. Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlar Ipak yo‘lining mexanizmi bo‘lib, savdo aloqalari hamda madaniy almashuvning markazlariga aylangan. Bu shaharlar nafaqat iqtisodiy rivojlanish balki ilmiy, falsafiy va diniy almashuvning ham asosiy uzellari sifatida ham tanilgan.

#### 3.3 Ipak yo‘lining madaniy sintezi va madaniy almashuvlar

Ipak yo‘li mintaqadagi turli xalqlar, tillar, dinlar va madaniyatlar o‘rtasidagi interaktsiyani kuchaytirgan. Savdo karvonlari orqali kelib chiqqan mahsulotlar va g‘oyalar natijasida madaniy sintez, misol uchun, turkiy, fors va hind an’analarining o‘zaro uyg‘unlashuvi yuzaga kelgan. Ustuvor ravishda metallurgiya, agrar tizimlar, savdo va hunarmandchilik sohalarida ko‘plab texnologik va madaniy yangiliklar paydo bo‘lgan.

Markaziy Osiyo davrida ijtimoiy qatlamlarning murakkablashuvi va savdo aloqalarining ko‘payishi natijasida madaniy almashuvlar yanada chuqurlashgan. Bu jarayon nafaqat iqtisodiyotni, balki madaniyat, adabiyot, san’at va diniy qarashlarni ham boyitgan. Bozorga keladigan har bir savdo karvoni o‘z yo‘liga xalqlar o‘rtasida ishonch va savdo munosabatlarini mustahkamlagan, shu bilan birga yangi texnologiyalar va g‘oyalar tarqalishiga olib kelgan.

**4. Bronza davri: Metallurgiya va texnologik yutuqlar**

**4.1 Metallurgiya qadimgi sivilizatsiyalar rivojlanishidagi o‘rni**

Bronza davri metallurgiya sanoatining rivojlanishi borasida tub burilish davri bo‘lib, u orqali insoniyat yanada kuchli texnologiyalarni ishlab chiqara boshladi. Qadimgi Qozog‘iston hududida Andronovo madaniyati metallurgiyada yuqori darajaga erishdi, bu zamon metall qazib olish, mis va tinning birgalikdagi ishlatilishi orqali bronza ishlab chiqarish texnologiyasi jadal rivojlandi.

Andronovo madaniyati metallurgiya sohasida mintaqaning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Metallurgiya jarayonlari orqali ishlab chiqarilgan bronza mahsulotlari nafaqat mahalliy ehtiyojlar uchun, balki mintaqaning savdo aloqalari doirasida boshqa hududlarga eksport qilindi. Bu esa metallurgiya texnologiyalarining yanada rivojlanishi va iqtisodiy aloqalarning kengayishiga olib keldi.



**4.2 Bronza texnologiyasidagi innovatsiyalar va savdo aloqalari**

Bronza ishlab chiqarishda ishlatilgan qimmatbaho metall resurslarini qazib olish va qayta ishlash jarayonlari bolalariga yangi texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini kiritdi. Qattiq mis va tin aralashmasidan yaratilgan bronza mahsulotlari qurollar, asbob-uskunalar va kundalik hayot buyumlarida keng qo‘llanilgan.

Ushbu davr metallurgiya sanoatining rivojlanishi savdo tarmoqlarining ham kengayishiga olib keldi, chunki metall mahsulotlar ko‘plab hududlarga eksport qilindi va mintaqaning iqtisodiyotini mustahkamlagan. Metallurgiya orqali yaratilgan bronza buyumlarining sifat va texnologik innovatsiyalari mintaqa bo‘ylab savdo aloqalari va madaniy almashuvni stimullaydi, bu esa bugungi kunda ilgarigi o‘zaro ta’sirni yanada chuqurlashtiradi.

4.3 Jadval: Qadimgi davr metallurgiyasi va asosiy innovatsiyalar



| Davr | Asosiy Metall | Innovatsiyalar va Qo‘llanilish |
|---|---|---|
| Mis davri | Mis | Oddiy asbob-uskunalar, diniy rasm-rusumlar |
| Bronza davri | Mis va Tin | Qurollar, hunarmandchilik buyumlari, savdo buyumlari |

| Davr | Asosiy Metall | Innovatsiyalar va Qo‘llanilish |
|---|---|---|
| Temir davri | Temir | Qurollarni yanada kuchaytirish, inshootlar |

Ushbu jadval qadimgi metallurgiya texnologiyalarining rivojlanishini va ularning amaliy qo‘llanilish sohalarini ko‘rsatadi7.

**5. Sharq ta’siri va madaniy almashuv: Diniy, ilmiy va falsafiy ko‘priklar**

**5.1 Sharq sivilizatsiyalarining ta’siri**

Sharq sivilizatsiyalari, xususan Xitoy va Hindiston, qadimgi dunyo madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu mintaqa ilm-fan, san’at va diniy qarashlar bilan boy bo‘lib, ularning ta’siri Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasiga ham o‘tgan. Ipak yo‘li orqali Xitoy ipaklaridan tortib, Hindiston ziravorlari va diniy g‘oyalarigacha bo‘lgan ko‘plab mahsulotlar va g‘oyalar muvaffaqiyatli almashilgan.

Sharq sivilizatsiyalari tomonidan ilgari surilgan falsafiy g‘oyalar, diniy qarashlar va ilmiy kashfiyotlar Markaziy Osiyo jamiyatlarining o‘ziga xosliklarini boyitib, madaniy sintez jarayonlarini mustahkamlagan. Bu jarayonda buddizm, hinduizm, zardushtiylik va boshqa diniy tizimlar o‘zaro uyg‘unlashib, natijada yangi madaniy va ilmiy paradigmalarning shakllanishiga olib kelgan.

**5.2 Madaniy almashuv va ilmiy hamkorlik**

Ipak yo‘li va boshqa ko‘prik savdo tarmoqlari orqali mintaqa bo‘ylab ko‘plab ilmiy va falsafiy kashfiyotlar tarqalgan. Sharq va G‘arb o‘rtasidagi aloqalar yangi ilmiy metodlar, astronomiya, matematika va tibbiyot sohalarida innovatsion yechimlarni qo‘llashga zamin yaratgan. Masalan, Xitoy astronomlari, hind matematiklari va markaziy osiyo olimlari o‘zaro biznes va ilmiy munosabatlarda bo‘lib, yangi o‘lchov tizimlari, geodeziya va mineralogiya kashfiyotlarini ishlab chiqqanlar.

Sharq va Markaziy Osiyo sivilizatsiyalarining bu qanday aloqalari madaniy almashuvning misoli bo‘lib, savdo yo‘llari hamda diplomatik munosabatlar orqali amalga oshgan. Misol uchun, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar ko‘plab xalqlarni o‘ziga jalb etgan, u yerda milliy qadriyatlar, diniy qarashlar va madaniy an’analar o‘zaro uyg‘unlashib, yangi madaniy normativlarga asos bo‘lgan.

**5.3 Savdo yo‘llarining madaniy almashuvdagi roli**

ipak, ilmlar

ziravorlar, diniy g‘oyalar

savdo, madaniy almashuv

san’at, ilmiy kashfiyotlar

ma’lumot va mahsulotlar almashinuvi

madaniy sintez, ilmiy hamkorlik

Xitoy sivilizatsiyasi

Hindiston sivilizatsiyasi

Markaziy Osiyo shaharlar

Yaqin Sharq sivilizatsiyasi

G‘arb sivilizatsiyasi

Ipak yo‘li orqali almashuv

Ushbu diagramma savdo yo‘llari va Ipak yo‘li orqali xilma-xil sivilizatsiyalar o‘rtasidagi madaniy almashuv jarayonini tasvirlaydi2.

**6. Markaziy Osiyo va Sharq mintaqalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar: Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar**

**6.1 Ijtimoiy va iqtisodiy aloqalar**

Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasi uzoq yillar davomida ichki ijtimoiy qatlamlashuvi, qishloq xo‘jaligi va savdo aloqalari evaziga boy iqtisodiy tizimni shakllantirgan. Uzoq va qisqa masofali savdo yo‘llari orqali mamlakat ichida va mintaqaviy



darajada aholi, hunarmandlar, savdogarlar o‘rtasidagi murakkab ijtimoiy aloqalar o‘zaro bog‘langan. Masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent singari shaharlar o‘zaro iqtisodiy hamkorlik va madaniy almashuvning asosiy markazlari bo‘lgan, bu esa mintaqaning iqtisodiy ko‘lamini kengaytirgan va yanada boyitgan.

**6.2 Madaniy va diniy qarashlardagi sintez**

Markaziy Osiyo va Sharq mintaqalari o‘rtasidagi madaniy aloqalar chuqur tarixiy ildizlarga ega. Diniy va falsafiy g‘oyalar, ilmiy kashfiyotlar va san’at asarlari savdo yo‘llari orqali har ikki tomon orasida tarqalgan. Shuningdek, buddizm, hinduizm, zardushtiylik, islom va boshqa diniy tizimlar o‘zaro uyg‘unlashib, mintaqadagi ijtimoiy tuzilmani yanada murakkablashtirgan.

Ushbu madaniy almashuvlar Markaziy Osiyoda kelajak avlodlar uchun boy meros, ilmiy va adabiy namunalar sifatida qabul qilingan. Bu jarayon nafaqat mintaqaning tarixiy xotirasini boyitibgina qolmay, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlagan.

**6.3 Jadval: Markaziy Osiyoning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari**

| Mintaqa | Ijtimoiy-iqtisodiy Aloqalar | Madaniy va Diniy Ta’sirlar |
|---|---|---|
| Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent | Savdo, tarmoq iqtisodiyati, huquqiy va ma’muriy tizimlar | Buddizm, islom, fors madaniyati |
| Farg‘ona vodiysi | Qishloq xo‘jaligi, agrar iqtisodiyot, shaharlarni rivojlantirish | Hind va turkiy an’analar |
| Markaziy savdo yo‘llari (Ipak yo‘li) | Uzluksiz savdo almashinuvi, xalqaro hamkorlik, diplomatiya | Xitoy, Yaqin Sharq, Gretsiya va Rim ta’sirlari |

Ushbu jadval Markaziy Osiyoning ijtimoiy-va iqtisodiy aloqalari va ularning madaniy-diniy ta’sirlarini ko‘rsatadi.

**7. Vizualizatsiyalar**

**7.1 Jadval: Qadimgi davr sivilizatsiyalari va ularning ijtimoiy tuzilmalari**

| Sivilizatsiya | Shahar/Davlatlar | Ijtimoiy Tuzilma | Asosiy resurslar |
|---|---|---|---|
| Mesopotamiya | Uruk, Ur, Kish | Rahbarlar, dehqonlar, hunarmandlar, diniy arboblar | Sug‘orish suvlari, savdo tovarlari |
| Misr | Misr shahar davlati | Filarmon, dehqonlar, hunarmandlar, diniy me’yorlar | Nil daryosi, agrar mahsulotlar |
| Markaziy Osiyo | Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent | Shahar davlatlari, savdogarlar, hunarmandlar, qishloq aholisi | Savdo yo‘llari, qishloq xo‘jaligi |

Ushbu jadval qadimgi davr sivilizatsiyalarining ijtimoiy tuzilmalari va asosiy resurslarini taqqoslab ko‘rsatadi.

**7.2 Savdo yo‘llari va ularning madaniy almashuvdagi ta’siri**

ipak, texnologiya

ziravorlar, diniy g‘oyalar

savdo mahsulotlari

sana’at, qurollar

madaniy almashuv & savdo

Markaziy Osiyo shaharlar

Xitoy sivilizatsiyasi

Hindiston sivilizatsiyasi

Yaqin Sharq

G'arb

Ipak yo'li savdosi

Ushbu diagramma Ipak yo'li orqali bo'lib o'tgan savdo va madaniy almashuv jarayonlarini aniq ko'rsatadi.

**7.3 Jadval: Metallurgiya va bronza davrida asosiy innovatsiyalar**

| Davr | Ishlatilgan metall | Texnologik innovatsiyalar | Savdo va madaniy aloqalar |
|---|---|---|---|
| Mis davri | Mis | Asbob-uskunalar va diniy rasm-rusumlarning shakllanishi | Mahalliy savdo |
| Bronza davri | Mis va Tin | Qurollar, asbob-uskunalar, hunarmandchilik buyumlari | Qit'aaro savdo tarmog'i |
| Temir davri | Temir | Yangi qurollar, qurilish texnikalari | Keng tarqalgan savdo va diplomatiya |

Ushbu jadval bronza davri metallurgiyasidagi yutuqlar va ularning savdo hamda madaniy aloqalarga ta'sirini ko'rsatadi6.

**8. Xulosa va asosiy xulosalar**

Markaziy Osiyo qadimgi tsivilizatsiyasi va Sharq ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar quyidagi asosiy xulosalarga olib keladi:

Ijtimoiy tuzilma va siyosiy tizimlar: Qadimgi Markaziy Osiyoda kichik ko‘chmanchi jamoalardan tortib, murakkab shahar davlatlarigacha bo‘lgan ijtimoiy qatlamlashuv va siyosiy tuzilma geografik sharoit, iqtisodiy resurslar va savdo aloqalari natijasida shakllangan5.

Savdo yo‘llari va Buyuk Ipak yo‘lining roli: Ipak yo‘li va boshqa savdo yo‘llari orqali mahsulotlar, madaniy g‘oyalar va ilmiy kashfiyotlar uzatilgan. Bu mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi, madaniy sintezi va diniy almashuv jarayonlariga katta hissa qo‘shgan.




Bronza davrida metallurgiya yutuqlari: Qadimgi metallurgiya texnologiyalari orqali mis, tin va temir ishlatilib, bronza davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlar milliy va xalqaro savdoning asosiy bo‘laklarini tashkil qilgan. Metallurgiya sanoati Markaziy Osiyo va uning savdo tarmog‘idagi ahamiyatini yanada mustahkamladi.

Sharq sivilizatsiyalari bilan madaniy almashuv: Xitoy, Hindiston va Yaqin Sharqning ta’siri natijasida mintaqa ichida falsafiy, diniy va ilmiy ko‘priklar shakllanib, yangi madaniy an’analar va innovatsiyalar yuzaga keldi. Bu jarayon Markaziy Osiyoning o‘ziga xos madaniy merosini boyitdi.

Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy bog‘lanishlar: Markaziy Osiyo shaharlarining savdo va diplomatik aloqalari, ichki iqtisodiy tizimlar va madaniy almashuv jarayonlari bugungi kunda ham mintaqaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Quyidagi asosiy xulosalarni jadval ko‘rinishida ham keltirish mumkin:

Aholining ijtimoiy tuzilishi va qatlamlanishi

Savdo yo‘llari, xususan, Buyuk Ipak yo‘lining rivojlanishi va madaniy almashuvi

Qadimgi metallurgiya va bronza davridagi texnologik yutuqlar

Sharq sivilizatsiyalari bilan chuqur madaniy va diniy aloqalar

Ushbu tadqiqot natijalari, qadimgi Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasining boy tarixi va Sharq bilan bog'lanishning uni bugungi kunda ham global miqyosda ahamiyatli ekanligini isbotlaydi.

**Xulosa:** Markaziy Osiyo qadimgi sivilizatsiyasi o'zining murakkab ijtimoiy tuzilmalari, keng ko'lamli iqtisodiy tizimi va boy madaniy merosi bilan butun dunyo tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Savdo yo'llari, ayniqsa, Buyuk Ipak yo'li orqali mintaqa bo'ylab mahsulotlar, madaniy g'oyalar va ilmiy kashfiyotlar uzatilgani, ularning o'zaro aloqalari va sintezi bugungi global savdo va madaniy almashuvning poydevorini shakllantirgan.

Bronza davri metallurgiyasi va keyingi texnologik yutuqlar Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasining iqtisodiy boyligini va savdo imkoniyatlarini keskin oshirdi. Sharq sivilizatsiyalari bilan o'rtoqlashgan madaniy almashuvlar, diniy va ilmiy kashfiyotlar esa mintaqaning boy madaniy merosini yanada boyitdi. Bu jarayonlarning barchasi bugungi kunda ham mintaqaning strategik va iqtisodiy ahamiyatini oshirib, uni global tsivilizatsiya tarixi doirasida muhim aloqa nuqtasiga aylantirdi.

Quyidagi asosiy xulosalar mazkur tadqiqotni yakunlashda alohida e'tibor talab qiladi:

Ijtimoiy va siyosiy rivojlanish: Qadimgi jamiyatlardan to murakkab shahar davlatlarigacha bo'lgan ijtimoiy qatlamlashuv va siyosiy tizimlar geografik sharoit, iqtisodiy resurslar va savdo yo'llari orqali shakllangan.

Savdo va madaniy almashuvning ahamiyati: Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi va faol savdo tarmog'i orqali mahsulotlar, ilmiy, diniy va madaniy g'oyalar almashinuvi mintaqaning rivojlanishiga mustahkam poydevor bo'lgan.

Metallurgiya va bronza davri: Qadimgi metallurgiya texnologiyalari orqali yaratilgan bronza mahsulotlar iqtisodiy, qurolli va madaniy sohalarda hal qiluvchi rol o'ynagan.

Sharq sivilizatsiyalari bilan sintez: Xitoy, Hindiston va Yaqin Sharq sivilizatsiyalarining mintaqaga bo‘lgan ta’siri madaniy almashuv, falsafiy g‘oyalar va ilmiy kashfiyotlarni kuchaytirgan, natijada yagona madaniy sintez yuzaga kelgan.

Ushbu maqola asosida Markaziy Osiyo va Sharq mintaqalari o‘rtasidagi uzoq yillik aloqalar, savdo tarmoqlari, metallurgiya yutuqlari va madaniy almashuv muhim ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, bugungi kunda ham uning strategik va madaniy merosi sifatida qadrlanishi ta’kidlanadi.

**Yakuniy xulosalar va asosiy natijalar.**

Qadimgi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi kichik ko‘chmanchi jamoalar, agrar jamiyatlar va murakkab shahar davlatlariga bo‘lingan.

Savdo yo‘llari, ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li mintaqa ichida va ichkarisidan tashqarida mahsulot, g‘oya va madaniy almashuvni jadal rivojlantirgan.

Bronza davri metallurgiya rivojlanishi iqtisodiy tizimning mustahkamlanishiga hamda savdo va diplomatiya aloqalarining kengayishiga sabab bo‘lgan.

Sharq sivilizatsiyalari va mintaqa xalqlari o‘rtasidagi madaniy almashuvlar dinamik, diniy, ilmiy va falsafiy g‘oyalarni shakllantirib, yagona madaniy merosni vujudga keltirgan.

Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar bugungi global tizimda ham qudratli o‘zaro bog‘lanish sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ushbu xulosalar asosida kelgusidagi tadqiqotlar uchun mintaqa tarixining yangi, yanada chuqur va ko‘p qirrali tahlillari yo‘lga qo‘yilishi, shuningdek, Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining global merosi yanada kengroq doirada qadrlanishi kutilmoqda.

Markaziy Osiyo qadimgi sivilizatsiyasi va Sharq ta’siriga oid ushbu maqola, tarixiy, iqtisodiy va madaniy dalillarni tahlil qilish orqali mintaqaning boy madaniy merosi va strategik ahamiyatini aks ettiradi. Qadimgi davrdan zamonaviy davrgacha bo‘lgan o‘zaro aloqalar va interdistsiplinar yondashuvlar insoniyat tarixidagi eng boy va murakkab tadqiqot mavzularidan biri ekanligini namoyish etadi.

Ushbu maqola asosidagi tahlillar nafaqat tarixiy xotirani tiklash, balki kelgusidagi ilmiy va madaniy tadqiqotlar uchun ham zamin yaratadi va mintaqa xalqlari o‘rtasidagi ishonch, madaniy hamkorlik va iqtisodiy integratsiyaning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

**Manba va adabiyot**:


1. Abdullayev O‘. O‘rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi. – Toshkent: Akademiya, 2009
2. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001.
3. Davlat va qurilishi va boshqaruvi. – Toshkent: Akademiya, 2007.
4. Qadimgi davlatchilik va urbanizasiya. Tarixiy lavhalar. – Toshkent: 2010.
5. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev Ye. Qadimgi O‘zbekiston sivilizasiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – Toshkent.: Adolat, 2001.
6. Sagdullayev A. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
7. Sagdullayev A., Aminov B. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: Akademiya, 2000.
8. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – Toshkent: Fan, 1964.
9. Аванесова Н.А. Эпоха бронзы Средней Азии Ч.1. Учебное пособие. – Самарканд.Изд СамГУ 1988. пдф
10. Аверинсев С.С, Алексеев В.П. Древние цивилизации. Монография. – Москва.Изд. Мысл.1989. пдф
11. Алексеева.О.Е, Саваниди.Н.Ф. Иллюстрированный Англо-русский-русско-английский историко-археологический словарь Санкт -Петербург 1993.
12. Аскаров А, Ширинов Т. Ранняя Городская култура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд,1993.

13. Исомиддинов М. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002.

14. История государственности Узбекистана. Т.1. – Ташкент: Узбекистан, 2009.

15. Кудратов С.Марказий Осиё худудида илк давлатларнинг пайдо булиши. – Гулистон, 1998.

16. Очерки по истории государственности Узбекистана. Монография. – Ташкент. Издательско-полиграфичесский аксионерной компании “Шарк”, 2001. пдф

17. Ртвеладзе Е.В. Цивилизации, государство, kултуры Центральной Азии. – Ташкент.2005.

18. Сарианиди В.И. Маргуш Древновосточное царство в старой делте реки Мургоб. – Ашкабад, 2002.

19. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент: Фан, 2000.

20. Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: МГУ, 1948.

## ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ЖАДИДЛАРИ АДАБИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ: ИЛМИЙ ТАҲЛИЛ ВА ХУЛОСАЛАР.

**Воҳидова Комила Абдуллозизовна**

тфн., доцент. Импулс тиббиёт институти

***Аннотация:*** *Мақолада XIX аср охири XX аср бошларида яшаб ўтган жадид намояндаларининг адабий мероси ҳисобланган асарлари, жумладан, улар томонидан ёзилган илмий мақолалар ва уларда илгари сурилган ғоя ва қарашлар илмий таҳлил қилинади.*

***Калит сўзлар:*** *Исҳоқхон Ибрат, Обиджон Маҳмудов, Ашурали Зоҳирий, Садойи Фарғона, бидъат, қолоқлик, илм, маърифат, тарғибот, тараққиёт, миллат, адабиёт, газета.*

***Annotatsiya:*** *Maqalada XIX ásir aqırı XX ásir baslarında jasap ótken jadid wákilleriniń kórkem ádebiyatqa baylanıslı miyras esaplanǵan shıǵarmaları, atap aytqanda, olar tárepinen jazılǵan ilimiy maqalalar hám olarda ilgeri jılıstırılǵan ideya hám qarawlar ilimiy analiz etiledi.*

***Gilt sózler:*** *Ís`haqxan Ibrat, Abidjan Mahmudov, Ashurali Zahiri, Sesyi Ferǵana, bid'at, qalaqlıq, ılım, bilim, úgit-násiyatlaw, rawajlanıw, millet, ádebiyat, gazeta.*

***Аннотация:*** *В статье будет проведен научный анализ произведений, которые считаются литературным наследием джадидских деятелей конца девятнадцатого-начала двадцатого веков, включая написанные ими научные статьи, а также идеи и взгляды, выдвинутые в них.*

***Ключевые слова:*** *Исхак Хан Ибрат, Абиджан Махмудов, Ашурали Захири, Садой Фергана, ересь, отсталость, наука, просвещение, пропаганда, прогресс, нация, литература, газета.*

Фарғона водийси жадидлари адабий меросини тарих ва тарихшунослик нуқтаи назаридан ўрганишда биринчилардан бўлиб, эътибор қаратилиши зарур бўлган манбалар ўз даврида мамлакатда совет ҳукумати ўрнатилгунига қадар Туркистон жадидчилик ҳаракати билан боғлиқ ёзма манбаларнинг аксарияти, шунингдек, ҳаракат иштирокчилари ҳамда уларнинг замондошлари томонидан ёзиб қолдирилганлиги сабаб, давр хусусиятларини аниқлаб берувчи асл манбалар ҳисобланади. Бу даврда ёзилган Исҳоқхон Ибрат асарлари[9. 1901; 10. 1908; 11. 1912], унинг замондошлари томонидан ёзиб қолдирилган манбалар[6. Қ. Инв. № 7392; 24. Қ. Инв. №10067;13.1908; 22. 1901], ёки, 1920-йилларга қадар яратилган турли мазмундаги асарлар ҳам айнан жадидлар ёки, уларнинг замондошлари

томонидан ёзилган бўлиб, уларнинг бу ҳаракатга муносабатини белгилаб беришда алоҳида аҳамиятга эга[2. 1924; 7. 1903; 12. Қ, Инв № 11618; 15. 1914]. Жумладан, даврий матбуотда эълон қилинган мақолалар орасида мактаб ва маориф масалаларини ёритиб берувчи мақолалар сирасига “Янги масжид ва мактаб”[17. 1914], “Умумий кутубхона ва қироатхонага эҳтиёж”[25. 1914], “Маданият”[5. 1914] каби мақолаларни келтирсак, ўша давр Фарғона водийси ижтимоий ҳаётини ёритиб берувчи мақолалар сирасига “Ҳаёл ва орзу”[1. 1914], “Ҳатна тўйи”[20. 1914], “Фарғона одамлари нечук тараққий топсин”[15. 1914], “Туркистон аҳли нима учун инқирозга юз тутдилар”[4. 1914], “Истиқбол қайғуси”[23. 1914] кабиларни кўрсатиб ўтиш мақсадга мувофиқ.

Фарғона жадидлари орасида муҳим ўрин тутган Обиджон Маҳмудов йирик сармоядор бўлса ҳам, илм-маърифатни қадрлайдиган, адабиёт ва санъатни севадиган инсон эди. 1914 йил 3-апрелидан 1915 йил 26 апрелига қадар унинг томонидан нашр этилган “Садойи Фарғона” газетасига идорасига Қўқоннинг ўша даврдаги машҳур жадид намоёндаларини жалб қила олди. Ашурали Зоҳирий, Абдулваҳҳоб Ибодий, Нурий Усмоний, Дадамирза Қори, Иброҳим Даврон, Яҳё Қори, Мулло Абдуллоҳбек Мусобек ўғли ва бошқалар газета фаолиятини йўлга қўйишда жонбозлик кўрсатдилар. Шунингдек, Исҳоқхон Жунайдуллоҳхўжа ўғли Ибрат, Абдулҳамид Чўлпон, Шокир Мухторов, Саййид Холид, Баслий Саййид Аҳмад, Тавалло, мулла Айн, Сиддиқий, А.Ф. Раҳмонов, Нур Муҳаммадий Сулаймоний, Дилевский, Камолов Мирзажон Мирза Аброр ўғли, Солиҳ ўғли Шокиржон қори, Мирзоев Баҳтиёр, Мирмуҳсин Шермуҳаммад ўғли кабилар фаол иштирок этдилар. Жумладан, Ибрат томонидан ёзилган мақолалар “Садойи Туркистон”, “Садойи Фарғона”, “Туркистон вилоятининг газити” саҳифаларида чоп этилади[3. 1991].

“Садойи Фарғона” газетасининг биринчи сонида жадидларнинг “Муддаойимизга мувофиқ” номли[18. 1914] бир мақоласи нашр эттирилган

бўлиб, муаллифлар газета нашридан кутган муддаоларини изоҳлаб, туркистонликлар миллати исломияни ҳимоя ва муҳофазасини, ҳалқнинг мустақил тараққий, таъолий ва саодати учун ғайрат ва ҳаракатга қадам бостирадиган қалблардаги оҳи-садоларини, Фарғона учун илм бўладиган, халқни равнақ, нафсоният, зиндон, жаҳолат ва фалокатдан чиқариб иттифоқ ва иттиҳод йўлларига бошлайдиган газетага муҳтож эканликларини билдирадилар. Бундаги қавм ва миллатларнинг хулқ- атвори, маишати, ҳуқуқини башарият ва инсоният илм-маърифатларидан, маданият ва саводларидан, туркистонлиларнинг аҳлоқ замималарини ислоҳи василаси, бир неча асрлардан буён маданиятда илм-маърифат нуқтаи назарида бошқа миллатлар билан солиштирилганда қандай даражада бўлганликларини билиш, халқнинг илм ва урфонда раҳбар бўлишлиги, ўз миллий сўз ва шевада ибратнамо газитага муҳтож эканликларини билдирадилар.

Шунингдек, Оллоҳ таоло хазратларига шукр ва ҳамдлар айтиб, уларга ҳам толе ва бахт насиб қилиб, дунё саҳнасининг ҳар тарафига садойимизни эшитдирганига ва Фарғона учун аҳли ҳиммат ва аҳли ғайрат соҳибларининг соясида қилганлигига шукроналар баён этадилар. "Садойи Фарғона" газетасининг давом этишини истаган бир гуруҳ "Ғайрат" жамияти фаоллари илм ва маърифат Фарғонасини шу кунларда кўрсатишга мувофиқ бўлганликларини ва эндиликда ҳол ва жонларига ҳам қарамай ғайрат билан ўз кучларини сарф этишда давом этишларини билдирадилар. Бундай миллат зиёлилари сифатида мулла Маҳмудхўжа Ризозода, мулла Маҳмуджон қори, мулла Абдулваҳҳоб, мулла Маҳмуджон, Муллахон маҳдум ва мулла Ашурали номлари келтирилади[18. 1914].

Жадидлар ижтимоий ҳаётда рўзноманинг аҳамиятига юқори баҳо берадилар. Фарғона водийси миллат зиёлилари орасида кўзга кўринган жадид Исҳоқхон Ибрат ҳам ўзининг 1913 йилда "Туркистон вилоятининг газити"да

нашр этилган “Намангандан” номли мақоласида газетага бидъат сифатида қараётганлар билан мунозара қилади ва Туркистонда жорий бўлган илм-фан, техника ютуқлари, янгиликларини санаб, бидъатчи суҳбатдошини ўзини машаққатга солганлигини эътироф этади. Исҳоқхон мулоҳазаларини хадислар орқали исботлаб: “...Худо каломида ер юзида нима бўлса, халқ нафланмоқ учун яратган. Каломуллоҳни кўринг, муллалардан сўранг. Сиз каби ўн адад муллалардан бўлса, ўзларини зиндонда қилмай, балки бўлак халқларни шул хил зиндонда ўтирмаклигига сабаб бўладилар”[14. 1913] дейди. Ибрат бу мунозарани рўзномага ёзишдан мақсадини миллат орасида Қуръон ва Хадис илмини билмай туриб, жамиятни қолоқликда қолдираётган кишиларни илм-фан, ва маърифатга тарғиб қилиш, ўрганаётган ҳар бир илмларини чуқур ва ҳар томонлама ўрганишга чақириш деб эътироф этади[14. 1913].

Фарғона жадидчилик ҳаракатининг кўзга кўринган миллат зиёлиларидан бири Обиджон Маҳмудов ҳам бу борада фикр юритиб, “Газета надур ва на учун лозим” номли мақоласида аҳолини газетага нисбатан дастлабки муносабатлари ҳақида ёзар экан, биз туркистонликлар учун ... газетани нима эканлигини билмай туриб, ҳар нарсани яхшилаб билмагунча, унга яхши кўз билан қаралмайди. Туркистон аҳли анча ибтидоий ҳолда қолганлиги сабабли ҳали газетани афзаллик жиҳатларини тушуна олмаётгани, энди миллат зиёлилари уларга бир қадар тушунча бериб, уларни янгиликка нисбатан муносабатларини ўзгартираётганликларини эътироф этади. Муаллиф газетага баҳо берар экан, газета бутун дунёдаги яъни миллатларнинг тирикчилик йўллари, оламдаги даражалари ва ҳам инсоният оламининг тараққиёти учун лозим бўлган саъй ва ҳаракатлари тўғрисида бир-бирлари билан маслаҳатлашиш учун керак бўлган бир воситадир, деб баҳо беради[19. 1914].

Газета нима ва нима учун кераклигини тушунтириш учун ҳаракат қилиб, одамзод бошқа ҳайвонлардан нутқлари, сўзлашлари, ақл ва заковат, тиллари

билан фарқ қиладилар. Ҳайвонлар ҳам одамга ўхшашдирлар, аммо уларда сўзлашмоқ шарафи йўқ ва ҳам одамлар вақтлари қанча оз бўлса ҳам ақл заковатлари билан кўп фойдалик иш қилишлари мумкин, шунингдек, одамзод ақлига келган ҳар бир ишни ўз билганича, ёки бошқалар билан бирга амалга оширишга қодирдирлар, - дейди. Инсонларда пайдо бўлган фикр, ёки ақлига келган нарса ёлғиз ўзига эмас, эҳтимол ўз шаҳри халқига, ўз миллатига, ёки бутун дунёга фойдалик бўлиши мумкин. Агар ўзига фойдалик бир нарса бўлса, буни айтишга ҳожат йўқдир. Агар шаҳри халқига, ёки ўз миллатига, ва ё бутун дунёга фойдалик бир нарса бўлса, албатта бу сўзни майдонга чиқариб, айтиши лозимдир. Фараз қилайлик, оқил одамнинг ақлига келган нарса ўз шаҳри халқига фойдалик бир нарса бўлсин. У замон ўша шаҳар халқининг ҳар бирининг олдига бориб айтсинми? Агар бутун миллатга фойдалик бир нарса бўлса у замон, бутун ер юзида бўлган миллатларнинг ҳар бирининг олдига бориб айтиб келсинми? Ажабо! Бу мумкинми? – асло мумкин эмас. Бас, у ҳолда ўшал одамнинг ақлига келган фойдалик ва зарур бўлган фикридан бутун халқни фойдаланишдан маҳрум қилдириш дурустми?  Ва ёки бир илож қилиб ўша фикрини бутун миллатига билдириши керакми? – албатта билдириши керак. Бинобарин, бу ишнинг энг биринчи чораси, газета воситаси билан билдиришликдир[19. 1914], деб хулоса қилади.

Газетанинг афзаллиги, халққа жуда катта фойда келтириши борасида Фарғона водийсининг кўзга кўринган жадидларидан Ашурали Зоҳирий томонидан билдирилган фикрлари ҳам муҳим аҳамиятга моликдир. “Садойи Фарғона” газетасининг биринчи сонида “Сўз боши” номли мақоласи билан иштирок этган Ашурали Зоҳирий миллат равнақи ва миллий меросни сақлашга чақиради ва халқни маънавий тикланиши зарур бўлган пайтда буни амалга оширилишида катта ёрдамчи бу газета эканлиги, улар ҳар бир халққа ходисалардан баҳобар бўлишда, янгиликларни билишга имкон беради, деган

мулоҳазани илгари суради. Газетасиз миллат тилсиздир, инсон ҳаёти учун сув ва ҳаво зарур бўлгани каби, миллат ҳаётини сақлаб қолишда ҳам адабиёт ва газета зарур эканлигини эътироф этади[8. 1914].

Газета ҳар бир миллатнинг таржимоники, уни ўқиган одамга билмаган нарсаларини билдиради, ҳамда, миллатнинг муддаосини бошқаларга етказади. Бир сўз билан айтганда газета - ҳар бир миллатнинг тилидир. Газетасиз миллат тилсиздир, зеро тили ва адабиёти йўқдир,- дейди муаллиф. Яна у газетани қанчалик зарур эканлигини тушунтириш маъносида, ҳар кимнинг дунёда тирик турмоғи учун ҳаво билан сув қандоқ лозим бўлса, ҳар қавмнинг ҳаёти ва саодати учун у миллатнинг матбуоти ва адабиёти шунчалик муҳим бўлмоғи лозим, - дейди.

Мақолада миллий газетанинг ташкил этилишига сабаб бўладиган ҳолатларни баён этар экан муаллиф, ҳар бир миллатнинг ўзига ёрдами тегадиган адабиёти бўлганидек, ҳар бир қавмнинг ҳам ўзига хос шева ва қадимий турмуш тарзи бўлишлигини, аммо булар бир–бирига ўхшамаслигини эътироф қилиб, мисол сифатида татар, бошқирд, қирғиз, қозоқ, туркман, ўзбек, сарт (форсий билан аралашган турк), турк қавмидан бўлсалар ҳам, ҳар қайсиларини лаҳжа ва шеваларида ўзига хослик борлигини эътироф этади. Шунга қарамай, улар қийналиброқ бўлсада, бир-бирларини китобларини англашларини, аммо авом халқ буларни мақсад муддаосини  ўзиникидек тўлиқ ва аниқ англай олмаслигини айтиб, муаллиф буни шунга қиёслайдики, ўша даврда шаҳар худудида донғи чиққан одам бўлсада уни ҳамма танимаганидек, китоблардаги энг фойдалик асарларни ёки газеталардаги энг муҳим мақолаларни марварид тошичалик қадр қиммати бўлмайди, - дейди. Ёки, рус тилида ёзилган ва бизнинг миллатимиз учун жуда зарур бўлган бирор бир эълон ёки фармойиш бўлса уни маҳаллий миллат вакилларини қай даражада фаҳмлашларини оладиган бўлсак, бу борада кўп ишларимизда ўнғайсизлик мавжуд,- деб кўрсатади муаллиф. Ашурали Зоҳирий

бу ҳолни Туркистондан бошқа худудлар билан таққослаб, Оренбургдан чиқадиган газеталар ўз маҳаллий шеваларида, Кавказ, Қримда чиқадиган газеталар ҳам ўз шевалари ва мақомларини очиқ кўрсатиб туради. Бу газета ҳам маҳаллий миллат шеваси ва мақомини кўрсатиб туришлигини назарда тутиб, газета чиқармоққа жазм қилганликларини ёзади[8. 1914].

Ашурали Зоҳирий газетанинг афзаллиги ҳақида, газета бир офтобга ўхшайдики, ҳар қоронғуликни ёриғлатар, ҳар хомни пиширар, ҳар мазасиз меваларга маза берар. Газета бир пок нотиқки, кўнгилли воизки, унга қулоқ солиб айтган йўлидан юрганларга касофат, адоват, ҳар турли инсон номига ярашмайдиган, ёмон хулқлардан қайтариб, унинг ўрнига иффат, номус, латиф, марҳамат, иттифоқ йўлларига бошлайди. Газета бир ҳукми ҳолиққа, яъни докторга ўхшарки, инсонни баданида, ранг-рўйи, қувват озиғида бўлган ҳар бир дардларини бир-бир айтиб, томирларини ичидаги бузилган қонларини чиқариб, соф бир инсон бўлиш дорисини беради. Газета қодир бир дорулфунун еткизган муаллим, мударрисга ўхшарки, у муаллимдан дарс олувчиларга илм ва фандан, инсон оламидан, ҳайвон оламидан, маданиятдан, ҳуқуқ илмидан, меъморчиликдан, тирикликдан маълумотлар бериб, инсонни комил бўлишига хизмат қилади[8. 1914], - деган фикрларни ёзади.

Обиджон Маҳмудов газетани афзаллигини тушунтиришда давом этиб, ҳох уламоларимиз, ҳох эшонларимиз ва ҳох олимларимиз, ким бўлса бўлсин бу миллати исломиянинг қайси бир ишдан ва қайси бир феълидан норози бўлсалар қўлларига қалам оладиларда, ўша ишнинг ёмонлигини бутун атрофлича, далиллари билан ёзиб, газета воситаси билан бутун халқга билдирсалар, унда бир қанча одам шу амри маъруфдан фойдаланиб, ёмон феълларини йўқотишга ҳаракат қиладилар. Бу билан у инсон ҳам елкасидаги юкидан ҳалос бўлиб, Аллоҳ томонидан буюрилган ҳидоятни адо қилган бўлиб, масъулиятидан қутулса керак[19. 1914], деб эътироф этади.

Муаллиф муаммони таҳлил қилишда давом этиб, ва яна хазрати расули акрам соллоллоху алайхи вассаллам хазратлари сафарга чиқинглар ва мусофирликни ихтиёр этинглар, чунки, сафарда кўп фойда бордир. Баданларингиз ҳаракат билан, динларингиз ибрат билан сиҳат топар, деган Ҳадиси шарифлари билан аҳволи оламдан хабардор бўлишликнинг диний эътиқод назаридан на қадар фойдалик бўлганини билдирадилар. Ҳар одамга саёҳат қилиш билан аҳволи оламдан хабардор бўлиш қила олинадиган ишмас. Бу шарафга эришган одамлар оз бўладилар, ҳолбуки, бу ибрат оларлик иш шарафига бутун миллати исломия эришишган бўлиши даркор эди[19. 1914], деб ҳисоблайди. Энди бир иш қилиш керак, бутун миллати исломия олами аҳволидан хабардор бўлиб, ибрат олиш шарафиға эришсинлар. Энди бунинг учун бирламчи илож ва чора газета ўқишдир. Чунки, газета ўқиган одам ҳар куни олам аҳволидан хабардор бўлади. Масалан, бирор миллат иккинчи миллатга нисбатан ҳақсиз бир иш қилди ва бошқа миллат қиёматгача бутун дунёни миннатдор қиладиган бир иш қилди. Фалон шаҳарда инсоният оламининг ривожи ва саодатига фойда келтирадиган бир мошина ихтиро қилинди. Хуллас калом, бунга ўхшаш хабарлар доимо ўқилади ва ёмон бўлганларидан инсонга бир назорат ҳосил бўлади. Яхши бўлганларини орзу қилиниб, хуш кўрилади. Ундай ҳолда хазрат пайғамбаримизнинг мазкур ҳидоятларининг фармонига лойиқ иш қилинган бўлиб, бунинг фойдаси миллатга ҳосил бўларки, қандай яхши бир шарафдир[19.1914].

Обиджон Маҳмудов Аллоҳ таолони каломида (Қуръони карим) ҳар ишни маслаҳат билан қилиш кераклигига амр қилинганлиги, фарз қилинганидан ташқари авлоди исломга ҳалал берадиган бирор масалага дуч келинса, авлоди исломият фасоди аҳлоққа мубтало бўлмасин. Буларни даф  қилишнинг чораси бир одамнинг кўнглига келур, ёки бир иш бордирки, уни қилинса давлатимизга, динимизга буюк фойдаси тегади. Бирор ишнинг ҳал қилишнинг янги йўли бирор

одам томонидан ўйлаб топилган бўлса, бу ишни тўғри ёки нотўғри эканлигини билиш учун одамлар билан қандай маслаҳат қилсин. Фараз қилайлик, ўз шаҳрида бўлган бир қанча одамлар билан маслаҳатлашди ҳам дейлик, алҳолки, бошқа шаҳар, бошқа мамлакатларда оқил ва доно одамлар бор. Улар эшитсалар яна яхшироқ бирор маслаҳат чиқиши мумкин, бунинг учун ҳам биринчи чора газитадир. Чунки, у оқил, доно одамлар бу фикрни газита воситаси билан эшитадилар. Жудаям фойдалик деб ўйланган бу фикрда бир зарар бор бўлса, дарҳол газета билан у одам ҳам фикрини майдонга чиқаради. Мазкур фикрда бўлган зарарларнинг далиллари билан билдиради. Газетанинг буларга ўхшаш яна қанча фойдалари бордурки, биз узоқ давом эттиришни лозим кўрмадик[19. 1914], дейди.

Ашурали Зоҳирий Тошкентда чиқарилаётган газеталар сифатида “Тараққий”, “Тужжор”, “Хуршид”, “Осиё” газеталарини, Бухорода “Бухоройи шариф”, “Тўрон”, Самарқандда “Самарқанд” газетаси ва “Оина” журналини мисол келтириб, бу борада бизнинг Туркистон, яъни Фарғона офтобсиз ер, ўгитсиз халқ, ҳаким ва табибсиз миллат, муаллим кўрмаган одамдек бўлиб қолар эди[8. 1914]**.**

Фарғона водийси жадидлари миллат тараққиёти йўлида нимаики хайрли иш бўлса, албатта унга бош қўшади. "Садойи Фарғона", “Садойи Туркистон”, “Туркистон вилоятининг газити” каби бир қатор газета саҳифаларида ижтимоий, сиёсий, адабий-бадиий, иқтисодий, маданий-маърифий, диний мавзуларга оид кўплаб мақолалар нашр этилар эди. Унинг саҳифасида турли хил эълонлар, бошқа газеталардан олиб босилган мақолалар ҳам чоп этилади. Газета саҳифаларида халқимиз маиший турмушидаги салбий ҳолатлар кескин танқид қилинади, кишиларни илм-маърифатга, аҳлоқ ва диёнатга, тараққиётга тарғиб қилинади. Фарғона водийси жадидлари томонидан бугунги кунгача етиб келган

адабий мерос ижтимоий ҳаётимизни ривожи ва тараққиётига ҳали ханuz хизмат қилиб келмоқда.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**


1. Абдуллабек Мулла. Ҳаёл ва орзу // Садойи Фарғона. 1914. 36-сон. 29-июн;
2. Авлоний А. Таржимаи ҳол. -Т., 1924.
3. Бобобеков. Ҳ.Ибратнинг «Тарихи Фарғона» асарига ёзилган сўзбоши. -Т.: Камалак. 1991. -Б.268.
4. Ваҳоб ал Ибодий. Туркистон аҳли нима учун инқирозга юз тутдилар. Садойи Фарғона. 1914.6-сон. 20-апрель;
5. Васлий. Маданият. Садойи Фарғона. 1914.69-сон. 2-октабр;
6. Девони Муҳсиний. ЎзР ФА ШИ. Қ. 7392 В, 111[а], 113[а].
7. Ежегодник Ферганской области. – Выпуск 1903. Новый Маргелань. 1903. – Том II. С. 23;
8. Зоҳирий А. Сўз боши.//Садойи Фарғона. 1914 йил. 1-сон. Б.1-2. 3-апрел.
9. Ибрат И. ЛуғатиСитта ал-сина. – Т.: Ильин. 1901.;
10. Ибрат И. Санъати Ибрат қалами Мирражаб Бандий. Матбаи Исҳоқия. -Тўрақўрғон. 1908;
11. Ибрат И. Жомеъ ул хутут. Матбааи Исҳоқия. – Наманган. 1912. ЎзР ФА ШИ. Т. Инв. № 621.
12. Ибрат И. Мезон-ул замон. ЎзР ФА ШИ. Қ, Инв № 11618:
13. Иброҳим Д. Ҳақ сўз//Туркистон вилоятининг газ. 1908. № 56. 20 июль.
14. Ибрат И. Из Намангана//Туркистон вилоятининг газити. 1913. 20 июнь.

15. К.Ф. Фарғона одамлари нечук тараққий топсин. Садойи Фарғона. 1914. 66-сон. 27-сентябрь;

16. Маҳмудов О. Мақсад ва маслак.// Садойи Фарғона-1914. -3 апр.

17. Муҳбир. Янги масжид ва мактаб // Садойи Фарғона. 1914. 61-son.19-сентябрь;

18. Маҳмудов О ва бошқ. “Муддаойимизга мувофиқ”. // Садойи Фарғона газетаси. 1914 йил. 3 апрел.

19. Маҳмудов О. “Ғазита надур ва учун лозим”. // Садойи Фарғона газетаси. 1914 йил. 10 апрел.

20. Сайфулиддин С. Хатна тўйи. Садойи Фарғона. 1914. 11-сон, 2-май;

21. Туркистон мактуботи// Янги Иқбол. -1915.-24 нояб.

22. Таҳрирчи. Ахборот//Туркистон вилоятининг газити. 1901. № 30. 4 авг.;

23. Шермуҳаммадбой ўғли Соҳибжон. Истиқбол қайғуси. Садойи Фарғона. 1914.67-сон. 28-сентябрь.

24. Ғурбат. Девони Ғурбат. ЎзР ФА ШИ. Қ. Инв. № 10067;

25. Ҳайрихоҳ. Умумий кутубхона ва қироатхонага эҳтиёж. Садойи Фарғона. 1914.31-сон. 18-июн;

# HOW BRITISH WRITERS SHOWED “THE OTHER” IN COLONIAL TIMES

**Aydin Ibraimova Madiar kizi**

Student, Chirchik State Pedagogical University

aidinibraimova99@gmail.com

Scientific adviser: **Abduramanova Diana Valeryevna**

Head of the English theory and practice department, Chirchik State Pedagogical University

diana1207saliyeva@gmail.com

***Abstract:*** *This article explores how British writers represented “the Other” during the colonial era, examining how literature reflected and shaped imperial ideology. Early colonial narratives often justified empire through depictions of non-European peoples as inferior, exotic, or childlike, reinforcing the sense of British moral and cultural superiority. Yet, as the empire matured, literary portrayals became more complex and self-critical. Authors such as Rudyard Kipling, E.M. Forster, and George Orwell began to question the legitimacy of imperial power and highlight the psychological and moral consequences of colonization. By tracing this evolution, the article reveals how literature not only served as a tool of empire but also as a means of resistance, reflection, and eventual critique.*

***Keywords:*** *British literature, colonialism, imperialism, the Other, postcolonial identity, Rudyard Kipling, E.M. Forster, George Orwell*

## Introduction

During the height of the British Empire, literature became one of the most powerful instruments through which cultural superiority and imperial ideology were expressed. British writers did not merely describe distant lands and peoples; they shaped the way the empire understood itself and those it ruled. Through novels, poems, and travel narratives, they constructed an image of “the Other” — the colonized subject — as fundamentally different, exotic, and often inferior. This literary process both

reflected and reinforced the political realities of domination, control, and cultural hierarchy that defined the colonial period.

The concept of “the Other,” later theorized by Edward Said in *Orientalism* (1978), serves as a key framework for understanding how colonial discourse operated. By defining non-European peoples as irrational, emotional, and primitive, British writers simultaneously defined themselves — and their readers — as rational, civilized, and morally superior. The colonial imagination depended on this opposition, turning difference into justification for empire. Yet, even within these texts, moments of doubt and ambiguity emerge, revealing the tension between admiration and fear, empathy and prejudice.

This article explores how British writers of the colonial era represented “the Other,” focusing on the evolution of these portrayals from affirmation of imperial values to moral and psychological critique. By analyzing the works of Daniel Defoe, Rudyard Kipling, Joseph Conrad, and E.M. Forster, the study aims to trace the transformation of British literary identity as it confronted its own empire — and the human cost of domination.

## Orientalism and the construction of difference

The representation of “the Other” in British colonial literature was closely tied to the intellectual and cultural framework later defined as Orientalism. Long before Edward Said articulated the term, writers of the eighteenth and nineteenth centuries were already shaping a literary version of the East — a world imagined as mysterious, sensual, and irrational. This depiction of non-European societies served both to fascinate British readers and to confirm their sense of superiority. Through novels, travel narratives, and adventure tales, the “Orient” became not a real place, but a projection of Western fantasies and fears, functioning as a moral and cultural mirror for the British self.

In works such as Daniel Defoe’s *Robinson Crusoe*, the act of discovery and domination over the foreign other is portrayed as a civilizing mission. Crusoe’s relationship with Friday symbolizes the European claim to moral and intellectual authority over “savage” peoples. The narrative presents mastery and conversion as forms of benevolence, masking the violence and exploitation inherent in colonial expansion. This dynamic of dominance and moral justification laid the foundation for later literary representations, in which British identity was strengthened through contrast with colonized subjects.

As the empire expanded, writers like Rudyard Kipling developed these ideas into more complex imperial narratives. In stories such as *The Man Who Would Be King* and poems like *The White Man’s Burden*, Kipling depicted empire as both duty and destiny — a burden of the “civilized” to uplift the “uncivilized.” The Other is thus constructed not only as inferior, but as dependent on British control for moral and social progress. Yet, beneath this rhetoric of duty lies an anxiety about imperial stability — a fear that the “native” could resist or even reverse the hierarchy imposed upon him.

Through Orientalist imagery, British literature defined cultural difference in absolute terms: the rational versus the emotional, the modern versus the primitive, the Christian versus the heathen. Such binaries justified colonization as a moral enterprise, while simultaneously revealing deep contradictions within imperial ideology. Even as writers celebrated conquest, their fascination with the exotic exposed a subconscious attraction to the very cultures they sought to dominate. This tension — between control and curiosity — became central to how British literature imagined the colonial world and its Others.

## The image of the colonized: between fascination and fear

In British colonial literature, the figure of the colonized subject embodies a profound duality — a blend of fascination and fear that reveals the empire’s psychological complexity. Writers often portrayed native peoples as exotic, noble, and

deeply connected to nature, yet at the same time as irrational, dangerous, or morally corrupt. This contradiction allowed British authors to maintain both emotional distance and moral justification for imperial control. The colonized “Other” became a symbol through which British anxieties about race, order, and power were expressed.

Rudyard Kipling’s works exemplify this ambivalence. In *The Jungle Book* and *Kim,* he presents Indian characters with affection and curiosity, showing their cultural richness and wisdom, yet always within a hierarchy that privileges the European perspective. The British characters serve as mediators of order and civilization, while the native figures remain trapped within the boundaries of mystery and inferiority. Kipling’s portrayal thus reflects both admiration for the East and an insistence on its need for Western guidance — a literary echo of imperial paternalism.

Joseph Conrad’s *Heart of Darkness* pushes this ambivalence to its extreme. The African landscape and its inhabitants are described as both hypnotically beautiful and terrifyingly alien. The “darkness” Conrad portrays is not only geographical but moral and psychological, symbolizing Europe’s fear of its own hidden savagery. Through Marlow’s journey, the novel exposes the instability of the very boundaries that separate the civilized from the primitive. The colonized becomes a mirror in which the colonizer confronts his own moral corruption.

The image of the colonized thus functions as a projection of imperial desire and guilt. It reveals how British literature both reinforced and questioned the ideology of empire. The fascination with cultural difference often masked deeper insecurities — the fear of losing control, of the empire collapsing under its own contradictions. By turning the colonized into a literary symbol rather than a human being, British writers revealed as much about themselves as about those they claimed to represent.

## The crisis of empire and self-reflection

By the late nineteenth and early twentieth centuries, the confident tone of early imperial literature began to fade, giving way to doubt and moral questioning. As the

British Empire reached its peak, writers started to see its contradictions more clearly: the gap between the ideals of civilization and the realities of oppression. The portrayal of "the Other" evolved from exotic admiration to ethical self-reflection. Authors such as E.M. Forster and George Orwell used their fiction to expose the psychological and moral costs of empire — both for the colonized and the colonizer.

E.M. Forster's *A Passage to India* captures the tension between colonial authority and human connection. The novel's central question — whether true friendship between the British and Indians is possible — reveals the emotional failure of imperial rule. Forster's characters struggle to understand one another, divided by prejudice and power. The Indian landscape, once a symbol of mystery and allure, becomes a setting for alienation and misunderstanding. Through this portrayal, Forster dismantles the illusion of moral superiority and presents empire as a structure built on fear, not justice.

George Orwell, in his essay *Shooting an Elephant*, continues this critique from a personal and psychological angle. As a colonial officer in Burma, Orwell portrays himself as both oppressor and victim — trapped by the expectations of empire. His decision to kill the elephant, against his conscience, symbolizes the moral paralysis created by imperial power. The colonizer, he suggests, is enslaved by the same system that dominates the colonized. Through guilt and self-awareness, Orwell reveals the emptiness of the imperial ideal and the internal corruption it breeds.

The late colonial literature thus transforms "the Other" from an object of representation into a catalyst for introspection. British writers no longer saw the empire as a field of moral duty but as a burden of hypocrisy and self-deception. The focus shifts from domination to conscience, from control to collapse. This shift marks the beginning of a literary reckoning — a recognition that the real darkness of empire lies not in the colonized world but in the heart of imperial identity itself.

## Conclusion

The image of “the Other” in British colonial literature evolved alongside the empire itself — from confident justification to critical reflection. Early writers often viewed colonized people through a paternalistic lens, presenting them as exotic, naïve, or in need of guidance. Such portrayals reinforced the moral authority of the British Empire and legitimized its expansion under the guise of civilization and progress.

However, as time passed and the contradictions of imperialism became harder to ignore, many authors began to question the very foundations of this worldview. Writers like Rudyard Kipling, while still shaped by imperial ideology, revealed tensions between duty and conscience. Later figures, including E.M. Forster and George Orwell, turned colonial settings into moral laboratories — spaces where the ethics, psychology, and humanity of the empire were tested and often found wanting.

Ultimately, British literature became a mirror reflecting both the power and the decay of empire. The colonial “Other” was no longer simply a distant figure but a moral challenge — a presence forcing British writers to confront their nation’s complicity in oppression. Through this process, literature transformed imperial discourse into a space of doubt, empathy, and eventual reckoning, paving the way for postcolonial thought and a more self-aware understanding of cultural identity.

**References:**

1. Boehmer, E. (2005). *Colonial and Postcolonial Literature: Migrant Metaphors*. Oxford: Oxford University Press.
2. Brantlinger, P. (1988). *Rule of Darkness: British Literature and Imperialism, 1830–1914*. Ithaca: Cornell University Press.
3. Childs, P., & Williams, P. (2017). *An Introduction to Post-Colonial Theory*. London: Routledge.
4. Esty, J. (2019). *Unseasonable Youth: Modernism, Colonialism, and the Fiction of Development*. Oxford: Oxford University Press.
5. https://plato.stanford.edu/entries/orientalism/

6. https://www.britannica.com/topic/Orientalism-by-Said

# FREEDOM AND ADVENTURE IN JACK KEROUAC’S ON THE ROAD

**Aydin Ibraimova Madiar kizi**
Student, Chirchik State Pedagogical University
aidinibraimova99@gmail.com
Scientific adviser: **Abduramanova Diana Valeryevna**
Head of the English theory and practice department,
Chirchik State Pedagogical University
diana1207saliyeva@gmail.com

**Abstract:** Jack Kerouac’s *On the Road* stands as one of the most significant literary representations of freedom and adventure in twentieth-century American literature. Set in postwar America, the novel captures the restlessness of a generation yearning for authenticity and spiritual liberation. Through the characters of Sal Paradise and Dean Moriarty, Kerouac explores the endless pursuit of meaning, movement, and self-discovery. The open road becomes both a physical space and a spiritual metaphor, symbolizing the characters’ search for truth and belonging. This paper examines how freedom and adventure function not merely as external experiences but as inner journeys toward understanding one’s identity and purpose in an ever-changing world.

***Keywords:*** *Jack Kerouac, On the Road, Beat Generation, freedom, adventure, self-discovery, American literature*

## Introduction

Jack Kerouac’s *On the Road* stands as one of the most defining works of twentieth-century American literature. Written in the wake of World War II, the novel captures the restless energy of a generation disillusioned by materialism, conformity, and the rigid social norms of postwar America. Through the spontaneous journeys of

its protagonists, Sal Paradise and Dean Moriarty, Kerouac expresses a longing for a more authentic existence — one built on freedom, adventure, and self-discovery.

The novel reflects the ideals of the Beat Generation, a literary and cultural movement that sought to break away from traditional values and explore the raw, unfiltered experience of life. Freedom in *On the Road* is not merely physical — it represents a spiritual and emotional escape from the boundaries of mainstream culture. Adventure becomes both a literal and symbolic journey toward meaning, authenticity, and transcendence.

Kerouac’s innovative writing style, infused with jazz rhythms and stream-of-consciousness narration, transforms the road into a metaphor for the boundless possibilities of human experience. This article will explore how the intertwined themes of freedom and adventure define the novel’s philosophical essence, shaping both its narrative structure and its lasting impact on modern literature.

**The idea of freedom in beat culture**

The concept of freedom in *On the Road* lies at the heart of Jack Kerouac’s vision of the Beat Generation. For Kerouac and his contemporaries, freedom meant rejecting the conservative ideals of postwar America — the pursuit of comfort, stability, and success — in favor of a more spontaneous and authentic way of living. The novel’s protagonists, Sal Paradise and Dean Moriarty, embody this rebellion through their constant movement, their refusal to settle, and their desire to live in the moment. The road becomes a symbol of endless possibility — a space where one can escape societal expectations and rediscover a sense of raw existence.

This freedom is not limited to physical travel. It represents a deeper spiritual and emotional liberation. Through their journeys, Sal and Dean seek to experience life in its purest form, free from moral restrictions and the monotony of conformity. Kerouac presents their lifestyle as a quest for enlightenment, a search for truth that lies beyond

material comfort and social approval. The characters' restless motion across America mirrors an inner journey toward self-awareness and understanding.

At the same time, Kerouac portrays freedom as something fragile and paradoxical. While the open road promises escape, it also exposes the limits of idealism. The desire for total freedom often leads to chaos, alienation, and moral confusion — showing that liberation without purpose can become another form of imprisonment. Through this duality, *On the Road* reveals the tension between the longing for freedom and the human need for meaning and belonging.

Ultimately, Kerouac's portrayal of freedom captures the spirit of the Beat Generation — an age of rebellion against conformity, a cry for authenticity, and a celebration of life as an ongoing journey. The novel invites readers to question whether true freedom can ever be fully attained or whether it is forever a pursuit along the endless road.

## The spirit of adventure and the search for identity

Adventure in *On the Road* is more than a backdrop for the story — it is a driving force that shapes the characters' identities and philosophies. For Sal Paradise, the narrator, every journey across America becomes a way to confront his own limitations and rediscover his place in the world. The open road symbolizes a kind of personal rebirth, where each new city, encounter, and experience allows him to redefine himself. Dean Moriarty, on the other hand, embodies the purest form of adventure — impulsive, unpredictable, and endlessly curious. His energy fuels the narrative, turning the act of travel into a spiritual pilgrimage.

Kerouac presents adventure as a rebellion against the monotony of modern life. The characters' travels through the landscapes of America — from the quiet towns of the Midwest to the chaos of New York and the wild beauty of the West — reflect a yearning for a world untouched by conformity. The act of movement itself becomes a

form of worship, a spontaneous dance with life that rejects the artificial order of society. Adventure, in this sense, becomes synonymous with authenticity and vitality.

Yet, beneath the excitement of endless motion lies a profound search for meaning. Both Sal and Dean realize that adventure cannot fill the spiritual void they carry within. Their encounters — with friends, lovers, and strangers — become moments of fleeting connection that fade as quickly as they appear. The road offers freedom, but it also isolates them, showing that the pursuit of adventure can lead to both discovery and emptiness.

Through this duality, Kerouac reveals that adventure is not an escape from reality but a confrontation with it. The constant movement across geographical and emotional landscapes mirrors the inner turbulence of the postwar generation — a generation searching for identity, authenticity, and purpose in a world obsessed with order and control. The spirit of adventure in *On the Road* thus becomes both a celebration of life's unpredictability and a meditation on the human desire to belong while remaining free.

**The road as a symbol of rebellion and transcendence**

In *On the Road*, the road itself functions as the novel's central metaphor — a symbol of rebellion, discovery, and transcendence. For the Beat Generation, the road represented a rejection of conventional values and an embrace of the unknown. Every mile traveled by Sal and Dean is an act of defiance against a world that demands conformity. By choosing the road over stability, they reject the suburban ideal of comfort and success, seeking instead the raw experience of life in motion. The endless highways of America become a map of resistance, charting a spiritual and emotional revolt against the emptiness of modern civilization.

Kerouac transforms the physical act of travel into a quest for transcendence. The journey becomes a sacred ritual — a means of reaching beyond the limitations of the material world. Sal's narration often blurs the line between the ordinary and the divine, portraying moments of beauty and connection as glimpses of something higher. The

spontaneous rhythm of the narrative itself mimics the freedom and fluidity of the road, creating a literary experience that feels alive, unpredictable, and deeply human.

At the same time, the road embodies the contradictions of the Beat philosophy. It offers freedom but denies stability; it opens new horizons but never provides closure. The constant motion that once promised salvation eventually becomes exhausting, revealing the impossibility of permanent transcendence. Kerouac’s characters are caught in a cycle of pursuit — chasing meaning that always seems just out of reach. The road, once a symbol of hope, turns into a reminder that absolute freedom can also lead to alienation.

Ultimately, the road in *On the Road* stands as a powerful metaphor for both rebellion and spiritual longing. It reflects humanity’s eternal desire to move beyond boundaries — physical, social, and existential. Through this symbol, Kerouac captures the essence of his generation: restless, idealistic, and forever searching for truth on the endless highway of life.

**Conclusion**. Jack Kerouac’s *On the Road* captures the restless spirit of a generation yearning for liberation from the suffocating order of postwar America. Through its vivid portrayal of Sal Paradise and Dean Moriarty, the novel transforms freedom and adventure into philosophical quests rather than mere acts of rebellion. The open road becomes a living symbol — a place where characters seek truth, authenticity, and connection in a world that values material success over spiritual fulfillment.

Kerouac’s vision of freedom is both inspiring and tragic. His characters experience moments of transcendence and joy, yet they remain haunted by loneliness and disillusionment. The novel reveals the paradox of liberation: to live without limits is to live without stability. Still, *On the Road* refuses to condemn this pursuit — instead, it honors the courage to chase meaning in a world that discourages questioning. Through rhythm, spontaneity, and raw emotion, Kerouac crafts a narrative that celebrates imperfection as a vital part of being alive.

Ultimately, *On the Road* stands as more than a chronicle of youthful wanderers; it is a reflection on the universal human desire to break free, to explore, and to understand. Freedom and adventure, as Kerouac presents them, are not destinations but continuous journeys — acts of faith in movement itself. The novel endures as a timeless reminder that life’s truest beauty lies not in arrival, but in the road that leads us there.

**References**


1. Amundsen, M. (2021). Green Jack: Naïveté, Frontier and Ecotopia in On the Road. Humanities, 10(1), 37.
2. Amundsen, M. (2015). *On the Road: Jack Kerouac’s Epic Autoethnography*. *Suomen Antropologi – Journal of the Finnish Anthropological Society*, 40(3).
3. Court, E. (2016). *Off the Beaten Track: Jack Kerouac on Robert Frank*. *MoveableType*, 8.
4. Obernesser, S. (2020). *What It Means to Be On The Road: Mobility and Petrocultures During the Mid-Twentieth Century*. ISLE: Interdisciplinary Studies in Literature and Environment, 27(3), 491-512.
5. https://www.sparknotes.com/lit/ontheroad/
6. https://cyrusalderwood.substack.com/p/the-timeless-themes-of-on-the-road
7. https://study.com/academy/lesson/jack-kerouac-on-the-road-and-other-poems.html

# ABDULLA AVLONIY YODGORLIK MUZEYI TARIXI

**Mirxakimova Feruza Xoldorjon qizi**

University of Business and Science, Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi,

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada mashhur jadid ma’rifatchisi, pedagog, jurnalist va davlat arbobi Abdulla Avloniyning ilmiy-ma’rifiy merosini targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyining tashkil topish tarixi, rivojlanish bosqichlari va bugungi holati haqida so‘z yuritiladi. Ushbu muzey Avloniy shaxsiyatini har tomonlama yorituvchi eksponatlar, hujjatlar, foto va materiallar asosida zamonaviy tarzda tashkil etilgan. Maqolada muzeyning tuzilmasi, ekspozitsiyalari, tarixiy qadriyatlarni saqlashdagi ahamiyati va ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni tahlil etiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Abdulla Avloniy, yodgorlik muzeyi, jadidchilik harakati, pedagogika, ma’rifatparvarlik, muzey tarixi, eksponatlar, kutubxona, teatr, zamonaviy ekspozitsiya.*

# ИСТОРИЯ МЕМОРИАЛЬНОГО МУЗЕЯ АБДУЛЛЫ АВЛОНИ

**Мирхакимова Феруза Холдоржон кызы**

**Университет бизнеса и науки,**

**Старший преподаватель кафедры социальных наук,**

**Доктор философии (PhD) по историческим наукам**

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются история создания, этапы развития и современное состояние Мемориального музея Абдуллы Авлония, имеющего большое значение в пропаганде научного и образовательного наследия известного джадидского просветителя, педагога, журналиста и государственного деятеля Абдуллы Авлония. Музей организован в современном ключе на основе экспонатов, документов, фотографий и материалов,*

*всесторонне раскрывающих личность Авлония. В статье анализируются структура музея, его экспозиции, значение в сохранении исторических ценностей и роль в образовательном процессе.*

***Ключевые слова:*** *Абдулла Авлоний, мемориальный музей, движение джадидов, педагогика, просветительство, история музея, экспонаты, библиотека, театр, современная экспозиция.*

## HISTORY OF THE ABDULLA AVLONIY MEMORIAL MUSEUM

**Mirkhakimova Feruza Kholdorjon kizi**
**University of Business and Science,**
**Senior Lecturer, Department of Social Sciences,**
**Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences**

***Annotation:*** *This article discusses the history of the establishment, stages of development and current state of the Abdulla Avloniy Memorial Museum, which is of great importance in promoting the scientific and educational heritage of the famous Jadid enlightener, educator, journalist and statesman Abdulla Avloniy. This museum is organized in a modern way based on exhibits, documents, photos and materials that comprehensively illuminate Avloniy's personality. The article analyzes the structure of the museum, its expositions, its importance in preserving historical values and its role in the educational process.*

***Keywords:*** *Abdulla Avloniy, memorial museum, Jadid movement, pedagogy, enlightenment, museum history, exhibits, library, theater, modern exposition.*

**Kirish.** O'zbekiston milliy uyg'onish davri tarixida jadidchilik harakati o'zining ijtimoiy, madaniy va ma'naviy mazmuni bilan xalq tafakkurida chuqur iz qoldirgan hodisa hisoblanadi. Ushbu harakat vakillari orasida Abdulla Avloniy o'zining keng qamrovli ma'rifatparvarlik, pedagogik, jurnalistik va jamoatchilik faoliyati bilan ajralib turadi. U o'z hayoti va ijodi davomida o'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy

taraqqiyotiga, milliy ta’lim tizimini shakllantirishga, yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalashga beqiyos hissa qo‘shgan shaxs sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan.

Abdulla Avloniy hayoti va faoliyatini o‘rganish, uning ma’naviy merosini saqlash va targ‘ib etish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biridir. Shu maqsadda tashkil etilgan Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyi milliy tarix, madaniyat va ta’lim sohalarida katta ahamiyat kasb etuvchi ilmiy-ma’rifiy maskanlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Muzey Avloniy shaxsiyatini, uning jadidchilik harakatidagi o‘rnini, pedagogik qarashlarini, jurnalistik faoliyatini va davlat arbobi sifatidagi xizmatlarini chuqur yorituvchi muhim manba vazifasini bajaradi.

**Asosiy qism.** O‘zbekiston tarixida o‘chmas iz qoldirgan, jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish davrining yetuk namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Avloniy nafaqat adib va pedagog, balki o‘z xalqining ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyoti yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan jamoat va davlat arbobi sifatida tanilgan. Ushbu muzey yillar davomida takomillashib, bugungi kunda zamonaviy formatda faoliyat yuritmoqda. Mazkur maqolada muzeyning tarixiy bosqichlari, ekspozitsion tarkibi va ta’lim-tarbiya sohasidagi ahamiyati keng yoritiladi.

Davlat va jamoat arbobi, jurnalist, jadidchilik harakati namoyondalaridan biri Abdulla Avloniyning boy ilmiy merosini saqlash maqsadida 1968-yilda yodgorlik muzeyi tashkil etilgan. Muzey binosida 1910-1934-yillarda Abdulla Avloniy yashagan. O‘zbekiston kitobsevarlar jamiyati tashabbusi bilan 1988-yilning dekabr oyida adib tavalludining 110 yilligi munosabati bilan Avloniy uy muzeyi nomi bilan rasmiy faoliyatini boshladi.[1]

Keyinchalik muzey Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti binosiga ko‘chirilgan va 1993-yilning 26-dekabrida Avloniy yodgorlik muzeyi nomi bilan ochilgan. Muzey faoliyatining dastlabki yillarida 467 ta eksponatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, “Avloniy

hayoti va faoliyatining ilk sahifalari”, “Avloniy yangi oʻzbek pedagogikasining asoschilaridan biri”, “Avloniyning matbaachilik va muharrirlik faoliyati” va “Abdulla Avloniy ijodi” kabi kichik boʻlimlardan iborat edi. Boʻlimlarda A. Avloniyning hayoti va ijodi davrlar boʻyicha koʻrsatilib, ushbu davrlarga adibning oʻz qoʻli bilan yozilgan tarjimai xolidan koʻchirmalar keltirish orqali izohlar berilgan, adibning oʻzi chop etgan gazetalaridan nusxalar keltirilgan. Bir jihatni alohida ta’kidlash kerakki, muzeyning avvalgi holatida eksponatlar, asosan, saqlash uchun qoʻyilgan boʻlib, tashrif buyuruvchilarda Abdulla Avloniyning umr yoʻli, faoliyati xususida toʻliq taassurot uygʻota olmagan.

Abdulla Avloniyga tegishli noyob buyumlarning shu kungacha saqlanib kelishida adibning umr yoʻldoshi Salomat Islomova va farzandlarining xizmatlari beqiyos. Salomat ayaning vafotidan soʻng bu ishni Xakima Avloniy va Kenja Avloniylar uzoq yillar davom ettirishdi.[2]

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi 231-sonli qarori asosida Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga oʻrgatish milliy-tadqiqot instituti negizida A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tashkil etildi.[3] Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti binosining 1-qavatida Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyi va kutubxonasi joylashgan. Kutubxonada 87 mingdan ortiq fond mavjud boʻlib, kitobxonlar uchun 24 mingga yaqin kitoblar kutubxona zalidan joy olgan. Kutubxona bir vaqtning oʻzida 40 nafar kitobxon foydalanish imkoniga ega boʻladi.

Hozirda yodgorlik muzeyida 291 ta eksponat mavjud.[4] Yodgorlik muzey zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan boʻlib, muzeyning kirish qismida kitoblardan tashkil etilgan arka tashrif buyuruvchining e’tiborini oʻziga jalb etadi.

Muzeyning ekspozitsiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xoʻjayev, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Choʻlpon,

Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda , odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar”- degan fikrlari muzeyning konsepsiyasining asosi hisoblanib ekspozitsiya 4 qismga ya’ni Avloniyning pedagogik faoliyati, jamoat arbobi sifatidagi faoliyati, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, uning noshirlik faoliyatiga aloqador hujjatlar mavjud.[5]

Muzey A.Avloniy hayotiga bag‘ishlanishi bilan birga hayoti davomida birgalikda faoliyat yuritgan Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Is’hoqxon To‘ra Ibrat kabi jadid namoyondalarining faoliyatiga aloqador fotosuratlar va ularning asarlari joylashtirilgan.

Muzeyning kirish qismida muzeyning avvalgi holatini ko‘rsatuvchi surati va O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020-yil 30-sentyabrdagi “Vatanimiz tarixining g‘oyat murakkab davrida XX asr boshlarida o‘zining ma’rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va ekanligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta’minlashga qo‘shgan xissasini inobatga olib, ma’rifatparvar adib, pedagog, jamoat arbobi Abdulla Avloniy “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlansin” [6] deb nomlangan Farmoni matni kirish qismidan joy olgan.

Muzeyning birinchi qismida adibga Avloniyga tegishli bo‘lgan shaxsiy buyumlardan o‘qituvchilik guvohnomasi, pasport, “Sadoi Turkiston” gazetasidan olingan guvohnoma, mazkur davrda nashr etilgan “Shuhrat” va “Osiyo” gazetalarining ilk namunalari va unga berilgan esdalik sovg‘alar vitrinalarga joylashtirilgan bo‘lsa, ikkinchi qismi jadidchilik harakati namoyondalari, yangi usul maktablarida o‘quv jarayonlari tasvirlari tushirilgan fotosuratlar, jadid usul maktablarida foydalanilgan parta va grammafon qo‘yilgan.

Avloniy grammafondan bolalarni ovozlarini yozib olib, ularning o‘zlariga qo‘yib berish orqali darslarda pedagogik tehnologiyalardan foylalanishni maktablarga yangilik sifatida kiritgan.

Shuningdek, ekspozitsiyada muzeyning dastlab tashkil qilingan bir xonasi yaratilgan. Unda Avloniyning ish stoli tepasida yozuv mashinkasi, shamdon, moychiroq, shkaf va shaxsiy kutubxonasidan keltirilgan kitoblar hamda xontaxta chetiga ko‘rpachalar to‘shalgan holatda joylashtirilgan.

Abdulla Avloniy yangi usul maktablarining targ‘ibotchisi, shu bilan birgalikda yangi usul maktablarida o‘qitish uchun o‘quv darsliklarining yaratilishida eng faol jadidlardan biri edi. Turkiston o‘lkasida XX asr boshlaarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy ahvol hududlarda teatrlarning ochilishi va qolaversa, ushbu teatrlarda sahna asrlarining yaratilishida tashkilotchilik qobiliyati bilan boshqa jadidchilik vakillaridan ajralib turadi. Muzeyda ham Avloniyning teatr san’ati bilan bog‘liq bir nechta eksponatlar o‘rin egallagan. Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyi yangidan ochilgach, bu yerga respublikamizning turli burchaklaridan mutaxassislar, rahbar xodimlar, adabiyot ixlosmandlari, professor-o‘qituvchilar va talaba yoshlar muzey faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida tashrif buyurishmoqda.

**Xulosa.** Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyi nafaqat tarixiy xotira maskani, balki yosh avlodga ma’rifat, milliy o‘zlik va tarixiy tafakkurni singdirishda muhim o‘rin tutadigan madaniy-ma’rifiy muassasa hisoblanadi. Muzeyda saqlanayotgan eksponatlar, adibning shaxsiy buyumlari, faoliyatiga oid hujjatlar va foto lavhalar uning boy merosini chuqur anglashga xizmat qiladi. Bugungi kunda muzey zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlanib, keng jamoatchilik va pedagogik xodimlar uchun ochiq bilim manbaiga aylangan. Avloniy merosining tirik guvohi bo‘lgan ushbu maskan, xalqimiz tarixiy xotirasini asrashda va milliy o‘zlikni shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

## Adabiyotlar ro‘yxati

1. Тонкент энциклопедияси. – Т:, “Ўзбекистон миллий энцклопедияси”, 2009.-Б. 43

2. Мўминов А. Абдулла Авлоний ёдгорлик музейида бўлганмисиз? //Улуғ йўл, Тошкент, 2025 йил 28 январь № 2-3(442-443) - Б.4.

3. https://www.lex.uz/uz/docs/-6981085 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 231-sonli qarori

4. Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyi katalogi – Toshkent: 2014, -B. 46.

5. Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyi ma’lumotnomasidan (Murojaat sanasi: 23.04.2025)

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 30 сентябрдаги “Маърифатпарвар жадидчилик харакати намотондаларини мукофотлаш тўғрисида” ги Фармони. // Халқ сўзи, 2020 йил 1 октябрь. 1 бет.

## MUHAMMAD AZIZ MARG‘ILONIYNING “TARIXI AZIZIY” ASARIDA XUDOYORXON TAVSIFI

**Abduraxmanova Zarnigor Ahrorjon qizi**

Namangan davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Tel: +998-77-445-26-03

**E-mail:** @zarnigorabduraxmanova4@gmail.com

**Ilmiy rahbar:** Akbarov Raxmatillo Murtozali o‘g‘li

***Anotatsiya:*** *XIX asrning ikkinchi yarmi Qo‘qon xonligi tarixida murakkab siyosiy jarayonlar, ichki ziddiyatlar va Rossiya imperiyasi bosimi kuchaygan davr sifatida ajralib turadi. Ushbu jarayonlarning o‘rtasida Qo‘qon taxtida bir necha bor*

*hokimiyat tepasiga kelgan Xudoyorxon alohida oʻrin tutadi. Uning shaxsiyati va davlat boshqaruvidagi faoliyati haqida oʻz davr mualliflari turlicha maʼlumotlar qoldirgan. Ulardan eng muhim manbalardan biri Muhammad Aziz Margʻiloniy tomonidan yozilgan “Tarixi Aziziy” asaridir. Mazkur maqolada asardagi Xudoyorxon tavsifi ilmiy tahlil qilinadi.*

***Abstract:*** *The second half of the 19th century is distinguished in the history of the Kokand Khanate as a period of complex political processes, internal conflicts and increased pressure from the Russian Empire. In the midst of these processes, Khudoyorkhan, who came to power on the Kokand throne several times, occupies a special place. The authors of his time left various information about his personality and activities in state administration. One of the most important sources is the work "Tarihi Aziziy" written by Muhammad Aziz Margilani. This article will scientifically analyze the description of Khudoyorkhan in the work.*

***Аннотация:*** *Вторая половина XIX века в истории Кокандского ханства отмечена как период сложных политических процессов, внутренних конфликтов и усиления давления со стороны Российской империи. Среди этих процессов особое место занимает Худоёр-хан, неоднократно приходивший к власти в Коканде. Авторы его времени оставили разнообразные сведения о его личности и деятельности в сфере государственного управления. Одним из важнейших источников является труд «Тарихи Азизий» Мухаммада Азиза Маргилани. В данной статье научно проанализировано описание Худоёр-хана в этом произведении.*

***Kalit soʻzlar:*** *Tarixi Aziziy asari, Xudoyorxon, “mahrum meros”, lak puli, “ayiq soligʻi”, hukmi sultoniy, yarimpodsho.*

***Keywords:*** *The work “Tarixi Aziziy”, Khudoyor Khan, “deprived inheritance”, lak money, “bear tax”, sultanic decree, semi-*sovereign.

***Ключевые слова:*** *произведение «Тарихи Азизий», Худояр-хан, «лишённое наследство», лак-пули, «медвежий налог», султанский указ, полуцарствующий правитель.*

**Kirish.** Xudoyorxonning nasl-nasabini anglash uning siyosiy faoliyati va xonlik taqdirida tutgan oʻrni haqida toʻliq tasavvur beradi. Xudoyorxon Qoʻqon xoni Sheralixonning oʻgʻli boʻlib, 1831-yil tugʻilgan. Sheralixonning ikkita qirgʻiz ayollaridan xotini boʻlgan. Birinchi xotini Soʻnadan toʻrt farzand (Malla, Soʻfi, Oftob, Moxlar), ikkinchisi Jarqindan ham toʻrt farzand (Sarimsoq, Xudoyor, Sultonmurod va Norchuchuk) koʻrgan. Birinchi oʻgʻli Sarimsoq, sevimli oʻgʻli esa Xudoyor boʻlgan. Sarimsoq taxtga davogarlik qilmasin deb, Musulmonqulning buyrugʻi bilan qatl etiladi, Xudoyor esa Qoʻqon xoni deb e’lon qilinadi.[1. – B.315]

Xonlikdagi siyosiy tortishuvlar Xudoyorxonning taxtga chiqishida hal qiluvchi rol oʻynaydi. Xudoyorxonning taxtga kelishi oddiy merosiy jarayon emas, balki murakkab siyosiy oʻyinlar va ichki raqobatlar oqibatida yuzaga kelgan hodisa edi. Sarimsoqning qatli bilan boʻshagan siyosiy maydon tez orada yangi kuchlar uchun imkon yaratdi. Ayniqsa, oʻsha davrda katta harbiy-siyosiy ta’sirga ega boʻlgan Musulmonqulning faoliyati xonlik hokimiyatining qaysi yoʻnalishda shakllanishini belgilab berdi. Yosh Xudoyor taxtga koʻtarilgan boʻlsa-da, amalda davlat boshqaruvi Musulmonqul qoʻlida jamlandi va xonlikdagi muhim mansablar, ayniqsa harbiy lavozimlar, qipchoq zodagonlari oʻrtasida taqsimlana boshladi.

Oʻldirish, bosqinchilik hukmron boʻlgan bu davr Musulmonqul boshchilik qilgan qipchoqlarga aloqador boʻlib, boshqa xalqlar oʻrtasida ularga qarshi boʻlishni uy-gʻotmasdan qololmasdi. Bu shunga olib keldiki, natijada 1853- yilda qipchoqlarni ommaviy ravishda shafqatsizlarcha qirish boshlanib, ulardan 20 000 dan ortigi Musulmonqul bilan birga oʻldiriladi.[2. – B.33]

Shu davrdan boshlab Xudoyorxonning mustaqil hukmronligi (1853-1858 yillar) boshlanadi. Bu hukmronlik shunday xususiyatlari bilan farq qilardiki, xonlikni boshqarish natijasida uning oxirgi xonligiday hech qanday gʻamxoʻrlik, yordam koʻrsatilmay, uning talab-ehtiyojlariga butunlay e’tibor berilmas, jabr-zulm qilinardi.

Xudoyorxonning taxtga chiqishi shunchaki tarixiy voqea emas, balki uning xarakteri, siyosiy qarorlarida namoyon boʻladigan kuchli va zaif jihatlarini belgilab bergan jarayon edi. Muhammad Aziz Margʻiloniy aynan shu jihatlarni oʻz asarida batafsil tasvirlaydi. Muallifning guvohliklari orqali Xudoyorxonning nafaqat siyosiy faoliyatini, balki uning fe’l-atvori, xalq bilan munosabati, adolatga munosabati va hokimiyatni boshqarish uslubi ham yaqqol koʻrinadi. Margʻiloniy tasvirida Xudoyorxon – oʻz vaqtida va’da berishni yaxshi koʻradigan, ammo unga doimo amal qilolmaydigan, shunga qaramay davlatning barqarorligini saqlashga intilgan hukmdor sifatida gavdalanadi. Xudoyorxonning oxirgi marta kelib Xoʻqand poytaxtiga oʻtirgandan keyin (hamma) bilittifoq borib, salom berib xizmat qildilar. Valekin Xudoyorxonning oʻzi ham hech bir jamoaga xusumat va gina qilmasdan hammaga barobar hukumat qildi. Charoki (negaki) oxirgi safarida "yana taxtga oʻtirsam hammaga teng podsho boʻlaman, birini biridan farq etmayman", deb parvardigorga shart va va’da qilgan ekan.[3. – B.14]

Margʻiloniy qayd etishicha, Xudoyorxonning ushbu va’dasi uning shaxsiy xarakteridagi muhim jihat — adolatparvarlikka intilish va xalq koʻzida oʻz mavqeini mustahkamlashga boʻlgan istakni koʻrsatadi. U taxtga qaytganida oʻz atrofida turli jamoalar oʻrtasida boʻlgan eski adovatlarni bartaraf etishga harakat qilgan, boshqaruvni esa iloji boricha teng va muvozanatli yuritishni maqsad qilgan.

Ammo Margʻiloniy tasvirida Xudoyorxonning bu yaxshi niyatlari amalda toʻliq roʻyobga chiqa olmagan. Chunki xonlik ichida kuchli siyosiy guruhlar mavjud boʻlib, ulardan ayrimlari xonning qarorlariga faol ta’sir koʻrsatgan. Ayniqsa, qipchoq

zodagonlarining mavqei yuqori bo‘lib turgan bir paytda xonning barcha jamoaga teng munosabatda bo‘lish haqidagi va’dasi murakkab sinovlarga duch kelgan.

Shu bois, Xudoyorxon shaxsida ikki tomonlama manzara ko‘rinadi: bir tomondan adolatni qaror toptirishga intilgan hukmdor, ikkinchi tomondan esa kuchli siyosiy bosimlar ichida qaror qabul qilishga majbur bo‘lgan shaxs. “Tarixi Aziziy”dagi tasvirlar ushbu murakkablikni yaqqol namoyon etadi.

Xudoyorxonning shaxsiy xarakteridagi murakkablik, uning siyosiy guruhlarga tayanishi va adolatni qaror toptirishga bo‘lgan da’volariga qaramay, amaliy boshqaruv jarayonida bir qator iqtisodiy muammolar ham kuchaygan edi. Ayniqsa, uning davrida soliq siyosatining haddan ziyod og‘irlashgani xalq noroziligini yanada kuchaytirgan.

XIX asring birinchi yarmida Umarxon va Muhammadalixon davrlarida olib borilgan soliq siyosati Xudoyorxon davriga kelib talon-torojliklarga aylanib ketgan. Xonlik hududlarida bo‘lgan N. Petrovskiy: «Qo‘qon xonligining... hukmdori Xudoyorxon yuqorida aytib o‘tilgan ikkita xalq (tojiklar va o‘zbeklar ) ardoqlagan insonlarning hech bir fazilatlariga ega bo‘lmagan. Shuning uchun ham xalq muhabbatini qozona olmagan, hattoki yaqinlari va hamfikrlari ham unga sodiq bo‘lmagan... Shariat va urf-odatlar, qonuniy soliqlarga to‘ymagan Xudoyorxon har yili soliqning yangi turlarini o‘ylab chiqarardi. Bozorga chiqarilgan har bir narsaga soliq solinsa ham, xonga bu kamlik qilar edi. Shuning uchun u dorbozlarning o‘yinlariga, ayiq yetaklab yurishga, sehrgarlarning chiqishlariga ham soliq solib qo‘ydi», deb yozgan edi.[4. – B.46] Xatto Xudoyorxon o‘z saroyida boqilayotgan ayiq ta’minoti uchun ham 1858-yilda xalqqa „ayiq solig‘i” ni soldi.

Xudoyorxon barcha narsalardan soliq to‘plab, katta boylik orttirgan. «Soliqlar olinadigan buyumlarning turlari juda ko‘p bo‘lib, ular imkoni boricha barcha narsalardan olinib, xalq tom ma’noda shilingan. Hatto kambag‘allar keltirib sotadigan qamish, shoxshabba, yantoq va shunga o‘xshash narsalardan soliqlar undirilgan. Keyingi vaqtlarda tog‘lardan ariqlar orqali oqib keladigan suvlarga ham soliq solingan.

Faqat nafas olinayotgan havodan soliq olinmagan, xolos. [5]  Bu holat Xudoyorxon hukmronligining oxirgi yillarida siyosiy beqarorlik va ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga olib keldi. Soliq yukining og‘irlashuvi nafaqat oddiy dehqonlar va hunarmandlar, balki yirik savdo qatlamlari va boy zodagonlarni ham norozi qildi. Natijada xonlik ichida turli guruhlar orasidagi ishonchsizlik kuchayib, markaziy hokimiyatning mavqei sezilarli ravishda pasayib bordi.

Shuningdek, soliq siyosatining haddan tashqari shafqatsizligi Xudoyorxonning “barchaga teng podsho bo‘lish” haqidagi va’dalari amalda barqaror shaklga ega bo‘lolmaganini ko‘rsatadi. U adolatni qaror toptirishga intilgan bo‘lsa-da, iqtisodiy zulm va siyosiy bosimlar uning hukmronligini zaiflashtirgan, xalq ishonchini esa keskin kamaytirgan.

Bulardan tashqari Muhammad Aziz Marg‘iloniy 1873-yilda Xudoyorxon «mahrum meros» («merosdan mahrum») degan buyruq chiqarib, o‘zining davrida olamdan o‘tganlar qoldirgan merosga xon ham da’vogar bo‘lishi natijasida xonlikda ichki nizolar kuchayib ketganini aytadi. Xudoyorxon keyingi asrida duoxonlikka ham o‘rgangan ekan, ammo o‘zi ko‘p ulug‘sifat va lekin o‘ldirmoqqa hayf (arzimaydigan) xon edi. Ammo yoshligi va avvalgi asru davronida payvasta katta kuffak itlarni yig‘ib, ko‘p urushtirar edi va ko‘p taajjubli xon edi. Valekin gayurli (qaysarroq) xon edi. Oxirgi asrida o‘z gayurligi, gayrat va ixtiyori bilan birdan: "Meni taxti mavrusimga (meros qolgan taxtimga) o‘tirganligim jami 45 yil bo‘libdi, shu 45 yil ichida kimki "marhumi meros, o‘z vorisini qilib vasiqa qilgan bo‘lsa, hammasi (ni) bekor qildim, hamma qilgan vasiqalari va iqrori bo‘lg‘on hukmlarini bo‘lmoqqa vaqa hukmi sultoniy qildim", deb taxtiga o‘tirib oldi.[3. – B.17-18]

Bu farmonning chiqarilishi nafaqat iqtisodiy hayotga, balki jamiyat ichidagi ijtimoiy munosabatlarga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Muhammad Aziz Marg‘iloniyning qayd etishicha, “mahrum meros” siyosati aholining noroziligini kuchaytiribgina qolmay, xonning o‘ziga sodiq bo‘lgan tabaqalar orasida ham tarqoqlik yuzaga keltirdi.

Chunki merosdan mahrum qilish amalda xonning istalgan oilaga, istalgan mulkka aralashish huquqini kengaytirar, bu esa mahalliy beklar, savdogarlar, ulamo va oddiy dehqonlar oʻrtasida ishonchsizlik va qoʻrquvni kuchaytirar edi. Margʻiloniyning ta’kidlashicha, Xudoyorxonning bunday siyosiy qarorlari uning shaxsiy xarakteri va ichki dunyosi bilan chambarchas bogʻliq edi. Muallif xonni bir tomondan duoxonlikka moyil, diniy-ruhoniy amallarni ado etishga ahamiyat bergan, ammo boshqa tomondan yoshligidagi odatlari – kuchuk urushtirish, keraksiz shiddat, qaysarlik kabi sifatlarini asta-sekin tark eta olmagan hukmdor sifatida tasvirlaydi. Xonning “gayurligi” Margʻiloniyning mazmuniga koʻra, nafaqat qaysarlik, balki oʻz fikrida turishni haddan tashqari ustuvor qoʻyish, oʻz hukmini nihoyatda mutlaq deb bilish ma’nosini anglatadi. Shuning uchun ham Xudoyorxon oxirgi yillarida mustahkam boʻlmagan siyosiy mavqeini tiklash maqsadida birdaniga keskin qarorlar qabul qilishga kirishib ketgan. Uning 45 yil davomida taxtda boʻlganligini eslatib, barcha vasiqa va iqrornomalarni bekor qilganligi ham aslida ichki hokimiyatni bir qoʻlga jamlashga boʻlgan urinish edi.

Biroq Margʻiloniyning qayd etishicha, bu qarorlar davlat boshqaruvida tartibsizlikni kamaytirmadi, aksincha, mahalliy amaldorlar va aholining keng qatlamlari orasida yanada keskin qarama-qarshiliklar tugʻdirdi. Har kimning meros masalasida xonlik idorasiga murojaat qilishi, oʻz haqini isbotlash uchun saroy a’yonlariga yuzlanishi davlat boshqaruvida korrupsiya, mansab uchun kurash va adolatsizlikning kuchayishiga sabab boʻldi. Natijada Xudoyorxonning bu islohoti siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga emas, balki xonlikning tanazzul jarayonini tezlashtirishga xizmat qildi. Margʻiloniyning bahosiga koʻra, xonning oxirgi yillardagi siyosiy faoliyati oʻzining ichki qarama-qarshiliklari, shaxsiy hatti-harakatlaridagi beqarorlik va zamonning murakkab tashqi bosimlariga moslasholmaslik bilan belgilanadi.

Muallif voqealar tafsilotini davom ettirib, Nasriddinbek, Otaqul bahodirboshining yarimpodshoga izzat-ikrom koʻrsatishi, Otaqulning xalqdan urush

jarimasi lak puli yig‘ib olishidan g‘azabga mingan xalq uni o‘ldirishi, Po‘latxonning o‘rislarga qarshi kurashi haqida ma’lumot bergan. Xususan ertasi kuni yarimpodsho yurt kattalarini, Otaqul bahodurboshini qator qilib qo‘yib, (Marg‘ilonga) lak puli soldi va ham farmoyish qilib, hammasiga eshittirib turib minnatdor qildikim: "Juda tezlik bilan bu lak pulini tepalaringizda turgan hokimingiz Otaqul bahodurboshiga topshirasizlar. Otaqul bahodurboshi hokim yig‘ishtirib mani xazinaxonamga topshiradur", - deb oshkora farmoyish ayladi.[3. – B.26]

Otaqul bahodirboshi faoliyati Marg‘iloniyning tasvirida nafaqat mahalliy amaldorning shaxsiy xatti-harakati, balki Xudoyorxon hukmronligining oxirgi bosqichidagi ikki qatlamli siyosiy bosimning amaliy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Yarimpodsho tomonidan belgilangan «lak puli»ni xalqdan yig‘ish vazifasining Otaqul zimmasiga yuklanishi Farg‘ona vodiysida shakllangan yangi ma’muriy munosabatlar tizimining belgisidir. Bu tizimda mahalliy boshqaruvchilar formal ravishda xonga bo‘ysunsa-da, real siyosiy ta’sir markazi Rossiya harbiy-ma’muriy tuzilmalariga siljib borgan edi. Otaqulning «lak puli»ni yig‘ish jarayoni aynan shu struktural ziddiyatlarning bevosita natijasi bo‘lib, u xalq noroziligining avj olishiga sabab bo‘ladi. Oqibatda Otaqulning o‘ldirilishi shaxsiy adovat natijasi emas, balki mavjud siyosiy-iqtisodiy tizimning ichki tangligi va ijtimoiy portlashga moyil holatining oqibati sifatida talqin qilinishi mumkin.

Bu jarayon, o‘z navbatida, Po‘latxon boshchiligidagi qarshilik harakatining kuchayishiga ham sharoit yaratgan. Demak, Otaqulning faoliyati atrofidagi voqealar Marg‘iloniyning tasvirida xonlikning so‘nggi yillaridagi kolonial bosim, davlat fiskal siyosati va xalq noroziligi o‘rtasidagi murakkab dinamik tizimni tadqiq qilish uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

**Xulosa.** Xudoyorxon hukmronligi Qo‘qon xonligi tarixida murakkab siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar bilan ajralib turadi. U adolat va tenglikni ta’minlashga intilgan hukmdor sifatida ko‘rinadi, biroq ichki ziddiyatlar, amaldorlarning siyosiy

ta’siri va soliq siyosatining og‘irligi uning niyatlarini to‘liq amalga oshirishiga imkon bermadi. Shunday qilib, Xudoyorxonning qarorlari nafaqat shaxsiy fazilatlari, balki mavjud siyosiy va ijtimoiy kontekst bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Soliq siyosati va mahalliy boshqaruv amaliyoti xalq noroziligi va ichki nizolarning kuchayishiga sabab bo‘ldi, bu esa hokimiyatni barqaror yuritish uchun faqat niyat va irodadan ko‘ra ko‘proq tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Shu tariqa, Xudoyorxon davri tarixiy tajriba sifatida siyosiy qarorlarni adolatli, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda qabul qilish lozimligini o‘rgatadi. Ushbu xulosadan kelib chiqib, hokimiyat va boshqaruv amaliyotida shaxsiy fazilat yetarli emasligini, tizimli yondashuv va xalq bilan hisob-kitobni birinchi o‘ringa qo‘yish lozimligini anglash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xudoyorxonzoda Anjum at-tavorix (Tarix yulduzlari) – T.: Fan va texnologiya”, 2014. – 348 bet.

2. Bobobekov X. N. Qo‘qon tarixi. –T.: “Fan”, 1996. – 239 bet.

3. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy. – T.: “Ma’naviyat” – 111 bet.

4. Vohidov Sh. Qo‘qon xonligi tarixi (Xonlik tarixi manbalarda). – Toshkent, 2014. – 1494 b.

5. Qo‘qon xonligining tugatilishi. Xudoyorxon va Rossiya tajovuziga qarshi xalq harakatlari // https://share.google/vWJivF8B9g7ZLRxuh [murojat qilingan sana:15.11.2025]

# YANGI O’ZBEKISTON YOSHLARINING TARIXIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA ZAXRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA’NAVIY – MA`RIFIY MEROSINING AHAMIYATI

**Qambarov Abdujabbor Boxrolievich**
Namangan davlat pedagogika instituti “Falsafiy va tarixiy fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tel: +998 94 907 27 80
E-mail: abduzabborkambarov15@gmail.com

Mustaqillikning dastlabki yillarida tarixiy haqiqat, tarixiy tafakkurni tiklashga imkoniyat ochilishi va bunga shart-sharoit tug‘ilishi tufayli xalqimizning kelajakga bo‘lgan ishonchi ortib bormoqda. Bu esa, o‘z o‘rnida, jamiyat taqdiri hamda taraqqiyotiga dahldorlik hissini kuchaytirmoqda, ijtimoiy ta’sirchanlikni oshirdi va shaxsning ma’naviy dunyosini boyitdi. Inson o‘z tarixiy tafakkuriga ega bo‘lmasdan turib, mamlakati, xalqi, millati hayotida sodir bo‘layotgan ijtimoiy o‘zgarishlarning mohiyatini tushunib etolmaydi.

Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev aytganidek, “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”.[1.288-b] jumladan, nafaqat yurtimiz, balki xorijda ham buyuk siymo — Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o’rganishga alohida e’tibor qaratilayotir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma’rifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti. Ammo o’z navbatida hind xalqining ulug’ farzandi, davlat arbobi Javoharla’l Neru Bobur Mirzo va boburiylarning Hindistondagi faoliyati haqida quyidagi fikrlarni aytib o’tgan:“Bobur dilbar shaxs, Uyg’onish davrining tipik

hukmdori, mard va tadbirkor odam bo’lgan. U san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko’rardi”[2.3-b.].

Bobur Mirzoning buyukligi shundaki, u qaysi yurtga hukumdor bo’lmasin, eng avvalo, jaholatga emas, ezgulikka, adolatga xizmat qildi. Mahalliy aholining farovonligi, ma’naviy-ma’rifiy yuksalishiga hissa qo’shdi. Yurtni obod qilishga kirishdi, muhtasham obida va bog’lar bunyod etdi. Uning oqilona siyosatini davom ettirgan vorislari esa bugun ham dunyoning yetti mo’jizasi sifatida e’tirof etib kelinayotgan Tojmahal, Qizil qal’a kabi noyob, muhtasham arxitektura yodgorliklari, masjidu madrasalar bunyod ettirdi. Xind davlat arbobi Javaxirlal Neru “Jaxon tarixiga bir nazar” nomli uch jildli asarida ҳam Bobur va Akbar ҳақida aloҳida to`xtalib ўtadi. Jumladan, Bobur ҳakida shunday yozadi: “Bobur shu paytgacha ўtgan madaniyatli va jozibador insonlar orasida eng etuklaridan biri edi. U mazxabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san’at va adabiyotni ayniqsa sevar edi”[3.8-b].

Bobur Mirzo benazir ijod sohibi bo’lganini yaxshi bilasiz, albatta ijodkorning memuar asari – “Boburnoma”, nafaqat milliy adabiyotimizning noyob durdonasi, shuningdek, jahon adabiyotining nodir namunalaridan biri sanaladi. Ushbu qomusiy asar 30 dan ortiq tilga tarjima qilingan. Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-ma’rifat haqidagi g’oyalari, odob-axloq, yaxshilik, vafo, insonparvarlik, adolat haqidagi qarashlari, axloqiy-ta’limiy fikrlari hozirgi davrda ham yoshlar tarbiyasida ham g’oyat ahamiyatlidir. Shoir “Mubayyin”, “Xatti Boburiy”, “Harb ishi” kabi asarlar yozdi. Birgina Parij kutubxonasidan o’rin olgan “Risolayi aruz”da aruzning 537 ta vazni haqida so’z boradi va hassos shoir o’z fikrlarini isbotlash maqsadida 70 dan ortiq ijodkorlarning asarlaridan misollar keltiradi. “Risolayi volidiya” kitobi esa adibning iste’dodli tarjimonligini ko’rsatadi. Umuman, ijodkorning bizgacha saqlanib qolgan lirikasi soni 400 dan ortiqni tashkil qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur o’zining hukmronlik davrida ilm-ma’rifatni davlat siyosati darajasiga olib chiqqan. Bobur va

uning avlodlari hamisha ilg’or fikrli ilm-ma’rifat ahli, ijodkorlar, kosib-u hunarmand, bog’bon-u ziroatchiga katta hurmat-ehtirom ko’rsatib kelgani bois mamlakat taraqqiy etib, el farovon yashashgan. Britaniyalik taniqli sharqshunos va tarixchi Vilyam Rashbruk Zahiriddin Muhammad Boburga “O’n oltinchi asrning bunyodkori”[4.56-b], deb yuksak baho bergan. Bugun zamonaviy O’zbekiston yangi yuksalish bosqichiga qadam qo’ygan. Ushbu davrda xalqimiz ulug’ ajdodlari boy ilmiy-ma’naviy merosini chuqur o’rganish, uni dunyoga tarannum etish asnosida eng so’nggi ilm-fan hamda kasb-hunar sirlarini o’rganishga katta e’tibor qaratmoqda. Ishonamizki, ushbu yo’nalishdagi davlatimiz investitsiyasi yurtimizda Uchinchi Renessans davrining bo’y ko’rsatishiga poydevor bo’lajak. Shu ma’noda, davrning turli taloto’plari, ixtiloflariga duch kelsa-da, yuksak insoniy tuyg’ularni saqlab qola olgan, dunyo ilm-fani, madaniyati rivojiga ulkan hissa qo’shgan shoh va shoir – Zahiriddin Muhammad Bobur nomi umrbod unutilmaydi! U qoldirgan boy ilmiy-ma’naviy meros, muhtasham me’moriy obidalar asrlar osha yosh avlodlarni ulug’ maqsadlarga da’vat etib, ma’naviy kuch-quvvat manbai bo’ladi. O`zbek xalqining ilm va madaniyat xazinasiga o`lmas hissa qo`shgan mutafakkir olim, tarixchi, qonunshunos va lirik shoirdir. Zaҳiriddin Boburdagi tabiiy iste’dod uning ҳar tomonlama rivojlangan va krmusiy bilimlarni uzida mujassamlantirgan shaxsiyati, aқl-zakovati, insoniy xislatlari va қolaversa, uning ochik, kўngilliligi, nozik tabiatliligi bizni doimo xayratga solib keladi.

Bobur ilm – fan, san’at,madaniyat va ularning sohalari bilan yaqindan tanishgan, uning ijodini asosan lirik she’rlar va adabiy - tarixiy asari - "Boburnoma" bilan ko`zga tashlanadi. "Boburnoma" qomusiy xarakterdagi kitob bulib, unda tarix, geografiya, botanika va boshqa fan sohalariga oid ma’lumotlar berilgan.

Bobur yana musulmonchilik qoidalari va qonunshunoslikka bag`ishlangan "Mubayyin". arab alfavitini isloxiga oid "Xatti Boburiy", aruz vazni va qofiyaga oid "Mufassal", yana musiqa va harbiy san’at haqida asarlar yozgan._“Bobur memuarda qo’llagan murabbiy va muqavviy, tarbiyati va taqviyati birikmalarini faqat o’z asarida

tilga olgan Temuriylar Uyg’onish davri vakillariga nisbatan ishlatgan. Bu holat ularning yaratuvchanlik qobiliyatlariga hamda moddiy va ma’naviy sohalarda amalga oshirgan bunyodkorlik, saxovat, futuvvat, baxshish xarakteridagi ishlariga, aql va qo’l ixtirolarining yaratilishi, mamlakat bo’ylab joriylanishiga hamda ko’payishiga bosh qo’shgani, moliyalashtirganiga ham ishoradir”[5. 38-b].

Adib fan va ma’rifatni yuqori darajada qadrlaydi. Ilm, adabiyot, san’at ahllari bilan yaqin aloqada buladi, ularga homiylik qiladi. Ilm va bilimdonlikni ulug`laydi. U kamtarlik, uzini tuta bilish, ezgulik, vafodorlik, boshqalarga yaxshilik qilish sifatlarini ulug`lab, yovuzlik, zulm, qabihlikni qoralaydi. Boburning pedagogik qarashlaridagi bosh masala vatanga cheksiz muhabbatdir. "Boburnoma"da o`zbek, tojik, afg`on, hind va boshqa xalqlarning kasb - kori, urf - odati, madaniyati, dini, adabiti, turmush tarzi haqida keng ma’lumotlar beriladi. Bobur ijodiyoti asosan uning lirik she’rlari va adabiy-tarixiy asari-«Boburnoma» bilan yaqqol ko’zga tashlanadi. Boburning xotiralaridan tashkil topgan va temuriylar davlatining tanazzulga ketish davrini o’zida ifodalagan, qomusiy xarakterdagi «Boburnoma» kitobi ilmiy-tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo’lib, unda tarix, geografiya, botanika va fanning boshqa sohalariga taalluqli qimmatli ma’lumotlar bor. Bundan tashqari, mazkur asar eski o’zbek tilidagi prozaning ilk namunasi va nodir yodgorligi hamdir.

Iste’dod sohibi bo’lgan Bobur 12 yoshida podsho bo’lganidan boshlab, to umrining oxirigacha o’zi ko’rgan voqealarni, o’zi qatnashgan hodisalarni, ana shu voqea va hodisalarga daxldor bo’lgan yuzlab tarixiy shaxslar hayotini, fan uchun muhim ahamiyatga molik ko’plab dalillarni adabiy shaklda yoritgan. «Boburnoma» va she’rlar devonidan tashqari, musulmonlik qoidalari va qonunshunoslikka bag’ishlangan «Mubayn», arab alfavitini o’rganish to’g’risidagi «Xatti» shuningdek musiqa va harbiy san’at haqidagi asarlarni yaratdi. Bu asarlar o’zbek adabiy tili, adabiyoti va ilm-fanning ravnaqida muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk shoir, adib, tarixchi va olim Boburning ilmiy-adabiy merosi hozir o’zining ma’lum tarixiy-ma’rifiy, ilmiy va estetik qimmatini saqlab kelmoqda. Uning ko’p qirrali merosida pedagogikaga oid biror maxsus kitob yoki risola mavjud bo’lmasa-da, deyarli hamma asarlarida xayotga va vatanga muhabbat hislatlarining yakqol ifodasini, insonning yuksak burchi va kishilarning ma’naviy qiyofasi haqidagi teran fikr-mulohazalarni, fan va dinga munosabat masalalarini, yaxshi xulqli va odobli bo’lishga da’vatni, ilm-fan va ma’rifatni egallashgacha chaqiriqni, ahloqiy va estetik g’oyalarni, jo’shqin va mazmundor hayot kechirishga targ’ib qilishni va xokozalarni ko’rish mumkin. Bobur uzining 47 yillik umri mobaynida kattagina she’rlar tuplami tuzdi, “Mubayyin”, “Risolai volidiya” nomli she’riy asarlar yaratdi, jax,onga shuҳrati ketgan қomusiy asar “Boburnoma”ni yozdi, “Xatti Boburiy” deb nomlangan yangi alifbo tuzdi, aruz, қofiya, musiқa va ҳarb ishiga oid risolalari bilan ilmga katta ҳissa қўshdi. Afsuski, Boburning қofiya, musiқa va x,arb ishiga oid risolalari, kulyozmalarining taқdiri xamon bizga noma’lum. Boburning ҳozircha ўzbek va fors-tojik tillaridagi she’rlaridan tarkib topgan қator қўlyozma devonlarining nusxalari mavjud bўlib, ular Frantsiya, Xindiston va Eron kutubxonalarida saқlanmokda. Bobur ўzbek adabiyotida lirik janrlarning rivojiga katta ҳissa қўshdi. Uning lirik merosi ҳajman uncha katta bўlmasa-da, mavzu doirasi, ғoyaviy moҳiyati va shakliy takomili bilan ajralib turadi. Bobur lirikasi ma’lum darajada shoirning avtobiografiyasidir. Uning ўynoқi va ta’sirchan, sodda va ravon tilda aytilgan she’rlari ҳayotiy ҳodisalar va turmush vokealari zaminida namoyon buladigan shoirning қalb tuғyonlarini ifodalaydi.

O’z ijodida ezgulikni, inoqlikni, vafodorlikni ardoqlagan shoir o’zida avvalgi kasbdoshlariga ergashib yovuzlikni, zulmni, qabixlikni qoralaydi. Bulardan tashqari, Bobur do’stlikni, hayotni, uning har bir fursatini qadrlashga, qayg’u-xasrat bilan emas**,** balki oqilona, xushchaqchaqlik bilan yashashga chorlovchi, yoshlarga ibrat bo’ladigan talaygina baytlar bitgan. Zahiriddin Muhammad Bobur merosini ilmiy tadqiq etish

maqolada ko'rsatilgan tarixiy tafakkurning tomonlarini ularning birligi va o'zaro bog'liqligida ko'rib chiqishni talab qiladi.

**Foydanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Шавкат Мирзиёев. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ.-Т.:"0`zbekiston", 2021. -Б.464.

2. Хасанов, С. Захириддин Мухаммад Бобур . -Т.: 0`zbekiston, 2011. -Б.8.

3. Бобур ҳақида ўйлар: Бобур номидаги Андижон Давлат университетининг 75 йиллигига бағишланади. - Т.: "Ш арқ", 2006.-Б.3.

4. Вилям Рашбрук. Ўн олтинчи асрнинг бунёдкори. – Т.: "Шарқ", 2011. – Б.208.

5. Буробия Ражабова. Темурийлар Ренессанси ва "Бобурнома". – Т.: "Фан", 2022. – Б.38.

## SOVET DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI JADIDCHILIK HARAKATI TARIXINING O'RGANILISHI

**Ibragimova Dilshoda Ismoilovna**
Impuls tibbiyot instituti tadqiqotchisi.

Sovet davrida Farg'ona vodiysidagi jadidchilik harakati tarixini o'rganishda asosan quyidagicha tahlil natijalariga erishildi:

Sovet davrida jadidchilik harakatining nafaqat alohida markazlari tarixi, balki, bu harakatni o'lka miqyosida olib o'rganilishi ham mumkin bo'lmaganligi. Jadidchilikni ma'lum bir hududlar doirasida olib o'rganish fikri bugungi kunga kelibgina paydo bo'lganligi. Shu sababli Farg'ona vodiysidagi jadidchilik harakatining tarixshunosligi Turkiston jadidchiligiga oid manbalarda ma'lum darajada o'rganilganligi;

Sovet davrida kommunistik mafkura tazyiqi oqibatida 20-yillarning oxirlaridan milliy-ozodlik harakatlariga baho berish bir yoqlama tus olganligi;

Hukmron kommunistik mafkura sharoitida jadidchilikni Turkiston xalqlari tarixida tutgan oʻrni inobatga olinmaganlagi, va u nufuzli ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida tadqiq etilmaganligi;

Rahim In’omovning «Oʻzbek ziyolilari» kitobida muallif jadidlarni 1917 yilgacha boʻlgan davrdagi harakatini ijobiy baholagani holda, undan keyingi - sovet hokimiyati davridagi faoliyatlarini qoralaganligi;

30-yillardan boshlab 80-yillarning ikkinchi yarmiga qadar jadidchilik harakati «reaksion», «burjua-millatchilik» harakati sifatida talqin etilib kelinganligi;

50-yillardan boshlab, tarixiy jarayonlarga kommunistik mafkuraga boʻysundirilgan holda baho berishi kuchayganligi. 50-yillardagi ayrim adabiyotlarda jadidchilik milliy-ozodlik harakati sifatida ochiqdan-ochiq inkor etilganligi;

Vodiyda sovet hokimiyati va tuzumining oʻrnatilishi tarixiga bagʻishlangan barcha tadqiqotlarda jadidlarning 1917 yildagi faoliyatlari, ular tashkil qilgan «Shoʻroi Islomiya» tashkiloti, «Turk adami markaziyati»ning faoliyati qoralanib, uning a’zolariga «millatchi» tamgʻasi bosilganligi. Bunday ta’riflar, tarixiy voqelikka sinfiylik nuqtai nazaridan yondashuvning oqibati boʻlib, milliy gʻoyalar uchun kurash mustabidlik tuzumiga tahdid tugʻdiruvchi asosiy omil ekanligi bilan izohlanishi;

60-yillardagi adabiyotlarda, masalan, M. Baratovning «Oʻzbekistonda ma’rifat uchun kurash tarixidan» nomli kitobida jadidchilik reaksion oqim sifatida baholanib, Fargʻona jadidlarining «Sadoyi Fargʻona» nomli gazetasi qoralanib, asarda faqatgina Fargʻona taraqqiyparvarlaridan Hamza Hakimzoda Niyoziy haqida ijobiy ma’lumotlar keltirilganligi. Hamzaning ma’rifatparvarlik faoliyati yoritilib, 1911 yil Qoʻqonda «Dorul yetim» ochganligini, «Yengil adabiyot», «Oʻqish kitobi», «Qiroat kitobi» kabi kitoblar yozganligi qayd etilganligi;

70-yillarda chop etilgan ba'zi adabiyotlarda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona aholisining ijtimoiy hayotidagi ayrim ijobiy siljishlar haqida ham fikrlar bildirilganligi. Masalan, S. M. Krukovskayaning «Vstrechi s Kokandom» (Qo'qon bilan uchrashuv) nomli kitobida XIX asrning 90-yillarida Farg'ona viloyatida eski usul maktablari bilan yonma-yon yangi usul maktablari ochilganligi, maktab ta'limi sohasidagi islohotlar ilg'or xarakterga ega bo'lganligini qayd qilib o'tilganligi. Biroq, ana shu maktab tashkilotchilari, Qo'qon taraqqiyparvarlari haqida hech narsa deyilmaganligi, biroq, muallif tomonidan yangi usul maktablarining ochilishini ijobiy baholanishining o'zi ham asarning qimmatli ma'lumotlar beruvchi asar sifatida baholash imkonini berishi;

N. Abduazizovaning matbuot tarixiga bag'ishlangan asarida jadidlar «burjua millatchilari», «panturkistlar» sifatida talqin etilib, jadidchilik harakati g'oyalari panturkizm, millatchilik g'oyasi ilgari surgan reaksion mafkura sifatida qoralanadi. Ushbu kitobda Farg'ona jadidlaridan H. H. Niyoziy haqida unga ma'rifatparvar demokrat sifatida qaraganligi, biroq, boshqa jadidlar unga g'oyaviy muxolifatda tasvirlanishi, Hamzaning jurnalistik faoliyatiga ham qisman baho berilib, Farg'onaning boshqa taraqqiyparvarlari, masalan, Cho'lpon haqida mutlaqo salbiy qarashlar ilgari surilganligi, shu bilan birga asar ziyolilarning «Sadoyi Farg'ona» gazetasi xususida qimmatli faktik materiallarga boyligi bilan ahamiyatli ekanligi;

Sovet davrida yozib, himoya qilingan bir qator tadqiqotlarda, masalan tarixchi olim O. Oxunjonovning sovet davri o'zbek ziyolilari tarixiga bag'ishlangan dissertatsiyasida Farg'onaning peshqadam taraqqiyparvarlaridan Hamza, So'fizoda, A. Zohiriy, L. Olimiy va boshqalarning sovet davridagi faoliyatiga alohida to'xtab o'tilganligi;

A. Sharafiddinov nomzodlik dissertatsiyasida Farg'ona vodiysining yirik shaharlaridan bo'lgan Andijonda jadidchilikni keltirib chiqargan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjudligi;

Mavzu tarixshunosligining birinchi davriga xos boʻlgan bir yoqlamalik, voqelikni notoʻgʻri talqin etish va uni soxtalashtirishning asl sababi hukmron maʼmuriy-buyruqbozlik tizimi, kommunistik mafkura tazyiqi, ayniqsa, 30-yillardagi qatagʻonlarga koʻplab jadid namoyandalarining tortilishi ekanligi.

## QOʻQON XONLIGI TARIXI NOMAʼLUM MUALLIF QAYDLARIDA

**Abdullayev Ravshanjon**

Qoʻqon universiteti dotsenti, tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Maqolada Qoʻqon xonligining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid masalalar yoritilgan. Tadqiqotning asosiy manbasi nomaʼlum muallif tomonidan eʼlon qilingan tarixiy maqola boʻlib, unda xonlikning geografik joylashuvi, savdo yoʻllari, karvonsaroylar, hamda Xon oʻrdasi, Madalixon madrasasi va Umarxon masjidi kabi meʼmoriy obidalari haqidagi maʼlumotlar keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** Qoʻqon xonligi, Sirdaryo, Madalixon madrasasi, Umarxon masjidi, savdo yoʻllari, karvonsaroylar.

## THE HISTORY OF THE KOKAND KHANATE IN THE RECORDS OF AN UNKNOWN AUTHOR

**Ravshanjon Abdullayev**

Associate Professor, Kokand University; PhD in History

**Abstract:** The article examines issues related to the social, economic, and cultural life of the Kokand Khanate. The main source of the study is a historical article published by an unknown author, which provides information on the khanate’s

geographical location, trade routes, caravanserais, as well as architectural monuments such as the Khan's Palace, the Madalikhon Madrasa, and the Umarxon Mosque.

**Keywords:** Kokand Khanate, Syrdarya, Madalikhon Madrasa, Umarxon Mosque, trade routes, caravanserais.

## ИСТОРИЯ КОКАНСКОГО ХАНСТВА В ЗАПИСЯХ НЕИЗВЕСТНОГО АВТОРА

**Абдуллаев Равшанжон**

Доцент, Университет Коканда; кандидат исторических наук (PhD)

**Аннотация:** В статье освещаются вопросы социальной, экономической и культурной жизни Кокандского ханства. Основным источником исследования является историческая статья, опубликованная неизвестным автором, в которой приведены сведения о географическом расположении ханства, торговых путях, караван-сараях, а также о таких архитектурных памятниках, как ханский дворец, медресе Мадалихон и мечеть Умархан.

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, Сирдарья, медресе Мадалихон, мечеть Умархан, торговые пути, караван-сараи.

### Kirish

Qo'qon xonligi tarixini yorituvchi manbalar orasida rus tilida yaratilgan asarlar alohida ahamiyatga ega. Xonlik bilan Rossiya imperiyasi o'rtasida diplomatik aloqalarning o'rnatilishi, savdo-sotiq munosabatlarining kengayishi, shuningdek, keyinchalik Qo'qon hududlarining imperiya ma'muriyati tomonidan bosib olinishi bu mavzuga oid rus tilidagi asarlarning ko'payishiga sabab bo'ldi.

Mazkur asarlar orasida nafaqat Qo'qon xonligining siyosiy tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar, balki uning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga oid

izlanishlar ham uchraydi. Bu manbalar xonlik tarixining turli jihatlarini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Maqola nomidan ma’lumki, tadqiqot obyekti bo‘lgan rus manbasi muallifi noma’lumdir. Uning ismi manbada N.V. tarzida qisqartirib keltirilgan. Muallif o‘z maqolasiga “Qo‘qon xonligiga oid yangi xabarlar” deb nom bergan bo‘lib, ushbu maqola “Harbiy to‘plam” jurnalining 1869-yilgi 7-sonida nashr etilgan.

**Adabiyotlar tahlil**

“Qo‘qon xonligiga oid yangi xabarlar” maqolasidagi ma’lumotlar keyingi yillarda xonlik tarixi bo‘yicha yaratilgan asarlarda nisbatan kam qo‘llangan. Ehtimol, ko‘plab tadqiqotchilar ushbu maqoladan bexabar bo‘lishlari mumkin. Shunga qaramay, uning mazmuni va ilmiy ahamiyati tadqiqot doirasidan chetda qolgan deb ham bo‘lmaydi. 2023-yil nashr etilgan “O‘zbekiston tarixi” xerostamatiyasining, VI jildida maqolaning qisqartirlgan tarjimasi X. Mamadaliyev tomonidan amalga oshirilgan [3 – 374-379].

**Tahlil va natijalar**

Maqolada muallif Qo‘qon xonligi haqidagi ma’lumotlarni to‘rt bo‘limga ajratib tavsiflaydi. Birinchi bo‘limda xonlikning geografik joylashuvi, uning chegaralari, suv manbalari, iqlimi, aholisi, shaharlar va me’moriy obidalari haqida to‘xtalib, quyidagicha yozadi: “Tyan-Shan tog‘laridan boshlanib, Orol dengiziga quyilgan Sirdaryoning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati juda yuqori bo‘lib, Qo‘qon hududida uning kengligi 50 dan 200 sajengacha *(sajen — qadimgi uzunlik o‘lchov birligi. Xalqaro metrik o‘lchovlar tizimi kiritilgunga qadar (1918 y.) ishlatilgan. 1S.=3gaz=48 vershok=2,13360 m. [4 - 188])* o‘zgarib turadi” [N.V. – 67-bet]. Muallifni hayratga solgan jihat shundaki, xonlikda suv yo‘llaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lishiga qaramay, kemachilik rivojlanmagan, hatto baliqchilik ham mavjud emas edi. Yana bir jihat shundaki, daryodan o‘tish o‘ziga xos tarzda amalga oshirilgan:

qayiqlarga 3 dan 6 tagacha ot bog'lanib, ular daryo bo'ylab suzib, qayiqni orqasidan sudrab borishgan.

Muallif xonlikdagi qazilma boyliklari haqida to'xtalib, Qo'qon tog'lari turli foydali qazilmalarga boyligi, ko'mir qatlamlari mavjud bo'lib, neft Namangan va Andijon viloyatlarida uchrashi, oltin va kumush haqidagi ma'lumotlarning kam uchrashi, chunki qo'qonliklar bu boyliklarini yashirishga harakat qilganliklari, mis, qo'rg'oshin va temir nisbatan ko'p bo'lishiga qaramay, yerlik aholi ushbu rudalardan yetarlicha foydalana olmayotganligini ta'kidlaydi [N.V. – 68-bet].

Qo'qon inson salomatligiga foydali, toza, yoqimli iqlim ega. Farg'ona vodiysi har tomondan baland tog' tizmalari bilan o'ralgan bo'lib, unda qish juda kech boshlanadi va deyarli qor yog'maydi. Mamlakatning noqulay iqlimiy sharoitlaridan biri sifatida bu yerda doimo esib turadigan shamollarni tilga olish kerak. Ular odatda janubi-g'arbiy yo'nalishda esadi va daryoning sohillaridan ko'tarilgan qum zarralarini olib keladi. Natijada dalalar, ariq va hatto uylar tez-tez qum bilan qoplanadi [N.V. – 68-bet].

Qo'qon xonligi hududlarida dehqonchilikning rivojlanishida tabiiy sharoitlar muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, serusuv daryolar hududdan oqib o'tishi va yerlarning unumdorligi dehqonchilik faoliyatini samarali tashkil etishga imkon bergan. Shu bilan birga, xonlik hududlaridagi iqlim sharoiti va yer resurslarining mavjudligi qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy omillari sifatida namoyon bo'lgan. Maqolada ushbu jihatlar ham yoritilib, Qo'qon xonligida dehqonchilikning o'ziga xos jihatlari, ekin turlari, hosildorlik darajasi haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan: "Qo'qon tuprog'i va uning unumdorligi haqida gapirganda, shuni aytish mumkinki, bu jihatdan Qo'qon bilan raqobatlasha oladigan boshqa birorta O'rta Osiyo xonligi hududi mavjud emas. Tuproqning afzalliklari maydonlarni sug'orishning qulayligi va samaradorligi hisobiga yanada oshadi. Qo'qon xonligi hududida sug'orish uchun sun'iy kanallar ishlatilmaydi, buning o'rniga atrofdagi tog'lardan oqib tushadigan soylardan foydalaniladi" [N.V. – 69-bet].

Xonlik qishloq xo'jaligida bug'doy, arpa, jo'xori, oq jo'xori, paxta, tamaki kabi ekin turlari yetishtirilishi, tut daraxti, uzumning eng yaxshi navlari, bo'yoq olishda ishlatiladigan marena kabi ko'plab o'simliklar, mevali daraxtlar haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Keying o'rinlarda muallif xonlik aholisi haqida to'xtalib, o'zbeklar, sartlar, qirg'izlar va qipchoqlar haqida bayon etadi. Shuningdek, Qo'qonda kam sonli chet elliklar ham uchrashi, asosan savdo bilan shug'ullanuvchi: buxoroliklar, afg'onlar, hindlar va yahudiylar nomini qayd etadi. Afg'onlar va hindlar asosan qarz beruvchilar bo'lib, yirik shaharlarda yashardilar [N.V. – 70-bet].

Shundan so'ng maqolada xonlik poytaxti Qo'qon shahriga oid ma'lumotlarni o'qishimiz mumkin. Ayniqsa xon o'rdasiga oid qaydlar muhim: "Shahar markazida, sharq odatiga ko'ra, "O'rda" joylashgan bo'lib, u bir vaqtning o'zida xon va saroy ahli uchun xizmat qiladi. Qo'qon o'rdasi Alimqul (*Aliquli: A.R*) tomonidan qurilgan, u mustahkam, pishgan g'ishtli, nisbatan baland bino bo'lib, biroz ko'tarilgan sun'iy tepalik ustida joylashgan". Mazkur o'rinda e'tiborga molik jihat shundaki, muallif xon o'rdasining Alimqul tomonidan qurilganini ta'kidlagan. Biroq tarixiy manbalardagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu davrda mavjud bo'lgan xon o'rdasi Qo'qon xoni Xudoyorxonning amri bilan 1863–1873-yillar oralig'ida barpo etilgan [4-120]. Shuningdek, muallif tomonidan keltirilgan o'rdaga oid keyingi tavsiflar ham aynan Xudoyorxon o'rdasiga tegishli ekanligini tasdiqlaydi. Masalan, "Nihoyatda mohirona va chiroyli yog'och o'ymakorligi bilan ajralib turadigan asosiy darvozaga asta ko'tariluvchi tosh zinapoya olib boradi" [N.V. – 73-bet]. Bugungi kunda ham Xudoyorxon o'rdasiga kirish uchun taxminan 40 metr uzunlikdagi va 6 metr kenglikdagi zinapoyali qiya yo'lak (pandus) orqali chiqiladi. Yo'lakning har ikki tomoni g'ishtdan qurilgan devorlar bilan o'ralgan.

Maqolada shuningdek Qo'qon xoni Muhammad Alixon tomonidan bunyod etilgan madrasaga oid qaydlar ham mavjud: "Qo'qanddagi boshqa binolar orasida

o‘zining ulkanligi bilan Madalixon madrasasi ajralib turadi. Bu madrasa baland, ikki qavatli, to‘rtburchak shakldagi bino bo‘lib, har bir tomoni 60 sajenga teng, burchaklarida esa minoralar bor. Hajmi jihatidan na Toshkentda, na boshqa shaharlarda unga tengi yo‘q. Yerli aholining aytishicha, u yerda mingga yaqin mulla (talabalar) tahsil oladi [N.V. – 73-bet].

Madalixon madrasasi Qo‘qon shahriga tashrif buyurgan ko‘plab sayyohlar va diplomatik elchilar e’tiborini o‘ziga tortgan yodgorliklardan biridir. Ular o‘z safarnomalarida mazkur madrasaning me’moriy salobati, hajmi va shahardagi boshqa inshootlardan ajralib turuvchi qiyofasini alohida ta’kidlab o‘tganlar. Afsuski, mazkur me’moriy obida Rus mustamlakachiligi davrida vayron etilgan.

Shuningdek muallif shahardagi Umarxon majsidi, Katta soy ustiga qurilgan ko‘prik, hamda ruslarga tegishli uy-joylar haqida ham muhim ma’lumotlarni ko‘rsatib o‘tadi. Qo‘qon bozorining hajmi, tozaligi va yaxshi tartibga solinganligini e’tirof etadi.

Shahar uni o‘rab turgan devoridagi darvozalar soniga mos ravishda 12 qismga bo‘lingan. Har bir qismda taxminan 50 ta masjid mavjudligi aytiladi, ammo bu raqam, ehtimol, biroz oshirib ko‘rsatilgan. Shuningdek, Qo‘qandda 15 ta yirik karvonsaroy va bir necha kichik karvonsaroylar mavjudligi qayd etilgan [N.V. – 74-bet].

Maqolaning keyingi qismida xonlikning poytaxtdan tashqari shaharlariga doir ma’lumotlar berilgan. Unda Andijon, Shahrixon, Marg‘ilon, Namangan, O‘sh, Tuz, Isfara, Ismoni, Konibodom, Mahram va Niyozbek kabi shaharlar haqida ayrim qaydlar keltiriladi. O‘zgan, So‘x, Laylak va Koson singari shaharlarning esa faqat nomi tilga olinadi [3 – 376-bet].

Qo‘qon xonligining savdo-sotiq sohasi va savdo yo‘llariga oid keyingi qaydlar ham muhim hisoblanadi. Bunda xonlikning geografik o‘rni inobatga olinib, savdo yo‘llari va ulardan foydalanishdagi ustunliklar hamda kamchiliklar haqida, shuningdek, savdo mahsulotlarini tashishda eshak, tuya va otdan foydalanish tartibi, karvonlarning

bir manzildan ikkinchi manzilga yetib borishlari uchun ketadigan vaqtlar to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud.

**Xulosa**

Yuqoridagi ma’lumotlar bilan maqolaning birinchi qismi yakunlandi. Biz noma’lum muallifning Qo‘qon xonligiga oid qaydlarini keyingi maqolalarimizda tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Xonlikning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid muhim ma’lumotlarni o‘zida jamlagan ushbu maqola, xonlik tarixini o‘rganishda yana bir muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1. Bobobekov H. Qo‘qon tarixi. – Toshkent: Fan, 1996. – 213 b.

2. Н.В. Кокандское ханство по новейшим известиям // Военный сборник. 1869. - №7. – С 65-110.

3. O‘zbekiston tarixi. Xerostamatiya, VI jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 486 b.

4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005.

## NAMANGANLIKLARNING FRONT UCHUN BERGAN YORDAMI

**Usmonov Lutfullo**,

Impuls tibbiyot instituti tadqiqotchisi

Ikkinchi Jahon urushi yillarida namanganliklar front uchun beg‘araz yordam berib, g‘alaba o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar. Buni quyidagilardan ham bilsa bo‘ladi:

Ikkinchi Jahon urushning dastlabki kunlaridanoq namanganliklar mudofaa jamg‘armalari tashkil etish va frontga moddiy yordam berishda faol ishtirok etganliklari;

1941 yili Namangan shahar «Yangi turmush» arteli a’zolari 12 ming so‘m, qo‘shimcha ravishda fuqarolardan 5100 so‘m mudofaa fondiga pul topshirganliklari;

Chust shahridagi N.K.Krupskaya nomli maktab o‘qituvchilaridan 23 kishi 1941 yil har oylik maoshlarining bir kunligini to urush tugagunga qadar mudofaa fondi uchun ajratishga qaror qilganliklari. Maktab o‘quvchilari tashabbusi bilan esa frontga posilkalar yuborilganligi;

“Stalin Xaqiqati” gazetasining 1941 yil 13 avgust sonida berilgan ma’lumotga ko‘ra, Namangan rayon maorif bo‘limining xodimlari mudofaa fondiga bir kunda 5330 so‘m zayom oblegatsiyasi, 500 so‘m naqd pul topshirganliklari, birgina buxgalter Odilov 1 ming 250 so‘m zayom oblegatsiyasi va 100 so‘m naqd pul topshirganligi;

Viloyat mehnatkashlari frontga moddiy yordam berishda alohida namuna ko‘rsatganliklari. Mudofaa fondi hisobiga tushayotgan mablag‘ miqdori kundan-kunga ortib borib, 1942 yilning 22 iyunigacha viloyat mehnatkashlari mudofaa fondiga 1 million 41 ming so‘m pul topshirib, 1942 yil harakatdagi armiyaga 711 ming so‘m mablag‘ yuborganliklari. 1942 yil yanvarida Namangan temir yo‘l stansiyasida frontga viloyatdan to‘plangan 7 vagon oziq-ovqat, kiyim-kechakni jo‘natishga bag‘ishlangan ko‘p ming kishilik miting bo‘lib o‘tib, namanganliklarning ushbu sovg‘asini 5 kishidan iborat komissiya tomonidan Moskvaga yetkazib berilganligi;

“Stalin Xaqiqati” (hozirgi Namangan haqiqati) gazetasida namanganliklarning frontga bergan yordamlari haqida ko‘plab maqolalar e’lon qilinganligi;

“Stalin Xaqiqati” gazetasida Oyqiron qishloq sovetidagi Stalin nomli kolxoz a’zolarining “Mudofaa fondi” uchun 3 tonna g‘alla ajratganliklari haqidagi ma’lumotlarning berilganligi. Birlashgan qishloq sovetidagi Frunze, Bolshevik, G‘ayrat kolxozlaridan esa, “Mudofaa fondi” uchun 1402 so‘m pul, 1985 so‘mlik zayom oblegatsiyalari va 2200 kilogram urug‘, 200 kilogramm g‘alla to‘planganligi. Bu haqidagi ma’lumotlar “Stalin Xaqiqati” gazetasining 1941 yil 13 avgust sonida “Kolxozchilarning birdamligi” nomli maqolada berilganligi;

“Stalin Xaqiqati” gazetasidagi maqolalar tahlili: Pop rayon MTS ishchi va xizmatchilari miting o‘tkazib, unda ilg‘or traktor brgadasining mexanigi G‘ani Rahmonov so‘zga chiqib, mudofaa fondiga har oy ikki kunlikdan ish xaqqini o‘tkazishini ma’lum qilganligi. O‘sha damning o‘zidayoq, G‘ani Rahmonov 250 so‘mlik zayom oblegatsiyasini topshirganligi. Shu kunning o‘zidayoq 8 ming 754 so‘mlik zayom oblegatsiyalari to‘planganligi;

“Stalin Xaqiqati” gazetasining 1941 yil 13 avgust sonida “Mudofaa fondiga” nomli maqolada Sovet kolxoz bozori xodimlarining mitingida mudofaa fondiga har oyda bir kunlik ish xaqqilarini berishga qaror qilganliklari. Bozor direktori Lyubov 500 so‘m naqd zayom va 5 kunlikdan ish xaqini, Akramxonov esa, 500 so‘mlik zayom oblegatsiyasini, iyul oyini ikkinchi yarmi uchun oladigan butun ish xaqini va urush tamom bo‘lguncha har oyda 2 kunlik ish haqini, Olimov esa, 300 so‘mlik zayom va oyda 3 kunlikdan ish xaqini “Mudofaa fondi”ga berishga qaror qilganligi;

Namangan shahar matlubot jamiyatining xodimi Sarkisova eri bilan 1928 yildan beri yozilib, jamg‘argan 7 ming 745 so‘mlik zayom oblegatsiyalarini “Mudofaa fondi”ga topshirganligi. Shuningdek, Sarkisova shahar matlubot jamiyati xodimlari o‘rtasida harakatdagi Qizil Armiya uchun sovg‘alar yuborishni uyushtirishda ham faol bo‘lganligi;

Namangan viloyatidan 1942 yil oktyabr oyining o‘zida frontdagi jangchilarga 1620 kg guruch, 5201 kg quruq meva, 8059 kg yong‘oq, 426 kg asal, 13570 kg ho‘l meva, 87 bosh qo‘y-echki, 157 ta tovuq, 6070 kg sabzavot, 470 kg qurut, 2774 kg don, 60556 so‘m pul, 10 kg jun, 5 ta teri jo‘natilganligi. Viloyatda 1943 yili tank va samolyotlar qurish uchun 45 million so‘mdan ko‘proq mablag‘ to‘planib, 1943 yilning 7 iyun ikkinchi davlat harbiy zayomiga yozilish viloyat bo‘yicha 31 mln. 93 ming so‘mni tashkil etganligi;

Ko‘plab fuqarolar urush yillarida o‘z shaxsiy jamg‘armalarini ham mudofaa fondiga o‘tkazganliklari. Masalan, «Namangan kolxozchisi» tank kolonnasini qurish

uchun 74 million so‘m, «O‘zbekiston kolxozchisi» aviaeskadrilyasini tuzish uchun esa, 38 million so‘m mablag‘ yig‘ilganligi.

## QO‘QON XONLIGINI BEKLIKLAR BILAN BOG‘LOVCHI KARVON YO‘LLARI: O‘ZARO ALOQALARDA TUTGAN O‘RNI

**Ibraximov Barotjon Botirovich**

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

**Email:ibarotjon2404@gmail.com**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi bilan unga qo‘shni tog‘li bekliklar o‘rtasida shakllangan karvon yo‘llarining iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalardagi o‘rni yoritiladi. Manbalar tahlili karvon yo‘llari mintaqaviy integratsiya va savdo rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Qo‘qon xonligi, karvon yo‘llari, bekliklar, savdo, siyosiy munosabatlar, tog‘li hududlar.

**Аннотация:** В статье исследуются караванные пути, связывавшие Кокандское ханство с горными бекствами, а также их роль в экономических, политических и культурных отношениях. Анализ исторических источников показывает, что данные пути имели ключевое значение в региональной интеграtsiи.

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, караванные пути, бекства, торговля, политика, горные районы.

**Annotation:** This article, examines the caravan routes connecting the Kokand Khanate with mountainous principalities and their role in economic, political, and cultural relations. Analysis of historical sources reveals that these routes played a decisive role in regional integration and inter-state communication.

**Keywords:** Kokand Khanate, caravan routes, principalities, trade, political relations, mountain regions.

## Kirish (Introduction)

Markaziy Osiyo tarixida karvon yo‘llari sivilizatsiyalar rivoji, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va davlatlar munosabatlarini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib kelgan. Qo‘qon xonligi XVIII–XIX asrlarda mintaqaviy siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan davlat sifatida strategik savdo yo‘llaridan keng foydalangan. Xususan, Farg‘ona vodiysini Botkoshto‘g‘, G‘orcho‘, Qarotegin, Hisor, Badaxshon va Darvoz kabi tog‘li bekliklar bilan bog‘lovchi karvon yo‘llari siyosiy-iqtisodiy integratsiyaning muhim vositasi bo‘lgan.

Adabiy manbalarda ta’kidlanishicha, Qo‘qon xonligi uchun tog‘li bekliklar bilan munosabatlar faqat iqtisodiy emas, balki strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ular orqali Afg‘oniston, Xitoy va Hindiston yo‘nalishlariga chiqish imkoni mavjud bo‘lgan (Muhammad Solih, 1999; Boboev, 2015).

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Qo‘qon xonligini tog‘li bekliklar bilan bog‘lovchi karvon yo‘llarining o‘zaro aloqalardagi roli va ahamiyatini tarixiy manbalar asosida tahlil qilish.

## Metodlar (Methods)

Mazkur tadqiqot quyidagi usullar asosida amalga oshirildi:

Qo‘qon xonligiga oid tarixiy xronikalar, manbalar, sayohatnoma va elchilik hisobotlari o‘rganildi (Muhammad Xakimxo‘ja, «Muntaxab at-tavorix»; A. Kun, P. Nabiev ishlari).

Karvon yo‘llarining joylashuvi, ularning tog‘li hududlar orqali o‘tish xususiyatlari va strategik nuqtalari xaritashunoslik ma’lumotlari asosida tahlil qilindi.

Qo‘qon xonligining savdo yo‘llari boshqa mintaqalar (Buxoro, Xiva) yo‘llari bilan solishtirildi.

Yo‘llar bo‘ylab iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalar dinamikasi qiyosiy jihatdan o‘rganildi.

## Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari karvon yo‘llari Qo‘qon xonligining tashqi va ichki siyosiy-iqtisodiy hayotida muhim omil bo‘lganini ko‘rsatdi.

Quyida Qo‘qon xonligidan tog‘li bekliklarga olib boruvchi asosiy yo‘llar keltiriladi:

- **Qo‘qon — Marg‘ilon — Ўsh — Qarotegin — Darvoz** yo‘li;
- **Namangan — Chust — Chorqishloq — Qarotegin** yo‘li;
- **Andijon — O‘sh — Oloy — Badaxshon** yo‘li;
- **Farg‘ona — Isfara — Vorux — Xuчand — Hisor** yo‘li.

Ushbu yo‘llar tabiiy tog‘ yo‘laklari orqali o‘tgan bo‘lib, savdo karvonlarining uzluksiz harakatini ta’minlagan.

Karvon yo‘llari orqali quyidagi tovarlar ayirbosh qilingan:

- Qo‘qondan: paxta, ipak, tamaki, temir buyumlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari.
- Bekliklardan: qo‘y juni, tog‘-mineral xom ashyo, namat, qurol-yarog‘, suv-energetik mahsulotlar.

Muhammad Yusuf Bayoniy ham karvon tijoratining xonlik iqtisodiyotida 40% ga yaqin ulushga ega bo‘lganini qayd etadi (Bayoniy, 1905).

Karvon yo‘llari diplomatik va harbiy strategiyada ham muhim bo‘lgan:

- Bekliklardan elchilar Qo‘qonga aynan shu yo‘llar orqali kelgan.
- Harbiy qo‘shinlarni tez etkazishda tog‘ yo‘llaridan foydalanilgan.
- Bekliklar Qo‘qonga to‘lov va hadya sifatida karvon vositasida mahsulot yuborgan.

Karvon yo‘llari orqali quyidagi madaniy jarayonlar kuzatilgan:

- tillar va dialektlarning o‘zaro ta’siri;
- hunarmandchilik usullarining tarqalishi;
- diniy va ma’rifiy g‘oyalarning intiqoli.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, Qarotegin va Darvozlik hunarmandlar Farg‘onada ko‘plab ustaxonalar ochgan (Nabiev, 2003).

## Muhokama (Discussion)

Olingan natijalar Qo'qon xonligining tog'li bekliklar bilan munosabatlarda karvon yo'llari strategik asos bo'lganini tasdiqlaydi.

Karvon yo'llari mintaqada iqtisodiy aloqalarning uzluksizligini ta'minlagan va Qo'qon xonligini mintaqaviy savdo markaziga aylantirgan.

Tog'li bekliklar bilan munosabatlar ko'p hollarda karvon yo'llarining xavfsizligi va nazoratiga bog'liq bo'lgan. Xonlik ayrim yo'l qo'riqchilarini (sarbozlar) doimiy ravishda saqlagan.

Karvon yo'llari xalqlar o'rtasida madaniy muloqotni kengaytirar, umumiy turmush tarzi va an'analar rivojiga hissa qo'shgan.

Qo'qon xonligining Hindiston, Qashg'ar, Afg'oniston bozorlariga chiqishida aynan tog'li bekliklar orqali o'tuvchi yo'llar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan.

## Xulosa (Conclusion)

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Qo'qon xonligini tog'li bekliklar bilan bog'lovchi karvon yo'llari uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. Karvon yo'llari savdo aloqalarining kengayishi, diplomatik munosabatlarning mustahkamlanishi va madaniy integratsiya jarayonlarining tezlashuviga xizmat qilgan. Ushbu yo'llarning tarixiy ahamiyati bugungi kun tadqiqotlari uchun ham katta ilmiy qimmatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Bayoniy, M.Yu. (1905). *Shajaray◌ turk*. Toshkent.
2. Muhammad Solih. (1999). *Tarixi jadidai Farg'ona*. Toshkent: Fan.
3. Nabiev, P. (2003). *Qo'qon xonligi tashqi savdo tarixidan lavhalar*. Dushanbe.
4. Boboev, A. (2015). *Markaziy Osiyoda karvon savdosi va iqtisodiy aloqalar*. Samarqand.

5. А. Кун. (1885). *Путевые заметки по Ферганской долине*. Санкт-Петербург.

6. Muhammad Xakimxo‘ja. *Muntaxab at-tavorix*. Qo‘lyozma.

7. G. Hambly. (1969). *Central Asia: Caravan Routes and Trade*. London.

8. Bregel, Y. (2003). *An Historical Atlas of Central Asia*. Leiden.

## FARG‘ONA VODIYSI TARIXINI O‘RGANISHDA IS’HOQXON TO‘RA IBRATNING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Xolmatov G‘ayratjon Muxtoraliyevich**
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan davlat pedagogik instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Farg‘ona jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan Is’hoqxon to’ra Ibratning tarix ilmiga qo‘shgan asosiy hissasi — mahalliy tarixshunoslikni rivojlantirish, voqealarni bevosita guvoh sifatida yozib qoldirganligi, Ibratning asarlari orqali XIX–XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy hayoti, madaniy muhit va ma’rifatparvarlik harakati haqida muhim ma’lumotlar, shuningdek, Is’hoqxon to‘ra Ibrat jadidchilik g‘oyalarini faol targ‘ib qilib, ta’lim, til, tarix va madaniyat sohalarida yangilanish zarurligini to’g’risidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Is’hoqxon Ibrat, jadidlar, tarixshunoslik, taraqqiyot, ta’lim, ma'rifatparvar, tarbiya, millat, mustaqillik, kelajak.

**Аннотация:** В данной статье основным вкладом Исхак-хана тора Ибрата, одного из крупнейших деятелей ферганского джадидистского движения, в историческую науку является развитие местной историографии, то, что он, как непосредственный свидетель, фиксировал через произведения Ибрата важные сведения об общественной жизни, культурной среде и просветительском

движении Туркестана в начале XIX-XX веков, а также Исхак-хан тора Ибрат активно пропагандировал идеи джадидизм, образование, констатируется информация о необходимости обновления в области языка, истории и культуры.

**Ключевые слова:** Исхакхан Ибрат, современники, историография, развитие, образование, просветитель, образование, нация, независимость, будущее.

Abstract**:** In this article, the main contribution of Ishaq Khan tora Ibrat, one of the major figures of the Ferghana jadidism movement, to the science of history is the development of local historiography, the fact that he recorded events as a direct witness, through Ibrat's works, important information about the social life, cultural environment and enlightenment movement of Turkestan in the early 19th-20th centuries, as well as Ishaq Khan tora Ibrat actively promoted the ideas of jadidism, education, information about the need for renewal in the fields of language, history and culture is stated.

**Key words:** Ishaqkhan Ibrat, moderns, historiography, development, education, enlightener, education, nation, independence, future.

Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalari keng qamrovli o’rganilgan bo‘lsa-da, lekin harakat ijtimoiy falsafa doirasida tadqiq etilmagan. Mazkur harakatning o‘lka aholisining barcha tabaqa va qatlamlarini milliy istiqlol g‘oyasida birlashtirishining o‘zi siyosiy ong va tafakkurning ijtimoiy ko‘rsatkichi, deb hisoblash mumkin. Jadidchilik harakatining maqsad va mohiyati madaniy-ma’rifiy jarayonlarni qamrab olish, Vatanni ozod qilish, mahalliy xalqni hurriyatga olib chiqish, farovon hayot, milliy va diniy urf-odat, an’ana, milliy til va milliy o‘zlikni saqlab qolish muammolari tarixiy tadqiqotlari amalga oshirilgan.

Jadid ma’rifatparvarlari o‘lka aholisini Vatan va millatning ozodligi yo‘lida mustaqillik manfaatlariga safarbar etish, jumladan, Farg‘ona vodiysi maorif va ta’lim tizimini yo‘lga solishni milliy maktablar islohotidan boshladilar, chunki jadid ma’rifati

anglaganidek, mahalliy ommaning ilmsizligi milliy taraqqiyotning “tushovi” sifatida U.Asadullaxo‘jayev tomonidan “Zamonaviy davr – rivojlanish va madaniyat davri. Agarda biz, Turkistondagi xalqlar bu ilmdan eng kam foydalanmoqda, desak xato bo‘lmaydi, chunki boshqa millat vakillari bilim yordamida kundan kun yuqoriga ko‘tarilmoqda, osmonga uchmoqda. Biz esa, ilmsizlik va ongsizlik soyasida yerga kirib bormoqdamiz”, – deya ta’kidlangan [1]. O‘lkada rus mustamlakachiligini bartaraf etish uchun birinchi galda, mahalliy xalq savodxonligi hal qiluvchi omil ekanligini tushunib yetishgan. Shu sababdan ular vodiyda yangi usuldagi jadid maktablarini tashkil etish va rivojlantirishga harakat qildilar. Ushbu maktablarda milliy tarixni o‘rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etdi. Boisi “tarixni o‘rganmoq va undan saboq olmoq har bir inson uchun zarurdir” [2].

Farg‘ona vodiysi jadidchilik rivojida Is’hoqxon Ibratning faoliyati muhim o‘rinni egallagan. Biz Ibratning faoliyati misolida vodiy taraqqiyparvarlik maktabi jamiyatining islohini ta’lim, yoshlarning ilm-u ma’rifati, jahon urbanizatsiyasi yutuqlarini hayotga joriy qilish orqali milliy tamaddun konsepsiyasi ma’nosida belgiladik. Fikrimizni O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil Namanganga tashrifi chog‘ida: “...Ulug‘ ajdodimiz Ibrat taxallusini bejiz tanlamagan ekan. Uning vatan va yurt ravnaqi yo‘lidagi fidokorona hayoti ... barchamiz uchun haqiqiy ibrat namunasi bo‘lib xizmat qiladi, desam yanglishmayman” [3] – deya alloma ilmiy merosining tadqiqi yuzasidan maxsus qarori bilan dalillaymiz.

Is’hoqxon to‘ra Ibrat millatning madaniy taraqqiyotini xalqning tarixi bilan dialektik aloqadorlikda tushunib, milliy Renessans dasturini ishlab chiqqan. U o‘z yurtining yirik tarixiy poytaxt shahri Axsikent haqida batafsil manbalar asosida Sirdaryo bo‘yidagi qasabaning yer silkinishi tufayli ko‘milib ketgani, u haqda ma’lumotlar to‘plash, gazeta orqali odamlarga axborot berishning zarurati haqida murojaat bilan chiqqan. Sayhun bo‘yidagi qasaba haqida Z.M.Boburning “Boburnoma”

si asosida atroflicha ta’rif va tafsirlar bilan Axsi madaniyati milliy tarixiy madaniyat degan xulosaga kelgan [4].

XX asrning boshlarida jadidchilik harakati to‘la shakllanib, taraqqiyparvar ziyolilar ma’naviy-madaniy rivojlanishni siyosiy jarayonlar bilan uyg‘un holda shakllantirdi. O‘lka aholisining yagona milliy maqsad sari birligi yanada teran siyosiy anglash bilan to‘garak, tashkilot va jamiyatlarni tashkil etish bosqichiga o‘tdi. Madaniy o‘sishda aholining millat va Vatan ozodligi yo‘lidagi asosiy kuch xalq ekanligini tushunib yetishi ham obyektiv va subyektiv omil, deb hisoblaymiz.

G.Vamberi, V.V.Bartold, N.V.Radlov, N.Ostroumov kabi olimlar sharqshunoslik doirasida Yevropaning “orientalizm” yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazgan bo‘lsalar, Ibratning ilmiy-falsafiy merosida xorijiy olimlarning lug‘atlari, tarix va falsafaga oid asarlari, jurnal va gazetalar jild qilib jamlangan. Shu bois uning Tarixi Farg‘ona”, “Mezon ul-zamon”, “Tarixi madaniyat”, “Lug‘oti sitati alsina”, “Jome’ ul-xutut” asarlarida XX asrning 20-30 yillarida milliy madaniyatga xos konseptual masalalar bayon qilingan bo‘lib, jumladan Sharq xalqlarining tarixi, geografik o‘rni, tili va uning tovushi, urf-odat va an’analari, ijtimoiy hayotiga oid boy ma’lumotlar tadqiq etilgan. Uning asarlarida falsafiy tafakkurning nozik jihat va xususiyatlari ostida milliy hayotni umuminsoniy tamaddun toshiga dialektik uyg‘unligi ishlab chiqilgan. Shu ma’noda uning falsafiy tarixiy asarlari Yevropa olimlarining falsafiy-tarixiy metodologiyasiga mosligi bilan ilmiy jamoatchilikning qiziqishini uyg‘otadi, chunki uning asarlarida tarixiy faktlar aniqligi, xonlar va beklar urushlarini, zulmlarini oqlash yoki maqtash tahlillari obyektivlik bilan o‘zga olimlarning ishlaridan ajralib turadi. U o‘z davrining o‘zgarishlarini o‘tmishga qiyosiy bog‘lagan holda ta’riflashni o‘z oldiga maqsad qilganini bayon etgan. Uning sharqshunoslik salohiyati g‘arb olimlarining ishlarini ham atroflicha o‘rganib chiqqani uchun tarixning adolatini falsafiy yoritishga erishgan deb hisoblaymiz.

Adib ijodida xalqimiz tarixini aks ettirgan keng qamrovli “Tarixi Farg‘ona” asari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, muallif bu asarni yaratishda ko‘zlagan asosiy maqsadini shunday ifodalaydi: “Tarixi Farg‘ona” ni yozmoqdin maqsad izhori hunar yoki musannif qatoriga kirmak yoki ta’mini tiriklik yo‘lida bo'lmay, balki bani basharni tiriklik qilish, sanoat va ziroatlari, madaniyat va badaviyatlarini xalqlarga ko‘rsatmak, bizlardan keyin keladurganlar o‘tganlarning turmush va qilmish va bilmush ishlaridan ibrat olsun. O'z zamoni bilan o'tgam zamonni tarozu qilib, vaznini bilsun uchun va ham ilmi ta’rix bir ilmi ta’rifdir. Ilmi sharif va va ilmi najib ekani, ilmlik va fikrlik insonlarga oshkor va ravshan ekani ma’lum uchun “Farg‘ona tarixi”ni yozmoqqa taraddud ayladim [5].

Fargona vodiysi jadidchiligida xonliklarning o‘zaro urush va adovatlari ham o‘lkashunoslikning  muhim jihati bo‘lib, Buxoro xonining Qo‘qonga bosqini haqida Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asarida batafsil ma’lumotlar qoldirilgan. Shu boisdan Nasrulloxonning Qo‘qondagi yovuzliklari, xalqni talashi, aholiga zo‘ravonliklarining bayonida adibning falsafiy merosi gumanizm ruhi bilan sug‘orilganligining guvohi bo‘lish mumkin. G‘arb tillarini ham ancha mukammal bilgan olim “Tarixi Farg‘ona” asarini yaratish jarayonida atoqli sharqshunos olimlar V.V.Radlov, V.V.Bartold, V.P.Nalivkin, turkshunos, etnograf, sayyoh Herman Vamberi asarlaridan foydalandi, ularga o‘z munosabatini bildirdi [6].

Shuningdek, Nodirabegimning hayoti, poetik dunyosini yuksak baholagani, vodiyda “she’riyat malikasi” unvoniga loyiq ko‘rishini ibratona zukkolikning namunasi, deb hisoblaymiz. Ayni vaqtda u Nasrulloxonning qirg‘inbaroti, Nodirabegimning farzandlariga nisbatan qatliomini qoralagan. Bir so‘z bilan aytganda, u urush va qirg‘inlar bashariyatga baxt-saodat keltirmasligi, g‘olibga ham xarobalik keltirishi haqida fikr bildirgan.

Ibrat nafaqat Nasrulloxonning xunrezliklarini bayon etadi, balki o‘z davrining yetuk shaxslari, aziz-avliyolarining fikr va mulohazalarini ham keltiradi. Biz shu

o‘rinda Nodirabegimning Nasrulloxonni duoyibad qilishini Ibrat tilidan daillaymiz: “Ey zolim! Otasi senga osiy bo‘lgan bu norasida senga nima gunoh qildi? Berahm zolim, qizil qonga bo‘yading! Sen ham mendek nuri chashmingdan ajrab xonavayron bo‘l!”, – deya la’natlaydi [7]. Bu kabi ma’lumotlar tufayli ham bu asar Qo‘qon xonligi tarixiga oid ma’lumotlarning tarixiy ekspertizasi uchun ilmiy ahamiyat kasb etadi. Zero, tarixchi olimlar tomonidan tuzilgan monografik tadqiqotlarda ushbu asar falsafiy tahlilga muhtojligi, unda bir qator ijtimoiy muammolar sanab o‘tilsa-da, lekin falsafiy baho berilmaganligini kuzatish mumkin [8].

Is’hoqxon to‘ra Ibratni Farg‘ona vodiysining tarixi bilan birga uning geografik jihat va xususiyatlari, milliy-madaniy, tabiiy resurslari haqida ham milliy madaniyatshunoslik an’analarining vorisi, deb atash mumkin. Falsafa tarixi doirasida shaharlar va qishloqlarning joylashuvi, tabiiy va geografik tafsiri, odamlarning xo‘jalik yuritishiga doir ma’lumotlar, qishloq xo‘jaligi, hunarmandlik asosida savdo-sotiqning rivoji haqidagi ilmiy tahlillar amalga oshirilgan. Uning vodiy urbanizatsiya jarayonlarining atroflicha ijtimoiy talqiniga oid ma’lumotlari muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Biz uning adabiy jihatlarini ijtimoiy fanlardagi analogik qarashlar bilan dalillash mumkin [9].

Is’hoqxon to‘ra Ibratning faoliyatini o‘rganish doirasida xulosalashga urinib ko‘ramiz:

Is’hoqxon to‘ra Ibrat XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan yirik ma’rifatparvar, tarixchi, adib va jadid ziyolilaridan biri bo‘lib, u o‘zining serqirra faoliyati bilan o‘zbek xalqining ilmiy va madaniy taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan. Ibrat nafaqat tarixiy asarlar yaratgan, balki o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotini, xalqning turmush tarzi va tafakkurini chuqur tahlil qilgan olim sifatida ham e’tirof etiladi.

Uning tarix ilmiga qo‘shgan asosiy hissasi — mahalliy tarixshunoslikni rivojlantirish, voqealarni bevosita guvoh sifatida yozib qoldirganidadir. Ibratning

asarlari orqali XIX–XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy hayoti, madaniy muhit va ma’rifatparvarlik harakati haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. U tarixni faqat o‘tmishni tasvirlash vositasi sifatida emas, balki xalqni uyg‘otish, ilm-fan va taraqqiyotga chorlash quroli deb bilgan. Shuningdek, Is’hoqxon to‘ra Ibrat jadidchilik g‘oyalarini faol targ‘ib qilib, ta’lim, til, tarix va madaniyat sohalarida yangilanish zarurligini asoslab bergan. Uning merosi bugungi kunda ham tarixiy tafakkurni rivojlantirish, milliy o‘zlikni anglash va ma’rifatparvarlik an’analarini davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Убайдулла. Мақсад ва маслак // Садойи Туркистон. 1914. 4 апрел.
2. Ғарб фалсафаси. (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров.) – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. (720)
3. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017. – Б. 72.
4. Туркестанская туземная газета (№ 48). 1913. 23 июнь
5. Dolimov U. Is’hoqxon To’ra Ibrat. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B.180.
6. Dolimov U. Is’hoqxon To’ra Ibrat. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B.48.
7. Исхоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: ЎзФАШИ фонди. Инв. 11080. –Б. 54
8. Вохидова К. Исҳоқхон Жунайдуллоххўжа ўгли Ибрат ва унинг тариъхий илмий мероси. –Тошкент. Фан. 2008. – 174 б.
9. Долимов У. Жадидлар. Исҳоқхон тўра Ибрат. – Тошкент: Ёшлар ижод уйи. 2022. – Б.61 (180 б.); Исхоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: ЎзФАШИ фонди. Инв. 11080. – Б. 54.

# QO'QON XONLIGI BILAN TOG'LI TOJIKISTON BEKLIKLARI O'RTASIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR

**Ibraximov Barotjon Botirovich**

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

**Email:**ibarotjon2404@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qo'qon xonligi va tog'li Tojikiston bekliklari o'rtasida XVIII–XIX asrlarda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, nizolar, ittifoqlar, soliq siyosati va aholi harakatlari tahlil qilinadi. Manbalar taxlili mintaqadagi siyosiy dinamika, bekliklarning mustaqillikka intilishi va xalq harakatlarining shakllanishidagi omillarni ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** Qo'qon xonligi, Tojikiston bekliklari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xalq harakatlari, Darvoz, Qarotegin, Badaxshon, Hisor.

**Аннотация:** Статья анализирует социально-политические процессы и народные движения между Кокандским ханством и горными бекствами Таджикистана в XVIII–XIX веках. Исследование включает анализ конфликтов, союзов, налоговой политики и причин народных восстаний. Исторические источники показывают сложность региональной политической динамики.

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, таджикские горные бекства, политические процессы, народные движения, Дарваз, Каратегин.

**Annotation:** This article examines the socio-political processes and popular movements between the Kokand Khanate and the mountainous principalities of Tajikistan during the 18th–19th centuries. The study explores political alliances, conflicts, taxation policies, and the emergence of local uprisings. Historical sources reveal the complexity of regional power relations and the role of local communities.

**Keywords:** Kokand Khanate, mountain principalities, socio-political processes, popular movements, Darvaz, Karategin, Badakhshan.

## Kirish (Introduction)

XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon xonligi Farg‘ona vodiysidagi asosiy siyosiy markaz sifatida shakllanib, uning ta’siri Hisor, Qarotegin, Darvoz, Badaxshon va Oloy kabi tog‘li Tojikiston bekliklarigacha yetgan. Bu davrda xonlik bilan ushbu hududlar o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p qirrali bo‘lib, savdo, harbiy ittifoqlar, soliq-dang taqozosi va xalq harakatlari bilan xarakterlangan.

Muhim jihati shundaki, Qo‘qon xonligining siyosiy tadbirlari va harbiy yurishlari mahalliy aholida turli ijtimoiy inqirozlar va qarshilik harakatlarini keltirib chiqargan. Manbalarda aytilishicha, Qarotegin va Darvoz hokimlari bir necha bor xonlikqa bo‘ysungan, ba’zi davrlarda esa to‘liq mustaqillikka intilishgan.

Ushbu maqolaning maqsadi — Qo‘qon xonligi bilan tog‘li Tojikiston bekliklari o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, siyosiy ittifoqlar va xalq harakatlarini ilmiy asosda tahlil qilish.

**Metodlar (Methods)**

Mazkur tadqiqot quyidagi ilmiy usullar asosida amalga oshirildi:

Sharq qo‘lyozmalari, rus harbiy hisobotlari, mahalliy tarixchilar asarlari («Bahoriston», «Muntaxab at-tavorix», «Tarixi jadidai Farg‘ona») o‘rganildi.

Qo‘qon xonligining siyosiy faoliyati Buxoro amirligi va mahalliy bekliklar siyosati bilan taqqoslandi.

Tog‘li hududlar geografiyasining siyosiy jarayonlarga ta’siri tahlil qilindi.

Aholi harakatlari, yurtboshilar roli, soliq siyosati va uning oqibatlari o‘rganildi.

**Natijalar (Results)**

Qo‘qon xonligi hukmronligi XVIII asr oxiridan boshlab tog‘li Tojikiston bekliklari — Qarotegin, Darvoz, Hisor va Badaxshonga bosqichma-bosqich kirib kela boshladi. Bu jarayon quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- Strategik tog‘ yo‘llariga egalik;
- Savdo yo‘llarini nazorat qilish;
- Bekliklarning ichki tartibsizliklari.

Natijada, ayrim bekliklar Qo‘qon xonlariga vassal sifatida bo‘ysungan, ayrimlari esa to‘liq mustaqil bo‘lishga intilgan.

Qo‘qon xonligi bekliklardan quyidagi soliqlarni talab qilgan:

- «Zirav» — don va mahsulot solig‘i;
- «Xiroҷ» — yer solig‘i;
- «Tuyuto‘lov» — chorvachilik hududlaridan yig‘im.

Bular aholining kambag‘allashuviga olib kelib, ko‘plab qishloqlarda noroziliklar kelib chiqqan.

XIX asrning 30–40-yillarida Qaroteginda Qo‘qon qo‘shinlarining bosimiga qarshi bir nechta isyonlar bo‘lib o‘tgan. Manbalarda aytilishicha, mahalliy yurtboshilar o‘z hududini himoya qilish uchun qarshilik ko‘rsatgan.

Darvoz beklari xonlikka bo‘ysungan bo‘lsa-da, ba’zi davrlarda mustaqillikni tiklash uchun harakat qilgan. Aholi orasida xonlikka qarshi g‘oyalar kuchaygan.

Hisorliklar ko‘p marotaba xonlik saylangan hokimlarni tan olmagan va o‘z hokimini tayinlashga intilishgan.

Qo‘qon xonligi bekliklarni o‘z ta’sirida saqlab qolish uchun quyidagi siyosiy choralarni qo‘llagan:

- mahalliy amaldorlar bilan nikoh vaqolatlari orqali ittifoq tuzish;
- harbiy garnizonlar joylashtirish;
- to‘lovlar va hadyalarni nazorat qilish.

Mahalliy beklar esa Buxoro amirligi yoki Badaxshon amirlari bilan ittifoq tuzish orqali Qo‘qon bosimiga qarshi chiqqan.

## Muhokama (Discussion)

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Qo‘qon xonligi bilan tog‘li Tojikiston bekliklari o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar doimiy dinamikaga ega bo‘lgan. Quyidagi xulosalar muhim ahamiyat kasb etadi:

Bekliklar tomonidan Qo‘qonga nisbatan ba’zi davrlarda hamkorlik, ba’zi davrlarda esa qarshilik ustun bo‘lgan.

Ko‘p hollarda isyonlar aynan katta soliqlar va mahalliy aholiga nisbatan adolatsiz siyosat tufayli yuzaga kelgan.

Siyosiy ziddiyatlarga qaramasdan, madaniy muloqot, til almashuvi va hunarmandchilik rivoji uzluksiz davom etgan.

Tog‘li hududlarning qattiq sharoiti hech bir siyosiy kuchning to‘liq ustunlik o‘rnatishiga yo‘l qo‘ymagan.

## Xulosa (Conclusion)

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Qo‘qon xonligi bilan tog‘li Tojikiston bekliklari o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ko‘p qirrali va murakkab bo‘lgan. Bekliklarning mustaqillikka intilishi, Qo‘qon xonligining siyosiy bosimi, soliq siyosati va xalq harakatlari mintaqaning siyosiy tarkibiy tuzilmasini shakllantirgan. Ushbu jarayonlarning o‘rganilishi Markaziy Osiyo tarixidagi davlatchilik va mintaqaviy integratsiyani yaxshiroq anglashga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar (References)


1. Байоний, М.Ю. *Шажарайи турк*. Тошкент, 1905.
2. Муҳаммад Солиҳ. *Тарихи жадидаи Фарғона*. Тошкент: Фан, 1999.
3. Набиев, П. *Марказий Осиё сиёсий тарихи бўйича тадқиқотлар*. Душанбе, 2003.
4. А. Кун. *Очерк Ферганской долины*. Санкт-Петербург, 1885.
5. Бобоев, А. *Қўқон хонлиги сиёсий муносабатлари*. Самарқанд, 2017.
6. Бартольд, В.В. *Туркестан в эпоху нашествия*. Москва, 1963.
7. Bregel, Y. *Historical Atlas of Central Asia*. Leiden, 2003.
8. H. Babajanov. *Political Structures of Kokand Khanate*. Tashkent, 2011.

# KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA FUQAROLARDA HUQUQIY ONGNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY AHAMIYATI

**Kenjayev Burgutali Qoviljon oʻgʻli**
Namangan davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi
Email: burgutalikenjayev30@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Yangi Oʻzbekiston sharoitida korrupsiyaga qarshi kurash jarayonida fuqarolarda huquqiy ongni shakllantirishning falsafiy ahamiyati tahlil qilinadi. Korrupsiya nafaqat jinoyat-huquqiy, balki ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida baholanib, uning ildizlari shaxs ongidagi qadriyatlar inqirozi va huquqiy e’tiqodning zaifligi bilan bogʻlanadi. Maqolada huquqiy ongning mazmuni, uning tarkibiy qismlari – huquqiy bilim, huquqiy qadriyat, huquqiy e’tiqod va xulq-atvor odatlarining korrupsiya bilan kurashdagi oʻrni yoritiladi.*

***Kalit soʻzlar:*** *korrupsiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, adolat, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati, axloqiy qadriyat, ta’lim tizimi, raqamli jamiyat, jamoatchilik nazorati.*

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida korrupsiya nafaqat alohida bir davlatning, balki butun bir mintaqa va jahon hamjamiyatining barqaror taraqqiyotiga tahdid soladigan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon boʻlmoqda. Korrupsiyaning xavfi shundaki, u jamiyatning eng nozik qatlamlariga – qadriyatlar tizimiga, adolat va tenglik haqidagi tasavvurlarga, fuqarolarning davlat va huquqiy institutlarga boʻlgan ishonchiga zarba beradi. Shu ma’noda, korrupsiyaga qarshi kurashni faqat ma’muriy choralar, jazoni kuchaytirish yoki nazorat mexanizmlarini koʻpaytirish bilangina cheklab boʻlmaydi. Uning ildizlari inson ongida, dunyoqarashida, qadriyatlarida, huquqiy madaniyatida mujassam boʻlgan boʻlib, shu sababdan masalani falsafiy nuqtai nazardan ham oʻrganish zarur.

Huquqiy ong – bu shaxsning huquq va erkinliklari, majburiyatlari, qonun va huquqiy tartibotga munosabatini ifodalovchi murakkab ma’naviy-axloqiy va kognitiv tizimdir. Fuqarolarda yuqori darajadagi huquqiy ong shakllanmas ekan, eng mukammal qonunlar ham “qog‘ozda qolib ketishi”, nazariy norma amaliy hayotda to‘liq namoyon bo‘lmasligi mumkin. Shu nuqtada korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy ong o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik, ular o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari, shuningdek, huquqiy ongni shakllantirishning falsafiy mazmuni alohida ilmiy tahlilni talab qiladi.

Korrupsiyaga ko‘pincha jamiyatni yemiruvchi illat sifatida yondashiladi. Falsafiy jihatdan qaralganda, u qadriyatlar inqirozi, axloqiy me’yorlarning yemirilishi, manfaatlar muvozanatining buzilishi, adolat va tenglik tamoyillarining amalda poymol etilishi natijasi hamdir. Korrupsiyaning ildizlari faqat iqtisodiy ehtiyoj yoki moddiy manfaatga intilishdagina emas, balki ma’naviy bo‘shliq, nigilizm kabi stereotiplar ta’sirida shakllangan noto‘g‘ri dunyoqarashda ham yotadi.

Falsafada har bir hodisaning mohiyatini tushunishda uning sabab va shart-sharoitlariga e’tibor qaratiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, korrupsiya odatda uch omil kesishgan joyda vujudga keladi: birinchidan, huquqiy institutlarning yetarlicha samarali ishlamasligi; ikkinchidan, iqtisodiy manfaatlar adolatli taqsimlanmasligi; uchinchidan, fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy mas’uliyat darajasining pastligi. Agar birinchi ikki omil ko‘proq institutsional islohotlar, iqtisodiy va tashkiliy choralar orqali hal qilinsa, uchinchi omil – huquqiy ong – avvalo ma’naviy-ma’rifiy, falsafiy yondashuvni talab qiladi.

Huquqiy ong – bu shaxs yoki jamiyatning huquq, qonun, adolat, erkinlik, majburiyat kabi kategoriya va institutlarga nisbatan qarashlari, qadriyatlari, bilimlari va his-tuyg‘ularining yaxlit majmuasidir. U bir necha tarkibiy elementlardan iborat:

1. Huquqiy bilimlar – mavjud qonunlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, huquqiy tizimning tuzilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari haqida aniq va tizimli ma’lumotlar.

2. Huquqiy qadriyatlar – adolat, tenglik, qonun ustuvorligi, inson sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish kabi tushunchalarning shaxs ongida yuksak qadriyat sifatida qaralishi.

3. Huquqiy xulq-atvor odatlari – kundalik hayotda qonunlarga rioya qilishni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilish, huquqiy normalarga mos ravishda oʻz xatti-harakatlarini boshqarish koʻnikmasi.

Korrupsiyaga moyillik koʻpincha aynan shu elementlar yetarlicha shakllanmaganida, ya’ni inson huquqiy bilimga ega boʻlsa-da, ammo huquqiy qadriyatlar va e’tiqod darajasi past boʻlganda yuzaga keladi. Demak, huquqiy ongni shakllantirish faqat ma’lumot berish bilan kifoyalanmasdan, dunyoqarashni, qadriyatlar tizimini oʻzgartirishni ham koʻzda tutishi lozim. Bu esa bevosita falsafiy yondashuvni talab qiladi.

Dialektik nuqtai nazardan qaralganda, korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy ong oʻzaro ta’sirda boʻlgan ikki jarayondir. Bir tomondan, samarali korrupsiyaga qarshi siyosat fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishga olib keladi: adolatli jazolash, ochiqlik va oshkoralik, davlat organlari faoliyatining shaffofligi natijasida fuqarolarda qonun ustuvorligiga nisbatan ishonch kuchayadi. Ikkinchi tomondan esa, aynan fuqarolarning yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyatga egaligi korrupsiya uchun ijtimoiy zamin boʻlishini cheklaydi, ya’ni korrupsiyaga nisbatan bagʻrikenglikni kamaytiradi. Agar jamiyatda “korrupsiyasiz ish bitmaydi”, “hadya berish odat”, “imkon boʻlsa, foyda koʻrish kerak” kabi stereotiplar keng tarqalgan boʻlsa, bu holat korrupsiyaga nisbatan ijtimoiy bagʻrikenglikning yuqoriligidan dalolat beradi. Falsafiy jihatdan bu holatni qadriyatlar tizimining deformatsiyasi sifatida izohlash mumkin. Qonuniylik, halollik va adolat oʻrnini pragmatizm, “foyda” tushunchasi egallaydi.

Huquqiy ongni shakllantirish jarayoni esa aynan mana shu deformatsiyani bartaraf etishga, halollik va adolatni qayta tiklashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Huquqiy ongni shakllantirish – bu faqat texnik, tashkiliy yoki didaktik jarayon emas, balki chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatdir. Uning falsafiy asoslari quyidagi tamoyillarda namoyon bo‘ladi:

1. Insonparvarlik tamoyili – har bir fuqaroni shaxs sifatida hurmat qilish, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb bilish. Bu tamoyil korrupsiyani shaxs qadr-qimmatiga tahdid sifatida talqin etadi. Chunki korrupsion muhitda insonning mehnati emas, balki pul, tanish-bilish, mavqe kabi omillar ustun bo‘ladi.

2. Adolat tamoyili – huquqiy tenglik, imkoniyatlar tengligi, qonun oldida barchaning barobarligi g‘oyalarini ilgari suradi. Korrupsiya esa aynan shu tamoyilni buzishi bilan xavflidir. Adolat falsafiy kategoriya sifatida fuqarolarda “korrupsiya faqat qonunni emas, balki adolatning o‘zini buzadi” degan tasavvur shakllanishiga xizmat qiladi.

3. Qonun ustuvorligi tamoyili – davlat boshqaruvida, ijtimoiy hayotda barcha qarorlar va harakatlar aynan qonunga muvofiq amalga oshirilishi kerakligi haqidagi g‘oya. Agar fuqarolarda “qonun – tavsiya emas, balki majburiy me’yor” degan e’tiqod shakllansa, korrupsiya illatini ma’naviy jihatdan rad etish osonlashadi.

4. Mas’uliyat va erkinlik dialektikasi – erkinlik mas’uliyatsiz bo‘lmaydi. Fuqaro o‘z huquqlarini bilishi bilan birga, o‘z majburiyatlari va jamiyat oldidagi mas’uliyatini ham anglamog‘i lozim. Korrupsiya ko‘pincha erkinlikni noto‘g‘ri tushunish: “imkon bor ekan, foyda ko‘rish mumkin” degan qarash natijasidir. Falsafiy yondashuv esa erkinlikni axloqiy mas’uliyat bilan uyg‘unlikda ko‘radi.

Korrupsiyaga qarshi barqaror immunitet shakllantirishning eng muhim maydonlaridan biri – ta’lim tizimidir. Boshlang‘ich maktabdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan jarayonda huquqiy tarbiya va huquqiy ta’limga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Falsafiy nuqtai nazardan, ta’lim faqat bilim berish emas, balki shaxsni tarbiyalash, unda

ma’lum dunyoqarash, qadriyatlar tizimini shakllantirish jarayonidir. Maktab darslarida beriladigan huquqiy ma’lumotlar “qonunlar ro‘yxati”ni yodlash bilan cheklanmasdan, bolalarda adolat, halollik, vijdon, mas’uliyat kabi tushunchalarga nisbatan ijobiy munosabat va ichki e’tiqod shakllantirishga qaratilishi lozim. Oliy ta’lim muassasalarida esa talabalarning huquqiy savodxonligini oshirish bilan birga, korrupsiyaning falsafiy-axloqiy mohiyati, uning shaxs va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri chuqur tahlil qilinishi, interfaol usullar yordamida bahs-munozaralar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Ta’lim tizimining o‘zida korrupsion holatlar (masalan, pora evaziga baho qo‘yish, imtihondan o‘tkazish va hokazo) bartaraf etilmas ekan, fuqarolarda huquqiy ongni yuksaltirish haqidagi har qanday chaqiriq ishonchlilikdan mahrum bo‘lib qolishi mumkin. Shu jihatdan, ta’lim tizimi nafaqat huquqiy ongni shakllantiruvchi subyekt, balki o‘zi ham korrupsiyadan holi bo‘lishi lozim bo‘lgan ijtimoiy institutdir.

Falsafiy yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, huquqiy ongni yuksaltirish jarayoni ommaviy ong va mentalitet bilan ziddiyatga kirishmasdan, balki ularni bosqichma-bosqich yangilash, sog‘lomlashtirish yo‘li bilan amalga oshirilishi lozim. Shu ma’noda, milliy qadriyatlar – mehmondo‘stlik, saxiylik, halollik, andishalilik, kattaga hurmat kabi fazilatlar korrupsiyani emas, balki aksincha, adolat, poklik, vijdonlilik, qonuniylikni qo‘llab-quvvatlash ruhida talqin etilishi kerak. Huquqiy ong va mentalitet o‘rtasidagi uyg‘unlikka erishish, ya’ni “milliylik” bilan “huquqiylik”ni qarama-qarshi qo‘ymaslik, balki ularni bir-birini boyituvchi omillar sifatida talqin qilish korrupsiyaga qarshi kurashning g‘oyaviy-falsafiy zaminini mustahkamlaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda faqat davlat organlarining sa’y-harakatlari yetarli emas. Kuchli fuqarolik jamiyati institutlari – nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, jamoat birlashmalari, mahalla institutlari, mustaqil ekspertlar va blogerlar ham faol ishtirok etishi zarur. Ularning faoliyati orqali fuqarolar o‘z huquq va majburiyatlarini yaxshi anglab boradi, huquqiy ong va huquqiy faollik oshadi. Falsafiy

jihatdan qaraganda, fuqarolik jamiyati bu – shaxsning davlat bilan munosabatida passiv obyekt emas, balki faol subyektga aylanish jarayonidir. Huquqiy ongni yuksaltirish shuni anglatadiki, fuqaro davlat organlaridan adolat talab qila oladigan, korrupsion holatlarni ko‘rsa, ularga befarq bo‘lmagan, qonuniy yo‘llar bilan o‘z noroziligini bildira oladigan darajada yetuk bo‘lishi kerak. Ochiqlik va oshkoralik tamoyili ham huquqiy ongning muhim falsafiy jihatlaridan biridir. OAV, ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilik nazorati orqali korrupsion holatlarni fosh etish, ularni oshkora muhokama qilish fuqarolarda “korrupsiya – sharmandali hodisa, uni yashirish emas, balki fosh etish kerak” degan kayfiyatni shakllantiradi. Bu kayfiyat esa huquqiy ongning tarkibiy qismi bo‘lib, korrupsiyaga nisbatan ijtimoiy bag‘rikenglik darajasini pasaytiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqiy choralar qanchalik zarur bo‘lmasin, ularning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan asosiy omillardan biri axloqiy qadriyatlardir. Halollik, vijdon, mas’uliyat, insof kabi axloqiy kategoriyalar huquqiy ongning ichki tayanchi hisoblanadi. Agar shaxs ma’lum korrupsion xatti-harakatning noqonuniy ekanligini anglasa-yu, ammo uning axloqiy jihatdan ham yaramas ish ekani haqida ichki ishonchga ega bo‘lmasa, u holda huquqiy ong zaif bo‘ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolarda huquqiy ongni shakllantirish masalasi oddiy tashkiliy topshiriq emas, balki chuqur falsafiy, ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgan murakkab jarayondir. Huquqiy ong kontekstida korrupsiya – bu nafaqat qonun buzilishi, balki qadriyatlar inqirozi, adolat va tenglik tamoyillarining poymol etilishi, inson qadr-qimmatining mensilmasligi holatidir. Shu bois huquqiy ongni yuksaltirish korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi zarur. Demak, korrupsiyaga qarshi kurashda huquqiy ongni shakllantirish faqat ma’lum bir soha yoki idora vazifasi emas, balki butun jamiyat – davlat organlari, ta’lim tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV, oilalar va har bir alohida shaxsning umumiy burchidir. Falsafiy yondashuv shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashning eng kuchli quroli – bu huquqiy ongli,

axloqan barkamol, ma'naviy jihatdan yetuk insondir. Ana shunday insonlar ko'paygan sayin, jamiyatda korrupsiya ildiz otishi uchun joy qolmaydi, qonun ustuvorligi, adolat va halollik esa haqiqiy hayot me'yoriga aylanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rasulov F.F. Korrupsiyaning mohiyati va uning oqibatlari // Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 2. – №. 8. – C. 938-947.
2. Kurbonova M., Choriyeva S. Korrupsiya shakllanishining tarixi. mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar // Global Science Review. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 207-212.
3. Satvoldiyev F.A. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari – Namangan, 2024 – 275 b.
4. Mamaziyayev X. Jamiyatda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish: muammo va yechimlar. Наука и инновация, 2025. – C. 39-43.
5. Xoldorova Z.F. Huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati va uning dolzarbligi. Interdiscipline innovation and scientific research conference, 2024. – P. 30-34.

## NAMANGAN HUDUDIDAN YETISHIB CHIQQAN JADIDLAR VA ULARNING FAOLIYAT TARIXI

**Abdusamatov Ismoilxon A'zam-o'g'li**
Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi
https://t.me/Ismoilxon_abdusamadov

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada XX asr boshlarida Namangan hududida faoliyat yuritgan jadid ma'rifatparvarlarining hayoti va faoliyati yoritilgan. Is'hoqxon To'ra Ibrat, Nodim Namangoniy, Muhammadsharif So'fizoda, Rafiq Mo'min, Lutfulla Olimiy, Nosirxonto'ra Kamolxonto'ra, Dadamirzaqori Shayxov va Akrom Usmonovlarning ta'lim, matbuot, adabiyot hamda jamiyatni isloh qilish yo'lidagi xizmatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ularning sovet davridagi qatag'onlarga uchragan

fojeali taqdiri ochib berilgan. Maqola Namangan jadidchilik harakatining tarixiy ahamiyatini koʻrsatishga xizmat qiladi.

**Kalit so’zlar**: jadidchilik harakati, Namangan jadidlari, yangi usul maktablari, ma’rifatparvarlik, milliy uygʻonish, jadid matbuoti, qatagʻon yillari, Is’hoqxon Toʻra Ibrat.

**Kirish.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston oʻlkasida yuzaga kelgan jadidchilik harakati jamiyat hayotida muhim burilish yasadi. Ushbu harakat vakillari xalqni jaholatdan chiqarish, zamonaviy ta’limni joriy etish, milliy ong va ma’naviyatni yuksaltirishni oʻz oldilariga asosiy maqsad qilib qoʻydilar. Namangan vohasi ham jadidchilik gʻoyalari keng yoyilgan muhim ma’rifiy markazlardan biri boʻldi. Mazkur maqolada Namanganning ilk jadidlari boʻlgan ma’rifatparvar ziyolilarning hayoti va faoliyati, ularning ta’lim, matbuot hamda jamiyatni isloh etish yoʻlidagi xizmatlari yoritiladi.

**Is'hoqxon To'ra Ibrat.** Is'hoqxon To'ra Junaydullaxon to'ra o'g'li I rat 1862 yilning 21-martda To'raqorg'on tumanidagi Sayram qishlog'ida dunyoga kelgan. Is'hoqxon to'raning otasi Junaydullaxon to'ra soxibkor bog'bon bo'lib, “Xodim” taxallusi bilan she'rlar yozardi. Onasining ismi esa Xurbibi edi. Xurbibi maktabdor bo'lib, o'z uyida qizlarni o'qitgan. Is'hoqxon nasl-nasabi Axmad Yassaviyga daxldorligi haqidagi hujjat (20 kishi muhr bosgan shajara) xozir ham bor.

Is'hoqxon 5 yil ichida 3 ta muallimda saboq olib, so’ng Xurbibida savod chiqaradi va otasidan 2 yil ichida xusnihatdan saboq oladi.So’ngra 1878-1886 yillari Qo’qondagi Tunqator madrasasida Muhammad Siddiq domla qo’lida tahsilni davom ettiradi.

Ayni shu davrlarda rus,fors, arab tillarni o’rgandi, badiiy ijodga qo’l urdi, Qo’qon adabiy muhitining Muqimiy,Furqat, Muxiy,Zavqiy, Xaziniy kabi namoyandalari bilan do’stlashdi.Qo’qonda tahsil olayotgan davrda u “ Sadoi Turkiston” ,”Sadoi Farg’ona” kabi mahalliy nashrlarni ,olisdan keladigan “ Tarjimon” , “Vaqt” singari gazetalarni o’qiydi va hatto ularga yozib ham turadi .

Ibrat 5 yil Jidda,Qobul kabi shaxarlarda, 1892- 1896 yillari Hindistonda-Bombey va Kalkuttada istiqomat qildi.Hind va ingliz tillarni o'rgandi, binobarin , uning 7 ta ( yoki 11 ta ) tilni bilganida lof yo’q. Ayni tillage oid asarlari xususan, “ Lug'ati sitta al-sina” ( olti tilli lug’at) va “ Jome ul-hutu” ( Xatlar majmui) buning isbotidir. Hindistonga borgunga qadar Is’hoqxon Yevropaning bir qator yirik shaharlarida bo’ladi. Manbalarda Istambul, Sofiya, Afina, Rim tilga olinadi.

Ibrat 1907 yilning yozida Orenburgga boradi. U rus madaniyati, san’ati va texnika yangiliklarini o’rganadi. Ayniqsa, Gaufman bilan yaqindan tanishib ,o’z yurtida bosmoxona tashkil etish masalasida yordam so’radi. Gaufman unga nusxa ko'chirish, kitob bosish sirlarini o’rgatdi. Shunday qilib, bir necha hardware to’plami, bitta litografiya mashinasini o’n yil davomida pulini to’lash sharti bilan sotib olgan Ibrat ularni katta mashaqqatlar evaziga poezdda Qo’qon shaxriga olib keldi. Eng so’ngi manzili esa To’raqorg’on qishlog’iga tuya ,ot-aravalarda yetib kelgan dastgohlar 1907 yilda “ Matbaai Is'hoqiya” nomi ostida ish boshladi. Biroq Is’hoqxon To’ra Ibrat qizillarni tazyiqiga uchradi. Alal oqibat 75 yashar mo’ysafid Ibrat ana o’sha fojeaga taqdirdosh bo’ldi.

Uni 1937 yili 14-mart kuni xibsga olishgan. Uyiga NKVD xodimlari tintuv o’tkazib qo’llariga tushgan qog’oz daftarlarni olishdi. Dastalab To’raqorg’on turmasida ,so’ng Andijon turmasiga olib ketishdi. O’sha yerda Ibratxon vafot etdi. Oradan 22 yil o’tib esa ya’ni 1959 yilda oqlanadi.

**Nodim Namangoniy.** Sulaymon to’ra Ulug’xon o’g’li Nodim 1844 yilda Namangan shaxrining Jome maxallasida tavallud topgan. 1855 yilda Saidqulbek madrasasiga o’qishga kirgan. Qo’qon va Toshkentda bo’lgan fan-texnika yangiliklaridan yaqindan tanishgan .

Dastlab Buxoro , Samarqandga so’ng 1902-1903 yillar davomida Turkiya,Misr va Arabiston bo’ylab safar qilgan.

Muqimiy, Muhyi ,Furqat, , Zavqiy , Shavqiy kabi shoirlar bilan yaqin do’St bo’lib, ijodiy hamkorlik qilgan, ular she’rlariga muxammaslar bog’lagan.

Turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan. Uning g’azallarida inson go’zalligi ,mauhabbat va vafo , ayollar erkini kuylagan( “ Sog’indim men ,sog’indingmi? “ , “ Maktubi muhabbat uslub “ , “ Ona Vatan tabiati” ) asarlarida uning g’o’zalligi tarannum etgan. Xalq hayotini aks ettirgan ma’rifatparvarlik g’oyalarini ilgari surgan .( “ Bahor ayyomi” , “ Davr javridin” , “ Bayoni dor safari Toahkand” ) .

Shoirdan qolgan katta adabiy meros o’zi tuzgan “ Bayozi Nodim”da , XX asrning boshlaridagi boshqa bayozlarda saqlanmoqda. Bundan tashqari, uning bir qancha asarlari “ Turkiston viloyatining gazeti” , “ Туркестанские ведемости” singari ro’znomalarda chop etilgan . Binobarin , ayta olamizki

Nodim matbuot bilan tillashgan dastlabki namanganliklardan biri edi.

**MuhammadSharif So’fizoda.** MuhammadSharif So’fizoda 1869-yilning 29 – yanvarida chustda hunarmand oilasida tavallud topgan. Otasi pichoqchi hunarmand edi . U mahallasidagi Manzura otindan saboq olgan. 1893-1899 yillarda Qo’qonda yashab,

Muqimiy , Furqat, bilan do’stalashadi , “ Vaxshiy” taxallusi bilan she’rlar yoza boshlaydi. U xajviy she’rlari tufayli ona shaxri Chustga ham , Qo’qonga ham sig’maydi.

1900-1913 yillarda turli shaxarlarda Tiflis, Bokuda va turli mamlakatlarda

Turkiya, Arabiston, Hinsdistonda bo’lgan. U qayerda yashamasin, Toshkent , Kavkaz, Qrim, Orenburg , Turkiyada chop etiladigan gazetalar bilan aloqani uzmagan. Uning maqolalari , she’rlari “ Turkiston viloyatining gazeti” , “ Sadoi Turkiston “ , “ Sadoi Farg’ona” gazetalarida muntazam chiqib turgan.

1913-yili Chustga qaytib, yetim bolalar uchun “ Dorulaytom” ( yetimlar uyi) va kattalar uchun kechki usuli jadid maktabini tashkil qiladi. Bu maktablarda u ona tili , handasa kabi fanlarni o’qitadi. 1914 – yili Turkiston miqyosida hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy ma’naviy tanazzulni fish etuvchi “ Chustlar bizni” she’rini e’lon qiladi. She’r “ usuli qadim”chilarga mutaassiblarga nisbatan achchiq kinoya , o’zini o’zi fosh etuvchi uslubida yozilgan edi. Bu she’r orqali tazyiqqa uchraydi va hayoti xavf ostida qolgach, Chustdan quvg’in qilinadi.Keyinchalik To’raqorg’on yaqinidagi Shaxandda “ usuli jadid” maktabini ochdi. Bu ishda unga To’raqorg’on qozisi , ma’rafatparvari, shoiri, pedagogi Is’hoqxon yaqindan yordam beradi.

1915-yili o’z vatanini tark etadi. Hindiston va Afg’onistonda muallimlik qiladi , 1918-yili Afg’oniston maorif vazirining o’rinbosari sifatida Toshkentga va yana Chustga keladi .

So’fizoda mustabid tuzum qo’l ostida bo’lsa-da , o’z xalqi ma’rifati uchun xizmatlar qilgandi. 1935-yilda So’fizodaning 55 yilligi munosabati bilan 200 dan ortiq she’rlari nashr etish uchun to’planning edi. Inqilobiy tuzum “ O’zbekiston xalq shoiri” unvoni berdi va shu tuzum uni 1937-yili qatl etdi.

So’fizoda Namanganning birinchi va xassos jurnalistlaridandir.

**Rafiq Mo’min.** 1900-yilning 7-fevralida Namanganda tug‘ilgan. Uning otasi Mulla Mo‘min kosibchilik qilib nochor hayot kechirsa ham, ammo ma’naviy sog‘lom, boy turmush kechirgan, desak xato bo‘lmas. Nega deganda, u o‘z xonadonida qishning uzoq tunlarida hammaslak do‘stlari bilan sandal atrofida navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, mashrabxonlik gashti bilan ochlik, nochorlikni ham unutib yashaganlar. Tabiatan iqtidorli, sezgir bo‘lgan yosh Rafiq ana shu g‘azalxon muhitda tarbiya topdi.Qo‘qondagi “Dorul muallimin”da tahsil ko‘rdi, xususiy mutolaaga berildi. Shu yo‘sinda u mumtoz adabiyotimiz namoyandalari ijodini o‘rgandi, ergashdi, ba’zan taqlid ham qildi. Ayniqsa, Mashrab ijodi uni o‘ziga rom etdi. Mashrabning ko‘pgina she’rlarini yodlab ulgurdi, yodlabgina qolmay, undagi asl ma’nolar mag‘zini, she’riy

shakllarni ham oʻzicha tahlildan oʻtkaza bordi. Oʻzi ham ijod bilan shugʻullangan dastlabki kezlarda “Mashrab” taxallusi bilan sheʼrlar ham yozdi.Rafiq Moʻmin rus-tuzem maktabida oʻqiydi. Shu bahona u Sharq mumtoz adabiyoti qatorida A.S. Pushkin, L. N. Tolstoy kabi rus adabiyoti namoyandalari ijodi bilan tanishish, oʻrganish imkoniyatiga ega boʻladi.Rafiq Moʻminning xalq ertaklari bilan qiziqishi tasodifiy emas. Qalbida xalq ijodiga katta hurmat va ehtirom joʻsh urgan shoir 1922-yili vodiy aholisi oʻrtasida bir zamonlar “Yozi bilan Zebo” (“Zevak”) dostonining mashhur boʻlganidan xabar topadi va uni izlashga tushadi. Uch yil mobaynida bu dostonni aytuvchi fargʻonalik baxshilarni axtarib, axiyri Uchqoʻrgʻondan Yormat baxshini topib, uning ogʻzidan oʻsha dostonni yozib oladi. Ushbu dostonni axtarish mashaqqatlarini eslab shunday yozgan edi: “Qiyinlikka kelganda biz qoʻlimizdagi eng ozi 350-yildan ziyod, balki undan ilgaridan beri soʻylanib kelib turgan “Zevak” dostonini axtarishda bosmachilar yoʻliga tushib, yomon azoblarni tortdik… Besh kishidan soʻradik, yetti kishi yetti xil soʻyladi… Eng oxirda uchqoʻrgʻonlik Yormat chol degan kishidan topdik. U chol ham qarib-qartayib qolganidan bizning yozib olganimiz yaxshi boʻlgan edi. Bugungi kunlarda tirikmi-oʻlikmi — maʼlum emas”.Rafiq Moʻmin ana shunday mashaqqat bilan “Zevak” xalq dostonini tiklashga muvaffaq boʻladi.

“1920-yili 2 komsomol Omon polvon shaykasi tomonidan oʻldirilgandan soʻng “Fargʻona” degan qoʻshiq-sheʼr yozdim”. Voqea bunday boʻlgan. Mahbus aytganidek, 1920-yili emas, balki 1921-yili Peshqoʻrgʻonda bir necha komsomol yoshlar vahshiyona oʻldiriladi. Ogʻzaki manbalarga qaraganda, ular “bosmachilar” tomonidan oʻldirilgan. Lekin soʻnggi yillarda matbuot yuzini koʻrgan xotiralarga koʻra, Shoʻro davlati xalqda “bosmachilar”ga qarshi nafrat uygʻotish maqsadida qishloq ahlini talash va qirishda “bosmachilarcha” kiyintirilgan qizil askarlardan foydalangan… Xullas, hali “oʻn gulidan bir gul ochilmagan” yigitlar kim tomonidan oʻldirilganidan qatʼi nazar, jasadlari aravaga solinib shaharga yuborilgan. Motam aravasi qishloqdan qishloqqa oʻtib, shaharga yetib kelgunicha bu yovuzlikni koʻrib, dahshatga tushgan kishilar soni tobora koʻpaygan. Rafiq Moʻmin shu “motam karvoni”ning oldiga tushib badiha yoʻli bilan sheʼr-marsiya aytib borgan. Oradan birmuncha vaqt oʻtgach Hamoyiddin Yoʻldoshqoriyev bilan birga shu fojiali voqeaga bagʻishlangan “Yosh qurbonlar” pyesasini yozib sahnalashtirgan. “1924-yilda, – davom etgan mahbus tergovchining savollariga javob berib, – “Qapchigʻay” sarlavhali doston yozdim. 1926-yilda “Onalar” qoʻshigʻim dunyo yuzini koʻrdi. 1927-yilda ayrim kimsalarning xotin-qizlar ozodligiga qarshilik koʻrsatganlari munosabati bilan “Yigʻlama, singlim” degan qoʻshiqni yozdim. Bundan tashqari, 1920-yilda bir kitobni 3 turk tilidan oʻzbek tiliga tarjima qildim. 1926-

yildan boshlab faqat sinfiy jihatdan yaroqli she’rlar, qo‘shiqlar va dostonlarni yozayotgan edim. 1920 – 1924-yillarda yozgan asarlarim 1924-yilda Moskvaga ketayotganimda o‘g‘irlanganligi sababli ularning nusxalari saqlanib qolmagan”.

Istiqlol yillarida Rafiq Mo‘minning “Qapchig‘ay” (1998) nomli she’rlar va dostonlar kitobi bosilib chiqdi.

Rafiq Mo‘min qamoqqa olinganda otasi Mo‘min ota 65 yoshda, onasi Jahon aya 47 yoshda bo‘lishgan. Xotini Komila aya maktabda maktabda muallim bo‘lib ishlagan. Ularning Tavfiq, Shafiq, Hakim nomli o‘g‘illari hamda Lola ismli qizi bo‘lgan. Otasining merosini to‘plashda shoirning o‘g‘li Hakimjon Mo‘minov ko‘p mehnat qildi. Hatto otasi tutqunlikda bo‘lgan joylarga borib, bir “daftar” olib keldi. “Rafiq Mo‘min – deya xotirlaydi Razzoq Hamroyev, – o‘sha kezlarda “Qalandar” degan roman ustida ishlab, yarim-yortisini yozib bo‘lganligini ham aytgan edi. Afsus, bu asar taqdiri nima bo‘lganidan xabarim yo‘q”. Ehtimol, o‘sha “daftar” “Qalandar” romanidir.

Hakimjon Mo‘minov otasining merosini to‘plab (Kuybishevdan olib kelgan “daftar”ini ham) 1971-yil 25-yanvarda O‘zbekiston Yozuvchilar soyuziga topshirdi. Biroq u otasining asarlarini chop ettirolmay, 1987-yil olamdan o‘tdi. Qizi Zohida Mo‘minova shifokor.

Rafiq Mo‘min ikki marta qamalgan. OGPU xodimlari uni birinchi marta 1932-yil 27-dekabrda qamoqqa olganlar. U shu vaqtda Namangandagi Roza Lyuksembrug ko‘chasidagi 6-uyda yashagan. Qamalgunga qadar tibbiyot xodimlarini tayyorlovchi ishchilar fakultetida muallim bo‘lib ishlagan.

**Lutfulla Olimiy.** Lutfulla Olimiy 1893-yili Namanganda tug‘ilgan. Otasi Olimxon Qo‘qon madrasasini tugatgan ziyoli inson bo‘lgan. U 7 yoshgacha otasi qo‘lida savod chiqargan. 1901 – 1903-yillari Namangandagi maktabda o‘qiydi. So‘ng 1904-yili Qo‘qondagi Muhammadjon Holiqiyning yangi usul maktabida ta’lim olgan. Biroz muddat rus-tuzem maktabida ham o‘qigan . U 1914-yil kuzida Namanganda yangi usul maktabi ochib muallimlik qiladi. 1915-yili Ufaga borib, “Oliya” madrasasida tahsil olgan. 1918 – 1923-yillari Namanganda tashkil etilgan “Namuna” maktabida o‘qituvchilik qilgan. 1918-yili Namangan shahrining Qo‘qon ko‘chasidagi Nuriddin afandi uyida “Turon” maktabi tashkil etilgan. Lutfulla Olimiy ushbu maktabda ham muallimlik qilgan. Shahar xalq maorif bo‘limi, madaniy oqartuv muassasida mudir, 1924-yili shahar ijroiya qo‘mitasida kotib, shuningdek, “Nashri maorif” jamiyati viloyat bo‘limining ham kotibi (1921 – 1923) bo‘lib ishlagan. So‘ng Qo‘qonga ko‘chib borib, 1930-yilga qadar “Farg‘ona”, “Yangi Farg‘ona” gazetalarida dastlab muharrir o‘rinbosari so‘ng muharrir lavozimlarida xizmat qilgan.Lutfulla

Olimiy Gulhaniy ijodini oʻrgangan dastlabki ijodkorlardan boʻlgan. U “Bilim oʻchogʻi” jurnalining 1923-yilgi sonida Gulhaniy haqida maqola yozgan.

1928-yilning 31-yanvarida Oʻzbekiston Markaziy Ijrokomi hay’ati rayosatining yigʻilishida Yangi alifbo markaziy qoʻmitasi tuzilib, uning tarkibiga 47 kishi kiritilgan. Ushbu a’zolar tarkibiga Lutfulla Olimiy ham kiritilgan. XX asr 30-yillari Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarining Namangan nusxasi topilib, Abdurauf Fitrat va Lutfulla Olimiy tomonidan Toshkent kutubxonasining Sharq boʻlimiga topshirilgan.

Oʻlimi. 1930-yili “Milliy ittixod” tashkilotining a’zosi sifatida qamoqqa olingan. 1931-yilning 25-aprelida 18 kishini otishga hukm qilinadi. Ular orasida Lutfullo Olimiy ham bor edi. Keyinroq Olimiyga nisbatan chiqarilgan sud hukmi, 10 yil qamoq jazosi bilan almashtiriladi. Ushbu surgundan qaytgach 1937-yili ikkinchibor, 1949-yili esa 3-marta qatagʻon etiladi. Qamoqdan qaytgach, umrining oxiriga qadar uy xoʻjalik ishlari bilan shugʻullangan.

**Nosirxontoʻra Kamolxontoʻra.** Nosirxon Fargʻona vodiysining taniqli mudarrislaridan Kamolxon toʻra xonadonida 1873-yili tug’ilgan.U avval Namangan, soʻng Buxoro madrasasida oʻqidi. 1913-yil hajga borib kelib, Namangandagi “Mavlaviy” va “Mulla Qirgʻiz” madrasalarida mudarrislik qildi.1917-yil Namanganda tuzilgan “Shoʻroyi Islom” jamiyatining rahbari sifatida Namangan shahar Dumasiga saylanadi. Turkiston Muxtoriyati e’lon qilinganida uni qoʻllab Namangan shahrida minglab kishini namoyishga olib chiqdi va Muxtoriyat hukumatida Maorif noziri lavozimiga saylandi. Turkiston Muxtoriyat bolsheviklar tomonidan qonga botirilgach, ikki yil davomida katta mulla Ergash va Muhammad Aminbeklar yonida ularga gʻoyaviy rahbarlikni amalga oshirdi. Nosirxontoʻra 1920-yil sovet davlati umumiy afv e’lon qilganidan soʻng 1923-yilgacha Mahkamayi Shar’iyada ish olib boradi.

Nosirxon toʻra Toʻxtaxoʻja Abdurahmonxoʻja oʻgʻli bilan 1923 – 1924-yillar shoʻrolarning “Batraklar ittifoqi”ga azaliy vaqf xoʻjaligi boshqaruvi an’analarini joriy etishi natijasida qisqa muddatda yaxshigina iqtisodiy yutuqlarni qoʻlga kiritadi. Shundan soʻng xalq “Batraklar ittifoqi”ni tugatishni talab qila boshlaydi. Shoʻrolarning keskin qarshiligiga uchragach, 1924-yil 24-fevral kuni koʻpchilik mehnatkashlar sovetlarning siyosatiga qarshi yalpi namoyishga chiqadi. Tashkilotchilar qamoqqa olinishi bilan norozilik yanada avj oladi.

1924-yilning avgustida Nosirxon toʻra Kamolxon toʻra oʻgʻlining barcha mulklari davlat tomonidan tortib olinib, oʻzi Samarqanddagi axloq tuzatish uyi (ispravdom) ga yuborildi. 1925-yil 10-iyulda Nosirxon toʻra va Mirkatta Said Orif oʻgʻli 3-yilga Orenburgga surgun qilinadi. Orenburgda Muhammad Vali hazrat

xonadonida yashagan Nosirxon to‘ra Sharq mutafakkirlari Jamoliddin Avg‘oniy va Muhammad Abduhlarning asarlari bilan yaqindan tanishadi. Jamoliddin Afg‘oniyning forsiy risolasini o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Bu to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima bo‘lmay, Nosirxon to‘ra unga o‘z fikr va qarashlarini singdirgan edi. Albatta, uning g‘oyalari sovet mafkurasiga to‘lig‘icha zid edi. Nosirxon to‘ra “kommunistlar dinni yo‘q qilmoqchi, uning o‘rniga o‘z havoyi nafsiga mos erkin hayotni, ayollar va mulklarni umumiy deb va’da qilmoqdalar. Vaholanki, din, iymon yo‘q joyda na maorif, na fan, na madaniyat, na san’at rivojlanadi. Bu jamiyat insoniyatga hech bir yaxshilik keltirmaydi. Talaydilar, o‘ldiradilar, yoqadilar so‘ng alaloqibat o‘zlarini ham halok etadilar”, deb xulosa qiladi.

Nosirxon to‘ra 1928-yil 10-avgust Orenburg surgunidan ozod bo‘lib, Namanganga qaytadi. Butun vodiy ahli, atrof qirg‘iz va qozoq ovullaridan ham uning ziyoratiga keladilar. Ayniqsa, 1928-yil 28-avgustda Avliyo otadan qarindoshlari mudarrislar Mubashshirxon Saidxon o‘g‘li va Oltinxonlarning kelishi xalqni to‘lqinlantirib yuboradi. Sovet ma’murlari Nosirxon to‘raning obro‘sidan qattiq tashvishga tushadi va yangi fitna boshlaydi.

1928-yil 16-oktabrda Nosirxon to‘ra o‘g‘li Eshondadaxon bilan avval Chustga, so‘ng Buxoro, Kitob shaharlariga ustozlari va shogirdlarini ziyoratiga yo‘l oladi. Undan Samarqandga o‘tib, Abdiberun, Dahbed, Ismoil Buxoroiy qabrlarni ziyorat qiladi. 1928-yil 5-dekabrida Samarqandda sho‘ro O‘zbekistoni hukumatidan Moskvaga borib davolanishi uchun ruxsat so‘rab ariza yozadi. Biroq, rad etilgach, ilojsiz Kosonga qaytib keladi. Nosirxon to‘ra safari davomida o‘lkada musulmonlar uchun haj ibodatining to‘xtatilgani, masjidlarning yopilganiga guvoh bo‘ldi. Uni madrasa va maktablarda islomiy tarbiyaning taqiqlanishi qo‘rquvga soladi. Shogirdlari oldida agar farzandlarimiz o‘zligidan kechib, hozirgi tarbiya bilan ulg‘aysalar yaqin kelajakda millat va ummatning taqdiri juda zabun bir holga kelib qolishi haqida yig‘lab ma’ruzalar qiladi.

1929-yil 1-martda Avliyo otaga shogirdi va qarindoshi mudarris Oltinxon Eshonxon o‘g‘lining oldiga boradi. Ikki kun uning mehmoni bo‘lib, So‘fibek masjidida imomlik qila boshlaydi. So‘ng Pishpakka o‘tib bir muddat davolangach, 1929-yilning may oyida Kosonga qaytadi.

Nosirxon to‘ra 1929-yil kuzida qirg‘iz shogirdlari va do‘stlarining taklifi bilan toqqa yo‘l oladi. 29-oktabr kuni Ranjit etagida ketar ekan uni kimlardir o‘qqa tutadi. Nosirxon to‘ra otdan yiqilib, qo‘li ikki joyidan sinadi. Sodiq do‘sti Otantay Sotilg‘onov uni Mozor qishlog‘iga keltirib, ikki-uch kun davolatib, zudlik bilan Kosonga

yetkazishga harakat qiladi.di. Yoʻlda Nosirxon toʻra togʻda sobiq qoʻrboshilar Dadaboy, Madumar, Istambek, Mirvalilar bilan qurultoy oʻtkazgani, hatto Chotqolda 2000 ga yaqin askar jamlab, ingliz, afgʻon va xitoy tomonlari bilan aloqani yoʻlga qoʻygan, degan mish-mishlar tarqalganini eshitadi. Shundan soʻng uyga kirish xavfli ekanini anglab, quyi Kosonda doʻstlarining uyida qoladi. Xalq orasida GPU aygʻoqchilari Nosirxon toʻrani topa olmayotgani haqidagi gaplar avj olganidan xavotirga tushgan Istambek ham togʻdan kelib, barchalari Kushon qishlogʻida qoʻnim topadilar. Atantoy esa ularning oziq-ovqatidan xabardor boʻlib turadi. Shunday kunlarda Nosirxon toʻra yana oʻzining daftarini qoralashga tushdi. U rais va viloyat hokimlari saylab qoʻyiladigan, ularning qoshida majlislar tashkil etiladigan davlat boshqaruvi haqida yozadi. Unga koʻra rais va hokimlar qishloq xoʻjaligi, soliqlar hamda ijtimoiy muhim qarorlarni majlis rahbarlari maslahati va roziligi bilangina qabul qilinadi. Mamlakatda oʻn ikki vazirlik boʻlib, har birining vazifasiga toʻxtalib oʻtadi. Jumladan, Maorif nozirligi taʼlimni bidʼat va xurofotlardan xoli foydali va aniq fanlarga asoslanib isloh etadi. Boshlangʻich, oʻrta va oliy taʼlimni tashkil etib, darslik va muallimlar faoliyatini yoʻlga qoʻyadi. Siyosiy boʻlimning asosiy vazifasi esa mamlakatni, musulmonlarni har xil ichki va tashqi xavflardan himoya qiladi. Jamiyatda haqiqiy adolatning qaror topishi uchun kurashadi. Shuningdek, erkin matbuot, soliqlarni cheklash kabi koʻplab takliflarini bayon qiladi.

1930-yil 8-iyuniga kelib, birgina Namangan viloyatida Nosirxon toʻraga bogʻlab yuzdan ortiq insonlar qamoqqa olindi. Vaholanki, Nosirxon toʻraning joylashuvi GPUning aygʻoqchilari tomonidan toʻliq nazoratga olingan edi.

1930-yil 26-iyun kuni Toʻraqoʻrgʻonda Qoratov etagida ketayotgan Nosirxon toʻra va odamlari yana oʻqqa tutildi. Moʻmin polvon, Abdumalik, Abduvahhoblar oʻldirildi, Turgʻun Qoʻziboyev ogʻir yarador boʻldi. Otishmada Nosirxon toʻraning shogirdi va sodiq doʻsti Istambek yelkasidan va sonidan oʻq yeb halok boʻldi. Otantoy uni togʻda qoldirib, uning otiga minib Nosirxon toʻrani qidirib Nanay tomonga yoʻl oldi. Biroq uni topa olmay qoʻlga olindi.

Doʻstlaridan xabar boʻlmagach, Nosirxontoʻra yoniga oʻgʻillari Eshondadaxon va Hasanxonlarni olib, Qoshgʻarga ketishga qaror qildi. 1930-yil 7-iyul kuni soqolini qisqartirib biroz oq kulrangga boʻyadi. Keyin eski yaktak va choponlar kiyib, dehqonlar kiyimida Hasanxon bilan yoʻlga tushadi. Eshondadaxonga izidan borishini va Oʻshdagi Sulaymon mozorida uchrashishini tayinlaydi. Biroq, ortidan tushgan GPU izchilari Nosirxon toʻrani 1930-yil 15-iyul kuni Oʻsh okrug, Toldik sovxozdan 10-15 chaqirim uzoqlikdagi yaylovda qoʻlga olishgan.

1930-yil 20-avgust kuni ilk soʻroqda Nosirxon toʻra shoʻro siyosatiga qarshiligi sabablarini qatʼiyat bilan tushuntirib berdi. 1930-yil 15-sentabr kuni Nosirxon toʻrani dahshatli qiynoqlar ostida bir necha varaq qogʻozga imzo chekishiga majbur etishgan. GPU 1930-yil 27-oktabr kuni Nosirxon toʻra Kamolxon toʻra oʻgʻlini otuvga buyurdi. U 1931-yil 13-aprel kuni Toshkentda otilgan.

**Dadamirzaqori Shayxov.** XX asr Namangan jadidchilik harakatining yirik vakili Dadamirzaqori Shayxov 1880-yil Namangan shahrining “Chitgar” mahallasida tugʻilgan. Otasi Abdurazzoq shayx oʻziga toʻq insonlardan boʻlgan. Dadamirzaqori dastlab mahalla maktabida, soʻng madrasada tahsil olgan.U dastlabgi faoliyatini maktabda bolalarga taʼlim berishdan boshlagan. Keyinchalik u Namanganda yangi usul maktabi ochib muallimlik qilgan. Namanganda 1913-yilga kelib 4 ta yangi usul maktablari boʻlib, shulardan biri Dadamirzaqori maktabi boʻlgan. Uning maktabi Namangan shahrining markaziy “Qoʻqon” koʻchasida joylashgan. Maktabda koʻplab iqtidorli bolalar taʼlim olib, maorif, madaniyat namoyondalari boʻlib yetishgan. XX asrning 20-yillari oʻzbek adabiyoti va jurnalistikasining yirik vakillaridan Rafiq Moʻmin, Asil Mansur, Asqar Rahmonov kabi yoshlar uning maktabida taʼlim olgan.

Dadamirzaqori 1918-yili Namanganda ochilgan “Namuna” maktabining muassislaridan va muallimlaridan boʻlgan. U 1923-yilgacha maktablarda bolalarga taʼlim berish bilan mashgʻul boʻlgan.

U jadid ziyolilari va ilmga xayrixoh kishilar tomonidan ochilgan xayriya jamiyatlarining Namangan boʻlimida ishtirok etgan. XX asrning 20-yillari Toshkentda tuzilgan “Koʻmak” va “Nashri maorif” tashkilotlarining Namangan shoʻbasi faoliyatida qatnashgan. Shu bilan birga 1924-yilga qadar masjidda imomlik qilgan. Sovet hokimiyatining mustahkamlanib borishi natijasida uning keyingi faoliyati kuzatuv ostiga olinadi. Maʼrifiy faoliyatiga toʻsiqlar qoʻyilgan.”Dadamirzaqori yangi usul maktablarida dars berish bilan birga, yangi usul maktablari uchun “Miftah ul-avval” (1912) deb nomlanuvchi darslik yozgan.

Dadamirzaqori ilm oʻrganishning shariatda farz qilinganligini va undan kelib chiqadigan xulosalarni oʻz maqolalarida bayon etgan. Shu bois, Dadamirzaqori islohotni maktabdan boshlashni taklif qiladi. Uning fikricha insonga qobiliyat ilmga, sanʼatga va adabiyotga intilish uchun berilgan.

Dadamirzaqori oilali, 5 farzandning otasi edi. Uning turmush oʻrtogʻI Habibaxon hamda Fotima, Farida, Botir, Ergash, Afifa ismli farzandlari boʻlgan.

Partiyaviy tozalash jarayonida 1924-yildan uni ishlab turgan vazifalaridan olinib diniy ulamo, milliy tashkilotchilikda ayblangan. Taʼqib bois Namangandagi oʻzi

yashab turgan mahalladan Labbaytog‘a mavzesi “Darvozai Ishq” mahallasiga ko‘chib borib oilasi bilan o‘sha yerda yashaydi. U yerda ham sovet maktabida muallimlik qilgan. Sovet siyosiy tashkiloti 1927-yil uni o‘qituvchilikdan butunlay chetlatgan. Dadamirzaqori 1930-yilgacha dehqonchilik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgan. U 1937-yili IIXK tomonidan qamoqqa olinib, aksilinqilobiy tashkilotga a’zolikda ayblangan. Tergov natijasida 10 yilga mehnat tuzatish jamloqiga hukm qilingan. Uning keyingi taqdiri noma’lum.

**Akrom Usmonov.** Akrom Usmonov o‘zbek matbuoti va maorifi sohasida faoliyat yuritgan jadid ma’rifatparvarlaridan bo‘lib, 1902-yili Namangan shahri bog‘bon oilasida tug‘ilgan.Avval eski usuldagi maktabda, so‘ng o‘qituvchilar tayyorlash kursida o‘qigan. Xalq maorif bo‘limi uchun ochilgan uch oylik instruktorlar tayyorlash kursida malaka oshirgan. U zamonaviy ta’lim bilan birga 1916 – 1917-yillari qorixonada o‘qib, diniy bilimlarini oshirgan.”1922-yilgacha o‘rta maktablarda muallimlik qilib o‘zbek yoshlariga ta’lim bergan. Shu bilan birga “Farg‘ona”, “Yangi Farg‘ona”, “Qizil O‘zbekiston” gazetalarida muhbir, adabiy xodim, bo‘lim mudiri vazifalarida ham ishlagan.

1929-yili BDSB tomonidan millatchilikda ayblanib shubha ostiga olingan ziyolilar tarkibida Akrom Usmonov ham bor edi. Uni 1929-yil 14-dekabrda “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi sifatida qamoqqa oladilar. Yosh va g‘ayratli, millatparvar sovet hukumati uchun eng zararli kishilar qatoriga kiritiladi. BDSBning 1931-yili o‘tkazilgan sud qaroriga ko‘ra o‘lim jazosiga hukm qilingan.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. Jadidchilik harakati va o‘zbek ma’rifatparvarlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.

2. Karimov N. XX asr boshlarida o‘zbek matbuoti va jadidlar faoliyati. – Toshkent: Fan, 2011.

3. Ibrat Is’hoqxon To‘ra. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2005.

4. Alimuhamedov A. Namangan jadidlari va ma’rifatparvarlik harakati. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

# YOZUVNI O‘RGATISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: JANR TUSHUNCHASI VA JANRGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

**Abdug‘offorov Sardorbek Abduraxmon o‘g‘li**
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
tayanch doktoranti

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada yozuvni o‘rgatishning zamonaviy tendensiyalari doirasida janr tushunchasi, uning asosiy turlari hamda janrga asoslangan yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuv ko‘nikmasini shakllantirish jarayonida janrlarning o‘rni va ahamiyati ochib beriladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, janrga asoslangan yondashuv o‘quvchilarning yozma nutqni ijtimoiy kontekstda anglashiga, matn tuzilishini to‘g‘ri rejalashtirishiga va kommunikativ samaradorlikka erishishiga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar**: yozuv ko‘nikmasi, janr, janrga asoslangan yondashuv, akademik yozuv, diskurs, kommunikativ kompetensiya.

**Kirish.** So‘nggi yillarda chet tillarni o‘qitish metodikasida yozuv ko‘nikmasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy yondashuvlarda yozuv ko‘proq grammatik mashqlar yoki tarjima faoliyati bilan cheklangan bo‘lsa, zamonaviy metodik qarashlar yozuvni ijtimoiy va kommunikativ faoliyat sifatida talqin etmoqda. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning real akademik va kasbiy vaziyatlarda samarali yozma muloqot olib borishiga yo‘naltirilgan.

Mazkur jarayonda janr tushunchasi muhim metodik birlik sifatida maydonga chiqadi. Swales ta’kidlaganidek, har bir yozma matn muayyan kommunikativ maqsadga xizmat qiladi va u ijtimoiy vaziyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois yozuvni o‘rgatishda janr xususiyatlarini hisobga olish zamonaviy ta’limning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari

Ushbu tadqiqot **sifat (qualitative) metodologiyasi** asosida olib borildi, chunki tadqiqotning asosiy maqsadi yozuvni oʻrgatish jarayonida janr tushunchasining nazariy asoslari va pedagogik ahamiyatini chuqur tahlil qilishdan iborat edi. Sifat metodologiyasi yozuvni oʻrgatish jarayonini miqdoriy koʻrsatkichlar orqali emas, balki **mazmun, kontekst va diskurs xususiyatlari** nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida yozuvni oʻrgatish metodikasi, janr nazariyasi hamda janrga asoslangan yondashuvga oid yetakchi ilmiy manbalar tizimli ravishda oʻrganildi va tahlil qilindi. Xususan, Ken Hylandning akademik yozuv va janrga asoslangan pedagogikaga oid ishlari, John Swalesning janr va kommunikativ maqsad konsepsiyasi, Vijay Bhatianing professional diskurs tahliliga doir tadqiqotlari hamda J. R. Martinning sotsial-semiotik yondashuvga asoslangan janr nazariyasi ushbu tadqiqotning asosiy nazariy poydevorini tashkil etdi. Ushbu manbalar yozuvni oʻrgatishda janrning ijtimoiy, funksional va strukturaviy jihatlarini anglashda muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda **taqqoslama tahlil metodi** ham qoʻllanilib, an’anaviy yozuvni oʻrgatish yondashuvlari bilan janrga asoslangan yondashuv oʻrtasidagi asosiy farqlar aniqlandi. Ushbu metod yordamida har ikkala yondashuvning maqsadlari, oʻqitish jarayonidagi bosqichlari va oʻquvchilarning yozma kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligi qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Natijada janrga asoslangan yondashuv yozuvni oʻrgatishda kommunikativ maqsad, auditoriya va ijtimoiy kontekstni hisobga olishi bilan an’anaviy yondashuvlardan ustun ekanligi aniqlandi.

Shu tariqa, qoʻllanilgan metodlar yozuvni oʻrgatishda janrga asoslangan yondashuvning nazariy asoslarini chuqur ochib berish, uning pedagogik afzalliklarini ilmiy jihatdan asoslash hamda mazkur yondashuvning zamonaviy til ta’limidagi oʻrnini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari

Tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, janr tushunchasi yozuvni oʻrgatish jarayonida markaziy va tayanch didaktik birlik sifatida namoyon boʻladi. Janr yozma nutqni tashkil etishda nafaqat til birliklari majmuasi, balki muayyan ijtimoiy vaziyat, kommunikativ maqsad va auditoriya ehtiyojlari bilan bevosita bogʻliq boʻlgan murakkab diskursiv hodisa hisoblanadi. Swales ta’rifiga koʻra, janr muayyan nutqiy hamjamiyat doirasida shakllangan va barqaror kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi matn turi boʻlib, u oʻziga xos strukturaviy va leksik xususiyatlarga ega. Ushbu yondashuv yozuvni oʻrgatishda janrni faqat shakliy qolip sifatida emas, balki ijtimoiy-amaliy faoliyat mahsuli sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida yozuvni oʻrgatishda qoʻllaniladigan janrlar funksional va kontekstual xususiyatlariga koʻra quyidagi asosiy guruhlarga ajratildi:

-**akademik janrlar**, jumladan, ilmiy maqola, annotatsiya va esse, ular talabalarning tahliliy fikrlash, dalillash va akademik diskursga mos yozish koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi;

-**kasbiy janrlar**, masalan, hisobot, rasmiy xat va memorandum, bu janrlar yozma nutqning amaliy va professional yoʻnalishini shakllantirishga qaratilgan;

-**pedagogik janrlar**, jumladan, topshiriq javobi va reflektiv yozuvlar, ular oʻquvchilarning oʻz-oʻzini tahlil qilish va oʻquv jarayoniga faol munosabatini kuchaytiradi;

-**raqamli janrlar**, xususan, elektron pochta, blog va onlayn postlar, zamonaviy raqamli muloqot sharoitida yozuvning yangi shakllarini oʻz ichiga oladi.

Olingan natijalar shuni koʻrsatdiki, janrga asoslangan yondashuv oʻquvchilarga matnning ichki tuzilishini anglash, gʻoyalarni mantiqiy izchillikda bayon qilish va auditoriyaga mos til vositalarini ongli ravishda tanlash imkonini beradi. Bhatia ta’kidlaganidek, janr bilimiga ega boʻlish oʻquvchilarning yozma nutqni maqsadga yoʻnaltirilgan va samarali tashkil etishiga yordam beradi Shuningdek, model matnlar

bilan ishlash jarayoni yozma nutqning yaxlitligi va mantiqiy bogʻlanishini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan. Martinning sotsial-semiotik yondashuviga koʻra, janr namunalarini tahlil qilish orqali oʻquvchilar matnning mazmuniy va strukturaviy qonuniyatlarini oʻzlashtiradilar, bu esa mustaqil yozish jarayonida yanada sifatli natijalarga olib keladi \

. Muhokama

Olingan natijalar janrga asoslangan yondashuv yozuvni oʻrgatishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv yozuvni faqat grammatik toʻgʻrilik doirasida emas, balki mazmun, shakl va ijtimoiy maqsad birligi sifatida oʻrganishga imkon beradi.

Janrlar oʻqitish jarayonida metodik tayanch vazifasini bajarib, oʻquvchilarga matnni rejalashtirish va mazmunni mantiqiy tashkil etishda yordam beradi. Hamkorlikda yozish va mustaqil yozish bosqichlari orqali talabalar janr konventsiyalarini bosqichma-bosqich oʻzlashtiradilar. Bu esa yozma nutqda ishonch va mustaqillikni kuchaytiradi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, yozuvni oʻrgatishning zamonaviy tendensiyalari janr tushunchasiga asoslangan yondashuvsiz toʻliq amalga oshmaydi. Janrga asoslangan yondashuv oʻquvchilarning yozma kompetensiyasini rivojlantirish, ularni akademik va kasbiy muloqotga tayyorlashda muhim pedagogik imkoniyatlar yaratadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda janrga asoslangan yondashuvni raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari bilan integratsiya qilish yozuvni oʻrgatish samaradorligini yanada oshirishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Cope, Bill, and Mary Kalantzis, editors. *The Powers of Literacy: A Genre Approach to Teaching Writing*. Falmer Press, 1993.

2. Flowerdew, John. "Genre in Language Teaching." *The Encyclopedia of Applied Linguistics*, edited by Carol A. Chapelle, Wiley-Blackwell, 2013, pp. 1–7.

3. Hyland, Ken. *Genre and Second Language Writing*. University of Michigan Press, 2004.

4. Hyland, Ken. *Teaching and Researching Writing*. 2nd ed., Pearson Education, 2009.

5. Tardy, Christine M. “Genre-Based Instruction.” *The TESOL Encyclopedia of English Language Teaching*, edited by John I. Liontas, Wiley-Blackwell, 2018, pp. 1–6.

## SHOIR, ALLOMA VA MUSOFIR: ASIRIDDIN AXSIKATIY SIYMOSI

**Akbarov Raxmatillo Murtozali o‘g‘li**

Namangan davlat pedagogika instituti Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: Saidakbar01@mail.ru

Tel: +998-93-057-43-20

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada XII asr o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Asiriddin Axsikatiyning hayoti va ijodiy merosi tadqiq etiladi. Shoirning ko‘hna Axsikent adabiy muhitida shakllangan ilmiy va badiiy qarashlari, g‘urbatda kechgan hayoti hamda bu holatning uning qasida va g‘azallarida aks etishi tahlil qilinadi. Asiriddin Axsikatiy ijodida tanqidiy ruh, falsafiy mushohada, zamon va inson taqdiri, do‘stlik, vatan sog‘inchi hamda ishq-muhabbat mavzularining badiiy ifodasi yoritiladi. Shuningdek, shoir asarlarida ilmiy tushunchalar va badiiy tasvir vositalarining uyg‘unligi, uning shoir-olim sifatidagi o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Asiriddin Axsikatiy, Axsikent, XII asr adabiyoti, mumtoz she’riyat, qasida, g‘azal, g‘urbat mavzusi, falsafiy tafakkur, tanqidiy ruh, shoir-olim.*

Farg‘ona vodiysi o‘zining boy tarixi, madaniyati va qadimiy shaharlari bilan ajralib turadi. Shu qadimiy shaharlar qatorida Axsikent alohida o‘rin egallaydi. Tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Axsikent uzoq asrlardan buyon mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lib kelgan. Shahar o‘zining strategik joylashuvi, savdo yo‘llari bilan bog‘lanishi va madaniy merosi orqali Farg‘ona vodiysi tarixida muhim rol o‘ynagan. Shu bilan birga, Axsikent ko‘plab allomalar, olimlar va ijodkorlar yetishib chiqqan makon sifatida ham mashhur bo‘lib, ularning orasida mashhur shoir Asiriddin Axsikatiy alohida e’tibor qozonadi.

O‘z davrining alloma so‘z ustasi bo‘lgan Abulfazl Muhammad ibn Tohir Asiriddin Axsikatiy 1126 – 1128-yillar orasida tug‘ilgan. U dastlabki ta’limni vatanida olgach, Farg‘onaga borib o‘qishni davom ettiradi. Lekin bu yerdagi o‘qish uni qanoatlantirmay, tahsilni Balx shahri madrasalarida davom ettiradi. U o‘z davridagi tibbiyot, riyoziyot, kimyo, nujum, hay’at, falsafa va mantiq kabi ilmlarni puxta o‘rganadi; Hirot va Marv shaharlariga safar qiladi; u yerdagi ilm-adab doiralari bilan yaqindan tanishadi. Lekin nima sababdandir u Sulton Sanjar saroyidagi katta madaniy va adabiy harakat doirasiga kirmaydi va uning she’rlari orasida Sultonga bag‘ishlangan qasida ham uchramaydi.

Shu yillari Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot izdan chiqqan, g‘uz qabilalari shahar va qishloqlarda qatliom uyushtirib, Sulton Sanjarni asir olgan edilar. Ana shu dahshatdan qo‘rqqan Asiriddin Iroqqa ketishga majbur bo‘ladi. U dastlab Hamadonda yashab, Arslon ibn Tug‘ral (1160 – 1179) hamda Qizil Arslon (1185 – 1191) dargohida xizmat qiladi. Hamadondan bir necha bor Ozarbayjonga safar qiladi. Asiriddin Axsikatiy 1198-yili vatanidan yiroqda, Ozarbayjonning Xolxol qishlog‘ida vafot etadi.[1] Demak, shoir yoshligidan umrining oxirigacha g‘urbatda, moddiy muhtojlikda yashab o‘tgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Asiriddin al-Axsikatiy jami 13 300 misra she’r yozgan bo‘lib, shundan 8 678 misrasi qasida, 2 882 misrasi g‘azal bo‘lib, qolganlarini qit’a, ruboiy, fard, tarje’band kabi she’riy asarlar tashkil etadi.

Tadqiqotchi A. Ismatovning yozishicha, Asiriddin al-Axsikatiyning eng qadimiy qo‘lyozmasi, jumladan, 1313-yilda xattot Abdulmo‘min al-Ulviy Koshiy tomonidan ko‘chirilgan she’rlar devoni nusxasi hozirgi kunda Londondagi “India Office” kutubxonasida, boshqa qo‘lyozmalarining ikki nusxasi Berlin, ikki nusxasi Tehron kutubxonalarida saqlanmoqda. Uning yana ikkita qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib, ular Dushanbedagi Firdavsiy nomidagi Respublika kutubxonasida saqlanadi.[2]

Asiriddin Axsikatiy to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rta asrlarda yaratilgan ko‘plab asarlarda uchraydi. Jumladan,

Taxminan 1435 – 1495-yillarda yashab ijod qilgan Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” (Shoirlar bo‘stoni) asarida Asiriddin Axsikatiy haqida quyidagilarni keltiradi:

“Donishmand va fozil kishi ermish. So‘zamollikda oliy martabaga ega erdi. Hoqoniyning hamasrlaridan. Asli turkistonlik, Farg‘ona qishloqlaridan bo‘lmish Axsikatdandir. Ammo Iroqi Ajam va Ozarbayjon yerlarida sokin erdi. Halhol va Musil hokimi uni huzuriga taklif etdi va umrining oxirini o‘sha yerda o‘tkazdi. Otabek Eldigiz Asiriddin suhbatiga mushtoq erdi, lekin uchrashish va suhbat unga muyassar bo‘lmadi. U (Axsikatiy)ning bordi-keldi va dunyoviy ishlardan voz kechishga tamom mayli bor erdi. Anvariyga javoban bir qasida yozdi va nafsini qanoatga bo‘ysundirdi, dunyoni tark etish borasida bir necha baytni qasida so‘ngida ilova qildi...”.

Sen muridu nafs, senga peshvomi, ey ko‘rkam aql
Chunki goh To‘g‘rul, gohi To‘g‘on eshiginda sen mudom?
Ta’magirlik fe’lini quvgil xayolingdan, Asir,
Ayla pok xulqingni madh aytmoq balosidan tamom.

“... Fazl egalari Asir(iddin)ning shoirligiga tan berar edilar. Ba’zilar uning so‘zlari Anvariy ham Hoqoniyning ham so‘zlaridan fazlroqligini aytganlar. Boshqalar esa bu fikrni qabul etmadilar. Insof bilan aytganda, mazkur uchala fozilning o‘ziga xos bir shevasi borki, bu o‘zgalarida uchramaydi. Chunonchi, Asiriddin so‘zni donishmandona, Anvariy zavq bilan aytar edilar. Hoqoniy esa so‘zga bezak va oroyish berishda barchadan mumtoz erdi. Xullas, ular uchchalasi ham ma’nilar daryosining g‘avvoslari edilar va har biri o‘sha daryodan kuchi yetguncha dur olib chiqargaydir.[3]

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Asiriddin umrida biror bir hukmdor saroyida muqim turmadi. Hamadon hokimi Muhammad Saljuq va Ozarbayjondagi ayrim hukmdorlarni madh etib qasidalar yozgan bo‘lsa-da, saroy bilan doimo bog‘liq bo‘lmagani uchun ularda o‘zining erkin, dadil mulohazalarini ham izhor etavergan; ba’zi qasidalarida sargardonlikda chekkan aziyatlari va qon yutib kechgan umridan qattiq zorlanadi. Bir qasidasida vatandan judolik va do‘stlardan yiroqlikda o‘tib ketgan yoshligini qo‘msab, teskari aylanuvchi falakni la’natlaydi:

*Dar ahdi mo, modari rohat aqim mond,*
*Shodi zi xalq ru’i nuhufta chu duxtar ast.*

(Bizning zamonimizda rohatning onasi qasir qoldi, shodlik xalq uchun yuzini yopib olgan qizga o‘xshaydi.)

Ko‘p o‘rinlarda hasbi hol xarakteridagi ruhiy kechinmalar hayot haqidagi chuqur falsafiy mushohadalar bilan qorishib ketadi. Bunday qasidalarda Asiriddin Axsikatiy shoir-olim sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki shoir rang-barang tashbehlarni qo‘llaydi, sonsanoqsiz ilmiy tushunchalarni ishlatadi.

Asiriddin Axsikatiy o‘z g‘azallarida dunyoviy ishq-muhabbatni o‘ziga xos sodda va ravonlikda tasvirlaydi, qasidalaridagi kabi murakkab tashbeh, qiyos va ramzlarni ishlatmaydi. G‘azallarida ham biz noahil do‘stlar va zamona zulmidan aziyat chekkan, kimni do‘st tutsa, muxolif ish tutishidan tug‘ilgan anduhlar girdobida qolgan lirik

qahramonni koʻramiz. Ammo oshiqni yorning nozu firoqi, jabr-u jafosi “dida purxun” etsa, bir qayrilib boqishi gulgun etadi:

*Ob megirad zi ruyash chashmi kas,*

*Aksi u on ob gulgun mekunad.*

(Uning yuzini koʻrgach, koʻzim suv oladi, ammo unga tushgan aksi koʻz yoshimni gulgun etadi.)

Asiriddinning ayrim gʻazallari boshdan oxirigacha zamondan shikoyat, oʻzi yashayotgan muhit illatlarini roʻy-rost tanqid qilish, fosh etishdan iborat. “Meningdir”, “Kelmadi”, “Utajakdir” radifli gʻazallar shunday xarakterga ega. Shoirning ba’zi gʻazallari ham hasbi hol mohiyatidadir:

*Bo ki tuyam roz, chun hamdam namond,*

*Dard biguzasht az haddu, marham namond.*

*Nakopi yak hamdam ba man nanmud charx,*

*V-in batar, k-az umr ham yak dam namond.*

(Bir hamdamim qolmagach, rozimni kimga aytay, dard jonimdan oshib ketdi, bir malham qolmadi; bu falak menga bir hamdam nasibini ham koʻrsatmadi, buning ustiga umrning ham bir dami qolmadi.)

Ammo aksariyat gʻazallarida shoir mashuqaning lutfu nazokati va visol onlarining zavqini tarannum etadi; dilbar bilan lola sayri va bogʻ gashtini surishni orzu qiladi; gul-u buston tomoshasi yor bilan xushdir:

*Ba tan budam imruz chun notavone,*

*Shudam bo rafiqi suyi bostone.*

*Zi har su ki kardam nazar gulistone,*

*Daraxtone bostona arusoy-u har yak,*

*Kushod az zamin lolagun bar bayone.*

(Dimog‘im ojiz bo‘lgan bu kunda bir do‘st bilan buston sari yo‘l oldim. Qaysi tomonga qarasam, ko‘zim gulistonga tushdi. Lolarang zamindan bosh ko‘targan har bir daraxt kelinlarni eslatadi.)[4]

Demak, Asiriddin she’rlarida tanqidiy ruh bilan birga hayotga, go‘zallikka, shodlikka mehr ham nihoyatda kuchlidir.

Shoir asarlari o‘tmishda yaratilgan tazkiralar, bayozlar va turli to‘plamlardan joy olgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Асируддин Ахсикатий. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. А ҳарфи. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – Б.695.

2. Ҳошимов К. ва бошқалар. Педагогика тарихи: ўқув қўлланма. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996. – Б.133.

3. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони / Форс-тожик тилидан Б.Аҳмедов таржимаси. Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 58-59.

4. Хамиджон Хомидий. Кухна Шарк, дарғалари (Бадиий-илмий лавҳалар). – Тошкент: “Шарк” нашриёт-матбаа концерни, Бош таъфирияти, 1999. – Б.125.

# 1920-1930 YILLAR O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-IQTISODIY ISHLAR MASALASI HAQIDA

**Jamoliddinov Temur Nuriddin o‘g‘li**

NamDPI mustaqil tadqiqotchisi.

Namangan davlat texnika universiteti o‘qituvchisi.

Telefon (Telegram): +998906418979

E-mail: jamoliddinovtemur884@gmail.com

- 1920 - 1930- yillar oralig‘ida O‘zbekiston hududidagi qo‘rboshilar;

- 1920–1930-yillar oralig‘ida O‘zbekiston hududida yuzaga kelgan ijtimoiy tanglik va uning iqtisodiy hamda madaniy hayotga ta’siri;

- XX asrning 20-30 yillarida O‘zbekiston ijtimoiy hayotiga kommunstik mafkura ta’sirining tarixiy tahlili;

- 1926-yildan chop etilgan “Qambag‘al dehqon” gazetasi sahifalarida Turkiston hududida ijtimoiy qaramlik va iqtisodiy tanazzul cho‘qqiga yetganligiga dalil bo’luvchi maqolalarning mavjudligi;

- “Qambag‘al dehqon” gazetasi sahifalarida o’sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy holatdan xabar beruvchi maqolalar ham mavjud, masalan:

- Farg‘ona viloyati Marg‘ilon tumani, Yozyovon kentiga qarashlik Mozorqishloq fuqarosi Mamatali Mamatxoliq o‘g‘lilining 1926 - yil 15- avgustda sud qilinishi va undagi adolatsiz hukmlar;

- Tursun Zuhuruf va Po‘latjon Muhammadovlarning komsomol safidan haydalishi va ularga sinfiy dushman tamg’asining bosilishi;

- Turkiston hududida dehqonlarga urug‘lik yetishmasligining mamlakatda iqtisodiy muammo bo‘lib qolishi;

- “Darxon” gazetasini “Dehqonlarga urug‘lik berilmay qolishi haqida” nomli rasmiy bayonot berdirishga majbur etilishi va uni gazetada e’lon qilinishi;

- Markazda Turkiston masalasi - “Zararlik qurtlar bilan kurash” ekinlarga zarar berguvchi qurtlar bilan kurashmak masalasining yoritilishi;

- “Qambagʻal dehqon” gazetasida 1926-yili chop etilgan maqolalarda Fargʻona viloyatida bo’lib o’tgan sud jarayonlariga oid arxiv ma’lumotlarining mavjudligi;

- “Qambagʻal dehqon” gazetasida sud jarayonlarining yoritilishi. Fargʻona viloyati Margʻilon tumani, Yozyovon kentida 1926-yilning 15-avgust kuni ortiqcha yer maydonini roʻyxatga kiritmaganligii uchun 4-sonli sayyor sud haqida ma’lumotlarning yoritilishi;

- Sinfiy-g’oyaviy dushman sifatida Mirzoali Toʻgʻayevning 1924 - yili Toshkendagi ishchilar fakultetidan haydalishi masalasining yoritilishi;

- Turkiston yer-suv komissarligining mablagʻsiz qolishi, Moskvadan yana 1 600 000 soʻm pul soʻrab murojat qilishi;

- Gazetalarda bosmachilik bilan kurash siyosatining yoritilishi;

- Zomin rayonida “bosmachilar”dan Bozorboy qoʻrboshi qoʻlgʻa tushishi haqidagi maqolaning e’lon qilinishi;

- Fargʻonadagi “Baland qayrogʻoch” voqeasi va Qizil askarlarning Ahmad Polvon bilan jangining yoritilishi;

- Fargʻonada “Baland qayrogʻoch” voqeasi misolida Qizil askarlar bilan jangda Sulton Qoʻrboshining 7 nafar yigitining oʻldirilishi tafsilotlarining berilishi;

- XX asr 20-30 yillaridagi O’zbekiston matbuoti sahifalarida ijtimoiy-siyosiy masalalarning yoritilishi va ularning tarixshunoslikdagi o’rni.

# MUNDARIJA

## AXSIKENT TARIXI: MUAMMOLAR, TADQIQOTLAR VA TAHLILLAR


1 ***Qozoqov T.Q.***
Qoraxoniylar davri manbalarida Axsikent haqida ........................... 3

2 ***Abdumuxtorov M.A.***
The heritage of Axsikent: tourism, education, and promotion ........... 5

3 ***Qo'chqorov A.A.***
Axsikent – Farg'ona vodiysi siyosiy-hududiy markazi sifatida: shakllanish bosqichlari va davlat boshqaruv tizimi ......................... 10

4 ***Mamasharifova Sh.M.***
Axsikent – Farg'ona vodiysining qadimiy markazi ............................. 15

5 ***Davronbayev I.N.***
Axsikent arxeologik yodgorliklari asosida o'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish ...................................................... 19

6 ***Нуриддинов А.О.***
"Садпири Комил" тарихи ҳақида мулоҳазалар ........................ 26

7 ***Abduraximova M.M.***
Farg'ona vodiysining tarixiy markazi ........................................ 34

8 ***Mamanov M.Q.***
Axsikent tarixi va raqamli turizm: rivojlantirish strategiyalari .......... 42

9 ***Akramjonov M.A.***
The role of foreign scholars in rediscovering an ancient Fergana city ... 49

10 ***Омонова З.Т.***
Развитие интеллектуальных способностей историков через проектно-исследовательскую деятельность на материале археологического комплекса Ахсикент ................................ 55

11 ***To'raxonova Z.A.***
Axsikent zilzilasi – Farg'ona vodiysining eng katta tabiiy falokati tarixi 61


## FARG'ONA VODIYSI TARIXI ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLARDA


12 ***Xaydarov Z.U.***
Namangan tarixi" fundamental asarini yaratish zarurati va ilmiy asoslari ....................................................................................... 71

| | | |
|---|---|---|
| 13 | ***Мирсайдуллаев М.***<br>Заҳириддин Муҳаммад Бобур давридаги табобат ва шифохоналар | 79 |
| 14 | ***Abdurahmonov Z.H.***<br>Qo‘qon xonligida elchilik institutida diniy-ma’naviy omillar va ularning tashqi siyosatdagi ahamiyati ................................................ | 82 |
| 15 | ***Sirliboyeva G.U.***<br>O‘zbekiston SSR ning GDR bilan fan doirasidagi tajriba almashinuv uchrashuvlari ……………………………………………………………… | 87 |
| 16 | ***Nasiratdinov S.J.***<br>Etnografiyaliq izertlewlerde fotosúwretlerdiń derek sipatinda tutqan orni ....................................................................................... | 91 |
| 17 | ***Mamatkarimov I.B.***<br>Farg‘ona vodiysida sovet hokimiyatining o’rnatilishi va kommunistik mafkura asoslarining yaratilishi ....................................................... | 97 |
| 18 | ***Abdug‘ofurov M.***<br>Farg‘ona vodiysi tarixi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ........................ | 102 |
| 19 | ***Kurbanov R.R.***<br>Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renesans bunyodkorlari bo‘lgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda madaniyat va san’atning o‘rni ........................................................................................ | 107 |
| 20 | ***Sharipova N.A.***<br>Farg‘ona vodiysi xalq ta’limi tizimi xodimlarining jismoniy hordiq chiqarish masalalari (XX asrning ikkinchi yarmi) …………………… | 120 |
| 21 | ***Jo‘liboyev A.***<br>Bag‘dod tumani tarixidan: Xo‘ja qishlog‘i va Oqil mingboshi masjidi | 128 |
| 22 | ***Muhammadjonova M.J.***<br>Farg`ona vodiysi tarixi zamonaviy ilmiy tatqiqotlarda ……………….. | 136 |
| 23 | ***Dadamuxamedov F.G., Dadamuxamedov B.F.***<br>Farg‘ona an’anaviy zargarlik maktabi ………………………………… | 142 |
| 24 | ***Abduraimova O.A.***<br>Farg`ona vodiysi Qo`qon xonligi davrida …………………………….. | 151 |
| 25 | ***Tishabayeva I.R.***<br>O‘zbekistonda maktabgacha ta’limning ijtimoiy-siyosiy va pedagogik rivojlanish jarayoni (1970 – 1991-yillar) ……………………………... | 157 |

| | | |
|---|---|---|
| 26 | ***Nigmatova S.G‘.***<br>Farg‘ona viloyatida nodavlat ta'lim muassasalari-o‘quv markazlarining rivojlanishi Adam and John's o‘quv markazi faoliyati misolida ........................................................ | 163 |
| 27 | ***Абдулаҳатов Н.У.***<br>Ҳусайн Икромхон хотиралари тарихий манба сифатида ............ | 170 |
| 28 | ***Abdullayev Sh.H.***<br>Turkistonda milliy ozodlik harakatining sabablari va mafkurasi Boymirza Hayit talqinida .................................................. | 178 |
| 29 | ***Xodiyeva N.Sh.***<br>Farg‘ona vodiysi madaniy merosini saqlash va o‘rganishning zamonaviy yo‘nalishlari .................................................. | 187 |
| 30 | ***Dauletmuratov T.P.***<br>Qoraqalpog‘iston onlayn medialarida ta'limga doir mavzularning yoritilishi ........................................................ | 191 |
| 31 | ***Джалолов Б.Д.***<br>Ўзбекистонда қаровсиз ва етим болалар масаласи (1941-1950 йй., Наманган вилояти мисолида) ......................................... | 195 |
| 32 | ***Бобамирзаев А.А.***<br>Иҳёи ул-улумиддин асарида таълим-тарбия масаласига эътибор ... | 201 |
| 33 | ***Raximov Sh.K.***<br>Farg‘ona vodiysida urbanizatsiya jarayonlari ............................ | 206 |
| 34 | ***Qurbonova A.D.***<br>Farg‘ona vodiysi shahar madaniyatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ........................................................ | 214 |
| 35 | ***Umarov Sh.U.***<br>O‘zbekiston tarixi fanida diniy bag‘rikenglikning yoritilishi ............ | 220 |
| 36 | ***Султонова Ф.***<br>Акбар подшох даврида Бобурийлар денгиз флоти .................... | 224 |
| 37 | ***Abdullayev Sh.X.***<br>Boymirza Hayit ilmiy merosida istiqlolchilik harakati masalasiga yondashuv ........................................................ | 231 |
| 38 | ***Турсунов А.А.***<br>Мамлакатлар тарихини ўрганишда Яқут Ҳамавий асарларининг аҳамияти ҳақида ........................................................... | 233 |

| | | |
|---|---|---|
| 39 | ***Yusupov A.A.***<br>XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida turkistondagi noislomiy dinlar ........ | 236 |
| 40 | ***Эшиев А.К.***<br>Учет индивидуальных особенностей ученика для предупреждения стресса у младших школьников ........ | 243 |
| 41 | ***Эшиев А.К.***<br>Роль педагога в предупреждении стрессовых ситуаций у школьников ........ | 247 |
| 42 | ***Эшиев А.К., Абдибакир кызы Кундуз***<br>Педагогические условия обучения девочек ценностным качествам в кыргызских семьях ........ | 251 |
| 43 | ***Fayziyeva R.R.***<br>Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining Sharq sivilizatsiylari tarkibidagi xususiyatlari (sun’iy intellekt talqinida) ........ | 255 |
| 44 | ***Воҳидова К.А.***<br>Фарғона водийси жадидлари адабий меросини ўрганиш: илмий таҳлил ва хулосалар ........ | 271 |
| 45 | ***Ibraimova A.M.***<br>How british writers showed “the other” in colonial times ........ | 283 |
| 46 | ***Ibraimova A.M.***<br>Freedom and adventure in jack kerouac’s on the road ........ | 289 |
| 47 | ***Mirxakimova F.X.***<br>Abdulla Avloniy yodgorlik muzeyi tarixi ........ | 295 |
| 48 | ***Abduraxmanova Z.A.***<br>Muhammad Aziz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” asarida xudoyorxon tavsifi ........ | 301 |
| 49 | ***Qambarov A.B.***<br>Yangi O’zbekiston yoshlarining tarixiy tafakkurini shakllantirishda Zaxriddin Muhammad Bobur ma’naviy-ma`rifiy merosining ahamiyati | 310 |
| 50 | ***Ibragimova D.I.***<br>Sovet davrida Farg’ona vodiysidagi jadidchilik harakati tarixining o’rganilishi ........ | 315 |
| 51 | ***Abdullayev R.***<br>Qo‘qon xonligi tarixi noma’lum muallif qaydlarida ........ | 318 |

| | | |
|---|---|---|
| 52 | ***Usmonov L.***<br>Namanganliklarning front uchun bergan yordami …………………….. | 324 |
| 53 | ***Ibraximov B.B.***<br>Qo‘qon xonligini bekliklar bilan bog‘lovchi karvon yo‘llari: o‘zaro aloqalarda tutgan o‘rni ……………………………………………... | 327 |
| 54 | ***Xolmatov G‘.M.***<br>Farg‘ona vodiysi tarixini o‘rganishda Is’hoqxon To‘ra Ibratning o‘rni va ahamiyati ……………………………………………………... | 331 |
| 55 | ***Ibraximov B.B.***<br>Qo‘qon xonligi bilan tog‘li Tojikiston bekliklari o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ………………………………………………….. | 338 |
| 56 | ***Kenjayev B.Q.***<br>Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolarda huquqiy ongni shakllantirishning falsafiy ahamiyati ………………………………. | 342 |
| 57 | ***Abdusamatov I.A.***<br>Namangan hududidan yetishib chiqqan jadidlar va ularning faoliyat tarixi ……………………………………………………………... | 348 |
| 58 | ***Abdug‘offorov S.A.***<br>Yozuvni o‘rgatishning zamonaviy tendensiyalari: janr tushunchasi va janrga asoslangan yondashuvning pedagogik ahamiyati ……………… | 359 |
| 59 | ***Akbarov R.M.***<br>Shoir, alloma va musofir: Asiriddin Axsikatiy siymosi ………………. | 363 |
| 60 | ***Jamoliddinov T.N.***<br>1920-1930 yillar O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy ishlar masalasi haqida ………………………………………………………… | 369 |